

TASVIRIY SAN'AT VA QO'L MEHNATIGA O'QITISH MAXSUS METODIKASI



TOSHKENT

0'z
40(07)
T-85
A ✓

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TASVIRIY SAN'AT VA QO'L
MEHNATIGA O'QITISH MAXSUS
METODIKASI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*



TOSHKENT – 2018

UO'K: 74/76.02(075.8)

KBK 85.12r

T 25

Tasviriy san'at va qo'l mehnatiga o'qitish maxsus metodikasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2018, 256 bet.

ISBN 978-9943-11-886-7

Ushbu o'quv qo'llanma "Tasviriy san'at va qo'l mehnatini o'qitish maxsus metodikasi" fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, oliv ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchilari uchun tavsiya etiladi. Shu bilan birga, mazkur o'quv qo'llanmadan ilmiy taddiqotchilar hamda maxsus metodika, xususan, tasviriy san'at va qo'l mehnatini o'qitish maxsus metodikasi bilan qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Данное учебное пособие создано по дисциплине «Специальная методика обучения изобразительного искусства и ручного труда» и рекомендуется для профессорско-преподавательского состава высшего учебного заведения. Кроме того, данным учебным пособием могут пользоваться научные соискатели, а также интересующиеся дисциплиной «Специальная методика обучения изобразительного искусства и ручного труда».

The given manual is created in a subject «the Special technique of training of the fine arts and manual skills» and it is recommended for professors-teachers of a higher educational institution. Besides given educational can use the grant scientific competitors, and also the interested a subject «the Special technique of training of the fine arts and manual skills».

Mualliflar:

N.Yu.Yusupova, M.U.Hamidova,
N.Q.Abidova, M.Yu.Pardayeva

Taqrizchilar:

Z.M.Axmedova – p.f.n., dotsent;
D.A.Nazarova – p.f.n., dotsent.

ISBN 978-9943-11-886-7

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018.

SO'Z BOSHI

Tasviriy san'atni o'qitish va qo'l mehnatiga o'rgatish maxsus metodikasi fanining asosiy maqsadi, defektologlarni rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni, tasviriy san'at va predmet amaliy ta'lif darslari va tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish bilan tanishtirishdan iborat.

Tasviriy san'atni o'qitish va qo'l mehnatiga o'rgatish maxsus metodikasi rasm texnikasi, metodikasi bilan tanishtirish, rang – tasvir, tasviriy san'at darslari va tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining ta'limi – tarbiyaviy, korreksion, rivojlantiruvchi ahamiyati haqida tushunchalar berishni nazarda tutadi. Tasviriy san'atga o'qitish maxsus metodikasi, talabalarni rasm chizish, applikatsiya metodikasi bilan tanishtirish, rasm chizish orqali talabalarda estetik did, go'zallikni his qila bilish, tevarak – atrofdagi narsa va hodisalarining shakli va rangidagi turli – tumanlikni ko'ra bilish va ajratishga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

KIRISH

O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish ta'lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta'minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chihishga erishish, yosh avlodga ta'lim - tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta'lim tarbiyaning mohiyati, mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maxsus maktab va maktabgacha tarbiya tizimini xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir. Qo'llanma «Kadrlar tayyorlash milliy darsturi», «Ta'lim to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tarbiyani, ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida yuksak siyosiy hayotga mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarni yangi avlodni shakllantirshga yo'naltirilgandir.

Ushbu qo'llanma maxsus maktab va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning estetik tarbiyasi, mehnat malakalarini, estetik tasavvurlarining shakllanishini va bolalar ijodkorligining rivojlanishini ko'zda tutadi. Qo'llanma tasviriy faoliyat jarayonida bolalarning badiiy ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish mezon, tamoyillari bilan maxsus maktab va maktabgacha ta'lim muassasida rasm chizish, loydan narsa yasash, qirqib yelimlash, qurish-yasashga o'qitish vazifalari, mazmuni, uslubiyoti bilan tanishtiriladi. Qo'llanmada bolalarni tasviriy faoliyatga o'qitish borasida o'tidaligan mashg'ulotlarning namunaviy ishlanmalari ham o'z o'rmini topgan. Talabalarni tanlagan kasblariga qiziqishlarini uyg'otish, olgan bilimlarini rivojlantirish, tasviriy faoliyat orqali olgan ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgandir.

I BO'LIM. TASVIRIY SAN'ATGA O'QITISH MAXSUS METODIKASI

I BOB. TASVIRIY SAN'AT MAXSUS MUASSASALARIDA FAN SIFATIDA

1.1. Tasviriy san'atga o'qitish maxsus metodikasi fanining tarkibi va umumiy masalalari

Tasviriy san'at maxsus metodikasining maqsadi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni san'atga jalg etish va rassomchilik qobiliyatlarni rivojlantirishdir.

Tasviriy san'atni o'qitish maxsus metodikasi fanining vazifalari:

1. Bilish faoliyatini shakllantirish. Tassavur qila olishga o'rnatish, ko'ruv va harakat (mayda qo'l motorikasi) orqali sezishga o'rnatish, og'zaki nutq orqali tushuntirib berishga o'rnatish.
2. Estetik tarbiyasini shakllantirish. San'atga bo'lgan muhabbatini, yangiliklarni kuzatishga yo'naltirish.
3. Olgan bilimlarini va yangiliklarni to'g'ri tasvirlab berishga o'rnatish.

Tasviriy san'at maxsus metodikasining asosiy vazifalaridan biri rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini rivojlanishdir.

O'qituvchi bolalarga atrof - olamni, predmetni, uning mohiyatini idrok qilishga o'rgatadi. Ko'ruv analizatori orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilish jarayonlarini rivojlantirib, bunda boshqa sog'lom analizatorlar ham ishtirok etadi va rivojlanadi: teri harakat analizatorlari, mayda qo'l motorikasi orqali ham o'quvchilar idrok qiladilar. Tasviriy faoliyatda idrok qilingan materialni oldin og'zaki nutq orqali bayon etishlari so'raladi, so'ngra chizish orqali qanchalik to'g'ri idrok qilganliklarini bilish mumkin.

Bolalarning rivojlanishida tafakkurning faol ishtirokisiz, idroki, tasavvuri va boshqa bilish jarayonlari rivojlanmaydi. O'quvchi tasviriy faoliyatda bir qator intellektual operatsiyalarni bajarishga

majbur. Idrok etilgan obyektni fikrlash, chizmani ketma-ketlik bilan bajarish, obyekt bilan chizmani (rasmni) taqqoslash, rasm qismlarini solishtirish. Vazifani to‘g‘ri bajarish uchun bir qator aqliy harakatlar bajariladi: analiz, sintez, rejalashtirish, solishtirish va boshqalar. O‘quvchilar taqqoslash jarayonida tayyor bo‘lgan obyektning umumiy hajmiga va rangiga ahamiyat berishadi.

Tasviriy faoliyat jarayonida rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar diqqatini to‘plash, tarbiyalashda turli tuman ko‘rgazmali qurollardan keng foydalanish ijobiy natijalarni beradi.

Nuqsonli bolalar asosiy bilimlarini aynan sezgilar orqali oладilar. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar, asosan ko‘rvu analizatorlari orqali bilimlarga ega bo‘ladilar. Ko‘rish sevgisi bu toifa bolallarda bilim egallashning shaxs sifatida shakllanishlarida muhim o‘rin egallaydi.

Tasviriy faoliyat jarayonida teri-taktil, tuyush sezgilar kar va ko‘r bolalar uchun bilim olishlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

E.P.Neymanning e’tirof etishicha, karlik bilan tebranish sezgiları orasida uzviy bog‘liqlik mavjud ekan. Maxsus korreksion, kompensator imkoniyatlardan to‘la foydalanimasa, kar va eshitish qobiliyati pasaygan shaxslar sezgilarini, ular asosida idroklarini bir müncha rivojlantirish mumkin emas.

Idrok etishda paypaslash sezgisida alohida ahamiyat kasb etadi. U kompleks xarakterga ega bo‘lib, paypaslash sezgisi, odam biror predmetni qo‘l harakati yordamida ohista tegib ko‘rishidan hosil bo‘ladi. Paypaslash yordamida predmetning ko‘pgina xususiyatlari his etiladi, uning shakli, hajmi, material xususiyati (yumshoq, qattiq, o‘tkir, tekis,...) qo‘l teri sezgisi natijasida predmet qiyofasi hosil bo‘ladi, bola predmetni to‘liq bilib oladi. Shunday qilib idrok – bu bilishimizning shunday shakliki, u borliqdagi ko‘plab, xilma-xil predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo‘lgan obyektni xossa va xususiyatlari bilan yaxlit, bir butun tarzda aks ettirishimizni ta‘minlaydi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar sensor tarbiyasida rang, kattalik munosabatlarini o‘rgatish katta o‘rin egallaydi. Predmet va hodisalarini idrok etishda bolalar predmetni boshqasiga ko‘ra kattaligini yoki kichikligini bilishlari kerak. Atrofdagi predmet va hodisalarini idrok etishda bolalarda qog‘ozning o‘ng, chap, yuqori va pastki to-

monlarini bilishlari kerak. Bolalar qog'ozda real muhitni aks etti-rishni tasavvur eta olishlari kerak. ENB (eshitishda nuqsoni bo'lgan) bolalarda qog'ozdan to'g'ri foydalanish malakasi shakllangan bo'lsa bolalar predmetlar joylashuvini to'g'ri aks ettiradilar. O'quvchilar predmetni kuzatish jarayonida tasavvurga ega bo'ladilar, eslab qolishga, shaklini katta-kichikligini, rangini, fazodagi joylashuvini bilishlarini o'quvchilar kabi tasavvurga asta-sekin dars davomida ega bo'ladilar.

Bolalar kattalarning qo'llari bilan bajarilgan predmetlarni idrok qilib va chizish orqali tasvirlab ko'rsatib bera olishga o'rgatish juda zarur. Ta'lim jarayonida o'quvchilar kuzatishga, qo'l harakati bilan sezishga o'rgatish alohida ahamiyatga ega. Birinchi marta o'qituvchi bilan birgalikda predmetni qo'l sezgisi orqali kuzatiladi, bunda bolalar predmet haqida alohida tasavvurga ega bo'ladilar. Qo'l bilan ushlab ko'rib kuzatish bolalarda qiziqish va yengillik tug'diradi. O'quvchilar konturni qo'l bilan kuzatayotganlarida qo'l harakati bilan birgalikda ko'rav analizatori ham ishtirok etadi. Bunday kuzatish o'quvchilarning idrokini rivojlantirish bilan birga ko'rav harakat, sezish jarayonlari rivojlanadi va grafik obrazlariga ega bo'ladilar.

Tasavvur – bu oliy bilish jarayonidir. Tasavvur real olamdagи narsalarni qayta tiklangan obrazidir. Har bir tasavvur asosida ilgarigi sezgi va idrokning qayta tiklanishi yotadi. Predmet narsa hodisalarini qabul qilayotgan odam predmetning tuzilishi tasavvuriga ega bo'ladi, shu vaqtida bizning analizatorimizga ta'sir etayotgan obyekt obrazlari paydo bo'ladi. Bunday obrazlarni tasavvur obrazlari deyiladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar tasavvurining o'ziga xos xususiyati ularning nutqini sust shakllanishi va abstrakt tafakkuri bilan belgilanadi.

Chizish jarayonida predmetni kuzatib chihishda tasavvurga ega bo'lish, esda olib qolish, shaklini, katta-kichikligini, rangini, fazodagi joylashuvini bilishlarini o'quvchilar dars davomida asta-sekin egallaydilar. Dars davomida o'quvchilar predmetni kuzatishga qo'l harakati bilan tekshirishga (sezishga) o'rgatish alohida ahamiyatga ega. qo'l bilan ushlab korib sezish orqali kuzatish bolalarda qiziqish va yengillik tug'diradi. O'quvchilar konturni qo'l teri sezgisi bilan kuzatganlarida qo'l harakati bilan birgalikda, ko'rav analizatori ham

ishtirok etadi. Bunday kuzatish o'quvchilarning idrokini rivojlan-tirish bilan birga ko'ruv harakat sezish protsesslari rivojlanadi va predmetning grafik obraziga ega bo'ladilar. Tasviriy faoliyatda o'quvchilarni rivojlanishida asosan tushuna olishga o'rgatiladi, masalan: katta-kichikligini, rangini, fazodagi joylashuvini bilishlari kerak. Bolalar shuni tushuna olishlari kerakki qanday predmet, qaysi biri katta, qaysi biri kichkina, ikki predmetning joylashuv holatini aytib bera olishi ya'ni biri yuqorida, biri pastda, o'ngda, chapda, rangi ochroq, rangi to'qroq. O'quvchilar to'g'ri tushunib to'g'ri idrok qila olganlaridagina yuqoridagi tushunchalarga ega bo'ladilar.

Tasviriy san'at ENB o'quvchilarni tasavvur qilish orqali rasm chizishga o'rgatiladi, lekin bunday bolalarni tasavvur qilish har xil kechadi. Masalan: biror bir predmet dastlab chizilgan bo'lsa, bola keyin predmetning o'zini tasavvur qilmasdan, chizgan rasmini grafik obrazini tasavvur qiladi. Tasavvur qilishning yana bir shakli predmetni yozma ravishda tushuntirilsa o'quvchilar qanday tushunsalar, shunday tasavvur qiladilar. O'quvchilarning tasavvurini shakllantirish bizning oldimizga darsning yangi shaklini qo'yadi, ya'ni matn boyicha rasm chizish. Tasavvur qilish jarayonida bir tomonidan ENB bolalarni nutq boyliklarini faollashtiriladi. Ikkinci tomonidan qanchalik nutq boyligiga ega ekanliklari va qanday talaffuz etayotganliklari nazorat qilinadi.

Aqli zaif o'quvchilar ta'limining biri bo'lgan tasviriy faoliyatida ularni "intizomlilikka, shaxsiy xususiyatlari uyg'un rivojlanishga imkoniyat yaratiladi".

Tasviriy san'atda o'quvchidan o'z qobiliyatini har taraflama ko'rsatishga harakat qilishini talab etiladi. Biror bir predmetni chizishdan oldin, uni yaxshilab kuzatib, ko'rib chiqiladi. Bundan tash-qari shaklini, tuzilishini, rangini fazoviy joylashuvini aniqlanadi. Chizishdan oldin obyektni diqqat bilan kuzatib o'xhash tomonlarini ko'rsatib berishlari so'raladi. O'quvchilarni maqsadli rasm chizishga yo'naltirganda o'xhash, katta-kichik, har-xil, predmetni bo'lalarini, oldingi chizgan rasmlariga solishtirganda nisbatan yaxshiroq chiza boshlaydilar.

Rasm chizishda bolalarda analiz sintez fikrlash funksiyalarining rivojlanishiga imkoniyat tug'diriladi.

Atoqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy aqli zaif o'quvchilarni o'qitishda shunday talab qo'ygan. Mavhum - abstrakt so'zlarni, ya'ni tushunchalarni, tanish so'zlarga tayangan holda bevosita ta'lim berish zarurdir. Bolaning tafakkurini rivojlantirish uchun avvalom bor, kuzatish qobiliyatini shakllantirish lozim. "Chizilayotgan narsaning shaklini, boyog'ini, rangini, ovozini, sezish his qilish orqali fikrlash" didaktikaning asosiy talabidir.

Aqli zaif bolalarni bilish faoliyati qo'pol ravishda buzilganligi kuzatiladi. Bundan tashqari idroki, hissiyoti, tasavvurining o'ziga xos kamchiliklari kuzatiladi.

Aqli zaif bolalarni to'g'ri rivojlantirishga yo'naltirish fanlarni deferensial idrok etishi, yordamchi maktab oldiga qo'yilgan muhim vazifadir.

Ko'rgazmali qurollar, predmetlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish bolalarni sensor tarbiyasini tarbiyalaydi. Aqli zaif bolalarni o'qitish jarayonida o'ziga xos xususiyatlarini, kamchiliklarni bartaraf etish mumkin. Sensor tarbiyasini rivojlantirishga tasviriy faoliyat mashg'ulotlari va tasviriy san'at darslari samarali natija beradi. Tasviriy faoliyat ijod qilishga sharoit yaratadi, obyektning katta - kichikligi, rangi, shakli, fazoviy joylashishini o'quvchi taqqoslab ko'rib idrok etadi. Bunda ko'rav analizatori mayda qo'l muskullari (motorikasi) sezgi analizatorlari ishtirot etadi. Dars davomida o'quvchilarining rasm chizish qobiliyatlari rivojlanib aniq, ravshan, konkret to'liq chiza boshlaydilar. Tasviriy san'at darslari to'g'ri tashkil etilsa, o'quvchilarining tasavvuri, ko'rav xotirasi, fantaziysi rivojlanadi. Ta'lim jarayonida ularning ko'pgina tasavvuridagi bilimlarini o'zlashtirishga aniqlik kiritiladi. Shuningdek, o'rab turgan atrof olam haqida yanada keng bilimga ega bo'ladilar. Shuni ham aytib o'tish kerakki mo'ljal olish va mo'ljal olish tasavvurlari ham rivojlanadi.

Ko'pgina boshlanqich sinf o'quvchilarining koordinatsion harakati, barmoq muskullari, qo'l panjalari harakati yaxshi rivojlanmaygan bo'ladi. Maxsus mashqlar yordamida qo'l harakatlari, koordinatsiya harakatlari, qo'l barmoqlarining bukiluvchanligi to'g'rulanadi.

Aqli zaif bolalarda harakat sifatlari ko'rav sezgisi, kinetik sezgi idrok orqali qanchalik nuqsonlar erta bartaraf etilsa, yozuvlari va rasm chizishlari yuqori bo'ladi. Sinfda har xil guruqdagi oligofren

bolalar bo‘ladi, ayrimlari o‘qituvchiga oson boysunadilar, ayrimlari ta’sirchan, etganni qilmaydigan, turli xil faoliyatga jalb etish qiyin, xarakteri oqir bolalar ham bo‘ladi, bunday bolalarga individual yondoshib fanga qiziqtirib boriladi.

Tasviriy faoliyatda mustaqillik, qat’iylik xislari ham rivojlanadi. Aqli zaif o‘quvchilarni tasviriy faoliyatda ijobjiy (samarali) natija-larga erishish uchun pedagogik-psixologik sharoit yaratilishi lozim.

Bolalarni tasviriy faoliyatda bir qator estetik asarlarni idrok etishlarini rivojlantirish muhimdir. Idrok etish predmetni analiz va sintez qilishni talab etadi. Bularni bolalar mustaqil o‘zlashtira olmaydilar.

Idrok etish bosqichlarini tashkil qilish ;

-predmetni yaxlitligicha idrok etish;

-analiz qilib ko‘rib chiqish;

-predmetni tuzilishini, yirik va mayda qismlarini o‘zaro munosabatlarini aniqlash;

-rangini ajratib ko‘rsatish;

-predmetni yana yaxlitligicha ko‘rib chihish.

Estetik tarbiya – bu bolalarni voqealikdagi, san’atdagi, tabiat-dagi kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmush-dagi go‘zallikka munosabatini idrok qilish hamda to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘sirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyqotish va hayotga go‘zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Insonda go‘zallikni tushunish birdaniga vujudga kelmaydi, balki u jamiyat va odamlar, atrof muhit ta’sirida shakllanib boradi.

Shunga ko‘ra, insoniyatning badiiy rivojlanish qonuniyatları ijtimoiy rivojlanish qonunları bilan bog‘langan. Estetik tarbiya eng avvalo har bir kishida badiiy hissiyot tuyg‘ularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Shaxsning barkamol bo‘lib shakllanishida, aql bilan hissiyotni tarbiyalash, yanada aniqroq qilib aytganda, hissiyot vositi bilan aqlni tarbiyalashdir. Estetik, ya’ni go‘zallik tarbiyasini singdirishning ahamiyati katta. Bunday tarbiya, avvalo yoshlarni turmushdagi go‘zallik va xunuklikni tushunish, his etish orqali ma’lum bir kayfiyatni shakllantiradi, ularda go‘zallikdan bahra olishni shakllantiradi.

Estetik his-tuyg‘u, estetik madaniyatni shakllantirishdir. Estetik tarbiya shunday katta kuchga egaki, san’at asaridagi tasvirlangan

sujet, hodisa bolaning, idrok etuvchining tasavvurida, hayolida, kechinmalarida, estetik hissiyotida qayta ishlanib uning o‘z tajribasiga aylanadi, yangi hissiyotlarni yangi insoniy munosabatlarni vujudga keltiradi. Bolalar rasm chizish jarayonida estetik, aqliy-xissiy va madaniy-ma’naviy rivojlanishida katta o‘zgarishlar yuz beradi.

Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar mакtabida estetik tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishning aniq vazifalari mavjud, bolalarni zehnli, estetik xis rassomchilik qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy malakalarini rivojlantirishdir.

Estetik tarbiyaning birinchi vazifasi shundan iboratki kar va zaif eshituvchi bolalarni zehnli, go‘zallikni ko‘ra bilishi va tushunishi, xursandchilikni xis qila bilishi kerak. Tekshirishlar shuni ko‘rsatdiki, kar va zaif eshituvchi bolalar eshituvchi bolalar kabi, maktabgacha davrdanoq yorqin chiroyli o‘yinchoqlarga, rasmlarga intiladilar.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni nutqi lug‘ati kambag‘alligi tufayli, idrok qilishlari qiyinlashadi.

Estetik tarbiyaning ikkinchi vazifasi- estetik did, estetik baho bera olishni o‘rgatishdir, bu vazifada eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni asosan nutqi va fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi. Bolalar og‘zaki nutq asosida o‘z fikrlarini bayon qila olishlari kerak. Lug‘atlari sust tushunarsiz, ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarning nutqi korreksiyalanadi. Didaktik, harakatli sujetli o‘yinlarda ham bolalarning nutqi rivojlantiriladi.

Estetik tarbiyaning uchinchi vazifasi bolalarni ijodiy qobiliyatini rivojlantirishdir. Maktabgacha tarbiya muassasasida har xil qobiliyatga ega bo‘lgan bolalar uchraydi. Ayrim bolalar chiroyli chizadilar, ayrimlari esa yasash qobiliyatiga ega. Kar va zaif eshituvchi bolalarni qanchalik erta san‘atning biror bir turiga qiziqtira olsak, bolaning estetik tarbiyasi, idroki rivojlanadi. ENB bolalar tasviriy faoliyat jarayonida ularni rasm chizishga qiziqtirish va ularning ijod bilan shug‘ullanishlari quyidagi samarasini beradi.

San‘atning rasm chizish turi bilan shug‘ullanish bolalarni atrof-olamga, insonning ijtimoiy hayotiga, o‘simliklar va hayvonot olamiga qiziqishini kuchaytiradi, ular atrofdagi narsalarni diqqat bilan kuzatishni o‘rganadilar.

Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni estetik sezgisini, tuyg‘usini va estetik tarbiyasini yuqori darajali sur’atlar, portretlar, milliy o‘yinchoqlar, milliy naqshlar va boshqa san’at turlari bilan tanishtirmasdan shakllantirish mumkin emas.

Yuqori darajali rasmlarni qiziqish va diqqat bilan kuzatganlaridagina bolalar rasm chizish san’atiga qiziqish uyg‘onadi, rasm-larga bo‘lgan munosabatlari shakllanadi. Bolalar o‘zlarini chizgan rasmlariga ranglardan to‘g‘ri foydalana olishga o‘rganadilar, o‘quvchilar bir-birlarining chizgan rasmlariga baho berishlari kerak. Tasviriy faoliyatda o‘quvchilarning Vatanga bo‘lgan muqabbatini va milliy san’atga qiziqishlarini shakllantirib rivojlanтирiladi.

Tasviriy faoliyat darslarida o‘quvchilarni boshqa insonlar tomonidan chizilgan rasmlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga, muomala madaniyatiga ham o‘rgatilib boriladi.

Olgan bilim va yangiliklarni to‘g‘ri tasvirlab bera olishga o‘rgatish.

Tasviriy faoliyat darslarida tanishtirilayotgan yangiliklar, bilim va malakalar berilayotganda bilim berish va tasvirlab berish yuqori darajada bo‘lishi lozim. Yangilikni bilim va malakalarni shakllantirish uchun darsni o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tashkil qilish lozim. Ish qurollaridan to‘g‘ri foydalana olish (qaychi, bo‘yoq, qalam, qog‘oz...) ish materiallariga ehtiyyotkorlik bilan yondoshish (loy, plastilin, rangli qog‘oz, yelim....). Dars davomida lepka, aplikatsiya, konstruktsiyalash, predmetli, dekorativ rasm chizishda o‘qituvchi bolalarga bajarilayotgan vazifaning har bir etapini ko‘rsatib tushuntirib berishi lozim. Dars davomida har bir bolani nazorat qilib turishi lozim. O‘qituvchi vazifani bajarishda qiynalayotgan bolalarga yordam berishi kerak.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar tasviriy san’at darslarida tovush kuchaytiruvchi asboblardan foydalanish.

Kar bolalar mакtabida ham, zaif bolalar maktabida ham ras-somchilik san’ati mashg‘ulotlari eshitish-ko‘rish taassurotlari orqali olib boriladi. Tovush kuchaytiruvchi asboblar butun dars davomida ishlatalidi. ENB bolalarning eshitish imkoniyatlari turlichadir: ayrim bolalar so‘zlarni qulqoq oldidan eshitsalar, ayrimlari 0,5 metrdan, 1 metrdan eshitadi. Shuning uchun o‘qituvchi ommaviy ish yuritgandan keyin, har bir o‘quvchi bilan, eshitishni kuchaytiruvchi

asbobsiz, oldiga borib, shaxsiy ravishda ish olib boradi: topshiriqni qanday bajarish kerakligini tushuntiradi, ishini ma'qullaydi yoki kamchiliklarini ko'rsatadi, rasm chizish masalasiga doir talablarni tushungan yoki tushunmaganligiga e'tibor beradi.

O'qituvchi har bir o'quvchidan yangi so'z materialini to'g'ri taffuz etishni talab qiladi. Dars o'tishda qiyinchilikka duch kelganda imo-ishoralar ham ishlataladi. quyidagi tushunchalar shular jumlasidandir: "tikka", "qiya", "tor", "keng", "uzoq", "yaqin" va boshqalar.

Lekin, shuni ham aytib o'tish kerakki, ko'p hollarda (masalan, materiallarning nomi, o'quv qurollari, predmetlarning nomi, ras-somchilik harakatiga doir jismoniy harakatlar, fikr yuritish jarayonini belgilovchi so'zlar, predmetlarning sifatlariga tegishli bo'l-gan so'zlar), imo-ishora usulini ishlatish joiz emasdир, chunki bolalarda bunday moyillik paydo bo'lib, so'zlashish tajribalari va nutq rivojlanmay qoladi.

Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar tasviriy faoliyat jarayonida nutqini rivojlanitish.

Ma'lumki, nutq-odamlarning til vositasi bilan aloqa bog'lashlaridir. Odam nutq orqali munosabatga kirishib, o'zining bilimlarini faqat yakka tajriba hisobiga emas, balki juda ko'p avlod-ajdodlar tomonidan to'plangan ijtimoiy tarixiy tajriba hisobidan ham boyitadi. Nutq barcha aks ettirish jarayonlari kabi har bir odamning yakka hayoti davomida o'zlashtiriladi. Bola dastlabki nutqni egal-layotgan davrda uning nutqi tovushlarga bo'lgan reaksiyasi juda umumlashgan xarakterga ega bo'ladi. Bolani nutqi rivojlanayotganda, u atrofdagi odamlar muloqoti ta'siri ostida rivojlanib boradi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar nutqi, lug'at boyligi oshishida va rivojlanishida bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. ENB bolalar eshitish analizatori turqun pasayganligi tufayli ularning r'ada ko'pgina kamchiliklar kuzatiladi, lug'atining kambaqa grammatik komponent rivojlanmagan, gap ichida so'z ketishi, so'zlardagi tovushlarni tushirib talaffuz o'zaro bog'lay olmaslik, kelishik, so'z yasovchi' tiruvchi qo'shimchalarni ishlata olmaslik, jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtir.

ENB bolalar maktabida ta'lim tizir
birini yuqoridagi kamchiliklarni

muloqot quroli sifatida shakllantirishdir. Nutqini shakllantirish va nutqini logik idrok eta olishni faqatgina nutq o'stirish darslarida emas, balki har bir darslarda, to'garaklarda lug'at boyligi oshirib boriladi.

Birinchi sinfda o'quvchilarga qoyiladigan talab, nutqiy materialni og'zaki daktilda talaffuz qilish orqali lug'at boyligi oshiriladi.

Muloqot malakasini hosil qilish asta-sekin nutq materialini atrofdagi odamlar bilan o'zaro bir-birlarini tushunish uchun zarur. Har bir chorak uchun mavzudan kelib chiqqan holda nutqiy material beriladi.

S.A.Zikovning ta'kidlashicha, kar bolalarni tilga o'rgatish ishining maqsadga muvofiq sistemasini kommunikativ funktsiyasini amalga oshirish kerakdir. Bunda har bir yil uchun tuzilgan reja, dastur o'quvchilarining nutq egallashlariga amal qilgan holda o'zlashtiriladi. Har bir so'z va so'z birikmasi o'zida kommunikativlik ma'suliyatini olgan bo'ladi.

Surdopedagog o'quv jarayoniga asosiy ta'sir etuvchi shaxsdir, u o'qitishning har bir bosqichida dastur talabiga asoslangan holda o'quv jarayonlarini tashkil etadi. Ularga rahbarlik qiladi.

Sog'lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalar nutqini egallahshni, o'z atrofdagi odamlarga taqlid qilishdan boshlaydilar. Kar bolalarni taqlidi nutq organlarini harakatini ko'rish orqali egallashlariga asoslanadi. Zaif eshituvchi bolalarni nutqga o'rgatishda ularning atrofdagilardan eshitgan so'zlaridan foydalanadilar. Shuning uchun surdopedagog o'zining nutqiga talabchan bo'lishi kerak. Lekin o'quvchilarining imkoniyatiga qarab so'zlarni qisqartirish, birlashtirish mumkin emas. Bu talablar nutqiy malakani oshirishning hamma turlari uchun qo'llaniladi. Tasviriy faoliyat darslarida kar va zaif eshituvchi o'quvchilar qanday faoliyatga kirishsalar, qanday predmetni chizishlari va qaysi o'quv qurollaridan foydalanish bosqichlari albatta surdopedagog tomonidan nutqiy boshqarilib boriladi. Har qanday faoliyat ENB bolalarni nutqini aktivlashtirish, shakllantirishga, lug'atini boyitishga qaratilgan.

O'qituvchi har bir dars uchun lug'at tanlashi kerak. Lug'at tuzishdan oldin o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarini eshitish darajasini hisobga olishi kerak.

Lug'at boyligini oshirish quyidagicha amalga oshiriladi.

Nutqni rivojlantirish surdopedagog tomonidan bolalarda predmetning katta-kichikligi, shakli tushunchalari shakllanadi. Tasviriy faoliyatda esa bolalar vazifani amaliy bajarib olingan tushunchalar kengaytiriladi, aniqlashtiriladi va mustahkamlanadi.

Har qanday faoliyat bolalar nutqini aktivlashtirishga, shakllantirishga, lug‘atni boyitishga va nutqini mustahkamlashga qaratilgan. O‘qituvchi har bir dars uchun to‘g‘ri lug‘at tanlashi kerak. Lug‘atga 4 qismdan iborat so‘z va iboralarini kiritish mumkin:

1) So‘z va ibora, bajarilayotgan ish faoliyatiga bog‘liq ishlatalidigan materialning nomi (loy, qog‘oz, bo‘yoq, yelim, ...) bajarilayotgan faoliyat (lepka, rasm chizish, bo‘yash, yopishtirish, shtrixlash, ...) ish qurollarining nomi (qalam, bo‘yoq qalam, qaychi, bolg‘a).

2) So‘z-predmetning nomi va iborasi, bolalar tasvirlayotgan predmet (shar, archa, qo‘qirchoq,)

3) So‘z va ibora, bolalarning idrok qilishlari uchun yo‘naltiligancha harakat (kuzatib chiq, barmog‘ing bilan aylantirib kuzatib chiq, paypaslab ko‘rib chiq)

4) So‘z va ibora, idrok qilish orqali mustahkamlash (rangning nomi, geometrik shakli, hajmini belgilab olish).

Birinchi gruppadagi so‘zlarni tasviriy faoliyatda sekin-asta o‘zlashtirib boriladi.

Ikkinci grupper so‘z (so‘z-predmetning nomi) – tartib boyicha bolalar topish. Tasviriy san‘at faoliyatida so‘zlar predmet bilan yangicha bog‘lanishi.

Uchinchi va to‘rtinchi guruhdagi so‘zlarga alohida ahamiyat beriladi. Bolalarning diqqatini predmetga va uning xususiyatiga qaratiladi. So‘ngra esa bolalar idrok qilgan obrazi mustahkamlanadi. Masalan: Tasviriy faoliyatda olma rasmini tasavvur orqali chizish jarayonida o‘qituvchi “Olma shar shakliga o‘xshaydi. Yuqorisida chuqurchasi bor, chuqurchasida dumchasi bor”. Aytilayotgan so‘zlar (наборный полотна) qo‘yiladigan cho‘ntakchaga qo‘yiladi. Mashg‘ulot uchun olingan lug‘at aniq ko‘rsatilishi lozim. Tasviriy faoliyatda foydalanan layotgan nutq materialining ko‘p qismi bolalarga tanish bo‘lishi lozim. O‘qitishning 1-2 yilda tartibli har bir mashg‘ulot ga ikkitadan ortiq yangi so‘z berish mumkin emas. O‘qitishning keyingi yillarida 3-4 tadan ortiq yangi so‘z berish mumkin emas.

Aqli zaif bolalar tasviriy faoliyatida o‘quvchilarning lug‘ati ortadi, nutqi aktivlashtiriladi. Aqli zaif bolalar shaxs sifatida shakllanishlarida nutqning rivojlanish ahamiyati katta. Shunday ekan yuqorida ayrib o‘tganimizdek, har bir faoliyatda bolalar nutqi rivojlantiriladi. Har bir tasviriy faoliyat darsida, chizishdan oldin mavzudan kelib chiqqan holda suhabat, savol javob o‘tkaziladi. O‘qituvchi sinfda bolalar soni kamligi tufayli, har bitta bola bilan og‘zaki muloqotga kirishish, imkoniyatiga ega. O‘quvchilar rasm chizishda analiz-sintez qilishga, rasmlarni ajratishga o‘rgatiladi. O‘quvchilar yuqorida, pastda, oldinda, orqada, uzun qisqa kabi tushunchalarga ega bo‘ladilar. Mavzudan kelib chiqqan holda har bir darsda yangi lug‘at va tushunchalarga ega bo‘ladilar. Chizish jarayonida ham, o‘qituvchi bolalarni savolga tutadi, sen nimani rasmini chizyapsan? Rangi qanaqa? Nimaga o‘xshaydi?... shu kabi savollar bilan murojaat etib, bolalarni og‘zaki nutqini tekshiradi va rivojlantiradi. Ayrim aqli zaif bolalar so‘zлari va gaplari bir-biriga bog‘lanmagan holda, so‘z yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi, kelishik qo‘sishchalarini tashlab gapirishadi, shunda o‘qituvchi bolalar nutqini to‘g‘rilab gapirishga, to‘liq gapirishga o‘rgatadi.

Tayanch tushunchalar: korreksiya, kompensatsiya, tasviriy faoliyat.

Savollar

1. Tasviriy faoliyat maxsus metodikasi vazifalari haqida gapiring.
2. Moslashuv san’ati mutaxassisini qanday tayyorlanadi.
3. Tovush kuchaytiruvchi asboblar nima uchun ishlataladi?
4. Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar tasviriy faoliyatida nutqini qanday rivojlantiriladi?

Adabiyotlar:

1. Н.А. Грицук, А.Р. Киселева” Преподавание изобразительного искусства в школе для детей с нарушениями слуха”. Учебное пособие Минск-2006. 14-58стр., 64-128 стр.

2. Головкина Т.Н.«Изобразительная деятельность учащихся вспомогательной школы».М.:“Педагогика”, 1997 г. 69-81стр.

1.2. Alovida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun tasviriy san’atning ahamiyati

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar - sensor organlarning orttirilgan yoki tug‘ma organik jarohatlanishi natijasida markaziy nerv sistemasi yoki harakat-tayanch apparati psixik funksiyalarning normal rivojlanishida kamchiliklarga ega bo‘lgan bolalar kiradi. Ba’zi hollarda rivojlanishdagi kamchiliklar markaziy nerv sistemasi yoki analizatorlardagi nuqsonlar bilan bog‘liq bo‘lmasdan, mikroijtimoiy muhit sabablari natijasida kelib chiqqan bo‘ladi. Bularga oiladagi tarbiya, ijtimoiy, emotsiyal muhitning yomonligini kiritishimiz mumkin. Hozirgi paytda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bir qancha kategoriyalarga ajratilgan:

- eshitish kamchiliklariga ega bolgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo‘lib qolgan bolalar);
- ko‘rish qobiliyati zaif (ko‘r, zaif ko‘rvuchi bolalar);
- aqli zaif-oligofren bolalar;
- og‘ir nutqiy nuqsonlari bor bolalar;
- harakat-tayanch a’zolarida kamchiliklari bo‘lgan bolalar;
- ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar;
- rivojlanishida murakkab ko‘p nuqsonli bolalar;
- autizm sindromli bolalar.

Ushbu nuqsonlarni bartaraf etishda korreksiya va kompensatsiya ishlari olib boriladi. Korreksiya – to‘g‘rilash degan ma’noni bildiradi. O‘quvchilarda mavjud bo‘lgan kamchiliklar ta’lim – tarbiya asosida olib boriladi.

Har bir bolaga tasviriy faoliyat yengil, tushunarlidir, bu esa uning xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Rasm chizishga doir jihozlar turlicha: qalam, bo‘yoq qalam, bo‘yoq, bo‘r, qog‘oz, hatto tayoqcha bilan ham qum ustiga rasm chizish mumkin. Yana tasvirni soxtalashtirgan hajmdan tayyorlash usullari bilan, odamlar qadimda loydan idishlar, taqinchoqlar, odam va hayvon shakllarini yasashgan. Bundan tashqari tasviriy faoliyatlari o‘zini namoyon



etishidagi eng qulay vositalardan biridir. Tasviriy faoliyatning yana bir e'tiborga molik xususiyati shundaki, u insonni mehnatga yo'naltiradi. Rasm chizish jarayonida yoki boshqa tasviriy faoliyatlarda esa nafaqat inson a'zolari balki yordamchi vositalardan – rasm uchun materiallar yoki o'lcham buyumlari, ish qurollari hamda asboblardan foydalaniladi. Masalan, loy yoki plastilinga tayoqcha yordamida kerakli shaklni berish, bo'yoqli cho'tkada bo'yash, qaychi yordamida qog'ozni qirqish. Bu material va qurollar turli murakkab ishlarga vositachilik vazifasini o'taydi, shuning uchun bolalarni tasviriy faoliyat darsida texnik malakalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zarur harakat va amallarni o'zlashtirilishi (ayniqsa umumiy va mayda harakatlar) – eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning umumiy rivojlanishidagi muhim vosita bo'lib, u hayotda kerak bo'ladigan onglilik, ziyraklilik hamda yaratuvchanlik kabi sifatlarini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilarining kuzatishlaricha bola qanchalik qo'l bilan nozik harakat qilsa, ayniqsa barmoqlar bilan, uning nutqi va tafakkuri shuncha tez va yaxshi rivojlanar ekan. Ma'lumki tasviriy faoliyat kinestetik sezish va barmoqlarning nozik harakati ko'rugharakat koordinatsiyasi mexanizmi bilan uzviy bog'liq. Tasviriy faoliyat mashg'uloti bolada chizish, bo'yash, kesilgan qog'oz parchalari, gazlamalardan applikatsiyalar, tayoqchalar va sim bo'laklari hamda boshqa materiallar yordamida keng va turli obrazlarni amalga oshirishga imkon yaratadi. Bunda qo'lning mayda muskullarining aniq harakati muntazam mashq asosida rivojlanib boradi. Shu bilan birga tasviriy faoliyat mashg'uloti bolalardan intizomlilik va tashkilotchilikni, jarayonni va uni bajarish ketma-ketligini mahorat bilan rejalashtirishni talab etadi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarda kuzatish ko'nikmasi shakllanadi, ta'svirlanadigan obyektni tekshirish usullari takomillashtiriladi. Maktabgacha yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus idrok ko'nikmalarini predmetlarni yaxlit ko'ra olish, predmetning umumiy shakli, proporsiyalari, qismlarini taqqoslay olish, fazodagi joylashuvini aniqlash, yorug'lik munosabatlarini topish va boshqa belgilarini aniqlash uchun zarur bo'lgan uni xususiyatlari birligini ko'ra olish malakalarini egallaydilar.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarda atrof-olamdag'i predmet va hodisalar haqida aniq va yaxlit tasavvurlarnini shakllantirishga yordam beradi, predmetlarni tasvirlash ongda predmetlarning mavjud belgi, shakli, hajmi, fazodagi holati va boshqa belgilarini aniq ajratishni talab etadi. Bolalar nafaqat ko'rganlarini aks ettiradilar, balki haqiqiy hayot hodisalari va predmetlar asosida olgan taassurotlarini rasmlarda, yasash kompozitsiyalarida, yangi aplikatsiyalarida yangi asarlarda aks ettiradilar. Bular tasavvur faoliyati yordamida amalga oshiriladi, uning asosini tasavvurni qayta ishlash va o'zgartirish malakasi tashkil etadi. Tasviriy faoliyat badiiy mashg'ulotning bir turi bo'lib, bunda bola reproduktiv faoliyat bilan shug'ullanmasdan, balki o'zi ijod qiladi.

A.A.Venger ta'kidlashicha rasm chizish – bu ijodiy mehnat bo'lib, bolani fikrlash va tahlil qilishga, o'lchab ko'rish va solishtirishga, yaratish va tasavvur qilishga o'rgatadi. Tasviriy faoliyat kichik mакtab yoshidagi eshitishda nuqsoni bo'lganlarni aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sensor rivojlanish – bu aqliy faoliyatning poydevori bo'lib, butun mакtab yillari davomida ko'rgazma-obrazli va ko'rgazma-harakatli tafakkur nafaqat bilishning tushuncha va kategorial shakli sifatida ishtirot etishi kerak, balki ular o'zaro uzviy aloqada bo'lishi lozim. Ma'lumki, buyuk olimlarning ijodida texnika va ishlab chiqarish ongning aqliy va badiiy shakllari bilan muvaffaqiyatli moslashtirilgan.

V.A.Favorskiy ta'kidlaganidek tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarda ko'rgazmali-amaliy faoliyatda barcha fikrlash operatsiyalari takomillashadi. Tasvirlanadigan obyektni tekshirib, ko'rib chiqishda chizuvchi ularning detallarini ajratib, tahlil qiladi, tasviriy tekislikda ushbu detallarni qabul qilib, ma'lum fazoviy qismlarni yaxlit bo'lgan munosabatlariiga qarab bir butunlikda birlashtiradi, sintez qiladi, obyektni alohida detallarini o'zaro munosabatini yaxlitligiga nisbatan ko'rib chiqadi, u predmetning umumiyl shakli va rangini ajratib fikran taqosslaydi, o'zining e'tiborini faqat shu ko'rileyotgan obyektga qaratadi, boshqa belgilarini mavxumlashtiladi, turli predmetlarning o'xshash xususiyatlari birlashtiriladi, bola ularni tasvirlashda umumlashgan usullarni ishlab chiqadi.

Ranglarni moslashtirish umumiyl bo'yoqni, rangini topish bularning hammasi umumlashtirish bilan bog'liq. Bu predmetni

ko‘pgina o‘xshash boshqa belgilaridan farqli o‘ziga xos belgisini topishni rasm chizuvchi tafakkurning aniqlashtirish operatsiyasiga asosan amalga oshiradi. Tasviriylar faoliyatda ko‘rish va harakat xotirasi ham yaxshi rivojlanadi, ularning o‘zaro aloqasi takomillashti, shuning uchun tasvirlash jarayonida nafaqat qabul qilishni, balki turli chiziqchalar va har xil yo‘nalishdagi chiziqchalarni o‘tkazishni bilish, mo‘yqalam bilan ishslash va boshqa harakatlarni egallashadi, ko‘z bilan ko‘rganlarini qo‘l orqali aks ettirishga o‘rgatiladi. Shuningdek, niimani ko‘rgani qanday tasvirlaganini eslab qolishi muhim, chunki bu predmet va uni tasvirlash haqidagi tasavvurlarni xotirada saqlab qoladi.

T.F.Gulbe aytib o‘tganidek tasviriylar faoliyat mashg‘ulotlari eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda og‘zaki nutq va uni eshituv - ko‘ruv idrokini shakllantirish va takomillashtirish imkoniyatini beradi. Rasm chizish jarayonida bolalar bo‘yoqlar bilan ishslash, applikatsiyalar yasashda badiiy materiallar va jihozlarning nomlari bilan tanishadilar (Masalan: Qalam, bo‘yoqlar, mo‘yqalam, qog‘oz, loy va rassomlarning bo‘yoq taxtachasi-palitra), bolalar tasvirlangan predmetlarning nomlarini hamda bu predmetlarning ba’zi qismlarini eslab qoladilar (Masalan: hayvonlarning boshi, tanasi, dumi, tishlari, barg, ildiz va boshqalar) tasviriylar faoliyatga bog‘liq amaliy harakatlarning nomlarini o‘zlashtirib oladilar (masalan, rasm chizmoq, tasvirlamoq, yopishtirmoq, bo‘yoq bilan ishslash va boshqalar) hamda fikrlash operatsiyalarini ifodalovchi so‘zlar, predmet belgilari, ularga taalluqli ranglar, materiallar, holatlarni (Masalan: ko‘rmoq, kuzatmoq, taqqoslamoq, umumlashtirmoq, farqlash) o‘zlashtiradilar.

Tasviriylar faoliyat mashg‘ulotlarida u yoki bu so‘zlar, tushunchalar ustida ishslash bilan birga ularda nutqning talaffuz tomonini takomillashtirishga katta ahamiyat beriladi. Tasviriylar faoliyat mashg‘ulotlari eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda eshitish qobiliyatini, go‘zallikni ko‘rish va xis qilishni, ajoyib, g‘aroyib narsalarni saqlab qolish va ko‘paytirish istaklarini rivojlantiradi.

Bolalar uchun tasviriylar faoliyat qandaydir hayotiy, noyob, yangi va ko‘pgina imkoniyatlarni o‘zida qamrab olgan jarayondir. Bu faoliyatda bolalar qayta aloqaga kirishish, shakllarning tashqi ko‘rinishini tasvirlash va tartibga solish, ranglarni ajrata olish, xis qilish, voqeani kuzatish hamda kompozitsiyalarni birlashtirish kabi

vaziyatlarga duch keladilar. Bolalar ish faoliyatida hayotiy tajribalariga aloqador ko'pgina turli elementlar va kechinmalar aks ettiriladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bolalikda orttirgan tajribasi qandaydir ma'noda universal xarakterga ega bo'ladi. Lekin shu vaqtning o'zida ko'pchilik biologik va ijtimoiy omillarga e'tibor berish kerak. Bolaning rivojlanishi irsiy, biologik nuqsonlarga qarab (kar yoki zaif eshituvchi), atrof-muhit, tarbiya jarayoni, madaniyat (din), ota-onalarining ijtimoiy-iqtisodiy holatiga bog'liqdir. Bolallarda tasviriy faoliyat jarayoniga yana quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: Bular, bola ijod qilayotgan sharoit, bolaning shaxsiy xususiyatlari, iste'dodi, motivatsiyasi, badiiy ijodiyotga qiziqishi, ish materiallari, bola bilan o'zaro munosabat jarayonida kattalarga bo'lgan ishonchi, xavfsizlik munosabatlarida ishonch tuyg'usi va boshqalar. Kattalar bolalarni tushunishi esa ulardagi ijod mahsulotlarini ijobiy tomonga o'zgartiradi, bolalar qiyinchilikka duch kelganlarida kattalar yordam beradilar, bolalarning nozikligini his etgan holda bola ijodining boshlanishini qo'llab-quvatlashga tayyor turadilar. Tasviriy faoliyati bolalarning eng sevimli mashg'u-lotlaridan biri hamda eshitishda nuqsoni bo'lgan bola uchun korreksion rivojlanishning ahamiyati katta.

Bu esa kichik maktabgacha yoshdagagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun tasviriy faoliyat mashg'u-lotlarining hamma imkoniyatlaridan foydalanish zarurligini aniqlaydi.

Tasviriy faoliyatning asosiy vazifalaridan biri eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bilish faoliyatini rivojlantirishdir. Surdopedagog bolalarga atrof olamni, predmetni uning mohiyatini idrok qilishga o'rgatadi. Tasviriy faoliyatda idrok qilingan materialni oldin og'zaki nutq orqali bayon etishlarini so'raladi, so'ngra chizish orqali qanchalik to'g'ri idrok qilganliklarini bilish mumkin.

Bolalarning rivojlanishida tafakkurning faol ishtirokisiz, idroki, tasavvuri va boshqa bilish jarayonlari rivojlanmaydi. Bolalar tasviriy faoliyatda bir qator intellektual operatsiyalarni bajarishga majbur. Idrok etilgan obyektni fikrlash, chizmani ketma-ketlik bilan bajarish, obyekt bilan chizmani (rasmni) taqqoslash, rasm qismlarini solishtirish. Vazifani to'g'ri bajarish uchun bir qator aqliy harakatlar bajariladi analiz, sintez, rejalashtirish, solishtirish va boshqalar.

Bolalar taqqoslash jarayonida tayyor bo‘lgan obyektning umumiy hajmiga va rangiga ahamiyat berishadi.

Tasviriy faoliyat jarayonida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar diqqatini to‘plash, tarbiyalashda turli tuman ko‘rgazmali qurollardan keng foydalanish ijobiy natijalarni beradi.

Predmet va hodisalarini idrok etishda bolalar predmetni boshqasiga ko‘ra kattaligini yoki kichikligini bilishlari kerak. Atrofdagi predmet va hodisalarini idrok etishda bolalar qog‘ozning o‘ng, chap, yuqori va pastki tomonlarini bilishlari kerak. Bolalar qog‘ozda real muhitni aks ettirishni tasavvur eta olishlari kerak. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar qog‘ozdan to‘g‘ri foydalanish malakasi shakllangan bo‘lsa, bolalar predmetlar joylashuvini to‘g‘ri aks ettiradilar. Bolalar predmetni kuzatish jarayonida tasavvurga ega bo‘ladilar, eslab qolishga, formasini katta-kichikligini, rangini, fazodagi joylashuvini, tasavvurga asta-sekin mashg‘ulot davomida ega bo‘ladilar.

Bolalar kattalarning qo‘llari bilan bajarilgan predmetlarni idrok qilib va chizish orqali tasvirlab ko‘rsatib bera olishga o‘rgatish juda zarur. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi bilan birgalikda predmetni qo‘l sezgisi orqali kuzatiladi, bunda bolalar predmet haqida alohida tasavvurga ega bo‘ladilar. Qo‘l bilan ushlab ko‘rib kuzatish bolalarda qiziqish va yengillik tug‘diradi. Bolalar konturni qo‘l bilan kuzatayotganlarida qo‘l harakati bilan birgalikda ko‘rvu analizatori ham ishtirop etadi. Bunday kuzatish o‘quvchilarning idrokini rivojlantirish bilan birga ko‘rvu harakat, sezish protsesslari rivojlanadi va grafik obrazlarga ega bo‘ladilar.

Tasviriy faoliyatda boladan o‘z qobiliyatini har taraflama ko‘rsatisfishga harakat qilishini talab etiladi. Biror bir predmetni chizishdan oldin, uni yaxshilab kuzatib, ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari formasini, tuzilishini, rangini fazoviy joylashuvini aniqlanadi. Chizishdan oldin obyektni diqqat bilan kuzatib o‘xhash tomonlarini ko‘rsatib berishlarini so‘raladi. Bolalarni maqsadli rasm chizishga yo‘naltirganda o‘xhash katta-kichik, har xil, predmetni bo‘laklarini, oldingi chizgan rasmlariga solishtirganda nisbatan yaxshiroq chiza boshlaydilar. Rasm chizishda bolalarda analiz, sintez, fikrlash funksiyalarining rivojlanishiga imkoniyat tug‘diriladi.

Ko'rgazmali qurollar, predmetlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish bolalarni sensor tarbiyasini tarbiyalaydi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish jarayonida o'ziga xos xususiyatlarini, kamchiliklarni bartaraf etish mumkin. Sensor tarbiyasini rivojlantirishga tasviriy faoliyat darslari samarali natija beradi. Tasviriy faoliyat ijod qilishga sharoit yaratadi, obyektning katta-kichikligi, rangi, formasi, fazoviy joylashishini o'quvchi taqqoslab ko'rib idrok etadi. Bunda ko'rvuv analizatori, mayda qo'l muskullari (motorikasi), sezgi analizatorlari ishtirot etadi. Mashg'ulot davomida bolalarning rasm chizish qobiliyatları rivojlanib aniq, ravshan, konkret to'liq chiza boshlaydilar. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari to'g'ri tashkil etilsa, bolalarning tasavvuri, ko'rvuv xotirasi, fantaziysi rivojlanadi. Ta'lim jarayonida ularning ko'pgina tasavvuridagi bilimlarini o'zlashtirishga aniqlik kiritiladi. Shuningdek o'rab turgan atrof olam haqida yanada keng bilimga ega bo'ladilar. Shuni ham aytib o'tish kerakki, mo'ljal olish tasavvurlari ham rivojlanadi.

Rasm darslarida quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

- rasm chizishga o'quvchilarda qiziqish uyqotish.
- rasm chizish, yopishtirish (aplikatsiya), yasash, ko'rish haqida tushuncha berish.

-rasmni predmet bilan solishtirishga o'rgatish.

-o'quvchilarga rang, tasvir, shakl, kattalik, fazoviy joylashish haqida tushuncha berish va ularni tasvirga tushirishga o'rgatish.

-qo'l motorikasini va harakat - ko'rish kordinatsiyalarini rivojlantirish.

Rasm chizishda o'quvchilarni analiz-sintez qilishga, ranglarni ajratishga o'rgatiladi. O'quvchilar yuqorida, pastda, oldinda, orqada kabi tushunchalarga ega bo'ladilar.

O'quvchilar bilan rasm darslarida individual hamda kollektiv bo'lib rasm chizish turlari olib boriladi.

Rasm darslarida bolalarning estetik didlari rivojlantiriladi, shuningdek rasm chizishda ketma-ketlikka rioya qilish o'rgatib boriladi.

Rasm chizishni sistemali olib borishda propedevtik – tayyorlov etapining ahamiyati katta. Propedevtik davrning asosiy vazifasi o'qituvchi har bir o'quvchining qobiliyatini va bilish faoliyatini o'rganishdan boshlanadi, chunki rivojlanish nuqsonlari bor

bolalarda rivojlanish kompleks buzilgan bo‘ladi. Tayyorlov etapi planli ishni o‘z ichiga oladi. Bu etapning asosiy maqsadi-sezgilarni shakllantirish va boyitishdir. Ayniqsa quyi sinflarda sensorikani rivojlantirib borish kerak, chunki ko‘pincha rivojlanish nuqsonlari bor bolalar maktabga uydan keladilar. Masalan, hamma o‘quvchilar ham shakl, katta – kichik, fazoviy joylashish haqida tushunchaga ega bo‘lmaydilar.

Sensor rivojlanishni to‘g‘ri tarbiyalash o‘yin, mehnat va kundalik faoliyatda amalga oshirib boriladi. Bolalar predmetlarni qo‘llari bilan ushlab ko‘radilar, ranglarini ajratadilar. Bu ish faoliyatlariga rasm chizish ham kiradi. Har bir oddiy predmetni chizishdan oldin, bolalarda diqqatni, ko‘rish, taktik va harakat protsesslarini rivojlantirish uchun tayyorlov etapi olib boriladi. Asosiy vazifa harakatning nutq bilan birga olib borishiga qaratiladi. Korreksion maqsadda turli xil didaktik o‘yinchoqlar (piramidalar, matreshka, sharlar), qurilish konstrukturlar, didaktik o‘yinlardan (rangiga qarab tanla, “Geometrik loto”) foydalilanadi.

Rasm orqali olib boriladigan didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda mustaqillikni rivojlantirib boradi. O‘yin davomida korrektsiyaning asosiy mazmuni shundan iboratki, bunda o‘quvchi mustaqil harakat qiladi va oylaydi, qiyinchilik bo‘lganda o‘qituvchi yordam beradi. Bunda o‘quvchilar predmetlarni bir-biri bilan solishtiradilar, katta – kichikligini aniqlaydilar, ranglarni ajratadilar.

Propedevtik davrda o‘yinlarni tashkil etish quyidagilardan iborat:

1. Predmet nomini, kattaligini topishni ajratishga qaratilgan o‘yin va vazifalar;
2. Predmetlarning shaklini topishga, ajratishga, qaratilgan o‘yin va vazifalar;
3. Predmetlarning rangini topishga va ajratishga qaratilgan o‘yin va vazifalar;
4. Predmetlarning fazoviy joylashishini aniqlashga qaratilgan o‘yin va vazifalar;
5. Tasviriy san’at (faoliyat) jarayonida maxsus grafik topshiriq-larga alohida e’tibor berish kerak. Bu vazifalar o‘quvchilarda texnik bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Qo‘l harakatlarini rivojlantirish maqsadida gimnastik vazifalar ham bajariladi.

Masalan:

I. Predmetning kattaligini aniqlashga qaratilgan o‘yin va vazifalar;

O‘qituvchi stolida turli xil kattalikdagi o‘yinchoqlar, kubiklar, sharlar, matreshkalar, aylanalar.

Vazifa – eng katta kubikni ko‘rsat;

Vazifa – eng kichik sharni ko‘rsat ;

Matreshkalarni kattasidan boshlab ketma – ket taxla.

II. Predmet shaklini aniqlashga qaratilgan o‘yin va vazifalar ;

O‘qituvchi stolida kubik va sharlar bor.

-O‘quvchilarga kubiklar o‘ng tomondagi qutiga, pufaklar chap tomondagi qutiga joylashtirish topshiriladi.

-o‘quvchilarga har xil formadagi figuralar solingan konvert beriladi. Ularni shakllarini ajratib bir xil qilib joylashtirish talab etiladi.

-O‘quvchilarga olma, uzum, qovun, sabzi, olxo‘ri rasmlari bor kartochkalar beriladi. Sabzavot va mevalarni ajratish o‘quvchilardan talab etiladi.

III. Ranglarni ajratishga qaratilgan o‘yin va vazifalar:

Har bir o‘quvchida har xil rangdagi geometrik figuralar yoki mayda predmetlar bo‘ladi. Bu figura va predmetlarni ranglar boyicha gruppalashtirish talab etiladi. Avval 2 ta rangdan iborat bo‘lgan predmetlar olinadi, so‘ngra ranglarning soni ko‘paytirib boriladi.

-O‘quvchilarda qizil, sariq, ko‘k, qora, oq rangli kartochkalar bo‘ladi. O‘qituvchi qaysi rangni talaffuz qilsa o‘quvchilar shu rangdagi kartochkalarni ko‘tarishlari kerak.

IV. Predmetning fazoviy joylashishini aniqlashga qaratilgan o‘yin va vazifalar:

Doskaga katta ko‘rgazma yoki qog‘oz osib qo‘yiladi va o‘qituvchi topshiriq beradi;

-qog‘ozning yuqori qismini ko‘rsating;

- qog‘ozning pastki qismini ko‘rsating;

- qog‘ozning past, o‘ng tomonini ko‘rsating;

- qog‘ozning o‘rtasini ko‘rsating;

-O‘quvchilarda rangli qalamchalar bo‘lib namuna yordamida ularni taxlashga o‘rgatiladi.

V. Texnik malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga grafik vazifalar:

Rasm chizishda grafik ko‘nikmalarni mos qilish murakkab faoliyat hisoblanadi. Shuning uchun bu vazifalar maxsus tashkil etilgan protsessor – vazifalar yordamida amalga oshirishadi. Bu quyidagilar;

1. Qo‘l bilan to‘g‘ri vertikal chiziqlar chizish (katta ustunlar)
2. Qo‘l bilan gorizontal chiziqlar chizish (yo‘llar, simlar)
3. Qo‘l bilan vertikal va gorizontal chiziqlar chizish (zinalar, oyna, ramka, shaxmat doskasi)
4. Qiysiq chiziqlar chizish (yomqir urib yogyapti, sharni ushlab turuvchi ip, baland tog‘lar);
5. Yoysimon – bo‘rtib to‘lqinli chiqqan chiziqlar (tutun chiq-yapti, to‘lqinli suv, fontan);
6. Aylanali chiziqlar (sharlar, har xil rangdagi balonlar, tarvuz, olma).

Bu vazifalarni bajarishda quyi sinf o‘qituvchilari bir necha marta takrorlash ishlari olib borishi kerak. O‘quvchilar bilan individual ish olib borilgandan so‘ng taqlid orqali vazifalarni bajarishga o‘tish kerak. Vazifalarni bajarishda o‘quvchilar trafaretlardan ham foydalanishlari mumkin, albatta o‘qituvchi yordami bilan.

Rasm chizishni boshlashdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilar bilan qo‘l muskullarini rivojlantirish maqsadida gimnastikalar o‘tkazishi zarur.

Alovida yordamga muhtoj bolalar uchun tasviriy san’atning ahamiyati.

Bolalar bilan ishlashdan avval mutaxassis o‘z oldiga maqsad qo‘yib olish kerak, bunda nuqsoni bor bolalar tasviriy san’at uskunalaridan to‘g‘ri foydalanishni va zararli narsalarni anglay olishni tushunishlari kerak. Tasviriy san’atdan maqsad faqatgina bo‘s sh vaqt ni o‘tkazish emas, balki nuqsoni bor bola uchun kerakli muhim narsalarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari nuqsoni bor bolalarga tasviriy san’at sensor harakatida va regressiya muhim ahamiyatga ega. Tasviriy san’at nuqsoni bor bolalarni hayotga tayyorlaydi va bu orqali ular boshqalarga bo‘lgan

munosabatlarini yo'lga qo'yadi. Ular o'rganayotganlarida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, lekin tasviriy san'at ularning sezgi a'zolarini tiklashga yordam beradi. Bu ayniqsa ko'zi ojiz bolalar va eshitishida nuqsoni bor bolalarda muhim rol o'ynaydi. Amaliy mashg'ulotlardan so'ng nuqsoni bor bolalar Tabiiy materiallar va asboblar bilan ishlashlari mumkin. Ishlash orqali ular o'zlari tayyorlagan narsalarga nisbatan quvonch va faxr xissini sezadilar.



Tasviriy san'atda nuqsoni bor bolalar aktiv bo'lishlari mumkin, lekin ular materiallar bilan ishlaganlarida passiv bo'ldilar. Bundan tashqari kiyinish, ishlash va boshqa faoliyatlarda ham boshqa tarafdan esa dramatik dasturlarda tasviriy san'at muhim rol o'ynaydi, bunda ularning yordami ko'p kerak bo'ladi. Ular bu jarayonni hech kimning yordamisiz amalga oshira oladilar. Nuqsoni bor bolalar ish joylarida qulay ishlashlari uchun ularga barcha sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak (masalan, nogironlik aravachasi). Bundan tashqari ularning xulq-atvori tartibsiz bo'lsa va ular siz aytgan narsalarga qulq solmasa ham siz ularga qulaylik yaratib berishingiz kerak. Agar ular shunda ham qiyinalishsa, ularga yordam berish zarur.

Rasm chizish oddiy ish emas, bu jarayon hatto normal bolalar uchun ham qiyinchilik tug'diradi. Bunda bolalarcha o'ylasak,

Rasm chizish oddiy ish emas, bu jarayon hatto normal bolalar uchun ham qiyinchilik tug'diradi. Bunda bolalarcha o'ylasak, kutilmagan holatlar yuz berishi ham ularda qiyinchiliklar tug'diradi. Hech qachon biron-bir narsani tayyorlamagan bola uchun bиринчи navbatda unga o'rgatish - bu unga bir o'yindek yoki yengil bir narsadek tuyulishi mumkin. Bu kutilmagan holat uning markeriga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga yordam beradi. Shunday bo'lsada, bu jarayonga moslashish unda sekinlik bilan amalgamashadi.¹

Tayanch tushunchalar: Korreksiya, propedevtik davr, analiz, tasvir.

Savollar:

1. Rasm darslarining korreksion yo'naltirilganligi.
2. Propedevtik davr o'z ichiga nimani oladi?
3. Propedevtik davrlarda o'yinlarning ahamiyati.
4. O'yinlar qanday tashkil etiladi?
5. Ranglarni ajratishga qaratilgan o'yinlar.

Adabiyotlar:

1. Н.А. Грицук, А.Р. Киселева" Преподавание изобразительного искусства в школе для детей с нарушениями слуха". Учебное пособие Минск-2006. 14-58стр.,64-128стр.
2. Susan D. Loesel The Intersection of ARTs education and special education 2012. 5-8 betlar
3. Головкина Т.Н.«Изобразительная деятельность учащихся вспомогательной школы».М.:«Педагогика», 1997 г. 69-81стр.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. J. A Rubin Bolalar art terapiyasi 2012. (266-267-betlar)

¹J. A Rubin Bolalar art terapiyasi 2012. (266-267-betlar)

1.3. Alohidaga yordamga muxtoj bo‘lgan bolalar uchun tasviriy san’at bo‘yicha dastur talablarining xarakteristikasi (tavsifi)

Alohidaga yordamga muhtoj bolalar uchun tasviriy san’at terapiyasi

1963-yilda men birinchi marta psixikasida nuqsoni bor bolalarni davolovchi shifoxonadagi birinchi guruh ostidagi shizofrenik bolalar kichik guruhiga kirdim. Bu bolalarning hammasi kichik yoshdagi bo‘lganligi uchun ulardagi hamma funksiyalar sekinlik bilan o‘zgara boshlayotganining guvohi bo‘ldim. Aynan o‘sha bolalarni o‘rgangan bir nechta mutaxassislarning fikricha, bu bolalar yeyishni yoki tasviriy san’at materiallari bilan ishlashni, bundan tashqari, autistik dunyo bolalarining qobiliyatları bo‘yicha tartibsiz joylashgan narsalarni to‘g‘ri joylashtira olishlari kerak edi. Bundan tashqari “Bolalar rivojlanishini kuzatuvchi Vazirlilik” bilan birga o‘z xohishimizga ko‘ra tasviriy san’at rejalarini individual tarzda sinab ko‘rishga ruxsat oldik. Shu yo‘l orqali 8 oy davomida har hafta psixik rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni davolovchi shifoxonadagi 10 ta shizofrenik bolalarni qamrab olgan kichik guruhni tashkil etuvchi kichik sinfga qatnadim. Bolalar bu xonaga navbat asosida birma-bir kirishlari kerak edi.. bundan ko‘zlangan maqsad, ular bu xonada o‘zlarini erkin his qilgan holda, qanday holatlarda ishlatish va qanday holatlarda kerakliligiga ko‘ra tasviriy san’at materiallarini tanlashlari kerak. Bunda har bir bolaning dunyo-qarashi va ularning aqliy darajasi tez kunda aniq bo‘ldi . Masalan, ular rang tanlab, ularni mo‘yqalam orqali qanday ishlatishni o‘rganishdi. Bunda bolalar dastlab, mo‘yqalamni pastdan tepaga yoki tepadan pastga ishlatib o‘rganishni boshlashdi. Selma ismli qiz xuddi shu tarzda mo‘yqalamni ishlatishni o‘rganganining guvohi bo‘ldik. U bu ishni o‘rganguniga qadar, bir tartibli harakat asosida ketganligi sababli u bu ishga butun vujudi bilan yondashishiga to‘g‘ri keldi. Shu singari Karen ham faol ishladi. U asosan ritm va tovushlar asosidagi dialog orqali yorqin ranglardan foydalana oldi. Uning ishlashi xuddi raqsga tushayotgandek ko‘rinardi. Uning chizgan rasmi chiroyli chiqqan va bu rasm yaxshi ranglar bilan

ifodalangan edi. Bu bolalarning har biri o‘zlari xohlagan yo‘l orqali rasm chizishar edi. Bundan tashqari ular bir rasmni tugatganlaridan keyin keyingi rasmni chizishga tayyor turishar edi.

Selma keyingi chizgan rasmlari faqat sikl asosida bo‘lishini xohlamadi. U bundan tashqari chizz‘ich asosida har xil rangdagi yo‘llarni chizdi. 4 yoshli Jonniga chizish o‘rgatilganda u asosan kulgili rasm chizardi va chizgan rasmlari ham kulgili chiqardi. Foydalangan ranglari ham rasmning kulgili chiqishiga xizmat qildi.

Bu bolalarning hammasiga psixik rivojlanishidagi nuqson mavjud degan tashxis qo‘yilganligini tushunish juda muhim sanaladi. Bundan tashqari ularning chizgan rasmlariga etikelarga ilib qo‘yildi. Ular bu rasmlarni hech qanday adabiyotlarga qaramay chizganliklarini unutmasligimiz kerak.

Xuddi shu obrazlardan biz ularning ba‘zilari o‘yinlarni, ba‘zilari aniq va fantastik tushunchalarni va ba‘zilari esa aytolmayotgan narsalarining rasmlarini chizganliklarining guvohi bo‘ldik. Ular qancha yakka holda bo‘lgan bo‘lsalar, shunchalik kerakli narsalarni chizishlariga imkoniyat yaratilganligini angladik. Bu yo‘l orqali biz ko‘p ma‘lumotlarga ega bo‘ldik. Analiz natijalar shuni ko‘rsatdiki, bu bola o‘zining yoshi teng bolalar bo‘lmagan guruhda o‘qisa ham, ularning yoshi material tanlashda ahamiyat kasb etar ekan.

Bitta implikatsiya bolaning yoshligidagi shizofreniya oqibatlaring yaxshi va yomon tomonlarini ko‘rsatib bera oladi. Bundan tashqari undagi yozuvlari, tili va o‘ziga xos boyliklarini ham ochib bera olar ekan. Ular rasm chizish orqali bir-birlari bilan gaplashish qobiliyatini ham egallashadi. Bu orqali ular boshqa bolalar amalga oshiradigan ko‘pgina narsalarni ham amalga oshira olishadigan bo‘lishdi. Hattoki, jahldagi holatlarini ham rasm chizish orqali ko‘rsatib bera olishdi. Lekin ular chizgan rasmlaridagi simvollarni anglash biroz qiyinchilik tug‘dirgani tufayli ma‘lum ma‘no anglatganini tushunmagunimizcha, biz bu rasmlarga etiketka ilmay turardik. Ular chizgan rasmlar ma‘lum darajaga ko‘ra joylash-tirilardi va boshqa guruh o‘quvchilari kelib bu rasmlarga qarab bolalar nimani o‘ylashlari, his qilishlari, ularning olamida bo‘lishlari va his qilganlarini bir birlariga aytib berishlari kerak edi. Shu singari

bu bolalar ham boshqalarning rasmlariga qarab o'ylashlari, bo'yashlari va xis qila bilishlari kerak.²

Tasviriy faoliyat darsini tashkil etish va olib borish.

Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar mакtabining tasviriy faoliyat darslarida, rasm chizishni o'rgatishdan tashqari bolalarni nutqini va eshitish qobiliyatini rivojlantirish ustida ish olib boriladi. Rassomchilik bilimi va mahoratini shakllantirish murakkab jarayondir. Bunda doim yangi materialni o'zlashtirish, vaqtiga vaqt bilan qaytarib turish va umumlashtirish lozimdir.

Tasviriy faoliyat darslari quyidagi etaplarda tashkil etiladi.

1.Darsni tashkil etish.

2.Darsning asosiy qismi. (dars mazmuni, yangi yoki o'tilgan materialni tushuntirish).

3.Ish natijasi va darsga yakun yasash.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida har bir dars davomida, dars shaxsiy foydalilaniladigan eshitish apparatining ishga yaroqlilagini, ish joyi va o'qivchilarning joylashganligini tekshirishdan boshlanadi. 1 sinfning dastlabki dars davomida hamma o'quvchilarni shaxsiy so'roq qilish kerak. "Partangda nima turibdi", "Nomi nima", "Malikaga qizil qalamni ber", "To'g'ri o'tir", shu kabi so'roqlarga tutib darsning asosiy qismiga bosqichma-bosqich o'tiladi. Buning uchun o'qituvchi avvalgi darsda o'tilgan o'quv materialiga qaytib, boialarni so'roqdan o'tkazadi: «O'tgan darsda nimani rasmini chizgan edinglar», "qaysi ranglardan foydalandinglar", "qanday bilimga ega bo'ldinglar" va hokazo.

Darsning kirish qismiga 5 daqiqa ajratiladi. Darsning asosiy qismi qo'yilgan maqsad va masalalar asosida tuziladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki. O'qituvchi mavzuni e'lon qilishdan oldin, o'quvchilarni oylashga, nimani chizilishi kerakligini topishga yo'naltirilgan savol bilan murojaat etadi. Masalan: mavzu «Olma» rasmini chizish bo'lsa, daraxtda pishadi, dumaloq, rangi sariq, qizil, yashil bo'ladi, yozda va kuzda pishadi, shirin, nordon bo'ladi, qani bolalar oylab javob bering deydi, so'ng o'quvchilar olma deb javob berishadi. Shundan so'ng o'qituvchi to'g'ri bugun biz sizlar bilan olma rasmini chizamiz, deb darsni davom ettiradi. 1-2 sinfda yangi

²J. A. Rubin Bolalar art terapiyasi 2012.(264-265 bellardan mazmun-mohiyati olindi).

mavzuni tushuntirish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning birga ishlaganlari ma’qul. Ko‘rgazmali qurollar yordamida bosqichma-bosqich chiziladi. 3 sinf esa o‘qituvchi oldin tushuntirish ishlarini olib borgandan keyin o‘quvchilar mustaqil ravishda ishlashadi.

Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilar ilk bor sur’atlarni kuza-tish usuli bilan rasm chizish turlari va janrlari bilan tanishadilar. Bu darsda o‘qituvchi kerakli bo‘lgan ko‘rgazmalarni, yangi nutq materiali yozilgan kartochkalar, rasm chizish etaplarining sxemalarni tayyorlaydi.

Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga darsni avval ular bilan yuzma-yuz turgan holda tushuntirib, keyin doskaga chizmoq lozimdir. Turli xil daraxtlarning barglarini chizganda, o‘qituvchi bolalarga ularning bir-biridan farqini ko‘rsatishni maqsad qilib qo‘yadi. O‘quv materiallarini o‘rganib mustahkamlagandan keyin, uni umumlashtirish kerak, uning umumiyligi shakli va asosiy belgilari qanday tuziladi va boshqalar. Darsning asosiy qismiga 35 daqiqa ajratiladi. Darsning yakuniga esa 10 daqiqa ajratiladi. Darsning yakunida o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etiladi. “Bolalar bugun darsda nimani rasmini chizdik?”, “Uning nomi nima?”, “Birinchi nimani chizdik, keyinchi?”, “Umumiyligi shaklning keng joyi qayerda?” va boshqalar. Eng yaxshi chizilgan rasmlarni doskada muhokama qilish lozim. Ko‘p xato, yomon chizilgan rasmlarni doskada, sinfdagilarga ko‘rsatib muhokama qilish kerak emas. Ko‘p xatolikka yo‘l qo‘ygan o‘quvchining o‘ziga qayerda xato qilganligini ko‘rsatiladi.

Tasviriy san’at darsida yakka va frontal ish olib borish.

Sinfda bolalar soni kamligi tufayli o‘qituvchi har bir bola bilan alohida shug‘ullanish imkoniyatiga ega. Tasviriy san’at darslarida nafaqat e’tiborni nutq rivojiga, suhbatdoshning gapini anglash va rassomchilik san’atini o‘zlashtirishiga ham ahamiyat berish kerak. O‘quvchilar chizish mobaynida qiyalganlarida, o‘qituvchi uning o‘rniga chizib bermasdan, balki qiyinchiliklarni yengishga yordam berishi kerak. Masalan: rasmning fazoviy tuzilishi, uning umumiyligi shaklini yoki kompozitsiyadagi yechimini to‘g‘ri idrok etib, to‘g‘ri chizishga o‘qituvchi yordam berishi kerak. Tasviriy san’at darslarining hamma etaplarida frontal ish olib boriladi. O‘qituvchi boshchiligida o‘quvchilar yangi so‘zlarni birgalikda qaytarishadi.

Rasm chizish jarayonida qiyinchilikka duch kelgan o‘quvchilarga o‘qituvchi yakka yondoshadi.

Yordamchi maktabda tasviriy san’at darslari bo‘yicha dastur talablari

Aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlariga tasviriy san’at fanidan moslashtirilgan Davlat ta’lim talablari va dasturi xalq ta’limi a’lochisi H. Egamov tomonidan tuzilgan.

Bolalarni hayotdagi va san’atdagi go‘zallikni sezish, tushunish, idrok etish va ular haqida fikr yuritishga o‘rgatish, badiiy-estetik tasavvurini, dunyoqarashini rivojlantirish va boyitib borish, tevarak-atrof, olamga ongli munosabat va madaniyatni tarbiyalash tasviriy san’atning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Yordamchi maktabda o‘tkaziladigan tasviriy san’at mashg‘ulotlarining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- O‘quvchilarda yoshligidan insoniylikning dastlabki elementlaridan biri sifatida go‘zal, nafis narsalarni sezish, ko‘rish, kuzatish, idrok, tasavvur va tahlil etish, taqqoslash, fikrlash, umumlashtirish, o‘zlashtirish kabi xislatlarni rivojlantirish;

- Tasviriy san’at asarlari orqali o‘quvchilarda ijtimoiy hayot hodisalarini kuzatishga o‘rgatish va ular to‘g‘risida dastlabki tasavvurlar hosil qilish;

- O‘quvchilarga tasviriy san’at mashg‘ulot turlari haqida tushuncha berish orqali ularda maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish;

- Tasviriy faoliyat yordamida o‘quvchilarning qo‘l harakatini o‘stirish va ularni tasvirlashga o‘rgatish;

- O‘quvchilarga narsalarning shakli, tuzilishi, hajmi, bir-biridan ko‘rinish jihatdan farqlanishi, taniqli belgilari haqida tushuncha berish, ritm va rangni his qila olishga o‘rgatish;

- O‘quvchilarni xilma-xil materiallar asosida har xil narsalar yasash, tasvirlashga o‘rgatish orqali ularning bilish faoliyati va mustaqilligini kuchaytirish, ijodkorligi va tashabbuskorligini o‘stirish;

- Tasviriy san’at vositasida o‘quvchilarni yaxshi odatlar, do‘stona munosabat va o‘zaro yordam ko‘rsatish hamda tarixiy,

milliy urf-odatlar, marosimlar, milliy an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash;

- Dekorativ xalq amaliy san'ati, O'zbekiston me'morchiligining o'ziga xos xususiyati bilan tanishtirish, milliy kasb-hunarlarini qadrlashga o'rgatib borish;

- Tasviriylar san'at orqali o'quvchilarining jonajon o'lka tabiatiga muhabbat, kishilarning ijtimoiy mehnatiga qiziqish va hurmat tuyg'usini tarbiyalash;

- O'quvchilarining badiiy-estetik didi, ekologik ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirish;

- O'quvchilarda badiiy madaniyatni tarbiyalash;

- Yordamchi maktab o'quvchilarida mavjud bo'lgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etish maqsadida barmoq gimnastikalari, turli tasvirlash mashqlari, didaktik o'yinlarni o'tkazish asnosida ularga badiiy tarbiya berish;

- Yordamchi maktab o'quvchilarini atrof-muhitdagi narsa va hodisalarini ko'ra bilish va idrok etish asosida olingan estetik histuyg'u va tushunchalarni o'zlari chizayotgan rasmlarida aks ettira olishga o'rgatish;

- Turli yordamchi vositalar va omillar yordamida o'quvchilarining tasvirlay olish malakalarini shakllantirish;

- Xalq milliy hunarmandchiligi, xalq amaliy san'ati, tasviriylar san'at asarlari bilan tanishtirish orqali o'quvchilarida badiiy-estetik didini o'stirishga zamin yaratish;

- Yordamchi maktab o'quvchilarini tasviriylar va dekorativ-amaliy san'at, me'morchilik asoslari bilan tanishtira borib, ularning badiiy fikr doirasini kengaytirish;

- Yordamchi maktab o'quvchilarining tasviriylar san'atdan o'tkaziladigan amaliy ishlar jarayonida olingan bilim va malakalarini hayotda qo'llay olishga o'rgatish;

- Yordamchi maktab o'quvchilarida agrof-muhitda ro'y berayotgan voqealarda nisbatan estetik va emotsiyal sezgirliklarni o'stirish va boshqalar.

- I-IV sinflarda o'tiladigan tasviriylar san'at darslari quyidagi mashg'ulot turlaridan tashkil topgan:

T.r.	Mashg'ulot turlari	Sinflar			
		I	II	III	IV
1	Tayyorgarlik mashqlari	9	-	-	-
2	Dekorativ rasm chizish	12	15	15	13
3	Naturadan rasm chizish	7	13	13	10
4	Mavzu asosida rasm ishlash	6	6	6	6
5	Tasviriy san'at haqida suhbat	-	-	-	5
JAMI:		33	34	34	34

Tayyorlov mashg'ulotlari

Tayyorgarlik jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni predmetlarning o'ziga xos xususiyatlarini anglashga, uni tashkil etuvchi detallarining soniga va makonda joylashgan o'miga, tuzilishiga diqqat-e'tiborlarini qaratishga, idrok etishga o'rgatishdek amallarni bajaradi. Odadta bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning o'yin faoliyatları bilan bog'lanishi samarali natijalar beradi. Bunda o'quvchilarning qiziqishlari va bilishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan maxsus «quruvchilik konstruktori», geometrik shakllar va hajmdor sirtlar, turli rangdagi va katta-kichiklikdagi uzun-qisqa tasmalar, rasm namunalari yopishtirilgan ko'rgazmali qurollar, shuningdek, kichik o'lchamlardagi predmetlar to'plami kabilar kerak bo'ladi. Tayyorgarlik mashg'ulotlarida o'quvchilarning harakatlanuvchi organlaridagi nuqsonlarni tuzatuvchi, qo'l barmoqlarining yo'nalishini tartibga soluvchi mashqlarni o'tkazish muhim ahamiyatga egadir.

Naturaga qarab rasm ishslash

Naturaga qarab rasm ishslash tasviriy san'at darslarining asosini tashkil etuvchi mashg'ulot turlaridan biri hisoblanadi. Uning vazifasi quyidagilardan iborat:

-O'quvchilarga rasm ishslashning ahamiyati to'g'risida tushuncha berish, ularni tasviriy san'atga doir asbob-uskunalar, badiiy materiallar bilan tanishtirish va ulardan to'g'ri foydalanish haqida

tushuncha berish, oq qog'oz yuzasida turli chiziqlar chizishni, rasm ishslashni o'rgatish.

-O'quvchilarni narsalarning tuzilishini tashqi ko'rinishi, nomi, shakli, hajmi, fazoviy holatiga ko'ra fikrlay bilishga o'rgatish, ularni rang nomlari bilan tanishtirish.

-O'quvchilarni qalamdan to'g'ri foydalanishga o'rgatish, ularning qo'l harakatlarini rasm ishslashga moslashtirish orqali tasviriy faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirish.

-O'quvchilarni tevarak-atrofdagi narsalar, voqe-a-hodisalarning o'xhash tomonlarini ma'lum chiziqlar vositasida topa olishga, doira, kvadrat, to'g'ri to'rtburchaklarni tasvirlashga hamda ularni tik, yotiq, qiya, tutashgan chiziqlar chizish orqali bir necha qismlardan iborat ekanligiga ko'ra buyum va ularning asosiy belgilarini tasvirlay olishga o'rgatish.

-O'quvchilarda tabiatning turli tuman rang tuslaridan zavqlanish, quvonish hissini tarbiyalash, turli ranglarning nomini ayta olish va ularni bir-biridan farqlash, qiyoslashga o'rgatish.

-O'quvchilarga mo'yqalamni qog'oz yuzasida qanday yuritish qoidalarini ko'rsatish. Mo'yqalamda yumaloq, ilon izi chiziqlar, burchaklar, kesishgan, qisqa va ma'lum uzunlikdagi chiziqlar chizishga o'rgatish.

-Asta sekin o'quvchilarda murakkabroq narsalar rasmini ishslash malakalarini hosil qilish orqali ularning tasviriy san'atga bo'lgan havas va ishtiyoqini oshirib borish.

-Rasm ishslashda o'quvchilar diqqatini narsalar qismlarining joylashuviga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishga jalb etish.

-O'quvchilarda narsalarning katta-kichikligini va geometrik shakllarning bir-biridan, ya'ni doirani ovaldan farqini anglash va turli yo'nalishdagi chiziqlarni tasvirlay olish ko'nikmasini hosil qilish.

-O'quvchilarning rasm ishslash jarayonida ranglarni his etish tuyg'usini o'stirish. Ularni narsani o'ziga qarab rasm ishslashda har xil narsalarni to'g'ri chizish malakasini hosil qilish.

-O'quvchilarni tabiat manzarasi, tevarak-atrof, hayotdagি voqe-likni badiiy aks ettirishga undash. Rasm ishslashda turli material-lardan foydalanishga erishish.

-O‘quvchilarning sujetli rasmlar ishlash malakasini mustahkamlash, jozibali tasvirlarni yaratish, qog‘oz yuzasida har qanday tasvirni to‘g‘ri joylashtirish ko‘nikmasini mustahkamlash va mustaqil rasm ishlash qobiliyatini o‘stirish bu mashg‘ulot turining muhim asosi hisoblanadi.

Mavzu asosida rasm ishlash

Mavzu asosida rasm ishlash darslarining asosiy mazmuni atrof-muhitda ro‘y berayotgan voqeя va hodisalarni tasvirlash va badiiy adabiyotlardan olingen qissa, hikoya va ertaklarga illyustratsiyalar ishlashdan iboratdir.

Mavzu asosida rasm ishlash-erkin rasm ishlash degani emas. Agarda “nimani xohlasangiz, nima qo‘lingizdan kelsa, nimani bilsangiz shuni chizing” uslubida ish olib boriladigan bo‘lsa, bunday yondoshish mazkur mashg‘ulot turining o‘ziga xos qiymatini yo‘qqa chiqaradi. Bu esa o‘z navbatida mavzu asosida rasm ishlash mashg‘ulotlarining yordamchi maktab o‘quvchilariga ko‘rsatadigan samarali natijasini yo‘q qilib yuborgan bo‘lardi. Chunki o‘quvchilarga nazoratsiz erkin rasm chizdirish darsning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi xususiyatini juda pasaytirib yuboradi.

I—II sinflarda o‘tkaziladigan mavzu asosida rasm ishlash mashg‘ulotlarining vazifasi o‘quvchilarni rangi va tuzilishi jihatidan juda sodda bo‘lgan predmetlarni chiza olishni o‘zlashtirishlarini ta’minlashdir. Masalan, bolalar archa o‘yinchoqlari, qor odam, qor qiz, akvariumdagi baliqchalar rasmini chizadilar, “Bo‘g‘irsoq”, “Ur to‘qmoq”, “No‘xotvoy” kabi ertaklarga rasm ishlaydilar.

III—IV sinflarga kelib esa o‘quvchilar oldiga predmetlarning tashqi ko‘rinishi o‘lchamlarini to‘g‘ri tasvirlay olish, uzoqdagi predmetlarning kuzatuvchiga nisbatan kichrayib borishi, bir predmetning ikkinchisi panalab qolganligini ifodalash orqali ularning makonda joylashgan o‘rinlarini ifodalay olishlari muhim amallardan hisoblanadi.

Tasviriy san'at haqida suhbat

Yuqorida eslatib o'tganimizdek tasviriy san'at haqida suhbat darslari uchun I-III sinflarda maxsus soatlar ajratilmaydi. Ular choraklarga bo'lingan holda dars jarayonida o'tkaziladi. IV sinfdan boshlab esa maxsus soatlar ajratiladi. Bu mashg'ulot turining maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat:

-O'quvchilarni suratlarni kuzatishga o'rgatish orqali ularda tasvirlangan narsalarni sezish, his etish, tasavvur qilishdan zavqlanishini tarkib toptirish.

-O'quvchilarning ijobjiy kayfiyatda bo'lishini ta'minlash orqali ularniig estetik didini tarbiyalash, mustaqil fikrlash orqali ularning estetik didini tarbiyalash, mustaqil fikrlashini rivojlantirish.

-Ularni suratlardagi ranglarni sezish va bir-biridan farqlashga o'rgatish.

-Turli mavzuda voqe-a-hodisalar aks ettirilgan rasmlar vositasida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish. San'atni idrok etish asosida ularning estetik hissiyotini o'stirish.

-O'quvchilarni tasviriy san'at turlari bilan tanishtirish. Xalq san'ati ustalari ijodi haqida o'quvchilarga kengroq tushuncha berish. Ularda o'zbek xalqining dekorativ amaliy san'ati buyumlariga nisbatan mehr-muhabbatini, milliy kasb-hunarlarimizga bo'lgan qiziqishini oshirish.

-O'quvchilarni tasviriy san'at asarlari vositasida O'zbekiston xalqining o'tmish hayoti, me'morchilik yodgorliklari bilan tanishtirish, ularni tasviriy san'atning badiiy mazmunini mustaqil ifoda etishga o'rgatish. Shuningdek, ularni san'at asarlarini mustaqil kuzatib borish ko'nikmasini shakllantirish orqali nafosatli etib tarbiyalash.

Tasviriy san'at darslariga sinflar taqsimoti bo'yicha quyidagicha soatlar belgilangan.

I SINF (33 soat)

II SINF (34 s)

III SINF (34 soat)

IV SINF (34 soat)

Har bir sinf kesimida mashg'ulot turi soatlari ularga mos namunaviy topshiriqlar hamda suhbat uchun mavzular berilgan

bo‘lib, o‘quvchilarga beriladigan topshiriq va ular egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan vazifalar aniq ko‘rsatib o‘tilgan.

Aqli zaif o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi quyidagicha:

IV sinf o‘quvchilari o‘quv yilining oxirida quyidagilarni bajara olishlari lozim:

Unchalik murakkab bo‘limgan holatlarda to‘g‘rito‘rtburchak, silindrik va konussimon predmetlarning shakllarini chiza olish;

Yorug‘-soya qonuniyatlari asosida predmetlarning elementar hajmlarini ifodalay olish;

Tasvirlanayotgan predmetlar uchun rang tuslarini tasvirlash (rangli qalam, akvarel, guash);

Dekorativ bezaklarni bo‘yashda akvarel va guash bo‘yoqlaridan foydalana olish;

Bo‘yash jarayonida dumaloq va kurakchasimon mo‘yqalam-lardan to‘g‘ri foydalana olish;

Tasviriy san’at asarlaridan olingan reproduksiya mazmunini hikoya qilib bera olish.

Tasviriy san’at darsida, rasm chizish turlari va ularni olib borish

Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar tasviriy faoliyat darslarida quyidagi rasm chizish turlaridan foydalanadi.

Predmetli rasm chizish va lepka

Sujetli rasm chizish va lepka

Fikrlash orqali rasm chizish va lepka

Dekorativ rasm chizish

Applikatsiya.

Predmetli rasm – bolalarni sensor rivojlanishga predmetning shaklini tuzilishini, hajmini va rangini anglashga yordam beradi. Predmetli rasm chizish va lepka bajarilayotganda bolalarni asosan tushunishiga o‘rgatiladi. Rasm chizish deganda nima qilishlarini, lepka (yopishtirish) deganda nima bilan shug‘ullanishlarini

tushuntiriladi. Rasm chizish jarayonida predmetni chizishga, naturadan chizdiriladi, so'ngra esa shu chizilgan predmetni tasavvur qilish orqali chizishga o'rgatiladi.



Sujetli rasm chizish va lepka tasavvur va fazoviy obrazli tafakkurini shu bilan birga ijodiy faollikni va mustaqillikni o'stiradi.

Sujetli rasm chizishning 2 turi mavjud:

A). Tevarak atrofdagi hayotdan olingan mavzular asosida rasm chizish. (Navro'z, yangi yil)



B) Adabiy asarlarga illyustratsiya chizish. (ertak, hikoya, masal)



Sujetli rasm chizishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:
Tabiat hodisalari va predmetlar go'zalliklarini ajrata olishi.

Rasm chizish uchun mavzuga xos sujetlarni topa va tanlay bilish.

Rasmdagi narsalarning tuzilishi, katta bo'laklarning kichikka bo'lgan isboti.

Narsalarning fazoviy holatini to'g'ri tasvirlash alohida, narsalarning rangi va ularning bir-biri bilan munosabatini topa bilish.

O'qituvchi rasmining faqatgina mavzusini aytibgina qolmay uning mazmunini ham tushuntirib berishi kerak.

Sujetli rasm chizishda va lepkada biror bir voqelikka mos tegishli sujetlar tasvirlab beriladi. Bunday faoliyatda o'quvchilar asosiy fikrga ega bo'lishlik shakllantiriladi, shuningdek o'quvchilarning obrazlarning grafik tuzilishi va tasavvurlari boyitiladi.

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar ko'rgan narsani eslab qolib uni rasmda aks ettirish, fikr yuritish qobiliyati rivojlanadi. Predmetni kuzatayotganda uning detallarini analiz qiladi, rasm chizayotganda esa sintez qiladi, fikr yuritib taqqoslaydi, predmetning xususiyatlarini abstraksiyalaydi, undan keyin umumlashtiradi va nihoyat fikr yuritish jarayoni konkretlashtirish bilan tugaydi.

Dekorativ rasm chizish. San'atning keng tarqalgan turlaridan biri dekorativ ommaviy san'atidir. Bu san'at hayotda ishlataladigan

buyumlar, idish-tovoqlar, kiyim-kechaklar, mebel gilam, o'yin-choqlar va boshqa shu kabi bezatishni o'z ichiga oladi.

Dekor-grekcha so'z bo'lib, naqsh degan ma'noni anglatadi. Dekorativ rasm chizish-naqshli rasm estetik didini boshlanqich kurtaklarini go'zallikni xis etishga o'rgatadi, go'zallik haqida ilk tushunchalarni hosil qiladi. Obyektiv va oddiy sifatlarini, ketma-ketlik, simmetriya, uyg'unlik, ranglar mosligi, jismlar kattaligini mos tushishini shakllantiradi. Dekorativ rasm chizish faoliyati bolalarga, avvalo devorga solingan naqsh, gul bezaklar bilan tanishtiriladi, shuningdek bolalarni bo'yoq, bo'yoq qalam, ranglarning moslashuvini, ranglardan to'g'ri foydalanishga o'rgatiladi.

Mustaqil naqsh chizishning 3 turi mavjud.

1.Naqsh namunasidagi elementlarni yoki kompozitsiyasini almashtirish orqali yangi naqsh chizish.

2.Berilgan naqsh kompozitsiyasining sxemasi yoki elementlari asosida naqsh chizish.

3.Hech qanday ko'rgazmalarsiz hayolan naqsh chizish.

Naqsh chizishni o'rganishda oddiydan murakkabga borish printsipiga amal qilish kerak. Avval yo'lsimon, kvadrat, to'rtburchak, uchburchak keyinchalik ko'pburchak shaklidagi naqshlarni ma'lum tartibda o'rganish maqsadga muvofiq.

Naqshning joylashish tartibi

To'g'ri chiziq ichida naqsh chizish.

Bitta chiziqdagi elementlarning ketma-ket qaytarilishi

To'rtburchak ichida naqsh chizish

Uchburchak ichida naqsh chizish

Aylana ichida naqsh chizish.

Applikatsiya – tasviriy san'atning bir turi. Applikatsiya faoliyatida bajarilayotgan predmetning shakli, katta-kichikligi, o'mashgan jo'yini ranglarning mosligini, ritmini idrok etishga o'rgatiladi.

Applikatsiyaga o'rgatish materiali bilan tanishish turli shakllarini qirqa olish malakalarini egallah, ularni ma'lum tartibda joylashtirish obraz va sujetga mos ravishda yopishtirishni taxmin qiladi.

Applikatsiyaga o'rgatish bolalarni qabul qilish jarayonini o'stirishga asoslanadi. Shakl, hajm, rang, predmetni o'zaro munosabatida joylashtirishga imkon beradi.

sabatlari haqidagi taassurotlarini boyitish bolalarni dars davomida fikrlash tasavvurini ishlashiga yordam beradi.

Tasviriy san'at darsi davomida tevarak atrofdagi muhitni bilish, fasllardagi o'simliklarni o'zgarishini kuzatishadi va bilib olishadi.

Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarning 1 sinf o'quvchilarining ko'pchiligi ish jo'yini tartibli saqlay olmaydilar, rasmlarni pala-partish chizadilar, ko'pgina detallarni tushirib qoldiradilar. Bunday bolalar predmetning xususiyatlari va bir-biriga nisbatlarini anglay olmaganliklari uchun chizgan rasmlari sxematik rasmlarni eslatadi. Birinchi sinf o'quvchilari barcha sujetlarni birlashtirishi qiyin bo'lgani uchun rasmlarni sodda shakllarda chizadilar, shuningdek rangli bo'yoqlar bilan ishlanganda o'quvchilar ko'proq yorqin ranglardan qizil, olov rang, sariq, yashil ranglardan foydalanishadi. Ayrim bolalardan ranglarning nomlarini so'ralganda noto'g'ri javob berishadi. Ayrim bolalar ranglarni farqlay ham olmaydilar.

Tasviriy san'at darslari bolalarning psixik rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Kar va zaif eshituvchi bolalarning rasm chizishida, ayniqsa ko'ruv-eshituv idroki shakllanadi va rivojlanadi.

Tasviriy faoliyatda obyektni ko'rib chiqish jarayonida bolalar chizayotgan detalni analiz qilishadi, chizib bo'lgandan so'ng esa tayyor detalni sintez qilishadi. Bolalar o'zi chizgan rasmni ko'rgazma qilib qoyilgan obyekt bilan taqqoslaysaydilar. O'quvchilar taqqoslash jarayonida tayyor bo'lgan obyektning umumiylajmiya va rangiga ahamiyat berishadi. Xato chizilgan joylarini o'qituvchi tomonidan tushuntirilgan holda bola to'g'rileydi.

Tasviriy san'at darslarida bolalarning tafakkuri, diqqati, xotirasi, idroki, umuman ongi rivojlanadi. O'quvchilar predmetlarning mohiyatini, tabiatning fasllarda o'zgarishini rasm chizish orqali bilimi rivojlanib boradi. Har bir darsda o'quvchilarning og'zaki nutqi rivojlantirib boriladi. Har bir darsda mavzudan kelib chiqqan holda yangi nutq materiali beriladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tasviriy faoliyatida berilayotgan Yangi lug'at og'zaki daktil ko'rinishda va albatta kartochkalarda yozilgan bo'lishi kerak.

Aqli zaif bolalar tasviriy faoliyatida esa, chizishdan oldin, og'zaki tushuntirish, suhbat qilish orqali tushuntirib, so'ng chizish ishlari olib boriladi.

Tasviriy san'at darslarining boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Fanlar bog'liqlik ilmlarni yanada chuqur va har taraflama o'zlashtirishga yordam beradi :ona tili va adabiyot, jo'g'rofiya va tarix, kimyo va biologiya, fizika va matematika bunga misoldir. Kar va zaif eshituvchi bolalar mакtabida tasviriy faoliyati qo'l mehnati darslari bilan hamda o'qish darslari va nutqni rivojlantirish darslari bilan chambarchas bog'liqdir. Zaif eshituvchi bolalar mакtabida tasviriy faoliyat darslari, mehnat darslari, kar bolalar mакtabida esa predmet amalii ta'lif dasrlari bilan uzviy bog'lanish bo'lishi kerak.

Darslar o'rtasidagi bog'lanishlar quyidagicha bo'ladi.

1.Turli materiallar va ularning xususiyatlari bilan tanishish, o'quv qurollari va asboblari bilan tanishish (qog'oz, qalam, boyoq, yelim, loy, plastilin, karton va boshqalar)

2.Bir xil turdag'i ishlardan foydalananish (modellash, rasm chizish, aplikatsiya, lepka.)

3.Obyektlarni aks ettirish uchun tekshiruv o'tkazganda bilim olish usullarini o'rgatish, (obyektdagi umumiylit va qismlarga ajratish, rasmni analiz qilganda asosiy jo'yini ajrata olish va boshqalar)

4.Rejalash usullarini egallash (material va asboblarni tayyorlash, obyektni aks ettirganda uni yasash bosqichlari)

5. Chizilayotgan predmet haqida o'quvchilar to'la va aniq tasavvurga ega bo'lganlaridagina, maqsadga erishish mumkin.

Tayanch iboralar: tasviriy faoliyat, dars, dastur, rasm texnikasi

Savollar

1.Tasviriy san'at darslari qanday tashkil etiladi va olib boriladi?

2.Rasm chizish turlari haqida gapirib bering.

3. Tasviriy san'at darslarining fanlararo bog'liqligi haqida gapirib bering.

Adabiyotlar:

1. Н.А. Грицук, А.Р. Киселева” Преподавание изобразительного искусства в школе для детей с нарушениями слуха”. Учебное пособие Минск-2006. 14-58стр.,64-128стр.
2. Susan D. Loesel The Intersection of ARTs education and special education 2012. 5-8 betlar
3. Головкина Т.Н.«Изобразительная деятельность учащихся вспомогательной школы».М.:“Педагогика”, 1997 г. 69-81стр.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. J. A. Rubin Bolalar art terapiyasi 2012.(264-265 betlardan mazmun-mohiyati olindi).

II BOB. TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

2.1. Adaptatsiya san'ati mutaxassisi: talabaning san'at yo'lidagi ajralmas qismi

Qo‘lda mo‘yqalam ushlashni ham bilmagan kimsa, qanday qilib rasm chizishi mumkin? Agarda qo‘li loyga tegmagan bo‘lsa, qanday qilib undan nimadir yaratishi mumkin? Rasm qizish qurollarining hajm va shakl jihatidan foydalanishning iloji bo‘lmagan taqdirda, qanday qilib rasm chizish mumkin? Imkoniyat darajasi cheklangan ayrim talabalar uchun, erkin ijod qilish imkoniyati moslashtiruv san'ati mutaxassisi yordamida imkonli bor. Boshqa talabalar uchun moslashuv san'ati mutaxassisi an'anaviy san'at usullarini ijodiy moslashtirishga yordam beradi, shunday bo‘lgach talabalar o‘z tengdoshlari bilan ijodiy yaratishda ishtirok etishlari mumkin. Shunday bo‘lsa-da, boshqalar uchun, o‘zi tanlagan rasm chizish quroli bilan, o‘zgalar aralashuvvisiz, mustaqil ravishda, yorqin baho berishning birinchi imkoniyati, moslashuvchi san'at mutaxassisi o‘ziga xos mahoratlardan birining muammolarni ijodiy hal qilish orqali yuz beradi. Ijodiy moslashuv kursini o‘tgan talabalar hayoti shu darajada o‘zgarganki, boshqalar buni tushunib yetmaydi. Ko‘pchilik talabalar singari, badiiy asar yaratish jarayoni o‘ta shaxsiy hisoblanadi, shuningdek boshqa rassom talabalar ishlari ham, biror bir to‘garaklarda ko‘zga tashlanmaydi va badiiy gale-reyalarda uchramaydi yoki kimningdir jurnal stoliga tushib qolmaydi. Asarning yaratilishi shaxsning o‘zligidan kelib chiqadi. Rasm chizishda odatiylik doiralardan chiqishi zarur, ikki karra ikki to‘rtga teng bo‘lishi mumkin emas. Ularning san'at asarlaridagi mustaqilligini matoda katta mo‘yqalam bilan yurgazilgan qalin bo‘yoqlar rangi yoki qunt bilan rangli qalamlarda qalin matoga chizilgan rasmning ingichka chiziqlari kabilarda kuzatish mumkin.

San'atning shu eshigini ochgan aynan moslashuv san'ati mutaxassisi yordamida, ijodiy jarayon uchun quro omaviy axborot

vositasi va ijod usuli xizmat qiladi. Mazkur hujjatda, imkoniyat darajasi cheklangan talabalar uchun, moslashuv san'ati mutaxassisining o'quv personalining bir bo'lagi sifatida zarurligi haqida so'z yuritiladi. Bunda shuningdek, avtonom studiyaning yetkazib berish aniq variantlari va o'rnatish usullari taqdim etilgan.

Birlashgan Shtatlar hududi bo'ylab ko'pgina maktablar san'at ijodiyoti doirasi chegaralangan.

Budgetning qisqarishi maktabdan badiiy va musiqa mutaxassislari personallarining boshlang'ich maktablardan qisqartirishga olib keldi. Ulardan ayrimlari faqtgina maktablarning o'rtta va yuqori sinflarida san'at va musiqani bo'laklarini rivojlantirgan. Natijada, ko'pgina san'at mutaxassislari talabalarning ijodiy yetuklik darajasi ko'p yillar avval bo'lganidek emasligidan aziyat chekmoqda. Hozirgi zamon talabalari asosiy badiiy dasturning qiyinchiliklariga uchramoqdalar, ilgarilab ketgan dasturni esa aytmasa ham bo'ladi. Ayrim talabalar o'z ilhomlarini kabinet doirasidan chiqmagan holda to'plamoqdalar.

O'qituvchilar (umumiyligida maxsuslashtirilgan ta'lim). Bu o'qituvchilar odatda o'z sohasida (badiiy) yetarlicha tayyorgarlikka ega emaslar. Ular ilk bolalik chog'idan to yuqori sinfgacha bo'lgan davrda ijodiy jarayonning kamolga yetishi haqidagi tushunchani tushunib yetmaydilar. Maktab o'qituvchilari 3 yoshli bola bilan 7 yashar bolaning "qulqoq" va "oyoq" kabi rasmlarini tenglashtirib bo'lmasligini, bu badiiy ishoralar bilan, aytaylik raqam kabi boshlang'ich tanishuvligini bilishmaydi.

Ishoralar tilni shakllantiradi va bu tilning negizidir. Bu o'qituvchilar, ijobjiy maqsadlarni ko'zlagan holda, o'quvchilarni ijod jarayonining negizini o'rgatishadi. (ko'pincha ma'lumotlar badiiy yo'naltirilmagan internet yoki kitoblardan olinadi). Ko'pincha bolalar ijodini maktabdagi ochiq eshiklar kunida, aytaylik jurnallardan qirqib olingan applikatsiya va suratlar kabi sotiluvchi, beg'araz bolalik sho'xliklari sifatida qabul qilishadi. Bunday darslar moslashuv san'ati mutaxassisi beradigan darslardan anchagina farq qiladi.

Aksincha, moslashuv san'ati mutaxassisi talabalarning mahoratini, qalam va mo'yqalam ushslash, rasm chizish, soyani yaratish, hattoki qaychini qaysi burchak ostida ushslash kabi ularni mahoratini oshiruvchi, ketma-ketlikda kundalik vazifalar qo'yish bilan birga mahoratlarini oshirib boradi. Talabalar qo'l motorikasini loydan

shakllar yasash bilan birga rivojlantirishi mumkin. An'anaviy darslarda bunday amaliyotlar kamdan kam uchraydi va ular yetishmaydi yoki boshqa faoliyat sohasida turlicha qo'llaniladi. Bundan tashqari, talabalar ijodiy amaliyotning yetishmasligi sababli san'atga daxlsiz bo'lib qolmoqdalar. Ular muammolar yechimini topish kabi sifatlarini yo'qotib qo'yishligi yoki o'z hayot faoliyati davomida boshqa jihatdan ijodiy yetukmasliklarini sezishlari mumkin.

Imkoniyat darajasi cheklangan talabalar san'atga o'z tengdoshlari bilan teng ravishda yoki ulardan ham ko'proq huquqqa ega bo'lishligi kerak. Jismoniy imkoniyat darajasi cheklangan talabalar qo'l va tanadagi mustaqil kuchlarini rivojlantirish uchun ko'proq amaliyot va imkoniyatga ega bo'lishi kerak. Psixologik va hissий muammolarga ega talabalar uchun san'at, ularning haqiqiy boshpanasi hisoblanadi. Muammolarga ega talabalar san'at yordamida o'z qarindoshlari bilan bo'lган munosabatlarda voqealarga mavhum qarashni o'rganishadi. San'at o'qituvchilar va san'atga moslashuv mutaxassislari o'z talabalarining ijodiy tomonlarini ochib beruvchi darslarni taqdim etishlari mumkin. Ular talabalarga, ularning kelgusi hayotida asqotadigan, ham jismoniy, ham ruxiy sifatlarini kuchaytirish imkonini yaratib beradilar. Moslashuv san'ati mutaxassislari imkoniyat darajasi cheklangan talabalarni o'qitish mahoratlarini kuchaytirishga yordam berishligi mumkin. Ular maktablarda san'at bo'yicha o'qituvchilar yetishmagan taqdirda, umumiy va maxsusus lashtirilgan ta'lif o'qituvchilarining o'rmini ham bosishi mumkin.

Moslashuv san'ati mutaxassis ixtisosligi

Moslashuv san'ati mutaxassisim imkoniyat darajasi cheklangan talabalarga iloji boricha ijodiy jarayonga mustaqil yo'l ochib berishni ta'minlashga yordam berishi kerak.

Shuningdek, u talabalarni, ularning bolalik chog'idan yuqori sinfgacha bo'lган davrida badiiy asboblardan foydalanishga va ular texnikasini rivojlantirishga moslashtiradi. Ayrim talabalar ularning jismoniy, kognetiv, ijtimoiy, xissiyotiy va boshqa cheklovlarini sababli san'atga keraklicha yetisha olmaydilar. Talabalarning san'atga bo'lган cheklovlariga, yetarli ma'lumotga ega bo'limgan o'qituvchilar ham sabab bo'ladi. Bunday o'qituvchilarini, alohida

o‘quvchilarning badiiy jarayonni yaratishda, o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qilishiga javob qaytara bilishiga o‘rgatish kerak. Moslashuv san’ati mutaxassisi xuddi badiiy o‘qituvchi kabi, faqatgina badiiy o‘qituvchilar litsenziyasi K-12 standarti bo‘yicha qo‘srimcha sertifikatga ega bo‘ladi.

Veskon xalq maorifi Deportamenti www.dpi.state.wi.us, veb-sayt ma'lumotlariga muvofiq, moslashuv san’ati mutaxassisi sertifikati quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitishni o‘z ichiga oladi:

1. Psixologiya va alohida (o‘ziga xos) bolalar xulqi.
2. Ta’lim jarayonida alohida talablar bilan talabalar uchun ta’lim strategiyasi va o‘quv muhiti mohiyatini o‘zgartirish.
3. Litsenziyalash sohasida moslashuv ta’limi amaliyoti.

Qo‘srimcha sertifikatsiyalashda K-12 standartlari sifatida qo‘srimcha 12-15 qo‘srimcha kreditlar mavjud. Boshqa badiiy ta’lim dasturlari terapiya kursi yoki umumiylar moslashuv kursi yordamida, alohida talablarga ega talabalarни san’atga o‘rgatish mutaxassisligida qo‘srimcha sertifikatsiyalashni taklif etadi. Qo‘srimcha ta’lim olish va sertifikatsiyalash va litsenziyalashga qiziqish bildiradigan san’at o‘qituvchilari, zaruriyat tug‘ilganida hududiy universitetlarda yoki halq ta’limi bo‘limlarida maslahatlar olishlari mumkin.

Maxsus sertifikat olish jarayoni 50 ta shtatning hech birida majburiy emas. Ko‘pgina maktablar qo‘srimcha mutaxassislikka ega bo‘lgan nomzodlarni izlashadi, lekin bu ishga olishda majburiy kriteriya hisoblanmaydi. Moslashuv bo‘yicha seminarlar va darslar universitetlarda va VSA (www.kennedy-center.org) kabi tashkilotlarda ochiq yo‘l qo‘yilgan. Ular moslashuv badiiy ta’limida qo‘srimcha ta’limga ega bo‘lishga qiziqqan barcha mamlakat san’at o‘qituvchilariga taqdim etiladi.

Alohiда talablardagi badiiy ta’lim nomlangan (www.arteducators.org), Milliy badiiy ta’lim Assotsiatsiyasi qismi hisoblangan, maxsus guruhlar mavjud. Har yilgi konvensiyada ishtiroy etuvchi, NAYEA a’zolari moslashuv san’atida peshqadam bo‘lgan, imkoniyat darajasi cheklangan talabalar bilan bog‘liq bo‘lgan yig‘ilish va seminarlarda ishtiroy etishlari mumkin.

Shuningdek SNA YE guruhi ham veb-saytga ega bo‘lib, o‘qituvchilarning moslashuv san’ati bilan bog‘liq bo‘lgan turli mavzudagi savollariga javob beradi.

shakllar yasash bilan birga rivojlantirishi mumkin. An'anaviy darslarda bunday amaliyotlar kamdan kam uchraydi va ular yetishmaydi yoki boshqa faoliyat sohasida turlicha qo'llaniladi. Bundan tashqari, talabalar ijodiy amaliyotning yetishmasligi sababli san'atga daxlsiz bo'lib qolmoqdalar. Ular muammolar yechimini topish kabi sifatlarini yo'qotib qo'yishligi yoki o'z hayot faoliyati davomida boshqa jihatdan ijodiy yetukmasliklarini sezishlari mumkin.

Imkoniyat darajasi cheklangan talabalar san'atga o'z tengdoshlari bilan teng ravishda yoki ulardan ham ko'proq huquqqa ega bo'lishligi kerak. Jismoniy imkoniyat darajasi cheklangan talabalar qo'l va tanadagi mustaqil kuchlarini rivojlantirish uchun ko'proq amaliyot va imkoniyatga ega bo'lishi kerak. Psixologik va hissiy muammolarga ega talabalar uchun san'at, ularning haqiqiy boshpanasi hisoblanadi. Muammolarga ega talabalar san'at yordamida o'z qarindoshlari bilan bo'lgan munosabatlarda voqealarga mavhum qarashni o'rganishadi. San'at o'qituvchilari va san'atga moslashuv mutaxassislari o'z talabalarining ijodiy tomonlarini ochib beruvchi darslarni taqdim etishlari mumkin. Ular talabalarga, ularning kelgusi hayotida asqotadigan, ham jismoniy, ham ruxiy sifatlarini kuchaytirish imkonini yaratib beradilar. Moslashuv san'ati mutaxassislari imkoniyat darajasi cheklangan talabalarni o'qitish mahoratlarini kuchaytirishga yordam berishligi mumkin. Ular maktablarda san'at bo'yicha o'qituvchilar yetishmagan taqdirda, umumiy va maxsuslashtirilgan ta'lif o'qituvchilarining o'rmini ham bosishi mumkin.

Moslashuv san'ati mutaxassisini ixtisosligi

Moslashuv san'ati mutaxassisini imkoniyat darajasi cheklangan talabalarga iloji boricha ijodiy jarayonga mustaqil yo'l ochib berishni ta'minlashga yordam berishi kerak.

Shuningdek, u talabalarni, ularning bolalik chog'idan yuqori sinfgacha bo'lgan davrida badiiy asboblardan foydalanishga va ular texnikasini rivojlantirishga moslashtiradi. Ayrim talabalar ularning jismoniy, kognetiv, ijtimoiy, xissiyotiy va boshqa cheklovlarini sababli san'atga keraklicha yetisha olmaydilar. Talabalarning san'atga bo'lgan cheklovlariga, yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan o'qituvchilar ham sabab bo'ladi. Bunday o'qituvchilarni, alohida

o‘quvchilarning badiiy jarayonni yaratishda, o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qilishiga javob qaytara bilishiga o‘rgatish kerak. Moslashuv san’ati mutaxassisi xuddi badiiy o‘qituvchi kabi, faqatgina badiiy o‘qituvchilar litsenziyasi K-12 standarti bo‘yicha qo‘srimcha sertifikatga ega bo‘ladi.

Veskon xalq maorifi Deportamenti www.dpi.state.wi.us, veb-sayt ma‘lumotlariga muvofiq, moslashuv san’ati mutaxassisi sertifikati quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitishni o‘z ichiga oladi:

1. Psixologiya va alohida (o‘ziga xos) bolalar xulqi.

2. Ta’lim jarayonida alohida talablar bilan talabalar uchun ta’lim strategiyasi va o‘quv muhiti mohiyatini o‘zgartirish.

3. Litsenziyalash sohasida moslashuv ta’limi amaliyoti.

Qo‘srimcha sertifikatsiyalashda K-12 standartlari sifatida qo‘srimcha 12-15 qo‘srimcha kreditlar mavjud. Boshqa badiiy ta’lim dasturlari terapiya kursi yoki umumiylar moslashuv kursi yordamida, alohida talablarga ega talabalarni san’atga o‘rgatish mutaxassisligida qo‘srimcha sertifikatsiyalashni taklif etadi. Qo‘srimcha ta’lim olish va sertifikatsiyalash va litsenziyalashga qiziqish bildiradigan san’at o‘qituvchilari, zaruriyat tug‘ilganida hududiy universitetlarda yoki halq ta’limi bo‘limlarida maslahatlar olishlari mumkin.

Maxsus sertifikat olish jarayoni 50 ta shtatning hech birida majburiy emas. Ko‘pgina maktablar qo‘srimcha mutaxassislikka ega bo‘lgan nomzodlarni izlashadi, lekin bu ishga olishda majburiy kriteriya hisoblanmaydi. Moslashuv bo‘yicha seminarlar va darslar universitetlarda va VSA (www.kennedy-center.org) kabi tashkilotlarda ochiq yo‘l qo‘yilgan. Ular moslashuv badiiy ta’limida qo‘srimcha ta’limga ega bo‘lishga qiziqqan barcha mamlakat san’at o‘qituvchilariga taqdim etiladi.

Alohibi talablardagi badiiy ta’lim nomlangan (www.arteducators.org), Milliy badiiy ta’lim Assotsiatsiyasi qismi hisoblangan, maxsus guruuhlar mavjud. Har yilgi konvensiyada ishtirot etuvchi, NAYEA a’zolari moslashuv san’atida peshqadam bo‘lgan, imkoniyat darajasi cheklangan talabalar bilan bog‘liq bo‘lgan yig‘ilish va seminarlarda ishtirot etishlari mumkin.

Shuningdek SNA YE guruhi ham veb-saytga ega bo‘lib, o‘qituvchilarning moslashuv san’ati bilan bog‘liq bo‘lgan turli mavzudagi savollariga javob beradi.

Moslashuv san'ati mutaxassisasi, art-terapevti differensiyalash va yordamchi texnologiya

Moslashuv san'ati mutaxassisidan maktab hududida, odatda san'at o'qituvchisi kabi foydalaniadi. Ba'zida ular ayrim maktablarda, agarda maktabning inklyuziv va muxtor sinflarida o'ziga xos ta'lim talablari bo'lgan bolalar soni yuqori bo'lganda, an'anaviy san'at o'qituvchilari o'rniga yollaniladi. Ular doimiy o'quv vazifalari bilan mashg'ul bo'lgan chog'da, an'anaviy san'at o'qituvchisidan ko'ra, alohida o'quv rejasি (AO'R) ishlab chiqish jaroniga jalg etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Talabalar uchun, terapevtik tadbirlarni yaratishda badiiy muhitda bo'limgan moslashuv san'ati mutaxassisini art-terapevt bilan adashtirib bo'lmaydi, garchi ko'pchilik, tayyorlash san'ati bilan o'zaro ta'sirni ko'p darajada terapevtik hisoblaydi. Art-terapevt turli muammoga ega insonlar bilan ishlashda strategiyalar va materiallar bilan ish tajribasiga ega va zaruriyat tug'ilganda moslashuv san'ati mutaxassisining maslahatchisi bo'lishi mumkin. Shuningdek, moslashuv san'ati mutaxassisni art-terapevt diplomiga ega bo'lishi mumkin, lekin moslashuv san'atini o'qitish uchun litsenziyaga ega bo'lishi shart emas. Art-terapevtning talaba bilan ishlashi, talabalik AO'R "o'zaro bog'liq xizmatlar" sifatida qayd etiladi.

Bundan farqli ravishda esa, moslashuv san'ati talabaning o'quv qismi sifatida ko'rib chiqiladi va AO'R muayyan tarzda qayd etilmaydi.

Ayrim hollarda bir-birini takrorlash joiz. Agar talaba faqatgina belgilangan "ko'nikma asbobdan" (moslashtirilgan qaychi yoki art-asbob uchun dastak) qiyinchilik bilan foydalansa, uning san'at o'quv rejasiga qo'yilgan imkoniyati qismi sifatida AO'Rga asbob "yordamchi texnologiya" sifatida qayd etilishi kerak. Tasviriy san'at sinfiga talabalar uchun qurollardan foydalanish imkoniyati doimo, maxsus va umumta'lim sinflariga esa qo'shimcha sifatida zaruriyat tug'ilganda bo'lishi kerak. Agarda talaba mehnat terapevti (MT) bilan ishlayotgan bo'lsa, moslashuv asboblari shuningdek talabaning AO'R da ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. MT talabaning muayyan jismoniy talablariga mos asbobni belgilashda yordam berishi mumkin. Ba'zida MT talabalarga o'z xizmatlarini ko'rsatishi

mumkin, chunonchi ko'pgina mayda va yirik harakat tajribalari san'at yaratishda qo'llanilishi mumkin. Moslashuv san'ati qurollari nafaqat imkoniyati cheklangan talabalar, balki barcha talabalar qo'llanilishi mumkin bo'lgan standart izostudiya jihozlari bo'lishi zarur. Talaba asbobdan foydalanish ehtiyojini aniq sezsa va asbobdan foydalanish imkon bo'lsa, u boshqa tengdoshlaridan alohida bo'lishi mumkin emas. Yodda tutish zarurki, agar talaba ma'lum bir asbobni badiiy ijodi uchun zarurligini talab etsa, moslashuv san'ati asbobi faqat yordamchi texnologiya bo'lib qoladi. Izostudiyalarda soddalashtirilgan asboblardan foydalanish imkon barchaga teng bo'lgan taqdirda, talabalarning alohida talablari bilan foydalanishi uchun moslashuv san'ati asboblarni integratsiyasi samarali natijalarni beradi. Ko'pgina san'at asboblari soddalashtirilgan bo'lish uchun maxsus ishlab chiqilmagan, lekin ularning o'ziga xosligi bilan nihoyatda moslashtirilgan hisoblanadi. ularning barchaga ma'qul bo'lgan jihatlari bilan, ularni oddiy foydalanishda, yengilligi esa toliqmaslik va qulaylik uchun ishlab chiqilgan.

Sodda asboblар qanchalik san'at muhitini tabiiy qismi hisoblangan sari, ular shunchalik faqatgina alohida talablarga ega talabalar uchun mo'ljallangan tuyulmaydi. Agarda imkoniyatlar ortida, moslamali pichoqdagi yo'l-yo'l tig' kabi ajobiy xususiyatlar mavjud bo'lsa, u tamomila barcha talabalar uchun qaychilar chelagidagi imtiyozli pichoqqa aylanishi mumkin.

Shunday hollar borki, maxsus ta'lim o'qituvchilari soddalash-tirilgan asboblarni maxsus ta'lim sinflarida qo'llashi mumkin. Qalam, ruchka yoki qog'ozni ishchi qatlamga maskirovka tasmasi bilan mustahkamlab qo'yish, talabaning yozishi yoki chizishi uchun qulaylik tug'dirishi mumkin. Sinf va izostudiya orasidagi o'tishning tekislash uchun, san'at o'qituvchisi yoki moslashuv san'ati mutaxassisini tomonidan, o'quv rejasida foydalanishi mumkin bo'lgan moslashuv haqidagi ma'lumot bildirilishi kerak.

Modellashtirish ta'limi

Ayrim maktab hududlarida, butun maktab hududiga xizmat ko'rsatishi uchun, moslashuv san'ati mutaxassislarini yollashadi. Ular maxsus ta'lim o'qituvchilari va san'at mutaxassislarining

imkoniyat darajasi cheklangan talabalarni o‘qitish mahoratlarini oshirish uchun, ular bilan birga ishlaydilar. O‘qitish metodlaridan biri o‘qitish modeli hisoblanadi. Moslashuv san’at mutaxassisini sifda, o‘qituvchilar kuzatib turishlari uchun namuna sifatida sif bilan ishlaydi. Moslashuv san’ati mutaxassisini badiiy faoliyat va darsni yetkazib berish modellari usullari bilan ta’minlaydi. Bunday strategiya san’at o‘qituvchilari yoki maxsus ta’lim o‘qituvchilarini alohida talabalar bilan ishlashga imkon beradi. Maxsus ta’lim va san’at o‘qituvchilari talabalarga ko‘proq sinovlar berish bilan birga, ular bilan ishslash imkoniga ega bo‘ladi. Ular butun guruh talablariga emas, balki talabalarning yakka tartibdagi talablariga e’tiborlarini qaratishi mumkin.

Ta’limning boshqa usuli ta’limning hammuallifi hisoblanadi. Birgalikdagi ta’limda, san’at o‘qituvchisi faoliyat olib boradi, moslashuv san’ati o‘qituvchisi esa san’at o‘qituvchisidan namuna oladi. Moslashuv san’ati o‘qituvchisi alohida talabalarni o‘qitishda, san’at o‘qituvchisi bilan keyinchalik strategiyani aniqlab olish maqsadida, san’at o‘qituvchisining o‘quv rejalarini qo‘llab turadi. Moslashuv san’ati mutaxassisini soddalashtirilgan asboblar zaruriyati va ular bilan ishlashda qay biri samaradorligini belgilashda, rasm chizish, kesish kabi ko‘nikmalar bilan ishlashi mumkin. San’at o‘qituvchisi va maxsus ta’lim o‘qituvchisining dars rejasi haqidagi ma’lumoti moslashuv san’ati mutaxassisiga ko‘rsatilgan yana bir yordami hisoblanadi. Bu rejalar talabalar uchun sifda soddalashtirilishi mumkin va o‘z ichiga moslashuv texnikasini, moslashuv asboblarini yoki ushbu faoliyat uchun moslashuv muhitini olishi yoki shu singari vazifalarda umumiy foydalanimishi mumkin.

Ayrim maktab hududlari yoki birlashgan maktab hududlari, moslashuv san’ati mutaxassisini hududdagi ko‘pgina kichik maktablar hududi yoki maktablari bilan bog‘lanib turuvchi shaxs yoki maslahatchi sifatida yollashadi.³

Rasm chizish, loydan buyumlar yasash va applikatsiya-butasviriy faoliyat turlari bo‘lib, ularning asosiy vazifasi-tevarak atrofni obrazli aks ettirish hisoblanadi. Masalan: yozuvchining she’ri va rassomning asari. Tasviriy faoliyat maktab yoshidagi bolalarni har

³J. A. Rubin Bolalar art terapiyasi 2012. (285-betdan mazmun mohiyati olindi).

tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Tasviriy faoliyat bolalarni ongli tomondan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Birorta predmetni chizish yoki yasash uchun albatta u bilan oldin-dan tanishish yoki kuzatib chiqish, uni shakli, katta-kichikligini, qismlarning joylanishi, rangini bilish kerak bo‘ladi. Bu jarayonida ko‘rish, sezish, qo‘l harakatlari ishtirot etmay qolmaydi. Bolalar predmet va hodisalarni kuzatish va ko‘rib chiqish jarayonida bolalar predmetni katta-kichik guruhlarga bo‘lish, uni shaklini o‘zgartirish, rangini turli-tumanligi bilan tasvirlaydilar. Shuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida bolalar turli xil material (qog‘oz, mel, bo‘yoqlar) bilan ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ular bilan ishlash texnikasi bilan tanishadilar, bu esa bolalarni aqlan o‘sishiga sabab bo‘ladi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda fikr yuritish operatsiyalari (tahlil, sintez, taqqoslash umumlashtirish) ni rivojlanishga imkon beradi, bu o‘z navbatida bolalarni oqilona o‘sishiga olib keladi. Bu jarayonda bolalarning nutqi rivojlanadi. Sensor tarbiyani amalga oshirishda tasviriy faoliyatining ahamiyati katta. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog‘lanadilar, ularning o‘ziga xos sifatlari, shakli, rangi, katta-kichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o‘xshashligini aniqlaydilar, bu esa bolalarni sensor tarbiyalashga, ko‘rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Chunki, bolalar o‘z ishlarida bizning hayotimizda, jamiyatda bo‘layotgan voqeа-hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo‘ladilar, hayajonlanadilar.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo‘yib, o‘shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o‘rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlari tarbiyalanadi. Bolalar, ishni baholash jarayonida, bolalarni o‘rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo‘lish to‘g‘ri baholash, o‘z ishidan va o‘rtoqlarining ishidan xursand bo‘lish kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat-bu bolalarni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarda mehnat ko‘nikmalarini o‘sirish, tarbiyalash kerak, faqat navbatchilik orqali ba’zi bolalarda emas, balki, har bir bolada. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya

berishning asosiy, vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish.

Bu estetik sezgini bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi-bu rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir. Bolalar rangni, shaklini, uning xilma-xilligini sezsa, yoki aks etsa u shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba'zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishga o'rghanadilar. Ularda tasviriy san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriy faoliyat bolalarda badiiy ijodiy o'stirishda muhim rol egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o'sishi-bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo'lgan malaka, ko'nikmalarini egallah hisoblanadi. Masalan: tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, kuz fasilda ekskursiya uyuştirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak-atrofni kuzatiishda kelib chiquvchi estetik xis-tuyg'u orqali, tevarak-atrofqa, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalash mumkin. Bolalarni o'z ishini yana ham chiroli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ular ko'rganda quvonadigan qilib yaratish-bu badiiy, axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. rasm, loy, qurish materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallah maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallahlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yo'llarini izlab topish bu o'quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o'ynaydi. Shuningdek bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi. Maktabda: qiziqishga xohish, yangiliklarni bilishga intilish, maqsad sari intilish, tartibli holda shug'ullanish va shu kabilar. Shunday qilib, tasviriy faoliyat jarayonida olgan malakalar bolalarni maktab hayotiga tezda kirishib ketishiga asos bo'ladi.

O‘z navbatida boshqa ta’lim–tarbiyaviy ish bo‘lishlarining vazifalari bilan chambarchas bog‘liq. Tasviriylar faoliyat mashg‘ulotlarini o‘tishda tarbiyachi bolalarning boshqa faoliyatlarida olgan bilimlarga tayanadi.

Bolalar tasvirlamoqchi bo‘lgan predmet haqida tasavvurga ega bo‘lsalar, rasm, loy, applikatsiya ishlarida samarali natijalarga erishish mumkin.

Tasviriylar faoliyat turlarining bolalar o‘yini bilan bog‘liqligi.

O‘yin bola hayotida katta o‘rin egallaydi. Maktabgacha ta’lim muassasasidagi turli xil o‘yinlar o‘tkaziladi: mazmunli–rolli, dramalashtirish, didaktik va harakatli.

Har qanday o‘yin bolaga zavq bag‘ishlaydi. Shunday ekan, tasviriylar faoliyat ham o‘yin bilan bog‘lab borilsa, u bolalarga qiziqarli va yoqimli bo‘ladi va emotsiyal javobni uyg‘otadi, bu esa bolalar ishlarini sifatini oshishi yaxshi ta’sir etadi. Mashg‘ulotlarda o‘yinli holatlarni tashkil etish yaxshi natijalar beradi. Bolalar bunday mashg‘ulotlarda erkin harakat qiladilar. O‘yin usuli barcha guruhlarda qo‘llaniladi. Bu usul yordamida yengil quvnoq muhit yaratadi. Bolalarning mashg‘ulotga qiziqishi ortadi, tasviriylar faoliyat ko‘nikma va malakalari samaralilik egallaydi. O‘yin shaklida o‘tadigan mashg‘ulot bolalarni qamrab oladi, ularning estetik, axloqiy jihatdan tarbiyalanishlariga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi.

Rasm, loy, qirqib yopishtirish o‘yinchoq orqali o‘yin bilan bog‘langan bo‘ladi. O‘yinchoqni chizish, yasash, qirqib–yopishtirish barcha yosh guruh bolalarida zavq uyg‘otadi, o‘yinchoqlarni tasvirlash bo‘yicha mashg‘ulotlar yil davomida bir necha marta o‘tkazilishi mumkin. Lekin ularning shakli turlicha bo‘lishi zarur. Bolaning hayotida mazmunli–rolli o‘yinlar muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun tasviriylar faoliyatning o‘yin bilan bog‘lanishi bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Mazmunli–rolli o‘yinlarni mashg‘ulot mazmuniga kiritish bolaning tasvirlash faoliyatiga qiziqishini, bajarayotgan ishining sifatini yaxshilaydi.

O‘yinning borishi: O‘yin obrazlarini tasviriylar, quruq rasm chizish, loydan yasash, qirqib yopishtirish ishlaridan ko‘ra bolalar uchun qiziqarlidir. Bolaning kechinmalariga o‘yin bo‘yoq beradi. Bola o‘z o‘yinli rasmlarida to‘la va yorqin ifodalananishiga intiladi. Tarbiyachi esa bolaga bunda yordam berishi kerak. Rasm, loy,

qirqib yopishtirish bilan dramalashtirib, o'yinlarini uyg'unlashtirib olib borish, bolalarni har tomonlama rivojlantirishdek, vazifani amalga oshirishga katta imkoniyat yaratadi. Dramalashtirish o'yinlar uchun ko'pgina narsalarni bolalarning o'zları yasashlari mumkin: dekoratsiya yoki uning qismlari, kostyum detallari, maskalar. Tarbiyachining rasm, qirqib—yopishtirish mashg'ulotida bolalarga o'ynagan o'yinlarini tasviriy topshirig'ini berish, ularda tasviriy faoliyatga jonli qiziqishini uyg'otadi. Tasviriy faoliyatning dramalashtirish o'yini bilan birlashtirib, olib borish o'rta guruhdan boshlanadi. Rasm, loy, qirqib—yopishtirish mashg'ulotlarida bolalarga qahramonlar obrazlarini ifodalab berish vazifasi topshiriladi. O'ynagan harakatli o'yinlarini tasviriy taklifi bolalarda zavq uyg'otadi. Bu o'yinlarni mazmunini faqatgina rasmda emas, balki qirqib yopishtirish bilan ham oson tasvirlash mumkin. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalar predmetning belgilari, rangi, shakli, tuzilishini, kattaligini va boshqalar haqidagi bilimlarini mustahkamlab boradilar xilma-xil sensor tajribaga ega bo'ladilar, tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari boyiydi. Didaktik o'yinlarning o'zi ham tasvir mazmuni bo'la oladi. Bolalar qiziqish bilan didaktik materialni tayyorlaydilar. Tasviriy faoliyatning bolalarning tabiat bilan tanishtirish, nutq o'stirish, musiqa mashg'ulotlari bilan bog'liqligi. Tabiat hamma vaqt tasviriy ijodiyotning mazmuni bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning rasmlari tabiat haqidagi bilimlarini aniqlash-tirish, mustahkamlash uchun yordam beradi, bundan tashqari bolalarda o'sha kasbga nisbatan estetik xis—tuyg'ularni uyg'otadi, bu esa hayotlarini yanada mazmunli va qiziqarli qilishga yordam beradi.

Rasm, loy, qirqib yopishtirish mashg'ulotlarining nutq o'stirish bo'yicha olib boriladigan ish bilan o'zarob bog'liqligi juda muhimdir. Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarga ertak, hikoya o'qib berishadi, she'rlar yod oldiradilar. Bolalarda bu ishlar davomida obrazli tasavvur shakllanadi va ular ertak va she'rdagi obrazlarni o'zlaricha tasvirlab, unga nisbatan munosabatlarni bildirishga intiladilar. Bunda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari qo'l keladi, bu mashg'ulotlar davomida bundan tashqari nutq boyligini o'stiriladi, uni obrazli ifodalar boyitib boradi.

Tasviriy faoliyat va musiqaning uzviy bog'liqligini ham bolalarning estetik, ijodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bog'cha

yoshidagi bolalarga musiqali asarni tasvirlab berishni taklif etilsa, bu taklif ularda jonli qiziqishni uyg'otadi. Bu bolalarda ijodiy izlanish, mustaqillik kompozitsiyasini tuzish qobiliyatlarini o'stiradi. Bolalarning tasviriy faoliyatlarini tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirib olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar tasviriy san'at namunalarini kuzatib borar ekanlar, ular rassomlarning ijodi bilan kengroq tanishib qolmay, surat chizishda mazmun, rang, shakl tanlashda muhim ko'nikmalarни egallab oladilar, san'at go'zalligini, boyligini ko'ra bilishga o'rganadilar. Shunday qilib, maktabgacha ta'lif muassasasida tasviriy faoliyatni boshqa faoliyat turlari bilan qo'shib olib borish bolalar hayotini boyitadi va tarbiyaviy ish samaradorligini yanada oshiradi. Yana bir muhim tomoni shundaki, o'yinlarda, zal va guruh xonalarini bezashda bolalarning ishlari kerak, ya'ni bolalarning ishlari ularning hayotida kattagina joy egallashi kerak.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari-bu rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg'ulotlaridir. Bu mashg'ulotlar Maktabgacha ta'lif muassasasining barcha guruhlarida aniq bir vaqtida, rejim asosida uyushtiriladi.

I kichik guruhda yilning boshida uncha katta bo'lmagan guruhlar bilan, yilning ikkinchi yarmidan boshlab butun bir guruh bilan uyushtiriladi.

I kichik guruhda mashg'ulotlar yilning birinchi yarmida 5-7 minutdan asta-sekin 10-15 minutgacha cho'zilib boriladi.

II kichik guruhda 15-20 minutgacha, o'rta guruhda 20-25 minutgacha. Katta tayyorlov guruhda 30-35 minut o'tkaziladi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli uyushtirish, unga zarur bo'lgan materiallarni o'z vaqtida tayyorlashga ham bog'liqdir. Bu tayyorgarlik ishlari quyidagilardan iboratdir:

a) Tarbiyachi rasm va applikatsiya mashg'uloti uchun kerakli kattalikdagi va rangdagi qog'oz varaqlarini tayyorlaydi (tasvirlanadigan predmetning tuzilishiga ko'ra). Qog'oz varag'iga oldindan orqa tomoniga bolalarni ismi, familiyasi, mashg'ulot o'tkaziladigan sana yozib qo'yiladi.

Tarbiyachi oldindan qalam uchlarini ochib qo'yadi (albatta 4-5 qalam ortiqcha qilib tayyorlab qo'yiladi).

b) Katta tayyorlov guruhlarida bolalar qo'proq akvarel bo'yog'ini ishlata dilar. Oldindan bo'yoqlar ho'llangan bo'lishi lozim. Mo'yqalamlar yaxshilab yuviladi.

d) Mashg'ulot uchun lattalar, bankachalarni tayyorlash zarur. Suv bankalarga mashg'ulot boshlanish arafasida qo'yiladi.

e) Applikatsiya uchun rangli qog'oz yig'masi tayyorlanadi (ortiqcha miqdorda).

f) Klester (undan tayyorlanadi).

g) Loy haftada bir marotaba tayyorlanadi, polietilen plyonkalar-da saqlanadi. Tarbiyachi har bir bola uchun loy parchasini qo'yish uchun taxtachalar, katta tayyorlov guruhlari uchun ko'rgazmalar, harakatlanuvchi taxtachalar tayyorlaydi, ho'l yoki nam lattalar berilishi kerak.

h) Plastilin ham rangi bo'yicha tayyorlanib, rangdor mayda detallarni yasash jarayonida beriladi. Ko'proq katta guruhlarda beriladi, oldindan issiqda yumshatib qo'yiladi.

i) Maktabgacha ta'lim muassasasidagi ko'rgazmali materiallar

bo'lishi lozim. Masalan: predmetlar o'yinchoqlar, illyustratsiyalar, xalq amaliy dekorativ san'at namunalari.

j) Har bir guruhda bolalar ishining tahlili uchun ko'rgazmalar bo'lishi kerak. Mashg'ulot uchun zarur bo'lgan materiallarning har biri aniq, bir joyda, faoliyat turlariga qarab saqlanishi kerak, navbatchilar bunda ularni mashg'ulot uchun tayyorlay olishlari lozim.

k) O'rta guruhdan boshlab bolalar ham tarbiyachi bilan birgalikda mashg'ulotga tayyorlanib, jarayonga ya'ni navbatchilikka jalg qilinadi. Har bir guruhda, har bir bola yoki navbatchilar vazifalarni tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi.

I kichik guruhda: Tarbiyachi guruhda bolalarni mashg'ulotdan keyin o'z jo'yini tartibga solishga, ya'ni qolgan loyni, mo'yqalamni, salfetkani, qalamni tarbiyachiga berishga o'rganadilar.

II kichik guruhda: yilning boshida tarbiyachining o'zi materiallarni tayyorlaydi, so'ng alohida bolalarni materiallar tayyorlashga jalg etadi. Bu navbatchilik emas, balki ba'zi bolalar uchun topshiriqlar berish hisoblanadi. (yil davomida tarbiyachi hamma bolalarni mehnat topshiriqlarini bajarishga jalg etishi lozim). Mashg'ulotdan so'ng bolalar, har bir o'z stollaridagi narsalarni oldin umumiy stolga olib kelishga o'rganadilar, so'ng tarbiyachi o'z

yordamchilari bilan mo‘yqalamlarini yuvadi, salfetkalarni yig‘ib oladi.

O‘rta guruhda. O‘rta guruhda ham yilning boshida huddi II kichik guruh kabi topshiriplar beriladi. Yilning ikkinchi yarmida tarbiyachi bolalarni navbatchilikka jalg etadi. Ular bankalarga suv quyadilar, bo‘yoqlarni qo‘yib chiqadilar va boshqalar. Mashg‘ulotdan so‘ng bo‘yoqlarni joyiga olib borib, suv va mo‘yqalamlarni yuvib, joyiga qo‘yadilar.

Katta guruhda. Katta guruhdagi navbatchilar stol va stollarining qay tarzda turishini nazorat qilib, mashg‘ulotdan so‘ng stollar ustini artib chiqadilar, ular loy, bo‘yoqni, mo‘yqalamlarni stol ustiga qo‘yib chiqadilar. Yelim ham qo‘yib chiqadilar. Taxtachalarni yig‘ib, bankachalarni yuvib joyiga qo‘yadilar, qaychilarni tarqatib, mashg‘ulotdan so‘ng yig‘ib chiqadilar.

Tayyorlov guruhida. Bu guruhda navbatchilikka katta mustaqillik beriladi. Tarbiyachi bolalarga, navbatchilarga mashg‘ulot uchun nimalar kerak bo‘lishini aytadi, navbatchilar ularni tayyorlaydi. Tarbiyachi kuzatadi.

Mashg‘ulotga tarbiyachining tayyorlanishi

Mashg‘ulotni boshlashdan avval, tarbiyachi albatta o‘zi tanganan natura, o‘yinchoq, illyustratsiya va o‘zi bolalarga nisbatan qayerda turishi kerakligini aniqlab oladi. Mashg‘ulotdan oldin tarbiyachi albatta chizishni, loydan yasashni, qirqishni mashq qilishi lozim. Bu esa tarbiyachiga uni tasvir etishning yil va vositalarini aniqlab olish va qay bir murakkab qismi ustida ko‘proq ishlashni va bolalarning diqqatini ham shu yerga ko‘proq tortish imkonini beradi. Mashg‘ulotga tayyorlanish jarayonida tarbiyachi metodik adabiyotlarga murojaat etadi, qay bir metod va usullarni qo‘llash mumkinligi ustida ishlaydi. Tarbiyachi mashg‘ulotni tashkil etishga tayyor bo‘lgach, bolalarni o‘yin faoliyatidan asta ta’limiy faoliyatga ko‘chirib o‘tadi. Mashg‘ulotni tashkil etish momenti bir ikki minutni tashkil etadi. Bu qism mashg‘ulotga qarab turlicha uyush-tirilishi mumkin. Masalan: bolalarni tasvirlashlari kerak bo‘ladigan predmet yoki illyustratsiyalarni ko‘rishni, kichkintoylarga esa o‘sana narsa bilan o‘ynashi, qo‘li bilan tegishi mumkin bo‘ladi. Kichik

guruhdan boshlab bolalarni sekin asta, shovqinsiz, stol atrofiga o'tirishga o'rgatamiz. Mashg'ulotning turiga va mazmuniga qarab, bolalar turlicha o'tkazilishi mumkin. Masalan: kichik guruhda yarim oysimon shaklda o'tkazish mumkin. Bunda tarbiyachi har bir bolani ko'radi va yordam ko'rsatish maqsadida har birining oldiga borishi mumkin.

III. Hamma mashg'ulotlar uch qismga bo'linadi:

Mashg'ulotning boshlanishi—topshiriqni tushuntirish;

Mashg'ulotning borishi—topshiriqni bolalar tomonidan bajarilishi;

Mashg'ulotning yakuni—bolalar bilan bajarilgan topshiriqni tahlil qilish.

I va II qismlar bolalar yoshi va topshiriqqa qarab 2-5 minut-gacha davom etishi mumkin, 1-qismda tarbiyachi bolalarga ular bajaradigan topshiriqni xabar beradi. Tarbiyachining tushuntirishi emotsional, ijodiy kayfiyat tug'dirishi lozim. 2 - qismda tarbiyachi bolalarni berilgan topshiriqni bajarishga kirishishlarini tekshiradi. Bola ishi o'rtasida pauza bo'lmasin, bola bir topshiriqni bajardimi, keyingisiga darhol o'tishlari, bajarishlarini kuzatish lozim. Mashg'ulot davomida bolalar tinch ishlashga, o'z o'rinalidan so'roqsiz turmaslikka o'rganadilar. Katta guruhdagi bolalar dastavval tarbiyachi ruxsati bilan, keyin o'zлari suvni, mo'yqalamni o'z joyiga qo'yadilar. Kichik guruhda bolalar mustaqil bo'lмаганлари uchun ko'proq tarbiyachining o'zi bolalar oldiga kelib turadi. O'rta guruhdan boshlab bolalar tarbiyachiga qo'llarini ko'tarib, murojaat etishga o'rganadilar. Bolalarni asta-sekin mustaqil ishlashga o'rgatib boriladi. Bor bo'lган qiyinchiliklarni o'zлari hal etish yo'llarini o'rganib boradilar. Mashg'ulotni yakuniga 5 minut qolganda bolalar ogohlantiriladi. Bu narsa kichik guruh bolalari uchun ortiqcha hisoblanadi, chunki ular hali bu aloqani egallamagan bo'ladilar. Kichik guruhdan boshlab bolalarga agarda ishini oldinroq tugatgan bo'lsa, o'zi yana rasmni element bilan boyitishni taklif etiladi. Tarbiyachi ishni tugatishni qat'iyan taklif etsa bolalar hammasi ishni tugatishi va tarbiyachi kunning ikkinchi yarmida bolalarga o'z ishlarini tugatib olishga imkon yaratishi lozim.

Bolalar ishini tahlil qilish muhim metodlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bolalar ishlarining tahlili ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyat-

ga ega. Bolalar ishlari devoriy ro'znama qilib osiladi. Bolalar devoriy ro'znomadagi ishlarini yaxshilab ko'rib chiqadilar. Tarbiyachi bolalarning fikrlarini so'raydi va bolalar ishlariga umumiy baho beradi. Mashg'ulotdan so'ng bolalarga o'z ishlarini ko'rib chiqish uchun yana bir bor imkoniyat yaratib beradi. Agar mashg'ulot cho'zilib, vaqt qolmasa, sayrdan keyin yoki kunning ikkinchi yarmida amalga oshirish mumkin. Bolalar ishlarida tarbiyachi ota-onalar uchun burchak tashkil etadi va bolalar ishlarini u yerda keyingi mashg'ulotgacha qoldiradi. Albatta ular dastavval yaxshilab bezatiladi. Ularni turliche bezatish mumkin. Masalan: pasport sifatida. Pasport bolalar ishidan katta bo'lib bolalar ismi, familiyasi yoziladi va ancha vaqtgacha saqlashga imkoniyat beradi. Agar burchak tashkil etishni iloji bo'lmasa, bolalar ishidan albom qilinadi. Bittadan varaq bir kishiga ajratiladi va varaq ustiga konvert yopishtiriladi. Bolaning ismi yozib qo'yilib, shu konvertga bolaning har bir bajargan ishi qo'yiladi.

Aralash yosh guruhlarda mashg'ulotni tashkil etish o'ziga hos xususiyatga egadir. Bu guruhni 2-3 yuqori guruhga bo'lib, har biri uchun o'zining dastur mazmuni aniqlanadi.(bolalarning hammasi, birlgilikda, bir vaqtida, bir faoliyat bilan shug'ullansa ham).

Bolalarni mashg'ulotlarda o'qitish

O'qitish—maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni elementar bilimlar sistemasi bilan tanishtirishda, "Uch ming yillikning bolasi dasturi" da nazarda tutilgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishda yetakchi rolni o'ynaydi. O'qitish jarayonida bolalarga yangi bilimlarni muntazam berib borish, ular jamg'argan tasavvurlarni aniqlash va sistemalashtirish, bolalarning bilish jarayonlari hamda tafakkur aktivliklarini rivojlantirish amalga oshiriladi.

O'qitish—ikki tomonlama jarayon: mashg'ulotlar kuzatilar ekan, tarbiyachining ta'lif berish faoliyatini, uning bolalarga ta'sir etish imkoniyatlarini hamda bolalarning javob berish reaksiyalarini, o'quv harakatlari sifatini ham baholash muhimdir.

Ta'lif jarayoni bolalarning jismoniy, ma'naviy, mehnat va estetik rivojlanishlariga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ta'lif jarayonini kuzatishning muhim vazifasi uning bola-

larga tarbiyaviy, umumta'lim ta'sirini (kuzatuvchanlik, zehnlilik, aqliy, nutqiy va harakat aktivligi, mustaqillik, ijodiy tashabbusni rivojlanishini) aniqlashdir.

Pedagog har bir mashg'ulotda ta'lif va tarbiyaning o'zaro bog'langan vazifalarini amalga oshirishni esda saqlashi muhimdir. Masalan, bolalarga rasm solish usullarini tushuntirar ekan, u bolalarga predmetni izchil tahlil qilishni, ko'rganlarini tasvirlashni, harakat usullari haqida gapirishni, bo'yodan tartibli foydalanishni, o'rtog'iga halaqit bermaslikni oxirida hamma narsani o'zi joy-joyiga olib qo'yishni o'rgatadi. Shuning uchun tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarning tashqi dunyo haqidagi tasavvurlari qandayligini, ular o'z fikrlarini erkin bayon qila olishlarini, ularning lug'at boyliklari qandayligini aniqlash mumkin. Bolalardagi ma'naviy tasavvur darajasini bajarilgan ishlarni baholashi va shu kabilardagi fikrlari hamda luqmalaridan bilib olish mumkin. Demak, ko'rilgan har bir mashg'ulotlarda dasturning barcha bo'limlari bo'yicha bolalar bilan olib borilgan ishning darajasi xuddi ko'z-gudagidek aks etadi. Tarbiyachi o'tkazadigan mashg'ulotlarning muvaffaqiyati uch shartga: dasturni yaxshi bilishga, ta'lif metodi-kasini egallaganlikka, o'z guruhidagi bolalarning yosh va individual xususiyatlari hamda imkoniyatlarini bilishga bog'liq bo'ladi.

Tarbiyachini nazorat qilish va unga yordam ko'rsatish uchun Maktabgacha ta'lif muassasasi mudirasi barcha yosh guruhlarining dasturini hamda ta'lif metodikasini bilishi, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning psixo-fiziologik xususiyatlarini tushunishi, yangi ilmiy tadqiqotlar va ilg'or pedagogik tajribadan xabardor bo'lishi kerak.

Savollar:

1. Maktabgacha yoshdagagi rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanishida tasviriy faoliyatning o'mi qanday?
2. Bolalarning tasviriy faoliyatlarining rivojlantirish vazifalari nimalardan iborat?
3. Maxsus maktabgacha ta'lif muassasalarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining tashkil etilishi.

Adabiyotlar:

1. Н.А. Грицук, А.Р. Киселева” Преподавание изобразительного искусства в школе для детей с нарушениями слуха”. Учебное пособие Минск-2006. 14-58стр.,64-128стр.
2. Головкина Т.Н.«Изобразительная деятельность учащихся вспомогательной школы».М.:“Педагогика”, 1997 г. 69-81 стр.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. J. A. Rubin Bolalar art terapiyasi 2012. (285-betdan mazmun mohiyati olindi).

2.2. Grafika. Alovida yordamga muxtoj bo'lgan bolalar grafik faoliyatining o'ziga xosligi

Grafika iborasi tasviriy san'at turi sifatida XIX asrga kelib keng qo'llanila boshladi. Bu vaqtgacha esa bu ibora asosan yozuvlarga nisbatan qo'llangan. Uning yunoncha- “yozaman”, “chizaman”, fransuzcha “grafigue”-“chiziqli” so'zlaridan kelib chiqqanligi ham shundadir.

Grafika san'atining turlari va ko'rinishlari ko'p. Ularning nomi shu rasmlarning ishlatilish o'rni, mazmuni va ishlatish texnikasi jihatidan ikkiga bo'lish mumkin.

1.Qo'lda ishlangan rasmlar.

2.Bosma rasmlar.

Qo'lda ishlangan rasmlarga qalam, ko'mir tayoqcha, mo'yqalam, pero va shunga o'xshash asboblarda bevosita yuzaga ishlangan chiziqli rasmlar, shuningdek bo'yoqlar bilan ishlangan rasmlar kiradi.

Bosma rasmlarga esa dastlab biror yuzaga ishlanib, keyin qog'ozga ko'chirilgan suratlar tushuniladi. Bu suratlar qanday materialdan ko'chirilganligiga qarab turlicha nomlanadi. Masalan, linogravura, ksilografiya, litografiya, ofort va boshqalar. Bularga bir so'z bilan *gravyura* deyiladi.

Gravyura fransuzcha so'z bo'lib, “O'ymoq” degan ma'noni bildiradi. Odatda gravyura asarlari, yog'och, temir, linoleum, tosh

va hokazolarga o'yib ishlanadi. So'ngra undan maxsus asboblar yordamida qog'ozga ko'chiriladi.

Bilim yurti va san'at dargohlarida grafika san'ati katta o'rinn tutadi. Turli holdagt diagramma va sxemalar, devoriy va foto gazetalar, chaqiriq, e'lon va plakatlarsiz maktab hayotini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Grafika ishlarini bajarishda harflarning roli katta. Hozirgi kunda har birimiz har qadamda harflarga duch kelamiz. Ular orqali fikrimizni qog'ozda aks ettiramiz. Biz uchun harflar aloqa vositasi, fikr almashish va bayon etish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Yozuv ishlarida qo'llaniladigan qurollardan foydalana bilish grafik ishlarining samarali bo'lishida muhim o'rinni egallaydi.

O'quvchilarga bosma harflarni yozishga o'rgatishda daftар yozib malaka hosil qilinadi. So'ngra alohida qog'ozga faqat chiziq orasida yozishga o'tiladi. Harf yozishda malaka hosil qilingandan so'ng plakat pero bilan, masalan; kitob bizning do'stimiz gapini yozishga o'tiladi. Avval har bir so'z harfdan yozilgani aniqlanadi. "Kitob" so'zi 5 ta harfdan, "bizning" so'zi 7 ta, "do'stimiz" so'zi 8 ta harfdan tuzilgan. Harf oralarida bir katakdan joy qidiramiz. Shuni hisobga olib, birinchi so'zga 19 ta, 2- so'zga 26 ta, 3-so'zga 33 ta katak olinadi. So'zlar orasida 2 katakdan joy qoldiramiz. So'zlarni markazdan 2 tomonga barobar joylashtiramiz.

Devoriy gazetani bezaganda bo'limlar va sarlavhalarga alohida ahamiyat beriladi. Devoriy gazetada rasm ham katta rol o'ynaydi. Shuning uchun devoriy gazetadagi rasmlar yaxshi ishlanishi hamda gazetaning mazmuniga muvofiq bo'lishiga e'tibor berilishi kerak. Devoriy gazeta rasmlari 2-3 xil rang bilan ishlanishi lozim. Devoriy gazetani bezashda va yozishda quyidagilarga e'tibor berilishi lozim :

- 1.Gazeta nomi
- 2.Bo'limlar sarlavhasi,
- 3.Maqolalar uchun ayrim sarlavha va rasmlar,
- 4.Kansovkalar,
- 5.Turli karikaturalar.

Gazetaning bayram va uchrashuv kechalariga bag'ishlangan sonlarida bayram va uchrashuv haqida sh'er va xarakterli sarlavhalar ishlanadi.

Kansovkalar maqola mazmuniga qarab, oxirigi ishlanadigan rasmlardir. Kansovka o'rniga chirolyi geometrik to'g'ri chiziqlar tortilsa ham bo'ladi.

Grafik ishlarni bajarishda harflarning roli katta. Harflar turli xil chiziqlar birlashmasidan tashkil topgan bo'lib, bu chiziqlar harf elementlaridir. Harfni yozishda pastga tushuvchi chiziqni harfning asosiy chizig'i pastdan yuqoriga chiquvchi chiziqni esa birlash-tiruvchi chiziq deb ataladi.

Grafika mazmuni va ishlatish texnikasi

Devorlarga ishlangan turli rasmlar polotnolarga chizilgan sur'at kino va teatr dekoratsiyalari shu san'at turiga kiradi. Rang tasvida rang muhim o'rinni egallaydi. Rang tasvir asarlari o'zining vazifasi va ishlanish uslubiga ko'ra *monumental, dastgoh, dekorativ* turlarga bo'linadi.

MONUMENTAL – me'morchilik bilan bog'liq bo'lib, bu turdag'i asarlar mustaqil mazmunga ega, ularda jamiyat hayotidan olingan muhim voqealar aks ettiriladi.

DASTGOH – hozirgi zamon tasviriy san'atda yetakchi o'rinni egallaydi. Odatda u maxsus ramkaga tortilgan matolar ustiga ishlanadi. Bunday rassomchilik asarlari jamiyatda bo'layotgan muhim voqe va hodisalarni aks ettirishdan tashqari shaxsning individual xislatalarini, his-tuyg'ularini to'liq ko'rsatish imkoniyatiga egadir.

DEKORATIV – me'morchilik va Amaliy san'at bilan bog'liq, asosan bezash vazifasini o'taydi. Dekorativ rasmga naqqoshlik san'ati, teatr, kino, dekoratsiyalari kiradi. Dekorativ rasm Monumental rasm singari to'g'ridan-to'g'ri devorga ishlanishi pano, mozaika tarzida bo'lishi mumkin.

HAYKALTAROSHLIK

Tasviriy san'atning turlaridan biri bo'lgan haykaltaroshlik asarlaridan borliq hajmga ega bo'lgan shakllar orqali makonda tasvirlanadi. Haykallar odatda yumaloq va qavariq ko'rinishda bo'ladi.

Haykaltaroshlik asarlari uchun turli xildagi materiallar ishlatiladi. Masalan: tosh-granitda ishlangan haykallar kishida ulug'vorlik, adabiylilik baxsh etsa marmarda ishlangan haykallar nozik ko'rinaldi. Yana haykallar loy, yog'och, metall, marmar, granit, suyak, sement, gips va boshqalardan yasaladi.

Haykaltaroshlikda deyarli rang ishlatilmaydi.

TURLARI:

Monumental haykaltaroshlikka – muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslarga qo‘yilgan haykallar kiradi.

Dekorativ haykaltaroshlik – istirohat bog‘lari, hiyobonlar, ko‘cha va hiyobonlar, me’morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlataladi.

Dastgoh haykaltaroshligiga – o‘zida mustaqil mazmunni anglatigan, san’atning bosh turlariga tobe bo‘lmanas asarlar kiradi. Bunday asarlar ko‘rgazmalarga qo‘yish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

Maktabgacha tarbiya muassasasida har xil qobiliyatga ega bo‘lgan bolalar uchraydi. Ayrim bolalar chirolyi chizadilar, ayrimlari esa yasash qobiliyatiga ega. Kar va zaif eshituvchi bolalarni qanchalik erta faoliyatning biror bir turiga qiziqtira olsak, bolaning estetik tarbiyasi, idroki rivojlanadi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar tasviriy faoliyat jarayonida ularni rasm chizishga qiziqtirish va ularning ijod bilan shug‘ullanishlari quyidagi samaralarni beradi.

Faoliyatning rasm chizish turi bilan shug‘ullanish bolalarni atrof- olamga, insonning ijtimoiy hayotiga, o‘simliklar va hayvonot olamiga qiziqishini kuchaytiradi, ular atrofdagi narsalarni diqqat bilan kuzatishni o‘rganadilar⁴.

Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni estetik sezgisini, tuyg‘usini va estetik tarbiyasini yuqori darajali sur’atlar, portretlar, milliy o‘ynichoqlar, milliy naqshlar va boshqa faoliyat turlari bilan tanishtirmasdan shakllantirish mumkin emas.

Yuqori darajali rasmlarni qiziqish va diqqat bilan kuzatganlaridagina bolalar rasm chizish faoliyatiga qiziqish uyg‘onadi, rasm-larga bo‘lgan munosabatlari shakllanadi. Bolalar o‘zları chizgan rasmlariga ranglardan to‘g‘ri foydalana olishga o‘rganadilar,

Tasviriy faoliyatda tanishtirilayotgan yangiliklar, bilim va malakalar berilayotganda bilim berish va tasvirlab berish yuqori darajada bo‘lishi, hamda yangiliklarni, bilim va malakalarni shakllantirish uchun darsni o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tashkil qilinishi lozim. Ish qurollaridan to‘g‘ri foydalana olish (bo‘yoq, qalam, qaychi...) ish materiallariga ehtiyyotkorlik bilan yondoshish (loy, plastilin, rangli qog‘oz, yelim....). Mashg‘ulot davomida lepka,

⁴ Балкова, Л.М Виноградская, Е.Е. Методика развития речи глухих школьников в младших классах. – Л., 1999

aplikatsiya, konstruksiyalash, predmetli, dekorativ rasm chizishda o‘qituvchi bolalarga bajarilayotgan vazifaning har bir bosqichini ko‘rsatib tushuntirib berishi kerak. Mashg‘ulot davomida har bir bolani nazorat qilib turishi lozim.

Bolalar bo‘yoqlar bilan ishlaganda odatda barcha ranglarni ishlataladilar, ammo ularning ichidan eng yorqin ranglar bilan ishlashni afzal ko‘radilar: qizil, sariq, yorqin yashil, to‘q kul ranglar. Maktabgacha yoshdagি bolalar, odatda bir xil ranglarni moslashtiradilar, xatoliklar faqatgina to‘yintirilgan rang-bo‘yoqlarda kuzatiladi (qizilni-qizg‘ish sabzi rang bilan almashtiradi va hokazo), rang bo‘yoqlari va turlarini nomlashda xatolikka yo‘l qo‘yadilar (pushti rangni-qizil, siyohrang va moviy rangni to‘q ko‘k deb ataydilar), rang nomlarini esa noaniq, buzib talaffuz qiladilar.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar tasviriy faoliyatini boshqarishda, bilish jarayonlarini rivojlantirish, nutqni shakllanishini hisobga olish lozim eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar matabining tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida, rasm chizishni o‘rgatishdan tashqari bolalarni nutqini va eshitish qobiliyatini rivojlantirish ustida ish olib boriladi.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar har bir bola, shaxsiy foydalilaniladigan eshitish apparatining ishga yaroqliligini, ish joyi va o‘quvchilarning joylashganligini tekshirishdan boshlanadi. Tasviriy faoliyatda bolalar ilk bor sur’atlarni kuzatish usuli bilan rasm chizish turlari va janrlari bilan tanishadilar. Bolalar soni kamligi tufayli o‘qituvchi har bir bola bilan alohida shug‘ullanish imkoniyatiga ega. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida nafaqat e’tiborni nutq rivojiga, suhbat, ko‘rib tushunishiga emas, balki rassomchilik faoliyatini o‘zlashtirishiga ham ahamiyat berish kerak. Bolalar chizish mobaynida qiyngalgarlarida, surdopedagog uning o‘rniga chizib bermasdan, balki qiyinchiliklarni yengishga yordam berishi kerak. Masalan: rasmning fazoviy tuzilishi, uning umumiy shaklini yoki kompozitsiyadagi yechimini to‘g‘ri idrok etib, to‘g‘ri chizishga o‘qituvchi yordam berishi kerak. Tasviriy faoliyat darslarining hamma etaplarida frontal ish olib boriladi.

Tasviriy faoliyat mashg‘uloti bolada chizish, bo‘yash, kesilgan qog‘oz parchalari, gazlamalardan aplikatsiyalar, tayoqchalar va sim bo‘laklari hamda boshqa materiallarni yordamida keng va turli obraz-

larni amalga oshirishga imkon yaratadi. Bunda qo‘lning mayda muskullarining aniq harakati muntazam mashq asosida rivojlanib boradi.

Bir vaqtning o‘zida tasviriy faoliyat mashg‘uloti bolalardan intizom va tashkilotchilikni, shu bilan birga jarayon rejasini mahorat bilan muntazam bajarishlarini talab qiladi.

Murakkab badiiy topshiriq oldindan rejalashtiriladi, chunki qilingan bitta noto‘g‘ri harakat, bajariladigan vazifani buzib qo‘y-masligi kerak. Asbob va materiallardan to‘g‘ri foydalanish kerak. Bundan tashqari tasviriy faoliyat davomida bajariladigan ishlarning natijasi vaqt bilan chegaralanmagan. Tayyorlov davridagi dastlabki harakatlar bolalardan sabr-toqat, saranjomlik, rasmni yoki mashg‘ulotni oxirigacha yetkazish xususiyatlariiga moslashishni talab qiladi. Tasviriy faoliyat darslarida kuzatish ko‘nikmasi shakllanadi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan maktab yoshidagilarda predmetni yaxlit ko‘ra olish, predmetning umumiy shakli, proporsiyalari, qismlarini taqqoslay olish, fazodagi joylashuvini aniqlash, yorug‘lik munosabatlarini topish va boshqa malakalarga egaligini aniqlash mumkin.

Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari bolalarda yaxlit va aniq predmet haqidagi tasavvurni shakllantirishga yordam beradi va atrof - olamdagи hodisalarни, predmetlarni tasvirlashga, tafakkurdagi mavjud belgi, shaklga konstruksiyaga, miqdorga, fazodagi holatiga bog‘liq belgilarni ajratishga o‘rgatadi. Bolalar faqat ko‘rganlarini qabul qilmasdan balki predmetlar to‘g‘risida olgan taassurotlariga asosan haqiqiy (real) dunyo hodisalarни rasmlarda, yasash kompozitsiyalarida, yangi asarlar applikatsiyalarida aks ettiradilar.

Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning tasviriy faoliyatda bilishlik faoliyati va nutq shakllanishining xususiyatlari aks ettiriladi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar obyektni idrok qilishda, sog‘lom eshitidigan bolalarga qaraganda xotirada kam belgilarni saqlab qoladilar.

Xotiraga tayanib rasm chizishda ular kam detallar sezilarli darajada qabul qiladilar. Bunda ularga obyekt yaxshi tanish bo‘lsa ham obyektning tuzilishidagi zarur xarakterli qismlarni tashlab ketadilar. Masalan, odamni tasvirlaganda – bo‘yin qismi, daraxt rasmida esa shoxlari qolib ketadi va hokazo. Maktabgacha yoshdagи bolalarda asl predmetga qarab rasm chizishda, ko‘pincha kuzatuv-larga emas, balki berilgan predmetlarni stereotik usulda tasvirlashga harakat qiladilar.

Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar keng hajm-dagi predmetlarning tekislikdagi tasvirini qiyinchilik bilan bajaradilar. Shu o‘rinda uchinchi sinfda eshitadigan tengdoshlari esa – qisman hajmli uzatish usullaridan foydalanadilar, ya’ni tasvirlash usullarini birlashtiradilar, o‘zlashtirish va asl predmetni tasvirlashda ya’ni tasviriy masalalar sharoitida olingen bilimlarni o‘tkazish katta mehnat orqali bo‘ladi, aniq predmetlarni tasvirlash o‘rganilgan usullarni umumlashtirishda qiyinchilikni uzoq his etadi. (ularga ko‘rgazmali sxemali ishlatalishda bosqichli kengaytirilgan bilimlar berish kerak bo‘ladi, har bir kuzatish va tasvirlash bosqichi so‘z bilan ifodalanadi)

Kuzatuv usullarni o‘zlashtirish asli ma’lum bo‘lgan belgilarning bosqichma-bosqich kuzatuvini kiritganda muvaffaqiyatlari o‘tadi, ularni ko‘rgazmali sxemada tasvirlaganda, so‘z bilan ifodalab va ajratilgan belgini chizganda (o‘qituvchilarga doskada o‘quvchilarga rasm daftariga yoki alohida qog‘oz varaqlarida).

Ma’lumki, predmetlarni chizishda kuzatish va tasvirlash usullarini o‘zlashtirish qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda sujetli rasm chizish jarayonida tasavvurlarining aniq, to‘liq emasligi kuzatiladi hamda ularning tasavvurlarida aks etadi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning tasviriy faoliyatini, ma’lum bilimlarning shakllanmaganligini bilish birinchi sinfga kirgan, maktabgacha davrdagi faoliyatning kvalifikatsiyalangan boshqarish davriga bog‘liq. Odatda birinchi sinf o‘quvchilarida rasmga munosabat o‘qish faoliyati davomida vujudga kelmaydi. Ular darsga kerakli jihozlarni, badiiy materiallarni olib kelishni unutadilar, darsga oldindan tayyorlanishga harakat qilmaydilar, o‘qituvchi tu-shuntirayotgan vaqtida chalg‘itadilar, ish jo‘yini maqsadga muvofiq tashkil etishni bilmaydilar, mehnat ozodaliligiga o‘rganmaganlar (qo‘l bilan cho‘tkalarni artadilar, bo‘yoqda chizadigan qog‘ozlarini, partani, kiyimlarini iflos qiladilar).

Birinchi sinf o‘quvchilarida rasmning asliga qarab rasm chiza olish mahorati shakllanmagan bo‘ladi.

Ular predmetga tasvirlash maqsadida qaramaydilar, balki shoshib bir necha qarashlar bilan qoniqdilar. Bu esa predmet haqida to‘liq va aniq tasavvur berishga yo‘l qo‘ymaydi. Rasm chizish xotiradagi asliga ko‘ra sodir bo‘ladi.

Bunday rasm chizishda predmetni tartibsiz, ketma-ket bo‘lmagan bir ko‘rinishi tahlil qilinadi. Buning natijasida bolalar predmetning umumiy shaklini ko‘ra olmaydilar, uning proporsiyasini aniqlashga ulgurmaydilar, uning tuzilish xususiyatiga tushunmaydilar, qabul qilishga xos o‘zaro munosabatlarni har doim ham tan olmaydilar, muhim belgilarni tushirib qoldiradilar, keraksiz narsalarni ajratadilar va ular predmetni tasvirlashlari go‘yo sodda shaklni uzatadigan sxemali rasmni eslatadi.

Birinchi sinf o‘quvchilari sujetni sust qayta ishlaydilar, chunki obyektni birlashtirishda kompozitsiya fikriga mos fikrlashni fazoviy munosabatlarni o‘rnatishda qiyinchilik keltiradi.

Shu sababli alohida obyektlarni erinibgina chizadilar, o‘zlariga ma’lum xususiyatlariga ko‘ra sodda tasvirlashni bajaradilar.

O‘quvchilar bo‘yoqlar bilan ishlaganda odatda maktab to‘plamidagi barcha ranglarni ishlatadilar, ammo ularning ichidan eng yorqin rang bilan ishlashni afzal ko‘radilar: qizil, sariq, yorqin yashil, to‘q kul ranglar. Birinchi sinf o‘quvchilari bir xil rasmlarni to‘g‘ri chizadilar, faqatgina rang-bo‘yoqlarning turlarida xatolik qilinadi, to‘yingan bir xil (qizilni to‘q qizil, sariq rang bilan va hokazo). Rang bo‘yoqlari va turlarini tanlashda xatolikka yo‘l qo‘yadilar (pushti rangni qizil, siyohrang va moviy rangni to‘q ko‘k deb ataydilar) rang nomlarini o‘zgargan aniq bo‘lmagan nom bilan ifodalaydilar.

Birinchi sinf o‘quvchilari o‘zlarining rasmlarini odatda yorqin lokal rangga, bo‘yoqni aralashtirmasdan, palitrada rang xillarini qidirmasdan bo‘yaydilar, agar bunga o‘rganmagan bo‘lsalar.

Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar rasmning asliga qarab chizganlarida yorug‘lik soyasiga xos bo‘lgan holda uning o‘zgarishi birikishiga bog‘liq. aradatsiyasini ajrata olmaydilar

Yuqorida keltirilgan tasviriy faoliyat jarayonlarida birinchi sinf o‘quvchilarining o‘ziga xos xususiyatlari yaqqol ko‘rinib turibdi, boshlang‘ich sinfda o‘quv yilining oxiriga kelib sezilarli bo‘lib qoladi, o‘rtta sinf o‘quvchilarida esa kam sezildi.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar tasviriy faoliyatini to‘g‘ri yo‘nalishda boshqarishda, bilim jarayoni rivojlanishida nutq shakllanishining xususiyatlarini hisobga olish va birinchi sinfdan yuqori sinfga o‘tganda ularning tugallanishini ta’minlab berish kerak.

Bolaning rang idrok etish qobiliyati u uchun katta amaliy ahamiyatga ega. O'quv, mehnat, maishiy va o'yin faoliyatining rasm chizish mashg'ulotida rangdan to'g'ri foydalanish malakasini shakllantirishga yordam beradi.

Tasviriy ijodiyotda rang alohida rol o'ynaydi.

Bolalar jon dillari bilan rasmlarni qalamlar, bo'yoqlar bilan bo'yaydilar va rangli bo'rchalar, flomasterlarda rasm chizishni yaxshi ko'radilar, rangli plastilinda yasaydilar, rangli qog'ozlardan applikatsiyalar qiladilar. O'quv jarayoni maxsus tashkil etilganda, ular qilgan ishlardan quvonch va qoniqish tuyg'usini xis qiladilar.

Bu vaqtida bolalar qator ranglarni idrok qilishga va qayta turishga bog'liq bilish topshiriqlarini hal qiladilar.

Intellektual faoliyati buzilgan bolalarni estetik tarbiyalash uchun bolalarning rangga bo'lgan emotsiyonal munosabati bezash kabi qo'shimcha imkoniyatlarni yaratadi.

Aqli zaif o'quvchilarning rangni idroklash muammolariga qator sovet va chet ellik olimlarning ishlari bag'ishlangan. Shu bilan birga, rasmlarda rangning aks etishi ko'pincha rang tanlashda xatoliklarga yo'l qo'yishadi. Tadqiqotlarda aqli zaif bolalarning rang idrok etish to'g'risidagi natijalarga qilgan xulosalarini o'rganib chiqamiz.

Eng avvalo, yordamchi maktab o'quvchilarining, shu bilan birga ko'zлari hech qanday shikastlanishga uchramaganlarning ko'rishi sog'lom bolalarnikidan bir muncha farq qiladi.

Buning sababi shundan iboratki, ko'rish analizatorining po'st-log'ini shikastlanishi ko'rish o'tkirligini va rang tanlashning pasayishiga olib keladi. Ba'zi rang sezishning pasayishi 70-80% yordamchi maktabning o'quvchilarida kuzatilishi o'rnatiladi.

Maktab ta'limi davomida rang sezishning rivojlanishi juda sekin boradi. Ammo ko'pgina o'quvchilarda bo'lgan rang sezishning pasayishi shunchalik yuqori, bu holat tasviriy faoliyatda rangni xato va o'ziga xos ishlatishga yagona sabab bo'ladi.

Rasmlarda rang uzatishning kamchiliklari "ruhiy funksiylarning xususiyatlariga, asosiysi, uning nutqida predmet rangini fikrlashni aks ettirishga ko'p miqdorda bog'liq".

Ko‘p o‘quvchilar 2-sinfdan boshlab asosiy to‘yingan ranglarni; sariq, qizil, ko‘k, yashilni to‘g‘ri topadilar. Ammo sust to‘yingan ranglarni atashda bolalarda ko‘p qiyinchiliklar yuzaga keladi.

O‘quvchilar rang tuslarini nomlashda ba‘zida predmetlarning hosil bo‘lishidan bo‘lgan nomlardan foydalanadilar (limonli, g‘ishtli, och yashil). Lekin ko‘pincha ularning nomlarini asosiy ranglarga almashtiradilar (masalan, och yashil rangni yashil, to‘q sariqni qizil, moviy rangni – ko‘k deb nomlaydilar).

Bundan tashqari, aqli zaif o‘quvchilar, uzoq vaqt predmetlarga xos ma’lum rangni doimiy belgisini kerakli tarzda nomini mo‘ljalga olish holatida bo‘lmaydilar.

Ommaviy mактабнинг 1-sinf o‘quvchilari ko‘p hollarda topshiriqni to‘g‘ri tushunadilar va qizil rangdagi predmetnlarni sanab beradilar (svetoferning qizil signali, olov rang), yashildagi (archa, yozda barglar va o‘tlar, pishmagan mevalar), sariq rangli (qum, quyosh, tuxum sarig‘i, gullar).

Ulardan farqli yordamchi mактабнинг kichik sinf o‘quvchilari shunday ko‘p predmetlarni aytib beradilar, ularga shu rang doimiy, xarakterli belgi bo‘lib hisoblanmaydi.

Bularga o‘quvchilarning e’tiboriga tasodifan tushgan predmetlar: o‘quv qurollari, kiyim, o‘yinchoqlar, mакtab jihozlari kiradi.

Rang ajratish funksiyasining pasayishi va predmetlarning bo‘yashini aytib past fikrlash rasmlarda va aqli zaif o‘quvchilarning tasviriyati jarayonida aks etadi.

Eng avval rangli qalamlardan foydalanishning maxsus xarakterini belgilash kerak. Masalan, birinchi sinf o‘quvchilari ularni tasvirlashga odatiy asbob deb ishlata dilar, to‘g‘ri ranglardan foydalanishni tushunmaydilar. Ko‘p o‘quvchilar konturli rasmni duch kelgan rangda harakat qilib, katta tirishqoqlik va saranjomlik bilan uzoq vaqt bo‘yaydilar.

Boshqalari esa, rasmning ko‘p detallarini tuzatmasdan bir necha minutdan keyin topshiriqni to‘xtatadilar.

O‘quvchilarni tanlangan va tavsiya etilgan rasmlarini bo‘yab chiqishning mazmuni kam qiziqtiradi. Odatda ularning e’tiborini shtrix o‘tkazish jarayoni qiziqtiradi.

Aqli zaif o‘quvchilarning rasmlarini tahlil ko‘rsatishicha, bolalar qo‘liga birinchi tushgan qalam bilan yoki rasmning u yoki bu de-

talning turli ranglariga bo'yaydilar. Masalan, bunday o'quvchilari-miz pedagogik tasviriy eksperiment vaqtida quyonni mos uch xil rangga: qizil, sariq va ko'k rangga, qizil, sariq va ko'k rangga, filni – ko'k va qo'ng'irga, ayiqni yashil, otni – qizil, qo'ng'ir, binafsha rangga bo'yaydilar.

Adabiyotlarda obyektlarning alohida qismlari turli ranglarga bo'yalganligi hollari uchrashi yozilgan.

V.M.Bexterev tadqiqotlarida, bitta qo'li qizil rangga, ikkinchisi esa ko'kka bo'yalgani qayd etiladi. YE.I.Shnotyev ma'lumotlariga ko'ra, bunday rang uzatish usuli sog'lom 3 yoshli bolalarga xarakterli ekanligi, bu holda tasvirlash jarayoni o'ziga xos bo'yash o'yini bilan almashtiriladi.

Qaysidir predmetning tasvirini qaytarib, bola o'zining didiga qarab rangini o'zgartirishi mumkin. Ba'zida archaning birinchi tasviri yashil rang bilan; ikkinchisida boshqa duch kelgan: qizil, ko'k, sariq va boshqa ranglarda bajariladi. Bu maktabgacha yoshdagagi sog'lom rivojlangan bolalarning xususiyatini I.P.Sakulina ta'kidlaydi.

Muallifning fikricha, ba'zi predmetlarning sekin-asta lokal rangi bolalar tomonidan majburiy belgi sifatida o'zlashtiriladi. 5-6 yoshda bolalar predmet tasvirini va tabiat hodisalarini ularni haqiqiy rangiga xos, lekin umumlashtirib, xarakterli tuslarisiz bo'yaydilar.

Ammo shu bilan bir qatorda tasvirlanayotgan predmetning real bo'yog'iga bog'liq bo'lmasdan rang tanlash san'atini saqlash davom etadi.

Sanulina N.P. hisoblashicha, maktabgacha yoshdagilarda rasmida rangni ishlatishda ikkiyoqlama munosabat kuzatiladi: rang bezak sifatida va rang tasvirlanuvchining bo'yashni uzatish sifatida. U yoki bu munosabatni yengish, bu birinchidan: bolalarni rang bilan tanishtirishning pedagogik usullariga ko'pincha bog'liq yoki rivojlanishining ko'rsatgichi; ikkinchidan, bolaning umumiyl holatining belgisi. Qanchalik uning ruhiyat muhitiga moslashgan bo'lsa, shunchalik rasmda haqiqatga yaqin tabiiy ranglar bo'ladi. 8-9 yoshli aqli zaif bolalarga tayyor konturli tasvirlarni bo'yashni tavsiya qildik.

Ba'zilarining haqiqiy predmetlarning rangini noadekvat uzatishi, ularning bilish faoliyatlarining buzilishidan dalolat beradi. Predmet elementlarining idrokni yetarlicha differensiallanmaganligi, ayniqsa, rangli tuslar bilan, naturadan rasm chizishda ko'rinib qoladi.

Misol keltiramiz. Yordamchi maktabning I va II sinflariga biz tomonidan turli rangli kubiklardan tuzilgan minora, naturadan chizish taklif qilinadi. Qurilish 8 elementdan tashkil topdi, ulardan har biri lokal rangga ega bo‘ldi; ulardan ikkitasi kam to‘yingan. O‘quvchiga qisqa ko‘rsatma berildi: “Predmetga diqqat qilib qara va uni chiz. Keyin esa ko‘rganiningdek chiz va uni bo‘yab qo‘y”. Hech qanday qo‘shimcha tushuntirish va ko‘rsatmalar berilmadi.

Kichik sinf o‘quvchilarining 60% i obyekt elementlarini uzatishda u yoki bu xatolikka yo‘l qo‘yadilar. Eng ko‘p yoyilgan xatoliklarga to‘q va och ranglarning ko‘k va osmon rangni, och yashil bilan to‘q yashilni aralashtirib ketishi bo‘ldi.

Bundan tashqari, ba’zi vazifalarda (5%) qurilish elementlarining rangi naturadagiga mos kelmadи.

I va II-sinf o‘quvchilarining topshiriqlarda ranglarni uzatishda muhim farqlari kuzatiladi, ammo III sinf o‘quvchilari rasmlarni nisbatan ancha yuqori darajada bajaradilar. Xususan, III sinfda uchta element noto‘g‘ri bo‘yalgan topshiriqlar bor, bundan tashqari ko‘p rasmlarda faqat bittadan xatolikka yo‘l qo‘yilgan. Ko‘rib chiqilgan hollarda rasm chizishni bajarishning hamma etaplarida, o‘quvchilar hech qanday yordam olmay, mustaqil harakat qildilar.

Tajriba ko‘rsatishicha, kichik sinf o‘quvchilari topshiriq bajarish oldidan obyektni har tomonlama tahlil qilib, uning har bir qismini to‘g‘ri aytsalar ham noto‘g‘ri bo‘yashlarga yo‘l qo‘yadilar. Topshiriq bajarish jarayonida xususiy motivlariga suyanib, ular noadekvat ranglar bilan asoslanmay foydalanadilar.

Yordamchi maktabning o‘quvchilari yorqin, to‘yingan ranglarni ishlatishtga katta qiziqish ko‘rsatishlarini ta’kidlash mumkin. Ayniqsa, bu I va II sinf o‘quvchilariga taalluqli, ular ba’zida rasmga yorug‘lik va ravshanlik kiritish uchun qalamning grifelini suvda ho‘llaydilar. Rasmni rangli qilishga katta xohish, o‘quvchilarning yorqin ranglarni tanlashga imkon beradi.

Ko‘p o‘quvchilar o‘zlarining rasmlarida qalamlar yoki bo‘yoqlar to‘plamining hammasini ishlatishtga harakat qiladilar. Ko‘p ranglilikka intilish o‘z fikrlari bilan bajargan topshiriqlarida emas, balki naturadan olinganida ham namoyon bo‘ladi. Bu qirra dekorativ rasmlarga ham xosdir. O‘quvchilarda rangga bezak sifatida

munosabat uzoq vaqt saqlanib qoladi. Hatto yuqori sinf o'quvchilari ba'zida predmetni "o'zlaricha" bo'yashni ustun qo'yadilar.

Ayniqsa, dekorativ xarakterdagi vazifalar yo'l-yo'l bo'ladi, rangli kontrast bo'yicha joylashgan elementlar hamma rangga bo'yaladi. O'quvchi predmetning lokal bo'yog'ini emas, balki rasmga dekorativlikning turli elementlarining uzatilishini tez-tez kuzatish mumkin.

Masalan, kubiklardagi rangli chiziqlar, katakchalar, nuqtalar bo'yaladi; gul tuvagini o'simlik bilan qo'shimcha gulli yo'llar bilan bezatiladi.

O'quvchilar bir rangdagi obyektni ko'p rangli qilishga harakat qilsalar yoki dekoratsiyalashtirishga intilsalar, bunda uni yanada yorug', ko'r kam ko'rishga xohish namoyon bo'ladi.

Agar bir qismning rangi naturadagidek uzatilsa, boshqalari esa ixtiyoriy o'zgarib ketsa, bu aqli zaif o'quvchilarga xos rangni sezishlarining va ularga berilgan ko'rsatmani fikrlashlarining yetishmaslididan dalolat beradi.

Ko'p rangli detaldan tuzilgan obyekt rasmini o'quvchi bir xil rangga bo'yasa, bu uning maqsadga yo'naltirilgan faoliyatining qat'iy pasayib ketganligi, obyektning o'zini shu bilan rasmni idrok etishini passivligini ko'rsatadi.

Rangli garmoniyani idrok etishni pasayganligi va rasmlarning turli rangdaligi rangni idrok etish madaniyatining yetishmasligi to'g'risida, rassomchilik didining, chiroqli tuyg'u tarbiyasining pastligidan dalolat beradi. Bolalar topshiriqlarini tahlil qilish va tasviriy faoliyat jarayonini kuzatish shunday xulosa qilishga yordam beradi, rangni uzatishdagi xatoliklar va o'ziga xoslik bir nechta sabablarga ko'ra sodir bo'ladi;

rangni sezishning pasayishidan o'quvchi bo'yalgan predmetga mos rangni aniqlash holatida emas;

predmetlarning rangini idrok etish va fikrlashning yetishmasligi, passivligidan, faol lug'atda mos ranglarning nomlanishini yo'qligidan predmetlarning yoki qismlarining ranglarini noto'g'ri uza-tishilishi hosil bo'ladi;

solishtirish "texnikasi" ning yo'qligi, rangli qalamni predmet yoki uning qismlari bo'yalgan rangga solishtirishga imkoniyat bermaydi;

maqsadga qaratilgan faoliyatning rivojlanmaganligi rasmni “hamma ranglarga” mexanik bo‘yashga olib keladi;

so‘zlash ko‘rsatmasiga munosabatini shakllanmaganligi noadekvat harakatlarga olib keladi; buning natijasida ko‘p rangli predmetning rasmi qandaydir bitta yoki bir nechta naturaga mos kelmagan ranglarga bo‘yaladi;

estetik didining yetarlicha rivojlanmagani, bolani rasmlarda kerakli ranglarni qo‘shishni amalgalash oshira olmasligiga olib keladi. Ranglardan foydalanishdagi xatoliklar birinchi navbatda yordamchi maktab o‘quvchilarining aqliy yetishmasligi bilan bog‘liqidir, yana boshqa faktorlarni ham gapirib o‘tish kerak. Bularga tasviriy faoliyat natijalari bog‘liq bo‘lad. Yana shundy kamchiliklar – e’tibor hajmini kamayganligi va qat’iyatsizlik aqli zaif o‘quvchilarda uchraydi.

Yordamchi maktab o‘quvchilarida ranglarni ajratish masalasi va nomlarini to‘g‘ri aytish, ularni o‘z rasmlarida model rangiga mos qilib foydalanishdan ko‘ra tez ishlab chiqariladi. Rangli qalamlarni differensiallash va nomlash naturadan rasm chizishga ko‘rsatilgan rangli predmetlarning analogik faoliyatiga qaraganda tezroq va yengillik bilan sodir bo‘ladi.

Yosh ulg‘ayishi bilan ta’lim va tarbiya ta’sirida faoliyat xarakteri va rasmlarning o‘zi o‘zgaradi. O‘quvchilar naturadan rasm chizishda rang tuslarini uzatishda kam xato qiladilar. Bolalar nisbatan tez-tez ranglarni simmetrik joylanishidan foydalanadilar; foydalanilgan ranglar soni keskin qisqaradi. Ammo yordamchi maktab o‘quvchilarining rangli materiallar bilan ishlashi sog‘lom bolalarga nisbatan ancha chegaralangan. Shunga ko‘ra, o‘qituvchi oldida qator maxsus topshiriqlar turadi, ularni yechishga to‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulotlar yordam beradi.

Savollar:

Aqli zaif bola uchun rangni bilish va ularni ajratish malakasi qandy ahamiyatga ega?

Yordamchi maktab o‘quvchilarini ranglarni va ularning tuslarini nomlashda, ajratishda, bilishda o‘ziga xoslikning sabablari qanday?

Rasm chizish vaqtida oligofren bolalarda maxsus ranglardan va rang qo‘shilmalaridan foydalanish nimada namoyon bo‘ladi? Shu

yoshdag'i sog'lom bolalarning rasmlaridan ularning rasmi nimada farq qiladi?

Korreksion-tarbiyaviy topshiriqni qanday yo'naliishda qurish mumkin?

Rasm chizish jarayonida o'quvchilar faoliyatiga umumiy xarakteristika

Tasviriy faoliyat o'zicha ixtiyoriy rivojlanmaydi. Faqat ta'lim ta'sirida u maqsadga muvofiq, oldindan rejalashtirilgan xarakterga ega bo'ladi. Uni har bir bosqichda nazorat va boshqarish mumkin bo'ladi.

Tasviriy faoliyatning rivojlanishi va shakllanishida ta'lim yetakchi rol tutishi eksperimentlarda isbotlangan. Rasm chizish ta'limi bolaning har tomonlama rivojlanishi sifatidagi so'zsiz vositalardan biri deb qabul qilingan.

Pedagogik jarayon korreksion yo'naliishga ega bo'lishi uchun rasm ta'limini o'rgatish yo'lida o'quvchilarining faoliyat xususiyatlari hisobga olish kerak. O'quvchi rasm yaratishning har xil bosqichlarida bajaradigan aqliy harakatlar soniga quyidagilarni kiritamiz:

- a) tasviriy topshiriqlarni va berilgan vazifaning oxirgi natijalarini fikrlash;
- b) har xil turdag'i ko'rsatmalarni tushunish;
- d) ko'rgazmali idrok etuvchi obyektning xususiyatlarini oldindan fikrlash (natura yoki namuna);
- e) tasviriy faoliyatni rejalashtirish;
- f) o'zining ishga nazoratni amalga oshirish;
- g) tasviriy faoliyat va uning natijalarini o'zicha baholash

Yordamchi maktab o'quvchilarining umumiy rivojlanishi nuqsonli asosda sodir bo'lar ekan, aqliy operatsiyalar rasm chizish vaqtida o'ziga xos g'alati kechadi. Bu holat korreksion-tarbiyaviy vazifada hisobga olinishi kerak.

Aqli zaif o'quvchilarining rasm chizish mashg'uloti jarayonidagi umumxarakteristikasini ko'rib chiqamiz.

Tasviriy masalalarni va oldida turgan ishlarning natijalarini fikrlash. Aqli zaif o'quvchilar, ayniqsa, kichik sinf o'quvchilari oldilariga qo'yilgan tasviriy topshiriqlarni butunlay mustaqil fikr-

lashlari mumkin. Ular ko'rsatmaga mos o'qituvchi yordamida rasmning boshlang'ich stadiyasini bajaradilar. Ularning harakati ongli ravishda keyingi topshiriq bosqichlarida ham amalga oshirilishi ko'rinishi mumkin. Ammo yaqin orada aniqlanishicha, o'quvchilar o'zlarining xususiy maqsaddan uzoq o'rnatilgan topshiriqlariga rahbarlik qiladilar. Bu barcha turdag'i rasmlarda, ayniqsa, naturadan aniq chizilgan rasmlarda namoyon bo'ladi.

Yordamchi maktab o'quvchilarining tahlil-sintez faoliyati kuchining sustligi, obyekt konstruksiyasini tushunishi va tasvirning qurilish tartibini o'zlashtirish holatiga qodir emaslar. Shunga ko'ra, rasm, o'qituvchining qo'ygan talabini hisobga olmasdan bajariladi.

Vaholanki, faoliyat tashqaridan butunlay qulay kengaytiriladi va o'quvchilar rasm ustida faol ishlaydilar, ularning harakatini avvaldan rejalashtirilgan va maqsadga muvofiq deb bo'lmaydi. Bu to'g'rida bolalar rasmlaridagi xilma-xil xatoliklar va noaniqliklarning ko'pligi aytib turibdi. Ko'rsatma ma'nosiga ahamiyat bermasdan, nimaligini unutib, o'quvchilar qo'yilgan topshiriqn'i ba'zida almashtiradilar va ma'lum darajada soddalashtiradilar. Ular buni qandaydir miqdorda o'qituvchining talabini qondirish uchun majburan bajaradilar.

O'qituvchi tomonidan yo'naltiruvchi harakat chegaralangan xarakter tutgan hollarda, o'quvchilar o'zlarining rasmlarini kamdan kam tuzatadilar, ularni har qanday alohida talab qilmaydigan tasvir variantlari qoniqtiradi.

O'quvchilarda o'zlarining rasmlarini tugallangan ko'rinishda ko'rish istaginiyoq yo'qligi xarakterli. Bu o'quvchilarning o'z faoliyatlarini qisqa motivda, butunlay topshiriqda emas, boshqarishga olib keladi.

Shu tarzda yordamchi maktab o'quvchilarining tasviriy faoliyatini boshlang'ich davri o'ziga xos bo'lib o'tadi.

Adabiyotlar:

1. Н.А. Грицук, А.Р. Киселева" Преподавание изобразительного искусства в школе для детей с нарушениями слуха". Учебное пособие Минск-2006. 14-58стр.,64-128стр.

2. Быкова, Л.М Вишневская. Е.Е. Методика развития речи глухих школьников в младших классах. – Л., 1999

3. Головкина Т.Н.«Изобразительная деятельность учащихся вспомогательной школы».М.: “Педагогика”, 1997 г. 69-81ст

2.3. Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan tasviriy faoliyat jarayonida didaktik materiallardan foydalanishning o‘ziga xosligi

Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari pedagogik o‘ylangan moddiy jihozlanishni: maxsus uskunalar, asboblar va tasviriy materiallari tab qilinadi. Mashg‘ulot o‘tkazish uchun sharoit yaratuvchi barcha predmetlar taxtalar, molbertlar, tagliklar va hokazolar; asboblar: tasviriy jarayonida kerak bo‘ladigan qalamlar, mo‘yqalamlar, qaychilar va boshqa narsalar: tasvir yaratishda ishlataladigan tasviriy materiallari – jihozlash uskunalariga kiradi. Mudira tarbiyachi-metodist bilan birgalikda tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini muvaffaqiyatli o‘tkazish va bolalar ijodiyotini o‘sirish uchun olingan barcha kerakli narsalarini ko‘rib chiqadi, material hamda uskunalardan qanday foydalanilayotganligini, bolalarda ularga nisbatan ehtiyyotkorona munosabat tarbiyalanayotganligini tekshirib chiqadi. Tasviriy faoliyatning har xil turlari turlicha jihozlanadi.

Rasm-predmetli, mazmunli, dekorativ, o‘ylangan fikr bo‘yicha solish mashg‘ulotlari uchun lenoleum qoplangan doskalar (devorga va polga qo‘yiladigan); bolalar chizgan rasmlarni namoyish qilish uchun uchta reykali doskalar; natura uchun taglik; stolga qo‘yiladigan doskalar–yig‘ma molbertlar (katta guruhlar uchun) va boshqalar kerak bo‘ladi.

Guruhsda seksiyalaridan biriga lenoleum, ikkinchisiga flanel qoplangan, uchunchisiga esa reyka qoqligan, uch seksiyali, kombinatsiya qilingan, devorga o‘rnataladigan doskaning bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bolalarning ko‘rish faoliyatini saqlash maqsadida katta guruhlarda sathi qiya turadigan individual taxtalaridan foydalanish maqbuldir, chunki bunday taxtalar nuring ko‘zga burchak ostida emas, balki perpendikulyar yo‘nalishda tushishni ta’minlaydi.

Qalamlar. Rasm solish uchun bolalarga rangli qalamlar nabori kerak: kichik guruhsda beshta qalamdan (qizil, ko‘k, yashil, sariq, va

qora); o'rtalik guruhda-oltita qalamdan (qizil, ko'k, yashil, sariq, qora va jigar rang) foydalaniadi; katta guruhlarda yuqorida aytilgallardan tashqari-qizg'ish, binafsha rang, to'q qizil, pushti zangori, och yashil ranglar qo'shiladi. Kichik guruhlarda qalamlar dumaloq bo'lishi kerak. Katta guruhlarning bolalariga yumshoq grafitli qalamlar ("Школьное", "Искусство" №1) tavsiya qilinadi. Qalamni ishlatishga tayyorlashda yog'och qatlami 25-30 mm olinib, grafiti 8-10 mm ochiladi (rangli qalamlarning yog'ochi kamroq olinishi kerak, chunki ularning o'zaklari yo'g'onroq, qattiqroq bosganda uvalanib, sinib ketadi).

Mo'yqalamlar. Bo'yoq bilan rasm chizish uchun tuki yumshoq va elastik kolonok, olmaxon va shu kabilarning qilidan qilingan dumaloq mo'yqalamlar kerak. Mo'yqalamlar nomerlariga ko'ra farqlanadi: 1-8 ingichka, 8-16 yo'g'on. Kichik guruh bolalariga 12-14 nomerli mo'yqalamlarni berish tavsiya qilinadi. Bunday mo'yqalam qog'ozga bosilganda yorqin, yaxshi seziladigan iz qoldiradi, predmetning shaklini berishni osonlashtiradi. O'rta va katta guruhlar bolalariga ham ingichka, ham yo'g'on mo'yqalamlarni berish mumkin.

Bolalarning mo'yqalamlardan foydalaniishlarini kuzatilar ekan, eng avvalo, ular uni to'g'ri ushlashni bilishlariga, tarbiyachi buni eslatishi va ko'rsatishiga: mashg'ulot vaqtida va tugagandan so'ng bolalar mo'yqalamni taglikka qo'yishlariga (tarbiyachi tagliklarni qalin kartondan yoki uzunasiga ikkiga qirqilgan g'altakdan tayyorlashi mumkin) e'tibor berish kerak. Bolalarga mo'yqalamni suvli bankada qoldirishga ruxsat bermaslik kerak, bunday qilinganda uning tuki egiladi, har tomonga tarqab, shaklini yo'qotadi. Agar tukli mo'yqalamlarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'linsa, ular uzoq muddat xizmat qiladi. Mashg'ulot uchun bo'yoq tayyorlashda uni mo'yqalam bilan aralashtirmaslik kerak, buni cho'p bilan qilish ancha qulay. Akvarel bo'yog'i bilan rasm solishda mo'yqalamning tuklari yelpig'ich singari tarqab ketmasligi uchun uni bosmasdan, bo'yoq yengil yarim aylana harakat bilan olinadi. Ish tugagandan keyin, bo'yoq qurib qolmasdanoq, mo'yqalam yaxshilab yuviladi. Mo'yqalamlarni stakanda mo'yini yuqoriga qilib saqlash tavsiya qilinadi. Mudira mashg'ulot boshlanishidan oldin, qog'oz qanday tayyorlanganligini ko'radi. Rasm solish uchun anchagina qalin, biroz g'adir-budur qog'oz (yaxshisi yarim vatman) kerak. Qalin

yozuv qog'ovi uning o'mini bosishi mumkin. Rasm solish uchun ustiga qalam deyarli iz qoldirmay sirpanadigan yaltiroq va qalam kuchliroq bosilganda yirtilib ketadigan yupqa qog'ozlar yaramaydi. Ish vaqtida qog'oz qimirlamay, bir tekis turishi kerak (bolalar qog'oz holatini o'zgartirishlari mumkin bo'lgan manzarali rasmlar solish bundan mustasno).

Kichik guruh bolalariga rasm solish uchun yozuv qog'ovi kattaligidagi qog'ozni berish tavsiya qilinadi u bolakay qo'lini yozgandagi kenglikka muvofiq keladi. O'rta va katta guruh bolalariga alohida predmetlarni tasvirlari uchun yozuv qog'ozining yarmini (butun qog'ozdan ham foydalanish mumkin) berish tavsiya qilinadi: mazmunli rasmlar uchun kattaroq formatdagi qog'ozni berish kerak. Rasm solish uchun qog'oz tayyorlar ekan, tarbiyachi tasvirlanadigan predmetning tuzilishini va o'lchamini hisobga olishi kerak.

Guash bo'yoqlar bilan rasm solishda to'yingan va yumshoq tondagi rangli qog'ozlardan foydalaniladi. Katta guruh bolalari kerakli rangdagi qog'ozlarini mustaqil tayyorlay oladilar (qog'ozga tus berishda guash va akvarel bo'yoqlardan hamda yo'g'on, yumshoq mo'yqalamlardan foydalanadilar: razmeri unchalik katta bo'limgan yassi bo'yoq mo'yqalamlari-fleyslar qulaydir. Bo'yoq oldin gorizontaliga, so'ngra uning ustidan vertikaliga beriladi).

Bo'yoqlar. Rasm solishda suvli bo'yoqning ikki turi—guash va akvareldan foydalaniladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun pastasimon, shaffof bo'limgan bo'yoqlar—guash qulaydir.

Rang - Bo'yash uchun ishlatalidigan modda, bo'yoq.

Asosiy rang - tabiatdagi sariq, qizil zangori ranglar. Shu ranglarni bir-biriga aralashtirish natijasida boshqa ranglar kelib chiqadi.

Akvarel - lotincha so'z bo'lib suvgaga qoriladigan bo'yoq, shuningdek, "Akvareldan ishlangan rasm" degan ma'noni bildiradi.

Bo'yoq - sirtni yupqa qatlama tarzida qoplaydi, quriganidan so'ng uni yemishdan saqlaydigan va chiroyli tashqi ko'rinish beradigan maxsus qoplovchi modda. Uning moy guash, akvarel, tempera va shu kabi boshqa turlari mavjud. Bo'yoqlar qog'oz, karton, tunuka, gazmol, yog'och va boshqa materiallardan tayyorlangan buyumlarni bo'yash uchun ishlatalidi. Har bir bo'yoq turi o'ziga xos xususiyatga va ishlatalish texnologiyasiga ega. Undan bo'yoq-


chilikda, texnikada, xalq amaliy san'atining ko'pgina turlarida keng foydalaniadi.



Bo'yamoq - Bo'yoq bermoq, bo'yoq surtib bezamoq, sirlamoq.

Guash - suv bo'yog'i degan ma'noni bildiradi. U suvli, uncha tiniq bo'limgan bo'yoq. Guash bo'yoqlari plastmassa, shisha bankachalarda, tyubik holda ishlab chiqariladi. Guash bo'yog'i quyuq qaymoq ko'rinishida bo'ladi. U qurib qolmasligi uchun ustiga glitserin, suv, kuchsiz olcha shirasi va boshqalar quyiladi. Guash bo'yog'ida ishslashning o'ziga xos texno-logiyasi bo'lib, mo'yqalamda oson olinishi, quriganda uqalanib, surkalib ketmasligi, tag qismidagi bo'yoq qavatini bir tekisda to'la berkitadigan bo'lishi kerak. Guash bo'yog'ining tarkibiy bog'lovchisi dekstrin, glitserin hisoblanadi.

RANGLARNI O'RGANAMIZ



Bo'yoqni mo'yqalamda turadigan, undan tomib tushmaydigan, suyuqroq qaymoq quyuqligiday qilib aralashtirilishi kerak.

Bo‘yoqlarni bolalar rangni ko‘rib turishlari uchun qirralari past shaffof bankachalarga quygan ma’qul.

Yopiq qopqoqchali polietilen bankachalardagi guash bo‘yoqlaridan foydalanish qulay: tarbiyachilar bo‘yoqni ularning o‘zida tayyorlaydilar va mashg‘ulotdan so‘ng ularni boshqa narsaga qo‘ymay qoldiraveradilar. Bunda bo‘yoq tejam bilan sarflanadi va uni tayyorlashga ko‘p vaqt ketmaydi. Tarbiyachi bo‘yoqning kerakli rangini chiqarishni bilishi kerak. Akvarel bo‘yoqlar katta va mакtabga tayyorlov guruhlari bolalariga tavsiya qilinadi. Akvarel bo‘yoqlarining farqlovchi xususiyati, bularning kukun qilib maydalangan pigment va ko‘p miqdordagi yopishtiruvchi moddalaridan (bog‘lovchi sifatida) iboratligidir. Kukun qilib foydalanganligi tufayli akvarel bo‘yoqlar o‘zlarining asosiy xususiyatlari—shaffoflik kasb etadilar. Hozirga kunda akvarel har xil ko‘rinishda: qattiq-plita shaklida, yarim yumshoq-chinni formachalarda va yumshoq tubik-chalarda ishlab chiqarilmoqda. Maktabgacha ta’lim muassasasi sharoitlarida yarim yumshoq (formachalardagi) akvareldan foydalinish ma’qulroq. Bolalarning akvarel bo‘yoqlaridan xuddi guash bo‘yoqlari bilan rasm solganidek foydalaniшlariga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Bolalar akvarel bo‘yoqlari bilan rasm solar ekanlar, predmetlar konturini oldin qog‘ozga oddiy qalam bilan tushiradilar. Mashg‘ulotlar va bolalarning mustaqil badiiy va ijodiy faoliyatlarini uchun pastel–turli rangdagi yo‘g‘on sterjenchalar tavsiya etiladi. Pastel to‘plamida har biri bir nechta tusga ega bo‘lgan beshta rang bo‘ladi, buning o‘zi ish uchun tayyor palitradir. Pastel qattiq, yumshoq va o‘rtacha turlarga bo‘linadi. Bolalar uchun yumshoq pastel tavsiya etiladi. Bu bo‘yoq ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni talab etadi, chunki u oson uvalanadi, sinadi. Shuning uchun pastel sterjenining har birini zar qog‘ozga o‘rash kerak bo‘ladi. Rangli mum bo‘rlar sterjen ko‘rinishida 12 dan 36 tagacha rangda nabor qilib sotiladi. Uning bilan ham xuddi pastel singari rasm solinadi. Rangli mum bo‘rlarning afzalligi shundaki, ular bilan qalam chizig‘i qalinligidagi chiziqni chizish mumkin. Shuning uchun mum bo‘rlar bilan rasm chizishda oddiy qalamdan foydalilmaydi. Rangli bo‘rlardan mashg‘ulotlardan bo‘sh vaqtarda taxta (doska) ga rasm chizishda foydalniladi. O‘chirish uchun ikkita – quruq va ozgina namlangan latta kerak: qurug‘i bilan

xatolar yo'qotiladi, rasmga bo'r changi (kukuni) tushurilib, ayrim joylari xiralaشتiriladi: ho'li bilan eng to'q joylari oqartiriladi, oxi-rida esa rasm doskadan o'chiriladi. Rasm solishga mo'ljallangan ko'mir uzunligi 10-12 sm va diametri 5-8 mm bo'lgan yirik ster-jendan iborat bo'ladi. U yumshoq, sinuvchan, uqlananuvchan ma-terial bo'lganligi uchun zar qog'ozga o'ralishi kerak. Ko'mir to'q xira-qora iz qoldiradi. Ko'mir bilan ishslashda uning changini saqlab qoladigan tukli qog'ozlar – gulqog'oz, o'rash uchun ishlatiladigan va rasm solish qog'ozlari ishlatiladi. Agar ko'mir bilan ishlangan rasm ustidan paxta tamponi ozgina ho'llab, rasm solingan qog'oz sathidan vertikaliga yengil surib chiqilsa, bo'yoq yanada mustah-kamlanadi.

Loy va plastilindan narsalar yasash uchun maxsus uskunalar: aylanadigan doirali dastgoh (katta guruhlar uchun), suv solinadigan idishlar, latta; bolalar yasagan narsalarni bo'yash uchun–gruntovka; bundan tashqari, bo'yashda ishlatiladigan maxsus bo'yoqlar–angob-lar kerak bo'ladi. Bolalar ishlagan haykaltaroshlik mahsulotlarini pishirish uchun mufel pechkanning bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bunday pechkani o'quv kollektorlaridan topish mumkin.

Natura yoki namunani namoyish qilish uchun natura uchun mo'ljallangan tagliklardan foydalansa bo'ladi. Karkaslar–turli uzunlik va kenglikdagi oddiy taxtalar ham uskunalarga kiritiladi. Karkaslardan foydalanish bolalarga jonivorlarning oyoqlarini mukammalroq tasvirda va ularning figuralarini barqaror hamda dinamikroq qilishga imkon beradi.

Narsalar yasash mashg'ulotlari uchun plastik materiallar–loy, plastilin kerak bo'ladi, bunda asosiy yasash uchun eng maqbul material, bu loydir. Kichik guruhlarda faqat loydan foydalanaladi, chunki bu yoshdag'i bolalar plastilindan narsa yasashda qiynaladilar. O'rta guruhda ham bolalar asosan loydan narsalar yasaydilar. Rangli plastilindan katta guruhlarda mazmunli narsalar yasashda foyda-laniladi.

Narsalar yasash uchun loy qanday tayyorlanadi?

Turli joylardan olingan loy rangi bilan farqlanadi; u sarg'ish, jigar rang, qizg'ish, kul rang, oq, yashil-ko'kish, qo'ng'ir rang bo'lishi mumkin. Loy, uning tarkibida qum kam bo'lsa, kuchli bo'ladi, qum aralashmasi uni sochiluvchan qiladi. Loyni bevosita

yerning o‘zidan tanlash mumkin. Kuchli loyning yaxshi qatlamlari daryo va ariqlarning yaqinida uchraydi. Shuning uchun shahar bog‘chalari uchun loyni yozda dala hovliga chiqqan vaqtarda jamlab kelish kerak.

Plastilin—loy, mum, yog‘, bo‘yoq va boshqa qo‘shilmalardan tayyorlangan sun’iy plastik massa. U yumshoq va qayishqoq, u uzoq qotmaydi, ammo temperatura oshganda yumshaydi va eriydi. Narsalar yasashda plastilinni qo‘lda uzoq muddat ezish tavsiya qilinadi. Plastilin bilan ishslashdan oldin uni qutisi bilan issiqroq joyga yaqin qo‘yib, biroz isitiladi. Katta guruhlar tarbiyalanuvchilarida plastilinning individual tayyor naborlari bo‘lishi kerak. Ular plastilinning holatini o‘zлari nazorat qilib, qolgan plastilinni rangiga ko‘ra joylab qo‘yadilar.

Applikatsiya mashg‘ulotlari uchun tayyor forma, qog‘oz, qiyqimlar uchun patnis va yuza qutilar; kleyonka; formalarga yelim surish uchun plastmassa taxtachalar (20X15sm): latta, shirach uchun chetlari nast quticha; mo‘yqalamlar uchun taglik; dag‘al jundan tayyorlangan mo‘yqalamlar; to‘mtoq uchli qaychilar; (richaginining uzunligi 18 sm) kerak bo‘ladi. Applikatsiya ishlarida har xil sortli oq va rangli qog‘ozlardan foydalaniladi. Fon uchun oq qalin qog‘oz: rasm albomlarning varaqlari yoki stolga solinadigan rangli qog‘oz, yo bo‘lmasa, yupqa karton ishlatiladi. Predmetning qismlari yupqa qog‘ozdan, yaxshisi yaltiroq qog‘ozdan qirqilgani ma’qul; uning rangi yorqin, ushlaganda qo‘lga xush yoqadi. Maktabgacha katta yoshdagilar har xil rang va tusdagi jilosiz rangli qog‘ozlardan ham foydalanadilar. Katta guruhlarda har bir bola uchun turli rang va tusdagi qog‘ozlar to‘plamiga ega bo‘lish maqsadga muvofiqdir. Tasviriy faoliyatga mo‘ljallangan barcha materiallar sortlarga ajratilgan va ma‘lum tartib bilan har qaysisi joy-joyiga qo‘yilgan bo‘lishi kerak. Qaychilar qutichada saqlanadi. Foydalanim bo‘lgandan keyin bo‘yoqlar bankalarga qayta quyiladi (bankalarning og‘zini bo‘yoq qurib qolmasligi uchun mahkam qilib berkitish kerak). Bankalardagi guash bo‘yoqlari ustiga suv quyish lozim. Qog‘oz dasta qilib taxlanib saqlanadi. Rangli qog‘ozlarni kichikroq bo‘laklarga qirqib, press ostiga qo‘yish mumkin (keyin katta guruhlarda ular individual konvertlarga solinadi). Tartibli joylashtirilgan material kam joyni egallaydi, yaxshi saqlanadi, ulardan foydalanish ham qulay bo‘ladi.

Tasviriy san'at darslari bolalarda yaxlit va aniq predmet haqidagi tasavvurni shakllantirishga yordam beradi va atrof - olamdagি hodisalarni, predmetlarni tasvirlashga, tafakkurdagi mavjud belgi, shaklga, miqdorga, fazodagi holatiga bog'liq belgilarni ajratishga o'rgatadi. O'quvchilar faqat ko'rghanlarini qabul qilmasdan balki predmetlar to'g'risida olgan taassurotlariga asosan haqiqiy (real) dunyo hodisalarni rasmlarda, yasash kompozitsiyalarida, yangi asarlар applikatsiyalarida aks ettiradilar. Bular tasavvur faoliyati yordamida amalga oshadi, uning asosini esa idrok qilingan tasavvurni qayta o'zgartirish malakasi tashkil qiladi. Tasviriy faoliyat badiiy mashg'ulotning bir turi bo'lib, bu yerda bola reproduktiv faoliyat bilan shug'ullanmasdan, balki o'zi ijod qiladi.

Tasviriy faoliyat kichik sinfdagi kar o'quvchilarni aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sensor rivojlanish – bu aqliy faoliyatning poydevori bo'lib, butun maktab yillarida ta'sir etish orqali ko'rgazma-obrazli va ko'rgazma-harakatli tafakkurni shakllantirishdir. Ma'lumki, buyuk olimlarning ijodida texnika va ishlab chiqarish arboblarining ongidagi aqliy va badiiy shakllari muvafqaqiyatlар mos kelgan.

Bolalarda tasviriy san'at darsida ko'rgazmali-amaliy faoliyatida hamma fikrlash operatsiyalari shakllanadi. Tasvirlangan obyektni tekshirib, sinchiklab chiqishda ularning detallarini ajratib, chizayotgan rasmlarni tahlil qiladi, tasviriy tekislikda ushbu detallarni qabul qilib, ma'lum fazoviy qismlarni yaxlit bo'lgan munosabatlariga qarab bir butunlikda birlashtiradi, sintez qiladi, obyektni alohida detallarini o'zaro ko'tarib chiqish va butunligicha nisbatan, u solish-tirishning fikrlash operatsiyasini bajaradi; predmetning umumiyligi shaklini ajratib, o'zining e'tiborini faqat shu ko'rileyotgan obyektga qaratadi; predmetlarning o'xshash xossalari va turli belgilarini birlashtirib, bola ularni tasvirlashga umumlashgan usullarni ishlab chiqaradi.

Ranglarni moslashtirish umumiyligi bo'yoqni, rangini topish bularning hammasi umumlashtirish bilan bog'liq. Predmetning ko'pingina o'xshash qismlaridan ajratishda, rasm chizayotganda konkret hodisalarni fikrlash operatsiyasiga asosan bajariladi. Tasviriy faoliyatda ko'rish va harakat xotirasi ham yaxshi rivojlanadi, ularning o'zaro ta'siri shakllanadi. Chunki tasvirlash jarayonida nafaqat

qabul qilishni, balki turli chiziqchalar va har-xil yo‘nalishdagi chiziqchalarни o‘tkazishni bilish, cho‘tka va boshqa usullar bilan ko‘rgazmalarni qo‘lda kelishilgan holda ishlash o‘rgatiladi. Eng muhimmi avval ko‘rgan predmet haqidagi tasavvuri hamda uni qanday tasvirlanganini va tasvirlash usullarini eslab qolishi kerak.

Tasviriy san’at darslari kar bolalarda go‘zallikni ko‘rish va xis qilishni, ajoyib g‘aroyib narsalarni saqlab va ko‘paytirishni xohlaydilar. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotida o‘quvchilarning shaxsiy sifatlaridan ziyraklik, tirishqoqlik, matonatli bo‘lish tengdoshlari bilan do‘stona o‘zaro munosabatda bo‘lishni, o‘zgalar tomonidan bajargan ishlarga hurmatni tarbiyalash, tabiatga, san’at asarlariga, tarix va madaniyat joylarini asrashga, g‘amxo‘r munosabatda bo‘lishga; bolalarda estetik tuyg‘u va estetik tarbiya rivojlanadi, estetik ongni shakllantiriladi.

Bundan tashqari kichik sinf o‘quvchilari bilan ishlash jarayonida tasviriy san’at darslari psixik xususiyatlarini esdan chiqarish kerak emas. Emotsional kechinmalarni yengillashtirish, yig‘ilib qolgan taassurotlarni zarur ruhiy muvozanatni yuzaga keltiradi.

Shunday qilib, maxsus maktablarda tasviriy san’at darslari asosiy o‘quv fanidan tashqari badiiy bilimlarni va eshitishda nuqsoni bo‘lgan kichik sinf o‘quvchilarida san’atshunoslik asoslari bilan tanishтирish–tarbiya va rivojlantiruvchi usullaridan biri bo‘lib, emotsional va bilish doirasini, og‘zaki nutqini rivojlanishtirishda foydalilanildi.

Tasviriy san’at darslarini eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda og‘zaki nutqining va eshitish, ko‘rish idrokini shakllantirish imkoniyatini beradi. Rasm chizish jarayonida bo‘yoqlar bilan ishlash, applikatsiyalar yasashda bolalar badiiy materiallar va jihozlarning nomlari bilan tanishadilar (Masalan: qalam, bo‘yoqlar, cho‘tka, qog‘oz, loy va rassomlarning bo‘yoq taxtachasi-palitra). Tasvirlangan predmetlarning nomlarini hamda bu predmetlarning ba’zi qismalarini eslab qoladilar (Masalan: hayvonlarning boshi, tanasi, dumi, tishlari, qaddi-qomati, tomirlari va boshqalar). Tasviriy faoliyatga bog‘liq amaliy harakatlarning nomlarini o‘zlashtirib oladilar (masalan, rasm chizmoq, tasvirlamoq va boshqalar) hamda fikrlash operatsiyalarini ifodalovchi so‘zlar, predmet belgilari, ularga taalluqli ranglar, fakturalar, materiallar, holatlarni o‘rganadilar.

Masalan, ko‘rish, kuzatish, solishtirish, umumlashtirish, ajratish orqali predmetlarning xususiyatlari bilan tanishadilar. (to‘q sariq, och ko‘k rang, to‘q yaltiroq, g‘adir-budir, yog‘ochli, quruq, ho‘l va boshqalar)

Tasviriy san’at darslarida u yoki bu so‘zlar yoki tushunchalar ustida ishslash bilan birga o‘quvchilarda nutqiylar talaffuzni o‘z-lashtirishga ahamiyat beriladi. Suhbat davomida, badiiy asarlarni va maishiy predmetlarni kichik sinfdagi kar o‘quvchilar ko‘rkamlikni tushunishga u haqida gapirib berishga, san’at odamlar uchun xizmat qilishini, dunyoni o‘zgartirib yuborishini bilib oladilar. Bularning hammasi o‘quvchilarning ma’naviy tasavvurini shakllantirishda, tarixiy faktlar va obrazlar bilan tanishtiradi.

Maxsus didaktik qurollardan tashqari, oddiy o‘yinchoq va predmetlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Didaktik o‘yin va mashqlar rasm chizishdan oldin bo‘lgan bolalarga ma’lum bo‘lgan mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi. Eng muhim vazifalaridan biri – shaklni, kattalikni, rangni, predmetlarni, fazodagi munosabatini hamda rasm chizish texnikasini o‘zlashtirish malakasi kiradi.

Boshlang‘ich davrda tashkil etilgan o‘yin va mashqlar didaktik vazifa imkoniyatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

Predmetlarning kattaligi bo‘yicha ajratish, nomlash va tanlash o‘yin mashqlari.

Predmetlarning shakli bo‘yicha tanlash, ajratish va nomlash o‘yin va mashqlar.

Ranglarni bilish, ajratish va nomlash o‘yin va mashqlari.

Fazoviy belgililar va munosabatlar to‘g‘risidagi tasavvurni shakllanishiga doir mashqlar va o‘yinlar.

Tasviriy faoliyat usiz bajara olmaydigan alohida bitta guruhnini ajratish mumkin, bu texnik malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun maxsus grafik mashqlar. Qo‘l harakatini rivojlantirish uchun gimnastik mashqlar muhim ahamiyatga ega.

Predmetlarning kattaligi bo‘yicha nomlash, ajratish, bilishga oid mashq va o‘yinlar

Surdopedagogning stoli ustida turli kattalikdagi yassi va hajmli predmetlarning to‘plami turibdi. Bular: kubiklar, sharlar, doira, kvadratlar, matryoshkalar.

Bolalarning harakati predmetlarni yoki ularning qismlarini tanlashga o‘rnatishga, joylashtirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Topshiriqlar berildi. Eng katta kubikni ko‘rsating. Eng ichik sharni ko‘rsating. Eng katta kubikdan boshlab minorani taxlang. Eng katta doiradan boshlab piramida yasang.

Matryoshkalarni kattaligi bo‘yicha kattasidan boshlab bir qatorga qo‘yib chiqing. Eng katta aylanani oling, unga katta kubikni joylang, kubik ustiga eng kichik matryoshkani qo‘ying.

Stol ustida uchta matryoshkadan tashkil topgan turli ko‘rinishdagi uchta to‘plam. O‘qituvchi uchtani chaqirib, matryoshkalarni joylashtirishni, keyin esa ularni eng kattasidan boshlab bir qatorga qo‘yishni tavsiya qiladi. Eng tez bajargan – yutgan hisoblanadi.

Doskaga 5-6 ta lar chaqiriladi. Surdopedagog ularning har birini qo‘liga kartoshka kesib olingen doira beradi: ba’zilariga - katta, boshqalariga esa – undan ozgina kamroq. Keyin esa ularning oldiga geometrik figuralarning kattaligini hisobga olib, ikkita guruhga bo‘linish topshirig‘ini qo‘yadi.

Doskaga ikkita reyka mixlar bilan biriktiriladi. Stol ustida 8-10 ta ikki o‘lchamdagи doiralar qo‘yilgan. O‘qituvchi ikkita bolani chaqiradi. Ulardan biri katta doirani olib, mixga ilib qo‘yish topshirig‘ini oladi. Xuddi shunday topshiriq ikkinchi bolaga yuklanadi. Lekin u kichik o‘lchovdagi doirani olishi kerak. O‘qituvchining buyrug‘i bilan bolalar topshiriqni bir vaqtda bajaradilar.

Kim doirani mixga tez va xatosiz ilib qo‘ysa, shu g‘alaba qilgan bo‘ladi.

Doskaga turli kattalikdagi predmet rasmlari yoki predmetlarning o‘zi mahkamlangan. O‘qituvchi navbat bo‘yicha bolalarni chaqiradi va ular bilan quyidagi tushunchalarni ishlab chiqaradi: katta – kichkina (shar, koptok), baland – past (to‘siq), uzun – qisqa (qalam, arqon), keng – tor (tasma), semiz – ingichka (albom, daraxt).

Doskada mos kattalikdagi predmetlarni mel bilan bolalar rasmni chizadilar.

Shakl bo‘yicha predmetlarni nomlash, ajratish, bilish mashqlari va o‘yinlari.

Surdopedagogning stoli ustiga kubiklar va sharlar turibdi. Kubiklarni qutichanining chap tomoniga, sharlarni esa o‘ng tomoniga joylashtirish topshirig‘i beriladi.

Har bir, bir xil rangdagi geometrik figuralar to‘plamga ega (doiralar, kvadratlar). Ularni 2 ta guruhgaga ajratish topshirig‘i beriladi.

Har bir bir xil rangli geometrik figuralar to‘plamiga ega (doiralar, kvadrat, uchburchaklar). Ularni uchta guruhgaga ajratish vazifasi beriladi.

Ular turli shakldagi figuralar solingan konvertlar oladilar. Bir xil shakldagi figuralarini turli uyumlarga joylashtirish topshirig‘ini oladilar. Bunda qanday va qaysi biri mos kelishi qoidasiga ko‘ra rioya qilinadi.

Har bir bolada geometrik figuralar to‘plami (doira, kvadrat, oval, to‘g‘ri burchak, uchburchak) bor. O‘qituvchi shaklning nomini aytganda – bolalar mos figurani ko‘tarishlari kerak.

Doskaga doira, kvadrat, oval, to‘g‘ri burchak, uchburchak (hammasi bir xil rangda) mahkamlangan. Ularda turli shakldagi har xil rangli rasmlar bor. Koptok, apelsin – dumaloq; kubik, gilamcha, shaxmat donasi – kvadrat; tuxum, bodring, olxo‘ri, qo‘ng‘iz – oval shaklda; konvert, albom, kitob, portfel – to‘g‘ri to‘rtburchak; bayroqcha, yo‘l belgisi, uyning tomi - uchburchak shaklda bo‘ladi.

O‘qituvchi “geometrik shakl” tushunchasini aniqlashtiradi, ularning e’tiborini, ma’lum predmetlarning ba’zi shakllarga o‘xshashligiga qaratishi kerak.

Didaktik vazifa bu – ularda predmetlarning shakli bo‘yicha guruhlarga bo‘lish malakasini mashq qildirish; etalon kabi tasavvurlari to‘g‘risida mustahkamlash, doskada va daftarda uyoki bu predmet obrazini qayta ishlab chiqarish.

Doskaga kontur bo‘yicha kesilgan predmetlarning rasmlari yopishtirilgan. Bu: tarvuz, g‘ildirak, ro‘molcha, shaxmat doskasi, qovun, maska, albom, portfel, yo‘l belgisi, chodir (uchburchak shaklda). Mashg‘ulot qurollariga geometrik shakllar (doira, oval, kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak, uchburchak) ham kiradi. Ularning kattaligi doskadagi rasmlarning kattaligiga teng.

Ularning oldida quyidagi topshiriq turibdi: o‘qituvchining ko‘rsatmasiga ko‘ra geometrik figuraning nomini atash, keyin esa predmet shakliga mosini ustiga qo‘yib chiqish (tarvuzga doira, shaxmat doskasini ustiga kvadratni, qovunga oval va boshqalar).

Har bir sabzavot va mevalar solingan “savatcha” ga ega. Savatchada: piyoz, bodringlar, sabzi, turp, karam; limonlar, olma, apelsin, noklar (qattiq qog’ozdan yoki kartondan kesilgan) bor.

Didaktik vazifa bu – predmet shakllarini idrok etishning tugallanishi, turli sabzavot va mevalar shakllari to‘g‘risidagi tasavvurni mustahkamlashdir.

“Bizning tomorqa” o‘yini “Sabzavotlarni ekish kerak” deb o‘qituvchi aytadi. “Buning uchun egatlarga ajratish kerak. Men egatlar olishni boshlayman, sizlar esa davom ettirasizlar”lar, navbat bo‘yicha egatlarga faqat bir xil sabzavotlar ekadilar.

“Bizning bog” o‘yini

Doskada mevali daraxtlarning konturlari chizilgan. Turli daraxtlarda har xil mevalar o‘sadi. O‘qituvchi har bir daraxtga bittadan limon, olma yopishtiradi. O‘yinning vazifasi – mevalardan yaxshi hosil yetishtirish. Buning uchun har bir daraxtlarda ko‘p mevalar bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, olma daraxtida – nok, nokda esa limonlar o’smasligini kuzatib borish kerak. Topshiriqni shaxsiylashtirish mumkin. Masalan, o‘qituvchi: “shirin, to‘q sariq rang... Bu nima? Uning shakli qanaqa? yoki “Sariq, nordon... Qanday ataladi? Uning shaklini tasvirlab bering” va boshqalarni aytishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Н.А. Грицук, А.Р. Киселева” Преподавание изобразительного искусства в школе для детей с нарушениями слуха”. Учебное пособие Минск-2006. 14-58стр.,64-128стр.

2. Головкина Т.Н.«Изобразительная деятельность учащихся вспомогательной школы».М.:“Педагогика”, 1997 г. 69-81стр.

2.4. Tasviriy san‘at darslarining korreksion-tarbiyaviy yo‘nalganligi

Nutqning me’yorida va nuqsonli rivojlanish muammosi umumiy va maxsus pedagogikada o‘rganib chiqilgan. R.M. Boskis ta’kidlashicha, bola ijtimoiy va biologik omillar asosida nutqni egallaydi, ularidan birining buzilishi yoki yetishmasligi nutq patologiyasiga

olib keladi. U yoki bu nutq buzilishi bor bola atrofdagilarning nutqini tushuna olmaydi va o'zi ham gapira olmaydi. Maxsus korreksion-pedagogik ta'sirsiz bolaning har tomonlama ma'naviy, jismoniy, nutqiy rivojlanishini va maktabga tayyorlashni ta'minlab bo'lmaydi(20).

Defektolog-olimlarning tadqiqotlarida A.S.Vigotskiyning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan anomal bolalar ruhiyatining rivojlanishi normal bola rivojlanishida kuzatiladigan asosiy qonuniyat-larga bo'ysunadi degan qoidasi katta rol o'ynaydi. L.S.Vigotskiyning ilmiy-metodologik konsepsiyasi anomal bolalarni, xususan nutqida buzilishlari bor bolalarni maxsus o'qitish va tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishga yordam berdi.

L.S.Vigotskiy defektologiya muammolari nuqtayi nazarining umumiy tizimida quyidagilarni yetakchi sifatida ko'rsatish mumkin:

– anomal bolalarni ruhiy rivojlantirishning muhim imkoniyatlari g'oyasi;

– anomal bolalar rivojlanishiga ijtimoiy ta'sirlarning, xususan pedagogik ta'sirlarning hal qiluvchi roli to'g'risidagi qoida;

– patologik rivojlanayotgan bola shaxsining shakllanishida jamoa faoliyatining (o'quv, o'yin, mehnat) yetakchi ahamiyati to'g'risidagi xulosa.

Bola ruhiyatining shakllanishiga nutqdagagi kamchiliklarning ta'-siri to'g'risidagi fikr qo'llab-quvvatlandi va rivojlantirildi. Bundan tashqari, tadqiqotlarda u yoki bu nutq buzilishlari bolada ijtimoiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarish to'g'risidagi fikr ham o'z aksini topdi. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish yoki oldini olish bolaning tengdoshlari bilan muloqotini yo'lga qo'yish, uni jamoa faoliyatiga qo'shilishiga yordam beradi. Ilmiy g'oyalar nutq patologiyasining turli shakllarini o'rganishda muvaffaqiyatli amalga oshirildi(23).

Nutqni normal egallahning individual xususiyatlari va umumiy qonuniyatları nutq buzilishlarini bartaraf etish bo'yicha o'qitish metodikasi va dasturlarini oqilona tuzishda juda muhimdir. Bu shu bilan tushuntiriladiki, buzilgan analizator funksiyasini ushbu funk-siyaning normal rivojlanishi qonuniyatlarını hisobga olmay turib tiklab bo'lmaydi.

L.M. Bikova, YE.YE. Vishnevskaya kabi tadqiqotchilar nutqni eshitish deganda bolaning ayrim tovushlarni va ularning so'zdagi

ketma-ketligini eshitish qobiliyatini, ya’ni so‘zni tovush yaxlitligida qabul qilish va nutq mazmunini tushunish qobiliyatini tushunadilar. F.A. Rau, F.F. Rau kabi surdopedagog-tadqiqotchilar esa nutqni eshitishni insonning maxsus psixolingistik qobiliyati deb qaraydilar, bunda nafaqat uning qabul qilish (o‘zlashtirish), balki qayta ifodalash (eslash) funksiyasiga alohida ahamiyat beradilar. Nutqni eshitish nutq qobiliyatining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, har qanday qobiliyat kabi u ham rivojlanadi, takomillashadi va oxir-oqibatda tilning fonologik vositalarini va umuman nutq mada-niyatini o‘zlashtirishni ta’minlaydi.(12)

Eshitish buzilishini va tallaffuz malakalarini erta korreksiyalash muammosining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish va shu bilan birga mакtab yoshdagи bolalarning barcha toifalari uchun tabaqalashtirilgan maxsus mакtab muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, bola hayotining dastlabki yillardan boshlab o‘qitish va tarbiyalashning correksion tizimlarini yaratish maqsadlarida kompleks eksperimental tadqiqotlarni tashkil etish – bu defektologiyaning yangi yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, eshitishi buzilgan bolalar rivojlanishdagi kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini izlash jarayonida qonuniy tarzda shakllandı. Eshitishi buzilgan bolalar uchun korreksiya ishlari dasturi u yoki bu malakalarni va bilimlarnigina emas, balki bolaga zarur va u uchun yangi bo‘lgan anglash, funksiyaning zararlilagini kamaytirish, anomaliya rivojlanishini to‘g‘rilash vositalarini shakllantirishga, ikkilamchi buzilishlarning oldini olish va bartaraf etishga yordam berishi zarur. Korreksiya ishlari kelajakda to‘laqonli shaxsni shakllantirish, uni jamiyatda mehnat qilishga tayyorlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak

Talaffuz malakalarini buzilishi – zaif eshituvchi va zaif eshituvchi bolalardagi nutq nuqsonining eng ko‘p uchraydigan shakllaridan biridir, Eshitishning buzulishida analizatorlar yoki intellekting nuqsonlari bilan bog‘liq bo‘lmagan butun nutq tizimining shakllanishi buziladi.

Talaffuz malakalarini nuqsonlarini bartaraf etishda maktab-gacha tarbiya muhim rol o‘ynaydi, chunki bola hayotining bu davri psixologik rivojlanishning ko‘plab tomonlari, sensor va motor sohasining shakllanishi uchun sinteziv hisoblanadi. Bu davrda barcha ruhiy funksiyalar o‘zining optimal rivojlanish yo‘lini o‘tadi,

o'zaro aloqalarda ham umuman ongda murakkab tabaqalanish yuz beradi. Enb bolalarni tabaqalashtirilgan tarzda tarbiyalash va o'qitish tizimining ilmiy asoslarini yaratish turli nutq nuqsonlarini har tomonlama chuqur o'rganishni talab etadi. G.A.Gursov, Y.T.Speshnov,I.Y.Seleznov enb bolalarni nutqining nuqsonlarni erta korreksiyalash muammosini ishlab chiqish va shu munosabat bilan maktab yoshdagagi barcha toifadagi enb bolalar uchun tarbiyalash va o'qitishning korreksion tizimini yaratish maqsadida kompleks eksperimental tadqiqotlar olib borishni tashkil etish – defektologiyaning yangi yo'nalişlaridan biri bo'lib, u enb bolalar rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etishning yo'llarini izlash jarayonida shakllandi. Bu yo'naliş enb bolalar bilan korreksion ish olib borishning taxminiy dasturini taklif etadi, bunda ishlab chiqiladigan dastur faqat u yoki bu malaka va bilimlarni shakllantirishgina emas, balki bola uchun zarur bo'lgan yangi bilish, funksiya buzilishdan yetadigan zararni kamaytirish, rivojlanishdagi umumiy anomaliyani korreksiyalash vositalarini shakllantirish, ikkilamchi nutq buzilishlarining oldini olish va bartaraf etishga ko'maklashishi zarur. Barcha korreksiya ishlari kelajakda to'laqonli shaxsni shakllantirish, uni jamiyatda mehnat faoliyatiga tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar nutqini rivojlanirishda sujetli-rolli o'yinlarni qo'llash o'quv faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. U tafakkur faollashishiga, tanqidiy mushohada qilishga, nutqning rivojlanishiga, u yoki bu vazifani bajarishga qiziqish uyg'otadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini faollashtirish, ularning yangi materialni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda maqsadga erishishni ta'minlovchi ta'lim usullari kuchli motivlashtiruvchi omildir.

Hozirgi vaqtida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini o'zaro muloqotlar orqali rivojlanirish va eshitish idrokini rivojlanirishda shaxsiy munosabatlarni hisobga olgan holda o'qituvchi va o'quvchilar guruhi (o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi) faoliyat ko'rsatishlari zarurligi ma'lum. Chunki guruhdagi faoliyatlar o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zaro muloqot Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda fikr almashish va so'zlashuv malakasini shakllantirishga imkon yaratadi. Eshitishda

nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirishdan rivojlantirishda *sujetli-rolli* o'yinlarni qo'llash zarurati mazkur usullarning samaradorligini, kerakli bilim va ko'nikmalar egallahda ahamiyatli ekanini dalillamoqda

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar shaxsiy sifatlari shaklanishida, nutqiy rivojlanishni va nutqiy muloqotni amalga oshirish eshitish idrokini rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati katta. Ma'lumki, rolli o'yinlar obyektiv olamdag'i inson amaliy faoliyatini shartli ravishda aks ettirishda, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rollarga asoslangan o'yinlar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini faollashtiradi va motivlashtiradi. O'yin o'quvchilarning tabiiy va sevimli faoliyatidir. Shuning uchun ta'lim-tarbiya berish, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishda mashg'ulotlarni yosh xususiyatlariga muvofiq o'yin tariqasida uyushtirishga e'tibor berilmoqda. Haqiqatan ham, bola har qanday mashg'ulotga qaraganda, o'yinga tez intiladi va qiziqadi. Rollarga asoslangan o'yin ta'lim usuli sifatida o'quvchilarni uyushtiradi va bilim imkoniyatlarini kengaytirib, shaxs sifatida shakllantiradi. Rolli o'yinlar bolaning erkin fikrashi, suhbatdoshiga nimanidir aytishi, so'rashi, isbot qilishi, tushuntirishiga imkoniyat yaratadi. Dialogdan farqli ravishda, rolli o'yinlar nimaga (motiv) va nima uchun (maqsad, sabab) kabi savollarga javob beradi. Shunday qilib, o'yinda qatnashayotgan o'quvchilarning asosiy diqqatini suhbat mazmuniga qaratadi. O'quvchilar o'yin jarayonida suhbatni boshlash, suhbatdoshiga savollar berish, savollarga javob berish kabi malakalarini egallaydilar.

O'quvchilar o'yinni aniq maqsadga yo'naltirgan holda amalga oshirsa, kutilgan natijaga erishishi mumkin.

Rolli o'yin o'quvchilar guruhi tomonidan qiziqib qabul qilingan, ularga tanish bo'lishi kerak. Oldindan har bir obrazni izohlab berish lozim. O'quvchi o'yin jarayonida ikkilamchi darajali rollarda ishtirot etishi mumkin, lekin bosh rolda emas. Chunki bu holda rolli -o'yin ta'limning an'anaviy usullaridan biriga aylanib qoladi. Muloqotda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'yin jarayonida emas, balki undan keyin muhokama qilish maqsadga muvofiqdır. Bolalar nutqini rivojlantirish davomida mustaqil fikrashgga, izlanuvchanlikka va umumlashtirishga undovchi usullarni qo'llash

muhim ahamiyatga ega. Ta'kidlash joizki, soddalik, bir xillik, xohishsiz takrorlashlar bolalarni toliqtirib, befarq qilib qo'yadi. Uyin davomida «Kim tez bajaradi?» - deb faolliklarini oshirish ularda qiziqish uyg'otadi. Shuningdek, topshiriqlarni bajarishda bolalar g'olib chiqish, boshqalardan orqada qolmaslik, ularni bajarishga qodir ekanini ko'rsatish hissi bilan harakat qiladilar.

Bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishida o'yin muhim dolzarblik kasb etadi. Chunki u keng tarbiyaviy muammolar bilan uzviy bog'liqdir. Bola hayotining asosiy qismi o'yin bilan o'tadi. O'yinlar faqat didaktik vosita bo'lib qolmay, bola faoliyatining asosiy shakli ham hisoblanadi. Shuning uchun biz o'yining nozik tomonlarini hisobga olmay, o'yin faoliyatini boshqarishni o'rganmay turib, oldimizda turgan mas'uliyatli vazifalarni hal qila olmaymiz.

Sujetli-rolli o'yinlarni rollarga bo'lib bajarish, biror qoida asosida bajarish, ijodiy ravishda bajarish kabi turlar berilgan. Bundan maqsad bolalarning so'z boyligini oshirish, tasavvur va tafakkur doirasini kengaytirish, ularda jamoa munosabatlarini tarbiyalashdan iborat.

Maktabgacha yoshdagagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning so'z boyligi mashg'ulotlar davomida yangi so'z va iboralar hisobiga boyib boradi. O'yinchoqlar, o'quv qurollarni, kiyim-kechak va poyafzallar, uy-ro'zg'or anjomlari, hayvon va hasharotlar, qushlar, yovvoyi hayvonlar hamda bolalarni ko'proq qiziqtiradigan suhbatlar ularning narsalar haqidagi tushunchalarini kengaytiradi. "Xola — xolakam", "Shifokor qabulida", "Do'konda" kabi sujetli — rolli o'yinlar ana shunday o'yinlar jumlasiga kiradi.

O'yin orqali maktabgacha yoshdagagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar faoliyati mukammallahadi. Ular ruhan tetik bo'ladi. O'yin jarayonida qiyinchiliklarni, har qanday to'siqlarni yengib o'tishga o'rganib boradilar. O'yin bolalar faoliyatining asosiy turi. Bolalar o'yin orqali narsa — predmetlarning ko'rinishi, rangi, tuzilishi, tabiat olamidagi turli o'zgarishlarni anglamaydilar. O'yin — bu bolalar uchun o'qish, mehnat qilish va tarbiya vositasidir. Biroq tarbiyachi pedagog ushbu tavsiya materiallarini o'rgatishda mashg'ulotning asosiy qismini o'yin mashg'ulotiga aylantirib yubormasligi, shuningdek o'yindan mashg'ulotdagi bo'sh vaqtini

to‘ldirish maqsadida foydalanmasligi va mashg‘ulot jarayonida o‘yin o‘tkazishdan oldin asosiy maqsadni tushunib olishi zarur.

O‘yin elementlari va o‘yin xarakteridagi topshiriqlar bolalarni mashg‘ulot materiallarini o‘zlashtirishiga qarab belgilanadi.

Ma’lumki, nutq faoliyatiga psixologik nuqtayi nazardan yondashsak, fikrni bayon qilishi jarayoni bir necha bosqichdan iborat ekanini ko‘ramiz ular: motiv, maqsad va niyatadir. Ular so‘z va jumlalar orqali suhbatdoshga yetkaziladigan fikr unga iltimos qilish, buyruq berish, uning fikrini ma‘qullah yoki unga e’tiroz bildirish uni ishontirish, gapni inkor qilish kabilar tarzida namoyon bo‘ladi.

Mavjud hayotiy vaziyatda motiv, maqsad va niyat tabiiy muloqot tarzida amalga oshiriladi. Biroq, maktabgacha yoshdagagi eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni so‘z boyligini oshirishda fikr va xohish-istikclarini bildirish va ma’lumot olishga undash uchun maxsus vaziyatlarni tashkil qilishi zarurati paydo bo‘ladi. Bu vaziyatlar ularning ehtiyojidan kelib chiqishi kerak. Bunday vaziyatlarning mavjud holatlariga maksimal holda yaqinlashish o‘yinlar tufayli amalga oshadi. Shu bois ham o‘yinlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. L.S.Vigotskiy ta’kidlaganidek “Bola o‘yinining o‘ziga xosligi shundaki, u amalga oshirib bo‘lmaydigan istaklarni o‘yin orqali amalga oshiradi.

So‘z boyligini rolli o‘yinlar yordamida oshirish ham bolaning so‘zlashga, ya’ni hayoliy vaziyatga qarab harakat qilishga asoslanadi. Agar o‘yinda har bir tovushlar, so‘zlar va nutq modellarining ma’nosini anglash uchun yaxshi sharoit bo‘lsa, bola ularni puxta o‘zlashtiradi.

Maxsus o‘yinlar yordamida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bola nutqini eshitib tushunishga, to‘g‘ri talaffuz qilishga, kundalik muloqotga oid iboralarning ohangini ham o‘zlashtirib olishga imkoniyat yaratish mumkin. Leksik o‘yinlar lug‘atiga kiritilgan so‘zlarining ma’nosini yaxshiroq tushunishga, ularni mustahkamlash va faollashtirishga yordam berdi. O‘yin jarayonida bolalarning so‘z boyligi ortib boradi va ular yangi kiritilgan so‘zlarni o‘zlashtirilgan so‘zlar bilan bog‘lanib, ularni nutqda qo‘llashga o‘rganadilar.

Maktabgacha yoshdagagi eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning lug‘at boyligini oshirishning dastlabki bosqichlarda har xil faoliyat

turlarini shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlarda nutq o'stirish ishlariga katta ahamiyat beriladi (ayniqsa predmetli va o'yin faoliyatlarida). Qo'g'irchoq bilan o'ynash alohida o'rinni egallaydi: tadqiqotchilar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolani ma'lum bir o'yin harakatini bajarishga o'rgatishga, shuningdek, qiz (qo'g'irchoq) va ona o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishtiga harakat qilganlar. Bolalarga turli xil o'yin sujetlarini namoyish qilishda pedagog o'z harakatlarini «qiz-qo'g'irchoqqa» muloyimlik bilan nutq bilan birlilikda olib borgan. Pedagogning nutqi o'yinni rivojlantirish uchun faqatgina tayanch bo'lib emas, balki uning borishini boshqaradi, shuningdek inson o'ziga xos xislarini namoyon etishning alohida vositasi sifatida keladi.

Bolalarning ko'z o'ngida qo'g'irochoq bilan harakat qilib va so'zlashib pedagog ularga ona bilan bola o'rtasidagi adekvat nutqiy aloqaning aniq namunalarini nutqiy aloqaning aniq namunalarini berib shu bilan birga o'yining mazmunini chuqurlashtirib, mazmunini boyitib boradi. Pedagogning xatti-harakatini kuzatib, bola faqatgina o'yin usullarini emas, balki o'yin va nutqiy xulqni egallab boradilar. Katta guruhlarda pedagog o'yinni ko'rsatmasdan, namoyish etmasdan, bolalar bilan o'yinda hamroh sifatida ishtiroy etib ular bilan teng xulqli muloqotga kirishadi (pedagog bu vaqtida o'z diqqatini harakatni nutq bilan birlilikda bo'lishini boyitishga, dialoglarda so'z vositalarini faollashtirishga qaratadi).

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yining mazmuni, uning borishini avvaldan rejalashtirish, rollarni taqsimlash, bir mavzudagi o'yinni o'zgartirishni, rollarning mazmunini kengaytirishga o'rgatishga diqqatlarini qaratganlar.

O'yinga o'rgatish tadqiqotchilar tomonidan bolalarning nutqiy materiallarini faollashtirish uchun eng samarali, omilkor yo'llar sifatida qaraladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning leksik va frazeologik zaxirasini faollashtirish vazifalari o'yin faoliyati mexanizmlariga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lish sharoitida amalga oshiriladi.

Bilish jarayoniga nutqni jalb qilish, bularsiz tasviriyligi faoliyat rivojlanmaydi, bola shaxsining rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutqni (o'qituvchi va o'quvchining) o'quvchilar tafakkuri tashkil qiladi va faollashtiradi. Ularga idrok etiladigan material

qismlari orasida fikrlash aloqalarini o'rnatishga yordam beradi va kerakli harakatlarning tartibini aniqlaydi. Bundan tashqari, nutq faoliyatini qo'shimcha rag'batlantiruvchi rol vazifasini bajaradi. Shu bilan birga ular stereotip, shablonli, kam harakatchanlik ko'nikmalarni paydo bo'lishi an'anasi yengib o'tish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Nutq grafik malakalar va ko'nikmalarning shakllanishiga yordam beradi. O'z navbatida yaxshi tashkil etilgan rasm mashg'ulotlari o'quvchilarning nutqini rivojlanishiga kuchli vosita bo'lib namoyon bo'ladi.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda nutqning rivojlanishi bir nechta yo'nalishlarda yaratiladi: birinchidan, o'quvchilarning lug'ati boshida ular ishlatiladigan terminlar bilan boyib boradi, bular rasm chizish darsida ishlatiladi, keyin esa sekin-asta faol so'z zaxirasiga kiradi.

Ikkinchidan, muloqot vositasi sifatida nutqning rivojlanishi yaratiladi;

Uchinchidan, nutqning boshqarishi tugallanadi.

Rasm chizish darslarida o'quvchilarda tasvirlash jarayoni bilan bog'liq tushunchalar shakllanadi ("naqsh", "chiziq", "kontur", "simmetriya") predmet belgilarni yoki qismlarini xarakterlaydigan (katta, uzun, to'g'ri burchakli) so'zlar yig'indisi hosil bo'ladi.

Konkret so'zlardan tashqari: predmet nomini, belgisi, harakati, fazoviy munosabatlarini ifodalaydigan, o'quvchilar yana shunday tushunchalarni: "shakl", "kattalik", "rang", "joylashish" ni o'zlash-tiradilar.

Tasvirlangan obyektlarni har tomonlama tekshirish, asosiy geometrik shakllar va ularning xarakterli xususiyatlari bilan tanishish o'quvchilarning bu shakllarni so'z ifodasini yaxshi va tez o'zlashtirishiga yordam beradi.

Rasm chizish mashg'uloti yo'lida aqli zaif o'quvchilarning lug'atlarini boyitish bo'yicha ishlar juda zarur, agar ular ishlata-yotgan so'z manbai kam bo'lsa. Yordamchi maktabning kichik sinf o'quvchilarida ko'pchilik tushunchalar bo'lmaydi. Bolalar ba'zi predmetlarning nomini bilmaydi, ularning ko'pi tanish bo'lishiga qaramasdan obyekt belgilarni xarakterlashda o'quvchilar kam so'z manbaidan foydalanadilar. Harakatni ifodalashda juda kam

chegaralangan so‘z doirasidan foydalanadilar. Atrof-muhitni tushunish va idrokni fikrlash uchun nutqni o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Tasvirlash obyektni ko‘rib chiqish jarayoni tafakkur va nutq birligida amalga oshadi. Nutqni idrok etish uni ancha faol kechishiga yordam berishini eksperimentlarda isbotlashgan.

O‘z navbatida o‘quvchilarning nutqi ancha yetuk idrok etishga yordam berib, tasavvurning sifatini muhim o‘zgartiradi, ularning o‘xhashligiga to‘sinqilik qiladi, aniq to‘g‘ri grafik tasvirni ta’minlaydi.

Tasviriy faoliyatning ko‘p tadqiqotchilari bolalarga rasm chizish jarayonida nutqning yutuqli ta’sirini belgilaganlar.

Rasm chizish jarayonida to‘g‘ri muhokama qilish malakasi o‘quvchilarning faolligini kuchaytiradi, e’tiborini oshiradi, qo‘l harakatlarini yaxshi nazorat qilishni ta’minlaydi, tasviriy harakatlarni ancha maqsadga qaratilgan qilib bajaradi.

“Nutqning jalb qilinishi tasvirlash jarayonini kechishini mazmunan qayta quradi: bola o‘z rasmini tahlil qila boshlaydi, unda yaxshi qilingan vazifani davom ettirishi mumkinligini tushuna boshlaydi. So‘z – tasvirlash jarayoni fikrlashiga yordam beradi. Rasm yaratish jarayonida predmet tasvirining xossalarni bola ochib tashlaydi”, - deb yozadi YE.Ignatyev.

Shunga qaramay, kuzatishlar ko‘rsatishicha, yordamchi matabning o‘quvchilarini rasm darsidagi nutq faoliyati juda kam. O‘qituvchi o‘quvchilarning verbal imkoniyatlaridan har doim ham foydalanmaydi. Ba’zida u natura yoki namunani tahlil qilishga intiladi. Darslarda tasvirlanayotgan predmetlarni tuzilishini bajarilayotgan harakatlarning tartibini so‘zlarda ta’riflash kabi metodlar yetarlicha qo‘llanilmaydi. Rasmni kompozitsion joylashtirish savollari kamdan kam muhokama qilinadi. O‘quvchilarning bajargan ishlari haqidagi hisobotlar kerakli darajada tashkillashmagan. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarning nutqdan sust foydalanishi didaktikaning elementar talablariga qarama-qarshi bo‘ladi.

Obyektni o‘rganishda o‘quvchilarning nutq faolligini alohida ahamiyatini belgilab, ular qo‘srimcha rag‘batlantirishga muhtoj ekanliklarini ta’kidlash kerak. Predmetni tekshirishning boshlang‘ich davrida shu turdagи rag‘batlantirishlar yetarli: “yaxshiroq

ko'rib chiq", "yana nima desa bo'ladi?", "Keyinchi". Ammo ularni maqsadga muvofiq qo'llash juda qisqa vaqt bo'ladi. Rasmga kerak bo'lgan predmet belgilarini verballashtirish uchun o'quvchining idrokini shakllantirish kerak.

Buning uchun ularning oldiga aniq vazifalarni qo'yish kerak. I.M.Soloviyev ta'kidlashicha, aqli zaif o'quvchilarni obyektni qarab chiqishda muhokama qilishga o'rgatish kerak. Bu vazifa ko'rgazmali vositaning har birini namoyish etishda olib borilishi kerak, unga predmetlarni ko'rib chiqishga bog'liq hamma darslar singdirilgan bo'lishi kerak.

Nutq yordamida bolaning tafakkur faoliyatini shunday obyekt xususiyatlariiga: shakl, konstruksiya, proporsiyalar, elementlarning o'zaro joylanishi, ranglarga yo'naltirish lozim.

Belgilarni so'zlarda ifodalash o'z navbatida, o'quvchilardan mos terminlarni dolzarblashtirishni talab qiladi. G.M.Dulnevanning fikricha, amaliy harakat bajarish vaziyatida ko'rsatmalar, tavsiyalar, so'z ifodalarini darslashtirish "metodik qulay". Bu holatda gap qo'l mehnati darslari haqida boradi. Ammo rasm chizish bu faoliyat turi bilan shunchalik o'xshash, nutq orqali pedagogik ta'sir etish prinsiplari teng barobar hisoblanadi.

Yordamchi mакtab o'quvchilari, ommaviy maktab o'quvchilariga qaraganda tasvirlash va idrok jarayonida o'qituvchi tomonidan tushuntirishga ko'p darajada muhtoj. Bizning tajriba-larimizning ko'rsatishicha, aqli zaif bola ko'rsatmaga to'la moslangan holda harakat qila olmaydi, agar u umumiy ko'rinishda shakllangan bo'lsa, masalan: "Predmetga diqqat qilib qarang, uni rasmini chizing". Bunday ko'rsatma bolaning e'tiborini idrok etilayotgan obyekt xususiyatlariiga jamlashtirmaydi, tasvirlashda hisobga olinadigan xarakterli detallarning ahamiyatini belgilamaydi. Hatto doskada o'qituvchi bajargan rasm o'quvchilarning mustaqil ishlari oldidan bevosita darsning boshidan oxirigacha, obyekt tuzilishini to'liq tushunishni ta'minlamaydi. Shundan bolalar rasmlarida xatoliklar vujudga keladi.

Ba'zi ma'lumotlarni, yordamchi mакtab o'quvchilarining naturadan rasm chizish jarayonini so'zlab tushuntirishning roli haqidagi savollarni o'rganishda olamiz.

Obyektni tasvirlash sifatida qurilish konstrukturlarini olingen kubiklardan tuzilgan minora tanlangan. Topshiriq ommaviy maktabning ikkinchi sinf o'quvchilari va yordamchi maktabdagilarga taqdim qilingan (har biridan ikkitadan guruh).

Birinchi guruh o'quvchilariga predmet bilan tanishgandan so'ng eksperimentator doskada rasmning tuzilishini namoyish qildi. Lekin hech qanday tushuntirish va tavsiyalar bermadi.

Ikkinchi guruhda tasvirning bajarilishini ketma-ketlik yo'llari tushunarli tushuntirishlar bilan kuzatilib borildi. Bolalarga rasmning tuzilishi borasida detallli ko'rsatmalar berildi.

Eksperimentator e'tiborini minoraning asosiy uchta kubikdan, o'rtasida qizil kubik, chap va o'ngdan esa yashil kubik joylashishiga qaratdi. Keyin u bolalarga rasm munosabatida tushuntirish berdi: "Eng avval qizil kubikni chizishni, uning ustiga "sariq", sariqni ustiga – ko'k "qo'yish" ni tushuntirdi. Shundan keyin ingichka g'o'lacha sariq rangda, keyin tomini yashil uchburchak shaklda chizish aytildi. Uchburchakni – tomi katta o'lchamda bo'lib, devordagi tomonlari turtib turishi kerak.

Ikkinchi guruhning rasmlari birinchi guruh o'quvchilarinikidan ancha yaxshi deb topildi. Yordamchi maktabning 33% o'quvchilari vazifani muvaffaqiyatli bajaradilar. Qolganlari esa u yoki bu xatolikka yo'l qo'yadilar. Ikkinchi guruhda 80% o'quvchilar topshiriqni muvaffaqiyatli bajardilar. Ommaviy maktabning birinchi va ikkinchi guruh o'quvchilari vazifani 87% va 100% ga bajardilar. Olingan ma'lumotlar, ko'pchilik aqli zaif o'quvchilar obyekt tuzilishini mustaqil tushunmasliklarini va rasm chizish tartibini o'zlashtira olmasliklariga guvohlik beradi. Ular tashkiliy qismlarning o'zaro aloqasini o'rnatadigan, obyektni butunlay va detalning shaxsiy xususiyatlarini ko'rsatadigan kengaytirilgan ko'rsatmalarga muhtoj.

Agar bunday ish olib borilmasa, o'quvchilar rasm tuzilish tartibini differensiallanmagan holda idrok etadilar. Ular naturanining o'ziga xosligini hisobga olmasdan harakat qilib ko'p grafik xatolarga yo'l qo'yadilar. Kichik sinf o'quvchilarining rasm chizish ta'limi jarayonida ajratilgan so'zlardan foydalanish kam mahsulorlik berishini alohida belgilash joiz.

So‘zni ma’lum predmet (rasm) yoki uning elementlari bilan solishtirish kerak. Bundan tashqari, uni aniq harakatlarga (ko’rsatish, jest) mustahkamlash kerak.

Bolalarni predmet va detallarni so‘z bilan ifodalash masalasini yana o‘z ishi haqida gapirib berishni, o‘z faoliyatini “kommentariya” qilishni o‘rgatish kerak.

Bularning hammasi nutqning rivojlanishiga yordam beradi. O‘quvchilarning tasviriy faoliyatini boshqarishda o‘qituvchining nutqi katta ahamiyatga ega. Pedagogik adabiyotlarda o‘qituvchining nutqi to‘g‘ri, tushunarli, aniq, mazmunli, mo‘tadil bo‘lishi bir necha marotaba qayd etilgan. Oxirgi talablar ba’zida, ayniqsa, kichik sinflarda buziladi. O‘qituvchi tushunarli qilib tushuntiraman deb, ko‘pincha xohlamagan holda ko‘p so‘zlaydigan bo‘lib qoladi. Bunday “nutq oqimi” o‘quvchilarning faoliyatini susaytiradi, vazifaga, maqsadga yo‘naltirishni pasaytiradi, ularni chalg‘itadi. Uzoq vaqt davom etadigan so‘zlarda tushuntirish o‘quvchilarda qo‘riqlovchi tormozlanishni chaqiradi, natijada ular o‘qituvchiga qulq solmay qo‘yadilar, boshqa ishlar bilan shug‘ullana boshlaydilar.

Tasvirlash obyektining ta’lim vaqtida bolalarning passivligini oldini olish maqsadida ularni shu jarayonga faol qantnashishiga jalb qildirish kerak.

To‘g‘ri tanlangan va qo‘yilgan savollar predmet belgilarini sistemali ajratishga va qo‘yilgan vazifani rejalashtiruvchi o‘quvchilarni rag‘batlantiradi.

Tasviriy faoliyat jarayonida o‘quvchilarning nutq faolligini kuchaytirish uchun pedagogik vosita sifatida turli usullarni ishlatalish mumkin. Bularga:

rasm chizishga emotsional munosabatni yaratish maqsadida she’rlarni yoddan aytib berishga bolalarda fikr uyg‘otish;

tasvirlash obyektini tahlil qilish (asosiy belgilarni aniqlash) obyekt xossalalarini so‘zlash xarakteristikasini va nomlanishini o‘quvchilar aytganda rag‘batlantirish;

rasm ustida ketma-ket ishlashni o‘rnatish;

kompozitsion xarakterdagи vazifalarni yechish;

natura bilan rasmni solishtirish;

har bir darsning oxirida tasviriy faoliyat natijalarini tahlil qilish;

sinf yoki maktab ko'rgazmasiga rasmlarni tanlash va muhokama qilish.

Aqli zaif bolalarning bilish faoliyatining rivojlanishida qudratli manba sifatida rasm chizish mashg'ulotidan foydalanishga o'qituvchining qaratilgan nutqini va o'quvchilarining o'zlarini ratsional qo'shilishi yordam beradi.

Bolalarga rasm chizish darslarida har xil turdag'i ko'rsatmalar beriladi: a) og'zaki tushuntirishlar, ko'rsatmalar, tavsiyalar; b) tayyor rasmlarni, chizmalarni namoyishi; d) materialni tanishtirish yo'lida doskada o'qituvchi tomonidan rasm chizish.

Aqli zaif o'quvchilar uchun qanday ko'rsatma shakli qulay?

Yordamchi maktab o'quvchilarining agar u umumiy shaklda shakllangan bo'lsa, og'zaki ko'rsatmani boshqara olmasliklari o'rnatilgan. Bu xatolarda o'quvchilar o'qituvchi majburiyatiga quloq solmaydilar, ko'rsatmalariga qaramasdan harakat qilishni boshlaydilar, shuning uchun qo'yilgan topshiriqdan chalg'ib keta-dilar. Oddiy qisqa ko'rsatma sog'lom bolalarga tushunarli va o'rinli, aqli zaif bolalarga esa, tushunarsiz va o'rinsiz.

Yordamchi maktabning o'quvchilari kerakli tarzda didaktik vositalardan rasm, chizma kabilardan foydalanishni bilmaydilar. Qandaydir rasmdan nusxa olishda (chizib olishda) o'quvchilar ko'rileyotgan namunani tahlil qilmasdan, o'zlarining ish harakatlarini solishtirmaydilar. Natijada doskada namoyish qilinadigan materiallar ko'chirib olinadi va bunda qo'pol buzilishga uchraydi. Yo'l qo'yilgan xatolar sezilmaydi va tuzatilmaydi. Chizmalardan foydalanishga qaratilgan malakalarni ajratish tajribalari, bularda rasmning qurilish etapları ko'rsatilgan, hamda aqli zaif o'quvchilarda chegaralangan imkoniyatlarni aniqladi. Ular rasm chizish jarayonini chizma bilan moslashtira olmasliklari, kerakli ketma-ketlikni ko'tara olishliklari va rasm tuzilishining har bir qurilish etapida tarkibga solishtirishlari o'rnatilgan. Natijada o'quvchilar tasvirning qurilish metodikasiga qaramasdan harakat qiladilar. Buning oqibatida rasm darslaridagi korreksion-tarbiyaviy vazifalarda ko'rgazmali va so'zlash komponentlarining ratsional qo'shib o'tilishining alohida ahamiyati to'g'risida savol uyg'onadi. Bu o'rinda pedagogik rasm alohida e'tiborni egallaydi. Tayyor

chizmaga qaraganda, doskada o'qituvchining bir vaqtning o'zida tushuntirib chizgan rasmi o'quv munosabatida ancha qadr-qimmatli.

U o'quvchi uni eshitgan vaqtagi har bir fikrni, o'qituvchining har bir so'zi aniqlashtiradi. O'quv materialini ko'rish taassurotlari yaxshi, mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi. So'zni grafik faoliyat bilan birlashtirib, o'qituvchi shu tarzda bolaning tasvir-lanayotgan obyekt xossalariini anglashga yordam beradi.

Pedagogik tajribalarning aniqlanishicha, o'quvchilar eng to'g'ri tasvirni o'qituvchi rasm tuzilishining hamma etaplarini ko'rsat-ganda, tushunarli ko'rsatmalar bilan kuzatganda qiladilar.

2.5. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy san'at darslarida og'zaki nutqqa o'rgatishda korreksion ish

N.D.Shamatko va T.V.Pelimskayalarning ko'rsatishicha, mak-tabgacha yoshdagi kar va zaif eshituvchi bolalarning og'zaki nutqini, muloqot quroli sifatida shakllantirish va tafakkurini rivojlantirish maxsus yaratilgan sharoitda amalgalash mumkin. Buning uchun kun davomida nutqni eshitib-ko'rib va eshitib idrok qilish uchun barcha sharoitlar yaratiladi, qaysiki, N.I.Belovaning fikricha, maxsus bog'chalarda o'qitishning asosiy shakli hisoblangan dastur asosida belgilangan jadval asosida o'tkaziladigan ertalabki (mashg'ulotlar) va kechki (mashg'ulotdan tashqari faoliyat) ularning nutq egallashi uchun qulay sharoitdir.

Nutqiy muhitni yaratishning asosiy sharti N.D.Shamatko va T.V.Pelimskayalarning ta'kidlashicha, barcha bog'cha xodimlarning bolalar bilan og'zaki muloqotga kirishishi va zarur bo'lgan-dagina tablichka yoki daktilga murojaat qilishi sanaladi.

Dasturning barcha bulimlari asosida pedagog va tarbiyachilar tomonidan olib boriladigan nutq o'stirish, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish, atrof olam bilan tanishtirish kabi frontal mashg'ulotlarida talaffuz ko'nikmalarini korreksiyalash va avtomatizatsiyalash ishiga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Ushbu mashg'ulotlardagi ishning asosiy mohiyati bolalar talaffuzini nazorat qilishdan iborat.

Agar talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishning dastlabki davrida bulsa, u holda shakllantirilayotgan malakalar individual

mashg'ulotlarda mustahkamlanadi, lekin frontal mashg'ulotlarda tuzatilmaydi.

Talaffuzga o'rgatish va eshituv idrokini rivojlantirish bo'yicha frontal mashg'ulotlarning asosiy vazifasi og'zaki nutqning temp va ohang (ritmik) tomonini va hamda eshitib idrok qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Bu mashg'ulotlarda bolalar nutqiy va nonutqiy ovozlarni eshitishiga tayangan holda chuziqligi, balandligi, tempi, ritmini aniqlash va ularni takrorlash o'rgatiladi, atrof olamdagি ovozlar haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi, so'z va jumla kabi materiallarda talaffuz ko'nikmalarini avtomatizatsiya va differensiatsiyaga erishiladi.

Bu mashg'ulotlar jamoaviy shaklda ishslash hisoblanib, unda ovoz hosil qilish va ovoz nuqsonlarini korreksiya qilish ustida ish olib borilmaydi. Frontal mashg'ulotlarda talaffuz ustida ishslashning asosiy vazifasi individual mashg'ulotlarda asosiy tarzda shakllantirilgan talaffuz ko'nikmalarini mustahkamlanadi. Mashg'ulotlarning asosiy mazmuni tovush va ularning birikishi, suz va jumla ustida ishslashdan iborat. Frontal mashg'ulotlarda bolalar tomonidan to'g'ri, lekin biroz defektli talaffuz qilinayotgan tovushlar mustahkamlanadi.

Barcha bolalarda qarama-qarshi fonemalarning to'g'ri artikulyatsiyasi mavjud bo'lganda tovushlarning differensiatsiyasi ustida ishlanadi (p va b, m va p, sh va s va h.k.).

Individual mashg'ulotlarning asosiy vazifasi og'zaki nutqni idrok qilish ko'nikmalarini shakllantirish va talaffuz qilish rivojlantirishdan iborat. Individual mashg'ulotlarda tovushlar talaffuz qilishning dastlabki ko'nikmalarini shakllantiriladi, ovoz nuqsonlari korreksiyalanadi, nutqiy nafas ustida ishlanadi, tovushlar va ularning birikishi hamda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar tuzatiladi. Avvalambor, maxsus o'qitishsiz bola tomonidan talaffuzning qiyin o'zlashtiriladigan tomonlariga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Har bir bola bilan yakka ishlaganda pedagog u yoki bu tovushni talaffuz qilishga o'rgatadi va shu bilan birga yo'qolish ehtimoli bo'lgan talaffuz malakalarini mustahkamlashga erishadi.

O'qituvchi ta'luming va tarbiyaning korreksion yo'nalishiga rioya qilishga alohida javobgarlik olib o'tishi kerak. Tajribali

pedagog o‘zining pedagogik faoliyatida bu didaktik jarayonni muntazam, qarama-qarshi amalga oshirishi kerak. Bunda korreksion-tarbiyaviy vazifa o‘quvchilarning u yoki bu kamchiliklarning yengib o‘tishiga rasm chizish mashg‘uloti mobaynida alohida, ajralgan soha bo‘lib hisoblanmaydi. Aksincha, darsning har bir bosqichi didaktik, tarbiyaviy va korreksion maqsadlar bilan yagona birlikda quriladi, bu esa o‘quv jarayoniga chuqur kirib boradi. Agar rasm darsi shunday sistemaga ko‘ra rejalashtirilsa, “umumta’lim vazifa” qo‘suv, plyus “korreksion vazifa”, ya’ni avval ta’lim umuman, keyin esa maxsus pedagogika sohasidan “qo‘sishimcha” jiddiy xato bo‘lar edi. Bunday o‘quv jarayonini soddalashtirish, yordamchi maktablar uchun muhim ko‘rinarli zarar keltiradi.

Ba’zida ta’limni korreksion deb atash “o‘quvchining xatosi – o‘qituvchi tomonidan tuzatilgan” prinsipi bo‘yicha tashkil etiladi. Bu holatda korreksianing bosh mazmuni, vazifa bajarganda xatolikka yo‘l qo‘ygan bolaga o‘z vaqtida konkret yordam berish deb qaraladi. Bunday ta’limga yondashish qator jiddiy xatolarga ega. Ulardan eng asosiysi – o‘quvchilarda o‘qituvchi tomonidan yordamni kutish odatini mustahkamlaydi va binobarin, mustaqillik va faollikni pasaytiradi.

Yordamchi maktablarda maxsus vazifalarни yechishga sistemali yondoshishlar hech qanday korreksion-tarbiyaviy vazifalarни tashkil etishga shunday usullar ega bo‘lmaydi.

Ma’lumki, bolaga ta’lim va tarbiyaning alohida emas, vositalari, hamda atrof-muhit sharoiti va pedagogik ta’sirning choralarini ta’sir qiladi. Ta’lim jarayonida tarbiya – bu eng avvalo mos sharoitlarning tashkil etilishi. Bunda sharoitlar qanchalik maqsadga muvofiq bo‘lsa, shunchalik pedagogik ta’sirning natijalari ijobjiy bo‘ladi. Bunday sharoitlar soniga birinchi navbatda, o‘qituvchilarning kasb-pedagogik tayyorgarligi, uni bolalar kollektivi bilan boshqarish malakasi, ularning xususiyatlarini bilish, vazifaning ratsional metodikasini tanlash kiradi.

Agar aqli zaif bolalarni ijobjiy potensial imkoniyatlari hisobga olinsa, korreksion-tarbiyaviy vazifa mahsuloti hisoblanadi. Shunga ko‘ra, L.S.Vigotskiyning “Rivojlanishining yaqin zona” si to‘g‘risidagi o‘rganishlariga ko‘ra ikkita rivojlanish darajasi dolzarb (bola o‘zlashtirgan bilim, malaka va ko‘nikmalar) va potensial (bolaning

yangi bilimlar, malakalar, ko'nikmalarini o'zlashtirish qobiliyati). Ta'lif jarayonidan keyin potensial darajani hisobga olish o'quvchining keyingi rivojlanishiga yordam beradi, ya'ni rivojlanishning yaqin zonasini yaratadi. Bu zonalar bolaning harakatining rivojlanishini aniqlaydi, uning yaqin imkoniyatlarini ko'rib beradi, faqat bugun erishilganni emas, balki ertaga nimaga erishishni ko'radi.

Vigotskiyning rivojlanishini yaqin zonasini to'g'risidagi o'rgatish, korreksion-tarbiyaviy vazifaning tashkil etishda asos hisoblanadi. Rasm darsida bunday vazifalarni muvaffaqiyatlari o'tkazish sharoitlar soniga, qator maxsus bilim va malakalarni kiritish mumkin, bulardan yordamchi muktabning o'qituvchilari bilimlari kerak. Aqli zaif bolalarning tasviriy faoliyatining o'ziga xosligini eng avvalo hisobga olish kerak.

Rasm darsida korreksion-tarbiyaviy vazifaning umumiy sistemasida o'qituvchining shaxsiy sifatining ahamiyati katta. Bu fikr chet el va sovet adabiyotida bir necha marta qayd etilgan. Xususan, sovet olimi frenopedagogi F.M.Novin, "aqli zaif bolalarga mehribon, ziyrak munosabatda bo'lish – oligofren pedagogning muhim intizom qirrasi hisoblanib, bolalar kollektivida avtorit bilan ta'minlaydi", deb yozadi.

Pedagog – defektologning bunday chidamli, sabrli, muvozanatlashgan kasbiy qirralarini to'la huquq bilan hisobga olsak bo'ladi. Bunday sifatlar o'qituvchiga aqli zaif bolalarning intizomi va faoliyatini boshqarishga imkon beradi. Muammoli vaziyatlarni o'z vaqtida oldini olish o'quvchilarning impulsiv reaksiyalarini to'xtatish – o'qituvchining muhim vazifasi.

Yordamchi muktabning o'quvchilari orasida ruhiy holati pasaygan, sust, tormozlanganlari kam emas. Faqat o'qituvchining faolligi, energiyasi, emotsiyonalligi va ko'ngilchanligi bolalarning ta'lrimini maqsadga muvofiq va samarali qilishga ega ekanligi qiyinchiliklarni yengadi. Aqli zaif bolalar bilan ishlaganda o'qituvchining mehnatsevarligi, yuqori tashkillashtirish va optimizm, bo'ladigan yutuqqa ishonchi qiyin vazifalarda yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.

Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari harakat qilayotgan dasturga mos quriladi. Bu mashg‘ulotlar aqli zaif o‘quvchilarining ruhiy, jismoniy rivojlanishlarining kamchiliklarini korreksiyasining muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu kamchiliklarni kamaytirish maqsadida quyidagilar zarur:

-tasviriy faoliyat va uning natijalariga ijobiy emotsiyal munosabatni tarbiyalash; tarbiyachi atagan belgini ko‘rsatishni o‘rgatish;

-predmet va ularni tasvirini nomlashga o‘qitish, tasviriy faoliyat vositalarida aks ettirishga erishish va predmetni butunlay idrok etishni shakllantirish (lepka, applikatsiya, rasm chizish);

-tasvirlash elementlarini detallar va ularning qismalari bilan solishtirishni o‘rgating va ularning nomlarini bildiring: shaklni, kattalikni, rangni, idrok etishni va ularni tasavvurga uzatish malakasini shakllantirish;

-ko‘rish-harakat koordinatsiyasini va qo‘l harakatini rivojlanish oligofrenopedagoglarning birinchi darajali vazifalaridan biri – bolaning shaxsiy xususiyatlarini va uning tasviriy faoliyat xarakterini aniqlash;

-o‘qituvchiga mashg‘ulotni to‘g‘ri tashkillashtirishga va bolalar intizomini boshqarishning qulay usullarini aniqlashga yordam beradi.

Korreksion ta’lim jarayonida muhim natijalarga erishish mumkin. Bunga qator sharoitlarga rioya qilish yordam beradi. Bularga eng avvalo tayyorlov davrini kiritish bo‘ladi. Bu davrning maqsadi – bolani turli tasviriy faoliyat shakllari bilan tanishtirishga yaqinlashtirishdir. Bu davrda tarbiyachi bolalarni mashg‘ulotga qiziqishni shakllantiradi va chiroyli narsalarga emotsiyal munosabatni uyg‘otadi.

Bolalar bog‘chasiga kirganlarning grafik faoliyatining darajasi juda past. Shuning uchun boshlanishida tarbiyachi o‘zi rasm chizadi, yopishtiradi, quradi, yasaydi, bolalar esa uning harakatini kuzatadilar. Mashg‘ulot jarayonida o‘yinli vaziyatlar yaratiladi, bunda har bir o‘quvchi boshida tarbiyachi bilan birga keyin esa taqlid bo‘yicha, so‘ngra mustaqil harakatlanadi.

Tasvirlash obyekti sifatida bolalarga tanish predmetlar ishlatalidi, yana o‘yinchoqlardan foydalaniladi, chunki ularni rasmini chizish, qurish, yasash qiyin bo‘lmaydi (uycha, minora, darvoza, koptok, pryanik).

Adabiyotlar:

1. Н.А. Грицук, А.Р. Киселева” Преподование изобразительного искусства в школе для детей с нарушениями слуха”. Учебное пособие Минск-2006. 14-58стр.,64-128стр.

2. Головкина Т.Н.«Изобразительная деятельность учащихся вспомогательной школы».М.:“Педагогика”, 1997 г. 69-81стр.

Naturadan chizish metodikasi dekorativ rasm va uning xususiyatlari

Tasviriy san'at faoliyatida tasavvurning roli

Tasavvur har bir ijodiy faoliyatning asosi bo'lib, madaniy hayotning hamma tomonlarida qat'iy namoyon bo'ladi, texnik va badiiy-ilmiy ijodiyotni ehtimolga yaqin qiladi. Bu inson qo'li bilan yaratilgan narsalar, bizni o'rabi turgan butun dunyo madaniyatining hammasi shu tasavvurga asoslangan ijod va tasavvurning mahsulidir. Agar odamlar tasavvur qilmaganlarida, biz barcha san'at asarlari va ilmiy kashfiyotlarning hammasidan mahrum bo'lar edik.

A.Osyeri ta'kidlashicha; “... tarix bu haqiqatan sivilizatsiya, inson ijodiy qobiliyatining hisoboti, tasavvur esa inson tirish-qoqligining asosiy negizida “dunyonи zabit etgan” hisoblanadi.

Tasavvur – insonga xos universal xususiyat. Shunday qilib tasavvur nima?

Tasavvur (fantaziya) – shaxsning avvalgi tajribalari asosida fikr va xis-tuyg'u holatlari, yangi obrazlar yaratish bilan tugallanadigan ruhiy jarayondir.

Inson tomonidan uning obrazlari nazorati darajasiga ko'ra tasavvur quyidagilarga bo'linadi: Ixtiyoriy (faol) va ixtiyorsiz (sust), obrazlar yaratish va faol tasavvur faoliyati natijalaiga ko'ra: ijodiy va qayta tiklash.

Tasavvur tasviriy faoliyatda zarur ifodali obraz tarzining asosi hisoblanadi. Barcha badiiy faoliyat faol tasavvurda, ijodiy fikrlashda quriladi. Ijodning ko'p qirrali jarayonida tasavvur muhim o'rin tutadi. U misoli markaz, fokus atrofida uning jadallahuvini ta'minlaydi. Ko'pgina rassomlar o'zlarining botirligi va ijodning yetilish mакtabiga ko'ra, boshqa ruhiy jarayonlar va xususiyatlar

jipslashgan bolalar fantaziyasiga ehtiyoj sezadilar. Tasviriy faoliyat bolalar hayotida katta o‘rin egallaydi, bu – dunyoni bilish, o‘zini bilish, o‘zini ifodalash, aks ettirish va ifodalay bilish vositasi.

Bola ijodiy faoliyatda qiziqish bilan shug‘ullanadilar, ma’lumki buning asosida tasavvurning o‘rni katta ahamiyatga ega.

Kattalarga qaraganda, bolaning fantaziysi tez bo‘lib, bolaning dunyo idrokidagi o‘rni juda muhim. Dunyoning umumiylashtirishida yangiliklarga, muammolarga, uzilishlarga qarshi vosita bola tasavvuridir.

Fantaziya yetakchiligidagi bola tashqi olam predmetlarini faqat ko‘ribgina qolmay, u o‘zaro munosabatlarni chetdan seza boshlaydi. Zepkovskiy fikricha, naturadan ko‘ra bola faqat ko‘rganini chizmaydi, balki “uning fikricha nima borligini” chizadi.

Bolalar uchun “o‘zi-o‘zidan vujudga keladigan qilib, bo‘lmaydigani yo‘q”, hayron qolarlisi, uning oldida tasavvur qonunlari doim shunaqa.

Shuning uchun bolalar ertak qahramonlariga, sehrgarlarga, mavjud bo‘limgan hayvonlarga, ko‘rinmas o‘simliklarga alohida ko‘rinish sezadilar; ertaklarni jon dili bilan o‘ylab topadilar, uydirmalar to‘qib chiqaradilar. Rivojlanish rejasida tasavvur alohida g‘amxo‘rlikka muhtoj. Bu xususiyat 5 yoshdan 15 yoshgacha jadallik bilan rivojlanadi. Agar bu davrda tasavvurni ataylab rivojlantirilmasa, keyinchalik bu funksiyaning faoliyati tez tushib ketadi. Odamda fantaziya qilish xususiyatining kamayishi bilan birgalikda shaxsning “kambag‘allahuvi”, ijod, fikrlash imkoniyatining pasayishi natijasida san’atga va fantaziyaga qiziqishi uyg‘onadi. Tasviriy faoliyat tasavvurning rivojlanishiga alohida erkinlik, kenglik beradi.

Boshidan oxirigacha fantaziyaga to‘lgan kichik rassomning va haykaltaroshning ijodi tasavvur, ijodiy ish maqsadini gavdalanitishga, qurishga, ya’ni niyat, maqsadni amalga oshirishda, tasviriy ifodalash – ifodali vositalarni qidirishga, adekvat ifodalanadigan niyatlar, obrazlar yaratishga qaratilgan.

Rasmda tasavvur – obyektiv kriteriyalarda niyat-maqsadning borligi, rasmning kompozitsion xususiyatlari, rasmning grafik aniqligi, ifodaliligi; grafik tuzishning turliligi va originalligi (g‘oyalarning siyrakligi) uning mustahkamligi va amalga oshishini ta’minlaydi.

Har qanday rassom va haykaltaroshning ijodiy jarayoni maqsad paydo bo‘lishi bilan boshlanadi. Asar mazmuni o‘ylanadi, uning kompozitsiya, obrazlarni bajarish texnikasi, usul va vositalarining yorqin ifodasi tanlanadi. Bundan tashqari har bir ijodiy ish paydo bo‘lish jarayonida tuzatish va qo‘sishni talab qiladi. Buning hammasida tasavvur ishtirok etadi.

Tasavvur faqat rassomlar, haykalaroshlar asarlarini, bolalar ijodiy ishlarini yaratish uchun emas, balki san’at asarlarini qabul qilish uchun ham zarur.

Tomoshabinlar uchun san’at asarining bahosi o‘xshash asarlarni qabul qilishga mos tarzda tayyorgarligiga emas, sezgi elementlarining jozibadorligidan iborat, ulardan haqiqatda san’at asari tashkil topadi, deb esga olingan.

Sezgi elementlarining qo‘zg‘alishi esa tasavvur, his etishning jozibadorlini ta’minlaydi. San’at asari ma’lum maqsadga xizmat qiladi: bu maqsad tasavvurning o‘sha hammaga ma’lum umumiyligi tajribasi bo‘lmish boshdan kechirish imkonini beradi. Tasviriy san’at asarlaridan olganlarimizni biz ikki qismga bo‘lishimiz mumkin:

1. Maxsus tuyg‘uni sezish (masalan, ko‘raman, sezaman) bo‘ladi.

2. Maxsus bo‘lmagan tasavvur kechinmasi, faqat elementlar emas, o‘ziga bir xil tasavvurdagi obrazga mos maxsus tuyg‘uli kechinmalarni emas, balki bir xillar bilan birga boshqa elementlar.

Har qanday bola, rasmda bo‘lgan hamma ranglarni sezgi a’zolari bilan his etishi va chiziqlarni ko‘rishi mumkin, lekin bu sezgi unga estetik kechinmaga xursandchilik beradi. Bu xursandchilikni boshdan kechirish uchun u o‘zining tasavvuridan foydalanihi mumkin, ya’ni birinchi qismda sezgi berilgan kechinmalar, ikkinchi qismda, tasavvurda yaratilgan kechinmalar o‘tishi mumkin.

Rasmga qarayotgan bola nafaqat rasm dog‘larining ko‘shilishini ko‘rmay, tasavvurida binolar, daraxtlar, odam figurasi orasida xarakterlanadi.

Tasavvur kechinma, san’at asarlarida olingen oddiy kechinma emas, bu ijodiy vazifa chaqiradigan, bizlar anglamaydigan kechinmadir.

Rassom suratni chizish jarayonida o‘zining tasavvuridan foydalanadi va tomoshabin unga qarab, butun faoliyatda tasavvur etilgan kechinmani boshidan kechiradi, his qiladi, xuddi ijodkor boshidan kechirganga, xis etganga o‘xshab.

Xullas, san’at asari – bu hammaga umumiy faoliyat, tasavvurdan foydalanish xizmatiga ko‘ra qabul qilinadi yoki fikrlanadi.

Shunday qilib, bunday ijodiy ishni yaratish va qabul qilish uchun tasavvur juda kerak.

Eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilarda tasavvurning o‘ziga xosligi

Tasviriy san’at – haqiqatni aks ettirish tarzida, kichik yoshdagि maktab o‘quvchilarining muhim maxsus dars mashg‘ulot qonuniyatlarini, uning har xil turlari – doimiy va uzlucksiz ko‘rish obrazlarini tekshirishga yordam beradi. Shundan kelib chiqib, ancha mustahkam, yorqin adekvat haqiqatni, u yoki bu ko‘rish obrazi, real haqiqatni bilish yutug‘iga, bolalar badiiy faoliyatining va estetik rivojlanishining yutug‘iga bog‘liq.

O‘quv-tasviriy jarayonda tasavvur obrazlari muhim rol o‘ynaydi.

Ammo eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilarda tasavvur o‘ziga xususiyatlarga ega.

G.L.Vilodskaya, L.S.Vigotskiy, A.P.Gozova va boshqalar tadqiqotlari eshitishda nuqsoni bor bolalar ontogenezining ilk boschichlarida, tasavvurning rivojlanishida eshitadigan tengdoshlaridan qolib ketganliklarini ko‘rsatib o‘tganlar.

Eshitishda nuqsoni bor bolalarda tasavvur xususiyatlari nutq shakllanishi, fikrlashda, qoloqligi, turli faoliyatni o‘zlashtirish, qabul qilishning qolib ketishi bilan tushuntiriladi. Eshitishda nuqsonli bolalarda xotira obrazlari yetarlicha yorug‘, yorqinligi va tezligi bilan xarakterlanadi. Mening tushunarli fikrlashimning rivojlanishiga so‘zning aniq ahamiyatidan chalg‘itishdan halaqit beradi, so‘zlar bilan yaralgan obrazlarni qayta tiklashni yana yangi obrazlarni shakllanishi ular ko‘lамини qiyinlashtiradi. Nudelman qayta ko‘rilgan tasavvur xususiyatlarini o‘z tadqidotlarida shuni ko‘rsatadiki, eshitishda nuqsoni bor o‘quvchilar adabiy asarlarni o‘qiganda vujudga kelgan obrazlar yozilishiga har doim ham mos kelmaydi. Bunday mos kelmaslik, bolalar o‘qigan fikrlar

tasavvurining to'liq emasligi natijasida hosil bo'ladi. Hikoya qo'ngan rasmlarda, tasvirlanayotgan holat har doim mazmunga mos kelmaydi. Avvalgi tajribalaridagi matn bilan rasm orasidagi farqlar-ni to'p dalillarni bolalar rasmga kiritadilar. Chunki hikoya matni bolalarga predmet obrazlarini topish, tasavvurga qaraganda ko'proq xotira obrazlariga tegishli obrazlarni aktuallashtiradi. Eshitishda nuqsonli bolalarda katta qiyinchiliklar adabiy asarlarda yozilgan obyektlar orasida fazoviy munosabatlarni qayta tiklashda kuzatiladi.

Qaya tiklangan tasavvur rivojlanishi orqada qolishi tasavvur boy'gining kamligi va ularni qayta qurish mahoratining yo'qligi sabablardan biri bo'ladi.

Nudelman fikricha, eshitishda nuqsoni bor bolalarning ijodiy tasavvurni tadqiq qilish katta qiziqish uyg'otadi, chunki kattalar va tengoshlar bilan muloqotning chegaralanganligi ularga yetarli ma'lumot olish imkoniyatini bermaydi, nutq va fikrlashning rivojlanish qoloqligi, bor bo'lgan tasavvurning usul va yo'llarini o'zlashtirishga xalaqt beradi. Regishniy va Sotsinaning tadqiqotlari eshitishda nuqsoni bor kichik yoshdagи maktab o'quvchilarining g'oyalardan foydalanishda yetaricha ephillik ko'satmaydilar. Eshitishda nuqsoni bor bolalar yaratgan kompozitsiyalari eshitidi-gan bolalardan ko'proq predmetli va kamroq original, bolalar ko'proq berilgan modellarga, harakat namunalariga bog'lanib qolganlar.

Tadqiqotlarda eshitishda nuqsoni bor bolalarning obyektlarni sodda, xemali tasvirlashga moyilligi aniqlangan, yangi obrazlarni shakllanirishda qiyinchiliklari kuzatiladi.

Kichik yoshdagи eshitishda nuqsoni bor maktab o'quvchilarining ijodi tasavvur rivojlanishi orqada qolib ketishi ularning sensor tajribasini yetishmaslidan, turlarning kamchiligidan, eng boshi, robinator tasavvur mexanizmlari shakllanishidan deb tushuniladi. Bu esa avvalgi tajribani qayta konstruksiyalashtrishni qiyinlash-tirishga olib keladi.

Kichik yoshdagи eshitishda nuqsoni bor maktab o'quvchilarining eng qulay sharoit tashkil etishda, ularni nutq va tafakkurining tugallanishida tasavvur kompensantor rivojlanishga erishiladi.

Eshitishda nuqsonli kichik yoshdagи maktab o'quvchilarining tasviriy san'at darsida ijodiy va qayta tiklangan tasavvurning shakllanishi

Barcha tasavvurning kerakli sifatlari (kenglik, ixtiyoriylik, chidamlilik, originallilik) birdan paydo bo‘lmay, balki sistematik sharoitlar, kattalar ta’siri orqali paydo bo‘ladi. Bu bolaning idroki va tasavvurini boyitishi kerak. Lekin tayyor mavzularga zo’rlab, ko‘zini uzmay turishi kerak, degani emas.

Bolaga haqiqatni tanitishda unda tasvirlash obrazlarini qo‘llashni rivojlantirish qobiliyati, ular asosida yangisini barpo etish uchun yordam berish kerak. Bunda bolalarda bilish, qiziqishlarni shakllantirish muhim. Agar bu vazifalar bolalar bilan o’tkazilmasa, tasavvur ham rivojlanishda ancha orqada qolib ketadi.

Eshitishda nuqsoni bor kichik yoshdagи mактаб o‘quvchilarining tasavvuri shakllanish jarayonida pedagog tasviriy san’atning qayta tiklash va ijodiy tasavvur o‘zaro mahkam bog‘langanligini esda tutishi kerak.

Rassom asliga qarab rasm chizganda, u nafaqat ko‘rganlarini, balki o‘zining fikrlarini, tuyg‘ularini, naturaga munosabatini, ya’ni ko‘rganlarini o‘zgartirib ijod qiladi. Bilim vositalarini va aks ettirishning o‘zaro bog‘liqligi har bir rassomda ajralib turadigan ijod qirralarini tashkil etadi. Ijodiy va qayta tiklash tasavvurining o‘zaro aloqasi rasm bilan bezash ishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Rassom o‘zining rasmlarida, adabiy asarlarida eng muhim sujetning tugunli onlarini, personajlarning xarakterli tomonlarini, voqealar ning muhim tomonlarini, o‘zaro munosabatlarni ochib berishga harakat qiladi. Bu esa o‘z navbatida kitobxonga adabiy asar mazmunini yaxshi tushunishga, uning asosiy fikrini bilishga, o‘qiganlardan xulosalar chiqarishga yordam beradi.

O‘quvchilarda tasavvur rivojlanishi bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar taqdim etishdan avval shuni belgilash kerakki, fantaziya asosida quyidagi ruhiy sifatlar yotadi:

bir predmet obrazini aniq va ravshan taqdim etish;

miyada obraz-tasavvur saqlab qolishga yordam beruvchi yaxshi ko‘rish xotirasi;

ikki va undan ortiq pedmetning o‘lchamini, sifatini tafakkurda solishtirish qibiliyati;

yangi obyektlarning yangi xususiyatlari va turli obyekt qismlarining murakkablashgan qobiliyatini yaratish.

Shunday qilib, tasavvur jarayonining o'tishi uchun muhim sharoitlar, birinchidan orttirilgan tajriba, bor bo'lgan bilimlarda ifodalananadi (predmet, dunyoni, tabiat va hayot hodisalari haqida tushuncha, ikkinchidan tasavvurni fikran ishlatish ularni qayta tiklashning mahorati). Mavjud tushunchalar asosida nafaqat yangi obrazlar qayta quriladi, balki umuman yangi bir ijod muallif niyatiga mos o'zgartirish yaratiladi.

- menga esa ko'proq shoyi ro'mollar, popuklarsiz sovuq tonda katta gullari bilan yoqadi;

- men yelkada uchburchak ro'molni, faqat bitta burchagida rasm bo'lganini yoqtiraman.

Qizcha yugurib o'tib ketadi, unga yorug' uchburchakli ro'mol yoki o'yinchoqlari bilan ro'molcha yoqishini aytadi. Buvisi esa bunday ro'molni o'ramaydi.

Amaliy vazifa:

- Biz turli ro'mollarni ko'rdik, endi esa bezash ustalari qanday ishlaganlarini bilayapmiz.

Ro'mollar hoshiyali va hoshiyasiz, mayda va yirik bezakli bo'ladi. Ro'mollar misolida yoki plakat bo'yicha turli kompozitsion yechimlarni ko'rib chiqamiz.

O'qituvchi rasm ko'rsatadi (ro'mollar to'plami shoyi, shtapel, kashimir). Ro'mol sidirg'a grafikli rasm bilan bezalgan bo'lishi mumkin. Bitta rangli gammadagi ro'mol iliq rangli gamma cho'tkali yoyilgan naqsh gul, ranglarning ustma-ust qo'yilishi bilan yorug' kontrast gulli ro'mol (2-3 ta rang garmoniyasi) hosil bo'ladi.

Yorug' tonda bolalar rasmlari bilan ro'mol yoki uchburchakli ro'mol chizadilar.

Bolalarning mustaqil ishi.

Bolalar ro'mol yoki uchburchakli ro'mol uchun qog'oz tanlab oladilar va mustaqil ravishda cho'tka bilan tayyorgarliksiz rasmlarni bo'yaydilar.

O'qituvchi to'qimachilikda bunday rasm bezatish elementlarining uchta o'lchami: yirik, o'rta va mayda qo'shilganda yaxshi natijaga erishish mumkinligini eslatib o'tishi kerak. Ro'mol rasmini akvarelda, mato bo'lagida bajarish mumkin.

Nogiron bolalarni davolash san'ati

Bolalar va ularning ota onalari

O'xshashliklar va farqlar

Nogiron bolalar terapiyasi – ular odatda ko'rinishidan normal ko'rindi va harakat qiladi lekin ularda his tuyg'u bilan bog'liq muammolar bo'ladi. Haqiqatda jismoniy yoki hissiy zaif bolada shunday muammo bo'ladiki hattoki u ko'rinxaydigan nuqson bo'lishi mumkin, masalan rivojlanishdan ortda qolish, odatda boshqa bolalardan sezilarni farq qiladi. Nogiron, shu bilan birga, ommaviy axborot vositalaridagi qiziqishlarida boshqa bolalarga o'xshaydi va ularda mahorat bilan bog'liq, qo'rqish, injiqlik va g'azab hissiyotlari bo'ladi.

Ular o'zgalardan farq qiladi, chunki ularning aqliy yoki jismoniy zaifliklari ularning hissiyotlariga va dunyolaridagi aloqalariga ta'sir ko'rsatadi. Chunki ular ko'p narsalardan mahrumdir, hattoki eng yaxshi parvarishlash bilan ular juda ham och bo'lishga intilishadi, hissiylik va ijodiylik uchun ochlikka tayyorlanishadi hamda, hissiy va o'zaro insoniy tajribalar va samarali terapiya uchun kerak bo'lgan xavfsiz holatlar turi. Shunday qilib, ko'zi ojiz bolaga ko'zi ko'radigan bolaga qaraganda ko'proq va tez-tez gapirilish kerak, unga atrofida nimalar borligi va ularning qanday va qay holatda joylashganligi tushuntirilishi va atrofida o'z teng-doshlari mavjudligiga ishontirilishi kerak.

Chunki ularning aqliy yoki jismoniy zaifliklari ular uchun voqelevi – farqli o'laroq bolaning jismoniy butunligining fantaziyalari hech qachon chin yurakdan qo'rqitilmagan – ularda o'zlarining qobiliyatsizliklari bo'yicha fantaziyalari va hissiyotlari bilan bog'liq o'ziga xos muammolar bor – ayniqsa bu ularda qanday va nima uchun sodir bo'ldi va ular kelajakda buni uddasidan qanday chiqadilar. Bir kuni menda bizning klinikaga kelgan bir ko'zi ojiz boladan katta bir ishni o'rganish imkoniyati bo'ldi. Bir kishi hissiy nuqsonli bola bilan shug'ullanayotganda sodir bo'lgan hodisalarning bir qanchasini misol qilib keltirish uchun ular bilan ishslash mena yoqdi, bu ham bir voqelevi.

Avvalambor, siz Kandining ikkita badiiy baholashi haqida eshitasiz; so'ngra oilaviy badiiy baholash uning baholashining bir

qismidir, uning ota onasi bilan davolash xuddi bir juftlik kabi. Chunki men uning menga daxldorligiga va badiiy media va klinikani o'zgartirishiga aminemas edim, men ikkita individual baholash kengashini taklif qildim.

Kandi: Individual badiiy baholash

Ko'rlar tegishli foydalana oladigan materiallar ta'minoti muhim ahamiyatga ega va oldingi ijodiy tajribaga ega bo'lgan ko'radigan bolaga qaraganda ko'proq yo'riqnomalar va demonstratsiyalarni jalb qilishni boshlash uchun ularga yordam beradi. Biroq, ko'zi ko'radigan bola bilan ko'zi ojiz bola bilan olib borilgan intervyu juda ham katta farq qilmaydi.

Farq nimada, tana qismlarini o'tkazib yuborish faktini uddasidan chiqish muammosi katta bir masala va har bir ko'zi ojiz bola yuzma yuz bo'lishi kerak. Fantaziya bu bolaga kerakli narsani bermagan onadir yoki bazi bir "yomonligi" tufayli buni olib qo'yishi umumiy bir masala.

Bu Kandining birinchi badiiy baholash sessiyasi 10 yilligiga qaraganda tezroq paydo bo'ldi. Ko'r va miyasi falaj, u dastlab loydan "kuchukcha" yasadi (aslida loydan kuchukcha yasadi) va o'z o'zidan ona kuchuk olib ketilgan drama yaratishda davom etdi. Ko'zi ojiz bola uchun mahrumlikning biri o'zining ota onasiga nisbatan g'azabini ifodalashda bolaning ota onaga haqqoniy qaramliligidir va muhtojlilik va zaiflilik hissiyotini his qilish.

Avval Kandi o'zining loydan yasalgan kuchukchasini yeto'laga qo'ydi va kuchukcha "u meni tashlab ketdi!" deb akilladi. U davom etdi. Keling kuchukni ona kuchuk deb tasavvur qilamiz.

Ular bir birlariga qisilib turibdilar va ular uxlayaptilar (loyning kichik qismini kattasidan keyin qo'yyaptilar). Bu ona kuchuk va ana u bola kuchukcha....bola kuchukcha onasini orqasiga berkinyapti.

Keyin ular ona kuchukka ketishga ruxsat berdilar!

Qachon kim nima qilishni so'radi, u aytdi, "kichkina bola. Bola qizni kuchugini oldi". Loyning boshqa bir bo'lagini kuch bilan chapillatib, qizcha g'azab bilan "yomon bola" deb baqirdi. San bu kuchukchalarni ketishini yaxshi bilasan! Man ularni sanga beraman! Sen bu kuchukchalarni qaytarib keltirasan! So'ngra qizcha bolani tuynukka qisib "hey bola sen o'lasan!, u yerda! Sen o'lgansan! dedi. Buni pichoq (yog'ochli asbob) sifatida dalil qilib ol. Men uni

yaxshilikka o‘ldirdim”. Keyinroq xuddi shunday hikoyada qariligidan o‘lgan otasi haqida aytdi. Hech kim uni o‘ldirmadi. Men uni o‘ldirmadim.

Boshqa bir dramada loy ishi atrofida bir xil soatning oxirida qurildi, nogiron bolalarning davolash san’ati kandi shikastlanish to‘grisida bezovtalikni ifodaladi. “Meni o‘ldirmang! Oh! Yomon bolalar meni o‘ldirmoqchi! Men biror bir yomon ish qilmadim! Oh, Yordam bering! Men biror bir yomon ish qilmadim! Men biror bir yomon ish qilmadim!” men hikoyadagi kim edi u deb so‘radim, qizcha aytdiki u ona edi.

U ayol men uning kichik qizi ekanligimni va u mening yangi onam ekanligini da‘vo qildi: “Senga yangi ona kerak. Sen bu fursatdan unumli foydalanishing kerak..... men senga blinchiklar pishirib beraman. Men u qizni o‘z joyiga olib boraman va qiz o‘ldi....mening bolalarim meni turtib sochimdan tortdi.”ona bolasidan va tajovuz ostida qolishdan xavotirlanib Kandi onasini o‘ldirish va almashtirish xayolini bekor qilishga qaror qildi. Hayranlanarli ovozda e‘lon qildi. “Sening onang qaytdi! Sen unga jannatda qanday yaxshilagini ayta olasan”. So‘ng, go‘yoki turtki juda ham kuchli edi va u davom etdi, “balki sening onang kasaldir. Manimcha u ertaga qaytib keladi”.

Ona o‘ldirish istagiga qo‘srimcha tarzda, ko‘zi ojiz bolalarda tez tez yoki ba‘zan o‘g‘irlilikni jalb qiladigan alomatlar yoki xayollar bo‘ladi. Qisman, ularda shunday hissiyot tuyuladiki ulardan nimadir o‘g‘irlangandek (ularning ko‘z nurlari), ular haqli tavishda nima-dirni sog‘inib yuradilar yoki ularda har doim nimadir yetish-mayotgandek va ularga qaytarib olish huquqi beriladigandek. Kandining ikkinchi badiiy intervusida u ham o‘g‘ri ham politsiyachi bo‘lishni davo qiladi va aytadiki “man sening pulingni o‘g‘irlamoqchiman Chunki man shunday qilishni xohlayman va manga bu yoqadi”.

Kuchli politsiyachi sifatida (vijdonli), u o‘grini ushlab uni qamoqqa tiqdi. O‘jar o‘g‘ri qaytib keldi, biroq politsiyachi undan so‘radi, “sen yana qaytib kelding! Senga nima bo‘ldi?” balim uyiga yaqin bo‘lgandir, o‘zining rolida u keskin o‘zgarishga rioya qildi.

Keyin dramada, bir bo‘lak yog‘ochni va bir bo‘lak ko‘pikni ushlab, Kandi obyektlarni ham bir-biri tomon ham bir-biridan

uzoqlashtirdi, to‘qnashuvlarni oldini olishga harakat qilib aytdi “yog‘och yolg‘iz keldi va chiqsa oladimi deb so‘radi va ular o‘ynaydilar va ular bir-birlarini uradilar”. “Sen yomonsan! Yoq Sen yomonsan!” “nihoyat hassa aytdiki, Men boshqa o‘ynamayman! Keyin ikkovlari aytdilar “Men ketyapman” va yog‘och hassa baqirdi va narsalarni tirnab urdi va hammasi o‘lgan.....Oh, yo‘q Men o‘ldim!.

Sen nega meni o‘ldirding? Sen xato ish qilding! Yo‘q sen! Yo‘q sen!.

Ona xato ish qilganday tuyuldi yoki bola yomon edi va layoqatsizligi sababli jazoga sabab bo‘ldi.

Barmog‘i bilan chizib va kremla modda hissiyotidan zavqlanib, Kandi barmoq bo‘yog‘idan rohatlanmayotganligini tasavvur qildi, dedi “men sizga xushmuomalaman” bo‘yoqni ishlatalishda davom etib, qizcha kulgili va arvochlар haqida qo‘rinchli hikoyalari aytishda davom etdi, ayniqsa sizni kasal qiladigan sehrli damlamalar. Yalmog‘iz juda qo‘rinchli. U sizga yomon narsalarni va moddalarni beradi..... u sizga damlama beradi va siz unga hujum qilasiz va u g‘oyib bo‘ladi.”

Xayol yalmo‘giz kampirning yomon ovqati (damlamasi) qobiliyatsizligiga sabab bo‘ladigan umumiy bir masala bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda ushbu xayol bilan yuzaga kelgan bezovtalikni boshqarish uchun Kandi o‘zining barmoqlarini bo‘yalgan qo‘llariga va ko‘p narsalarga qo‘ydi va u “ifloslanganligini” aytdi. U menga aytdi, “tasavvur qil sen kulguli yuryapsan—kim bu isloslangan joylarni artib tashlaydi? Tasavvur qil sen kasalsan. Sening kulgingni ichiga men kirlikni qo‘ymoqchiman. Men qo‘ymoqchiman – men sening ko‘zlariningi ichiga kirlikni qo‘ymoqchiman. Tasavvur qil sening paypog‘ingni ichiga men kir narsalarni solib qo‘ydim. Tasavvur qil sen qo‘lingni kirlik bilan shikastlading.....men kirlikni sening idishlarningga qo‘ymoqchiman. Hozir sen buni yeysan va o‘lasan!”

Meni ko‘r qilish va o‘ldirishga davo qilib, Kandi bezovta bo‘ldi va o‘z rolida keskin o‘zgardи, u ga‘zabini ta’sirini bekor qilishga harakat qildi. “u yerda boshqa hech qachon kirlik bo‘lmaydi. Kirlik

yo‘qoladi. Men hech qachon kir bo‘lmayman!” keyin u barmog‘iga bir bo‘lak loyni tiqdi, va bundan rohatlandi.

Kandi: Oilaviy badiiy baho

Men kandi bilan uchrashganidan keyin, uning oilasi meni badiiy baholash uchun taklif qildi (DVD 16.1). unda kandi, uning ota onasi, 14 yoshli akasi va 6 yoshli singlisi qatnashdi. Shunday qilib bu baholash ma’noli bo‘lib, kandining maxsus talabiga binoan shaklni o‘zgartirishi kerak edi. Guruh devoriy surati o‘rniga, oiladan birinchi marta birgalikda hikoya tuzish so‘raldi, kandi boshqalardek osongina qatnasha oldi (16.1A), bunga oilani o‘rtasida namoyish qilish uchun talabga binoan riosa qilindi, ammo turli shaklli va o‘lchamli yelim va karton bilan birga yupqa tekis yog‘och bo‘laklari bor edi. Kandi turli xil beshta yog‘och bo‘lakni tanladi va ularni o‘z istaklari va o‘z oilasining hissiyotlarini aks ettiradigan qilib kartonga yelimaldi. (16.1B).

Har bir kishi uchun shaklni tanlagandan keyin, qizcha onasini chap tomonga joylashtirdi, keyin otasini (boshqalarga qaraganda sezilarli kattaroq) o‘ng tomonga joylashtirdi, katta akasini o‘rtaga joylashtirdi “o‘zini tomonidan” so‘ngra o‘zini (yog‘ohning eng kichik va yupqa bo‘lagi) otasidan keyin o‘ng tomonga joylashtirdi va nihoyat eng kichik singlisini onasiga yaqin joylashtirdi. U shakllar, hajmlar bo‘yicha to‘g‘ri mo‘ljalladi.

Nogiron bolalarni davolash san’ati

O‘quvchi qayta chaqirishi mumkinki Kandi ko‘zi ojiz bo‘lishi bilan birga uning miyasi falaj edi va haqiqatdat ham kulgili yurdi. Odamlarni ongli joylashtirish bilan birga oila qurmaganligiga qaramasdan bizga o‘zaro oilaviy munosabatlar hissiyoti tushunchasini berdi.

Qizchaning 14 yoshli akasi, haqidatdan ham u yerda bo‘lganidan xursand emas, birinchi marta oila qurolmasligini aytganidan keyin sukut saqlab juda xafa bo‘ldi. Shunga qaramay, u rag‘batllantirildi, balkim raqobat tufaylidir, balkim o‘zi yog‘och shakllarini ishlatgani uchun qo‘rqayotganligi uchundir (16.1C). u to‘rtta boshqa oila a‘zosiga otish raketalarini ko‘rsatib o‘zining simvollarini markazga joylashtirdi.. har bir burchakda – narsalarning o‘sha paytdagi ko‘rinishi bor edi. Shunday qilib, isbotlangan

materiallar nafaqat jismonan yoki aqliy zaif bolalar uchun balkim qizchaning katta akalarining qarshiliklarini yengish uchundir.

Kandi: uning ota onasi badiiy san'at bilan davolash

Badiiy san'at bilan davolash nafaqat bolalarini davolashda bo'l-gan individual ota onalar uchun (12 bo'limda tasvirlangandek) balki juftliklar uchundir(Wadeson, 1973; Riley, 2003). Badiiy terapiyani qanday qilishni o'r ganmoqchi bo'l-gan psixiatrik istiqomat qiladigan bolalar bilan olib borilgan baholashdan keyin, men bolalar maslahat markazida ota onalarni ko'rdim (shuningdek men Kandi bilan istiqomat qiluvchilarining mustaqil ishlarini tekshirdim). Garchi san'at bu og'zaki va manfaatdor er-xotinlar uchun dastlabki o'rtacha aloqa bo'lmasada, bular Kandining muammolarida muhim omil sifatida paydo bo'l-gan paytda bu ayniqsa oilaviy munosabatlarning qiyin sohalari bilan shug'ullanishga foydalidir. Qizning otasi men bilgan ko'pchilik nogiron bolalarning otasidek, o'z ishiga qochib ketdi va Kandini tarbiyalashdan otalik vazifasini bajarishdan bo'yin tovladi.

Bir juft sessiya mobaynida, hamkorlikdagi xafagarchilik va ehtiyojlarning qondirilmasligi to'g'risida har birining bilvosita g'azabidan keyin, bir birlarining tushunchalari qiyin tuyulgandan beri men ulardan bir birlarini chiza olishlarini so'radim. Rassom-chilik dastgohining teskari tomonida turib ishlagandan keyin ular bir-birlariga qarab o'zlarining chizmalarini muhokama qildilar.

Kandning otasi o'z xotinini "Gibraltar Qoyasi" dek (Rasm 16.1) tasvirladi, bugungi hayotni o'zgartirishda kuchli va muqarrar minora.

Boshida u qanday ekanligini aytdi, bola qizga bunday haqqoni y bo'l-magan kutishda g'azab bilan javob berdi va bola, qiz hech qachon o'zining zaifligini yoki kuchsizligini ko'rsatmasligini xohladi, ammo bola xafa bo'lib bo'l-gan edi.

Boshqa tomondan, Kandining onasi nihoyat bolani xursand qilishni iloji yoqligi haqida ko'z yosh to'kdi va uning hamdardligini tushunish qiyin edi u muhtoj bo'Iganda o'zining shaxsiy hissiyotlaridan mahrum ekanligini bayon qildi. Qiz Kandining otasi o'zining ishi va xobbisiga o'ralashib ketganligini aytdi va uning o'z oilasi uchun vaqt yo'q (rasm 16.2). Qizchaning chizmasi bolaning gitara chalayotganini va turli xil qiziqarli narsalar haqida xayol

surayotganini ko'rsatdi, ularning birortasi uning o'zini yoki bolalarni o'z ichiga olmagan.

Bola his qilgan nohaq tasvir haqidagi birinchi mudofaada uning eri nihoyat rozi bo'ldiki, nihoyat balkim qandaydir haqiqat bor. Haqiqatda bir yil oldin o'zining oilaviy chizmasida o'zini qanday joylashtirganligini tasvirladi.

Balkim bu sessiyadan 6 oydan so'ng, so'zsiz ikki elementdan tashkil topgan chizmalar bilan 3 haftada aloqa masalalari tasvirlangan juda ko'p ishlar amalga oshirildi va xissiy xulq atvorlar muhokama qilindi (16.1D). Ikkala ota-onalar muvaffaqiyatli va tez tez intellektuallashtirishga urindilar, san'at ularning hissiyotlari bilan aloqa qilishga yordam berish uchun ishlatildi.

Doroti: ruhiy kasallangan bola

Ko'p yillar oldin bolaligidan ruhiy kasallikka chalingan, ehsitish va ko'rishdan shikoyat chekib yurgan aqliy zaif bo'lган Doroti ismli qiz bilan ishladim. Dorotiga qo'shimcha badiiy terapiya amalga oshirildi. Ular turar-joy davolash maskanida 10 ta bola edi.

Qiz jami 24 ta sessiya uchun noyabrdan martgacha har hafta keldi va bir soat o'tirdi.

Boshida qizning o'qituvchisi menga "badiiy san'at" o'qituvchisi sifatida tanishtirdi, Doroti bir qancha yo'riqnomani xohladi. Biroq qiz sessiyalarning ochiq xarakterini qabul qildi, tezda o'zining ga'zabini yengdi va iliq va ishonchli munosabat o'matishni boshladidi. Garchi qiz gapira olsada, ko'p gapirmsadi, uning nutqi ravon emasdi va uni tushunish qiyin edi. Qizcha aniq rassom edi, biroq u o'zining hayol va g'oyalarini qalam va boyoq cho'tkasi bilan tasvirlardi (DVD 8.2).

Qiz o'zining birinchi uchta sessiyasi davomida, Doroti chizmaga (8.2A), qushlarni (8.2C) bo'yashga (8.2A) qushlardek shovqin qiladigan va qo'llari bilan qanot qoqadigan hayvonlarga diqqatini qaratdi. Unga bunday zerikarli ishlarni bajarish majburiyday tuyulardi (8.2D), har doim qalamda qushlarni chizardi (Figure 8.4).

Shunday qilib to'rtinchı sessiya mobaynida, kichik qalam-larning yetmasligi tufayli umidsizlikka tushib qizcha katta qushni sariq rangga bo'yashga urinishidan keyin, men o'yladimki Doroti oldindan rejalshtirmay turib bo'yoqlarni ishlatadi. Qiz bir qancha ishlarni o'rganib shunday qildi va o'zinig ozodligida biroz

hayratlandi va xursand bo‘ldi, quvnoq ovoz bilan chiyillab raqsga tushdi. Qachonki qiz birinchi urinishini tugatgan paytda (8.2E), qiz katta hajmli qog‘ozni so‘radi ($18'' \times 24''$) va hayajon bilan “men mahluq yasayman!” deb e’lon qildi. U ajoyib va rangli bo‘yoqli ijodiyot yaratdi (8.2F), va shunga asosan shunday dedi “Men boshqa bir mahluq yasamoqchiman!” shu safar qush sifat jonzot chizib iriladi. Keyingi haftani Doroti bir eski qush, burgut bilan boshladи va uni chizdi va bo‘yadi. Keyin u o‘ng tomonda juda ham ko‘p qushlarni rasmini chizdi. Qalam va sariq bo‘yoq keyinchalik “maniken” deb ataldi, bolaning qo‘g‘irchoqqa o‘xshagan rangli qalami, narvonni ustida turib, burgutni og‘zida (8.2G) o‘zining qo‘li bilan birinchi “manikin va burgut” ni nomlagandan keyin qizcha “men boshqasini qilishni xohlayman” dedi. Qizning qalamdagи ikinchi chizmasi burgut g‘azabining zararli ta’sirini grafik tasviri. Shakl (ham “erkak” ham “maniken” deb ataladi) qo‘llari va ko‘zlar bog‘langan va juda shikastlangan. Notiq tushuntirdiki, burgutlar axmoqdirlar va ular odamlarni o‘ldirishni va yeyishni xohlaydilar.

Balkim birinchi marta, Doroti qushining tajovuzkor omillari u bilan birga ishlaydiganlar uchun oydinlashtirildi-balkim Doroti uchundir ham. Keyingi hafta uchish omillariga urg‘u berib qiz bir surbet qushni rasmini chizdi, keyin uni qora rang bilan bo‘yadi “Uyga ket” deb takrorladi.Qiz qafasda edi (u tajribasidan o‘tqazgan kasalxona palatasi) “Buu Huu!” dedi va o‘ng tomondagi katta mahluq “Ha ha!” dedi.

Bu katta va kichik qushlarni chizib va bo‘yab va “Uyga bor!” “Uyga bor!” “Uyga bor!” degan so‘zlarni kuylab va qo‘l qanotlarini qoqish bilan namoyish etildi. Uning xissiyotlardagi so‘nggi mahsuloti sevimli, ehtiyyotkor bo‘yalgan, katta va muhtasham qushlar edi (8.2H).o‘zining to‘qqizinchi sessiyasida Doroti o‘zining tasavvuridagi holatini o‘zgartirdi va bir qancha ishlarni o‘rganishni boshladи 1478,5 Qizning hissiyoti aniq edi har bir odam uchun shakllarni aniqlash uchun imkonli bor edi (8.2J).

Bu chizmalar ko‘pincha marker yordamida chizilgan (8.2K). Bu mavzu rasmlarda faoliyat va dramani oshirib 6 haftada egallaydi (8.2L). Qiz boshqalarni jalb qilayotgan paytda u hech qachon o‘zini rasmini chizmagan. Oxirida, men Doroti qayerdaligini so‘radim u

kulimsirab boshini ustidan uchib o'tayotgan qushni ko'rsatdi (8.2M).

O'zining 15 chi sessiyasida Doroti qaytadan kiyimlarda ehtiyojkorlik bilan chizilgan belgilarni o'zgartirishni boshladi, keyinchalik yosh bolaga tegishli barcha narsalarni aniqladi, ya'ni 5 ta boladan biri uni rashk qilgan. Qiz unga chiroyli kiyimlar bo'lishini orzu qilardi, lekin uning kiyimlari juda ham xunuk edi. Keying hafta birinchi navbatda eski kiyimlarini uloqtirgan yoshi katta va kichik bolalarning rasmlari orqali namoyish qilingan kiyimlar chizildi va bola yig'ladi-balkim qizning rashki uning qo'rquvidandir (8.2N).

Keying sessiyada Doroti "mushuk davri"ni boshladi va 7 hafta mushuklar katalogini (8.2P), mushuklar oilasi rasmlarini, va mushuk libosini kiyish hayollari (8.2Q)ni yasadi – haqiqiy qush bo'lishga qaraganda biroz realistik bo'lsih. O'zining 23 chi sessiyasida qiz yosh bolani va uning ko'p kiyimlarini rasmini chizdi, keyin o'zi egalik qilib turgan narsalarni dumaloqqa oldi. Jalal nutq terapiyasi orqali o'zini nutqini yaxshi maqsadida qiz o'sha paytda juda ham ko'proq muomalada bo'lishga intilardi va unda "intiho" bo'yicha juda ko'p savollar bor edi.

Oxirgi sessiyasida, biz bolaga yordam berishni qulay usulini ko'rib chiqdik. Qiz kam gapirib rasmlarni yaqindan o'rganishga qiziqardi. Ochiq dushmanlik bilan bog'liq juda kuchli tasvirlar juda tez yuborildi va vaqtning ko'p miqdori palatada yotgan bolalarga sarflandi. Qiz o'z otasi va onasini borligini his qilib "Oilaviy tosh-baqa kosasi" portretiga uzoq muddat tikilib o'tirdi; ilgari mushuklar odamlarga erkalanishini aytib ularni ota ona sifatida ekanligini aniqladi. Qiz juda ham ko'p kiyimlarni, palatadagi bolalarga tegishli buyumlarni rasmini chizdi va "Seni yaxshi ko'raman" deb xayr-lashdi.

Dorotining terapiyasining terapiyasi u tayyor bo'lgani uchun emas balki men homilador (8.2T) bo'lganim uchun muddatidan ilgari tugatildi va 1960 yillarning boshlarida homiladorlik aniq-langandan keyin sen ruhiy kasalxonada yotgan bola bilan ishlay olmasding. Garchi u menga o'z g'azabini ifoda etmagan bo'lsada bir oydan keyin man uning palatasiga tashrif buyurganimda u menga

“Janob Rubin yomon kishilarga hujum qilayotgan” sur’atni ko’rsatdi (8.2U).

Doroti va o’sha bo‘limdagi bolalar bilan malaka aniq va asosli edi. O’sha paytda klinika bo‘yicha menda tajriba yo‘q edi va men endigina badiiy va bolalar terapiyasi haqida o‘qishni boshladim. Men ma’lum bir cheklovlardan tashqari, qo‘rroq va ehtiyyotkor edim. Men ruhiy kasallangan bolalar haqida badiiy adabiyotlarni o‘qirdim va shuni aniqladimki, hayvon belgilarini ishlataladi va umumiylar bo‘limgan mavzularni qaytaradi (Despert, 1938), va uning samaradorligi nutqi va ishining mukammalligini inobatga olib aytib o‘tilgan(Montague, 1951).

Ehtimol, ba’zi bir taxminlarga ko‘ra, Dorotining san’ati haqiqiy dunyo bilan aloqa o‘rnatish uchun ishlataladigan qurilmadir va uning bolalarni suratini chizgan rasmlari dunyo xaritasida o‘z o‘rnini topish uchundir balkim. Albatta, hatto o‘zimning dunyoyimda bu bola uchun tajribada sezilarli darajadagi qiymat borligini ko‘ra oldim. O‘z hayollarini chizish uchun va dunyoning bir qancha ishlarini tadqiq qilish uchun 149 8.6 “Toshbaqa kosasi oilasi” Dorotiga bir qancha imkoniyatlar berildi. Rasmlardagi qalam unga ichki bosimdan qutulish uchun imkon bera oladiganday tuyuldi. Ehtimol, bu o‘zining yondashuvi va haqqoniyligini qurish shuningdek o‘zining dahshatli hayollarini gavdalantirish yo‘lidir.

Ba’zilar Doroti san’atni qochish sifatida ishlataladi deb xavortilanganda, o‘z hayollari orqali haqqoniyatga yo‘l topish uchun va hissiyot va rohatni tajribada sinab ko‘rish uchun o‘zining mahorati tufayli san’at uning uchun yaxshi bir joy ekanligini his qildim. Men uning ishini 1964 yil Grand Roundsdagi Professor Erik Erikson (1950, 1959) ga ko‘rsatganida, u badiiy san’at terapiyasi juda ham yordam bergenini his qildi.

Randi: Enkoprez kasalligi bilan kasallangan bola. Randining san’at ishida turli xil ketma-ketlik aniqlandi. 12 yoshli o’sha palatadagi enkoprez kasalligiga chalingan bola. Unga ham ruhiy kasal tashxisi qo‘yilgan, ammo u Dorotiga qaraganda ko‘proq og‘zaki nutqga ega va talaffuz qila oladi, haqiqiy dunyo bilan yuzaki aloqa qila oladi, ammo haqiqiy dunyo va hayol orasidagi farqni unchalik anglay olmaydi (DVD 8.3).

23 haftalik san'at sessiyasining kursida, Randi turli xil haqqoniy adolatli mavzular bilan turli xil chizmalardan foydalana boshladi. U zebralarni (8.3B), raketalarini, maktablarni (8.3C), mushakbozliklarni, ikkinchi jahon urushi sahnalarini (8.3D), ovqatlarni, kamalaklari, suv osti yerlarini va loyihalarni chizdi (8.3A) va bo'yadi (8.3E).

O'zining yettinchi sessiyasida Randi o'sha kungi bo'yashni xohlamasligini garchi uning birinchi tanlovi bo'lsada e'lon qildi. U kosmosni va qizil sayyora (Mars)ni rasmini chizdi va sariq ranglar yaraqlagan yulduzlarni anglatdi (8.3F). Ba'zi bir turkumlar "Qirol" va "Qirolicha" deb nomalanadi.

Bu chizma keyingi beshta sessiya uchun ishlagan "Kosmik fazo bo'ylab bizning sayohatimiz" nomli kitobni yaratishga olib keladi, kosmik fazoda (8.3G) badiiy terapiya va marslik haqida rasmlarni namoyish qildi. Keyingi to'rtta sessiya mobaynida, Randi qasr (8.3H), okean sahnalari, junglining rasmlarini, "sirli g'ordagi qorong'ulik" rasmlarini chizdi va yong'in ostida qolgan matabning (8.3I) va vulqon yaqinidagi dinozavrлarning rasmini chizdi (8.3J).

17 sessiyada u o'zining fazosiga qaytdi va uni o'rabi oldi (8.3K), shuningdek, "yangi yer", "yangi fazo", "mening marslik eski qadrdonim" va Randi "yangi turdag'i fazoviy kostyum kiygandi". O'zining keyingi sessiyasida qor bilan o'ralgan Serra Nevadas manzalarining tasvirlarini bo'yadi. Keyingi haftada "yer seriyalari" to'rtta sessiyasiga bag'ishlab kitob loyihasidagi boshqa bir uzun fazoviy seriyalarga o'xshash kengaytirishni boshlaydilar (8.3L).

Uning bir qancha romantik aloqalar uchun istaklari yaqin masofada va yashirin ketma-ketlikda aniq bo'ldi. Bizning Misrdagi tashrifimizning chizmasida ("yerda seriyalari")da marsliklar hikoyadan vaqtliroq chiqib ketdi) u menga juda ajoyib kiyimlarning rasmini chizdi, shunga o'xshash kiyimlarni kiyib ajoyib soch turmag'i qildi, u yerga ko'milgan xazinani topgunicha, menga qimmatbaho tishlardan iborat sovg'ani berdi. O'zining shotlandiyaning rasmida u o'zning mening kamarimdan tutib turgan rasmini chizdi. (rasm 8.8).

Randi Dorotiga o'xshab, o'zining oxirgi sessiyasini badiiy san'at ketma-ketligini ko'rish bilan o'tqazdi, o'zi unutgan narsalarga hayratini ifodaladi. Eng ko'p tanigan va yoqtirilgan ikkita seriyalarda

ish mahorat va ehtiyyotkorlik bilan tashkillashtirilgan. Chizmalarni ko'rib chiqib kiyimlari va soch turmag'i diqqatga sazovor edi.

Uning eng so'nggi sur'ati Filippindagi qoyaning qirrasida turgan ayolning sur'ati edi. "bir dengizchi oroldagi qizlardan birini o'pishga uriniyotgandi va qiz ortga chekindi va to'g' tizmasiga yiqilib tushdi va shundan keyin urush boshlandi. Oroldagi qizlar erkaklar bilan, erkaklar dengizchilar bilan va dengizchilar oroldagi qizlar bilan urushdilar. Hamma bir-biri bilan urushdi! Men oroldagi qiz nega dengizchidan ortga chekindi deb so'radim va qizning ortga chekinganini sababi chunki uning unashtrilgan yigitni bor edi deb javob berdi. Uning oxirgi chizmasi sessiyaning tugashiga 10 daqiqa qolganda tugatildi va bu chizma "jang sahnasi" edi: "Revolyutsion urush".

Xulosa

Randi va Doroti ikkovlari ham ruhiy kasallikka chalingan kasal bolalardir. Ular haqqoniylig'i va hayolni orasidagi farqni anglashga qiynaladilar va ular chalkash dunyoda yashaydilar. Ko'p bolalar diskriminatsiya qilish qobiliyatini sekin asta rivojlantirib o'zlarining erta da'vo o'yinlari kursidagi ishonish va haqqoniylig'i orasidagi farqni aytish uchun o'rganadilar.

Shunga qaramay, ko'p bolalarda o'zlarining o'sish kurslarida qo'rquvlar, xohishlar, xavotirlar va hayollar orqali sodir bo'ladijan muammolar bor. Bu yashirin xissiyotlar yashirin oqibatlarga olib keladi chunki yoshlarning o'rganishiga to'sqinlik qilinyapti yoki ularning o'ynashlariga qandaydir cheklovlar bor.

Badiiy terapiya kursida noaniq va xira rasmlar va g'oyalar aniq bo'ldi. Alschuler va Hattwick (1969, pp. 140–141) mактабгача yoshdagilarning rassomlik dastgohlarini va dramatik o'yinlarini taqqoslagan paytda dramadagi mavzularni ravshanligini xulosa qildi va "rassomchilik dastgohlari ochiq oydin darajada bo'lmagan va aytilmaydigan hissiyotlarni, to'qnashuvlarni va qiyinchiliklarni ifodalash uchun ya'ni ongli darajada kristallangan muammolar va to'qnashuvlarga qaraganda keskinliklarni ifodalash uchun alohida o'ziga xos qiymatlar bo'lishi mumkin.

Bolalarning rassomchilik dastgohini ishlatishiga va o'rtacha loyning notuzilmaviy o'xshashligiga qarab ular shuni aniqladilarki "ommaviy axborot vositalari artikulyatsion shakllarni ifodalay olmaydigan ramziy xissoyotlar ifodasi uchun bolalarmi rag'batlantirdi" (1969, p. 137). Fikr onglilikka yaqinlashganda bu san'at sifatida ifoda etiladi. "Bolalar ochiq og'zaki arenalarga kirishlaridan oldin ramziy va grafik g'oyalarda muomala qiladilar. (Hammer, 1958, bet. 582). Bolalar va o'smirlar ongli ravishda xabardor bo'l-salarda ammo so'zlarni bir joyga qo'yishda bir qator qiyinchilik-larga duch keladilar.

Menda bir kuni ruhiy holatda yashovchi bola va uning onasi bilan birga ishlashga imkoniyat bo'ldi. 45 minut davomida men bo'lani ko'zdan kechirayotgan paytimda shifokor onasini nazorat qildi, so'ngra o'sha paytning o'zida biz mijozlarni ayirboshladik. Mening hamkasblarim to'g'risidagi san'at ishi deb nomlangan haftalik hamkorlikdagi majlisimizda "kelayotgan atraksionlarni ko'rib chiqish" ramziy ma'noda menga tushuntirildi va keyingi haftalar ichida san'at unga so'z bilan ifoda qilindi. Bolalar va ularning ota onalari bilan uzoq muddatli ishslash shuningdek oilalarda va guruhlarda bu hodisalar qayta qayta takrorlandi. Hattoki dramaga o'xshagan og'zaki ifodalash usullari davolashning bir qismidir va munosabatlar san'atda birinchi navbatda ifoda qilindi.

Randining ikki qismli, fazoda va yerga qilgan sayohatlari unga tashkiliy va maqbul tushuncha berdi va bu bilan birga u o'zining ayol terapevti to'g'risidagi qiziquvchanligini va jinsiy hayollarini tadqiq qila oldi (u yana shaxsiy va oilaviy terapiya uchun erkak psixiatrni ham ko'rди.)

Uning dahshatli hayollariga qarash uchun erkin bo'yash tajribasidan Dorotini ozod qilish kerak bo'lganda, Randi o'zining hayollarini tasvirlash uchun o'zini birgalikda olishi kerak bo'ldi. Uning erta bajargan ishi ham tematik ham estetik tashkil-lashtirilganda tarqoq va beparvo edi. Ozodlik uchun xavfsiz tushuncha tajribasida bir tushunchaga erishish uchun turli xil bolalarda turli xil fikrlar bo'ladi, ular xuddi Randi qilganidek, o'z hisoblaridan bunday ehtiyojlarni ta'minlaydilar.

Mening Dorotiga taklifim, uning avval chizmasdan bo'yashni amalga oshirishi bu oldindan rejalashtirilgan harakat. Davolash uchun sun'iy muddatga qaramay, ikkala bolalar ko'zga ko'rindigan natijaga erishish uchun badiiy terapiyadan foydalanishga qodir edilar.

Shunga o'xshash, o'zining istiqomat qiladigan maktabini yoqib yuborgan Andryu ismli bola britaniyalik san'at terapevti Roger Arguile (DVD 8.4) tomonidan muvaffaqiyatli davolandi.

Keyingi bo'lim individual badiiy san'at baholash bilan boshlagan bir bolalarni davolashni tasvirlaydi. O'sha sessiya va uning onasi bilan o'tqazilgan suhabatga asosan, u bolalarning badiiy san'at terapiya guruhiiga qatnashdi va davriva ona bola sessiyalarini o'z ichiga oldi (Bo'lim 12). Bu oilaviy badiiy san'at baholash orqali namoyish qilindi (Bo'lim 10), va so'ngra bir yillik qo'shma oilaviy badiiy san'at terapiysi. (Bo'lim 11). Timning hikoyasida siz nafaqat boshqa masalalar bo'yicha eshitasiz, balki siz kitob "Oila va Guruh"ning quyidagi bo'limlarida tasvirlangan jarayonlar bilan tanishtirilasiz.⁵

Adabiyotlar:

1. Н.А. Грицук, А.Р. Киселева" Преподавание изобразительного искусства в школе для детей с нарушениями слуха". Учебное пособие Минск-2006. 14-58стр.,64-128стр.

2. Головкина Т.Н.«Изобразительная деятельность учащихся вспомогательной школы».М.:“Педагогика”, 1997 г. 69-81стр.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. J. A Rubin Bolalar art terapiyasi 2012 (285-288-betlardan mazmun-mohiyati olindi).

⁵J. A Rubin Bolalar art terapiyasi 2012 (285-288-betlardan mazmun-mohiyati olindi).

2.6. Tasviriylar san'at darslarida tematik rasm chizish metodikasi va uning xususiyatlari

Tematik rasm chizishda o'quvchi yoki tarbiyalanuvchilarga belgilangan mavzuga oid sujetli rasmlar, ertak, naturadan olingan rasmlar namuna yordamida chiziladi.

Yordamchi maktablarda o'qituvchi – yetakchi odam hisoblanadi. U aqli zaif bolalar bilan ishslashni mazmun va spetsifikasini yaxshi bilishi kerak. O'quvchilarning o'quv materialini ongi o'zlashtirishsha tayyorlashda o'qituvchi markaziy o'rinni egallaydi.

O'qituvchining yordamisiz aqli zaif o'quvchilar ko'p bilimlarni o'zlashtira olmaydilar, kerakli ko'nikma va malakalarni bajara olmaydilar.

Yordamchi maktabning o'quvchilari pedagog tomonidan yuqori e'tiborga muhtoj bo'ladilar. O'qituvchi yordamchi maktablarda maxsus topshiriqlarni amalga oshirishda asosiy rolni tutadi, ya'ni bolalarning bilish faoliyatida kamchiliklarni korreksiyalash. Bu topshiriqlar turli tomonli tarbiyaviy ta'sirda yechiladi. Aqli zaif bolalarning nuqsonlarini yengib o'tishda rasm darslari katta ahamiyatga ega. Ammo tasviriylar faoliyat bo'yicha hamma mashg'ulotlar ham anomal bolaning shaxsiyatiga korreksion ta'sir ko'rsatmaydi. O'tkaziladigan vazifaning samaraliligi butunlay o'qituvchiga bog'liq. Tasviriylar faoliyatda o'quvchiga ta'sir etishning katta pedagogik rezervi bo'lishini u yaxshi tushunishi kerak.

O'qituvchi ta'larning va tarbiyaning korreksion yo'nalishiga rioya qilishga alohida javobgarlik olib o'tishi kerak. Tajribali pedagog o'zining pedagogik faoliyatida bu didaktik jarayonni mun-tazam, qarama-qarshi amalga oshirishi kerak. Bunda korreksion-tarbiyaviy vazifa o'quvchilarning u yoki bu kamchiliklarni yengib o'tishiga rasm chizish mashg'uloti mobaynida alohida, ajralgan soha bo'lib hisoblanmaydi. Aksincha, darsning har bir bosqichi didaktik, tarbiyaviy va korreksion maqsadlar bilan yagona birlikda quriladi, bu esa o'quv jarayoniga chuqr kirib boradi. Agar rasm darsi shunday sistemaga ko'ra rejalashtirilsa, "umumta'limga vazifa" qo'shuv, plyus "korreksion vazifa", ya'ni avval ta'limga umuman, keyin esa maxsus pedagogika sohasidan "qo'shimcha" jiddiy xato

bo‘lar edi. Bunday o‘quv jarayonini soddalashtirish, yordamchi maktablar uchun muhim ko‘rinarli zarar keltiradi.

Ba‘zida ta’limni korreksion deb atash “o‘quvchining xatosi – o‘qituvchi tomonidan tuzatilgan” prinsipi bo‘yicha tashkil etiladi. Bu holatda korreksiyaning bosh mazmuni, vazifa bajarganda xatolikka yo‘l qo‘ygan bolaga o‘z vaqtida konkret yordam berish deb qaraladi. Bunday ta’limga yondashish qator jiddiy xatolarga ega. Ulardan eng asosiysi – o‘quvchilarda o‘qituvchi tomonidan yordamni kutish odatini mustahkamlaydi va binobarin, mustaqillik va faollikni pasaytiradi.

Yordamchi maktablarda maxsus vazifalarni yechishga sistemali yondoshishlar hech qanday korreksion-tarbiyaviy vazifalarni tashkil etishga shunday usullar ega bo‘lmaydi.

Ma‘lumki, bolaga ta’lim va tarbiyaning alohida emas, vositalari, hamda atrof-muhit sharoiti va pedagogik ta’sirning choralarini ta’sir qiladi. Ta’lim jarayonida tarbiya – bu eng avvalo mos sharoitlarning tashkil etilishi. Bunda sharoitlar qanchalik maqsadga muvofiq bo‘lsa, shunchalik pedagogik ta’sirning natijalari ijobjiy bo‘ladi. Bunday sharoitlar soniga birinchi navbatda, o‘qituvchilarning kasb-pedagogik tayyorgarligi, uni bolalar kollektivi bilan boshqarish malakasi, ularning xususiyatlarini bilish, vazifaning ratsional metodikasini tanlash kiradi.

Agar aqli zaif bolalarni ijobjiy potensial imkoniyatlari hisobga olinsa, korreksion-tarbiyaviy vazifa mahsuloti hisoblanadi. Shunga ko‘ra, L.S. Vigotskiyning “Rivojlanishining yaqin zona” si to‘g‘risidagi o‘rganishlariga ko‘ra ikkita rivojlanish darajasi dolzARB (bola o‘zlashtirgan bilim, malaka va ko‘nikmalar) va potensial (bolaning yangi bilimlar, malakalar, ko‘nikmalarini o‘zlashtirish qobiliyati). Potensial darajani hisobga olish o‘quvchining keyingi rivojlanishiga yordam beradi, bu ta’lim jarayonidan keyin beradi, rivojlanishning yaqin zonasini yaratadi. Bu zonalar bolaning harakatining rivojlanishini aniqlaydi, uning yaqin imkoniyatlarini ko‘rib beradi, faqat bugun erishilganni emas, balki ertaga nimaga erishishni ko‘radi.

Vigotskiyning rivojlanishini yaqin zonasini to‘g‘risidagi o‘rgatish, korreksion-tarbiyaviy vazifaning tashkil etishda asos hisoblanadi. Rasm darsida bunday vazifalarni muvaffaqiyatli o‘tkazish sharoitlar soniga, qator maxsus bilim va malakalarni kiritish mumkin,

bulardan yordamchi maktabning o'qituvchilari bilimlari kerak. Aqli zaif bolalarning tasviri faoliyatining o'ziga xosligini eng avvalo hisobga olish kerak.

Sodda o'yinli harakatlarga hajmli predmetlar kiritiladi (plastilindan va qurilish materialidan yasalgan). Bolalarni bularga ko'rsatib, masalan: qanday uy quriladi, minorani taxlash, mashinada darvoza kelishni o'rgatish kerak. Tarbiyachining ortidan bolaga kaftlar orasida plastilinda koptokcha qilishni, kulcha qilishni ko'rsatish tavsiya qilinadi.

Keyin tarbiyachi predmet va uning xossalari tasviriy faoliyat vositalari bilan aks ettirilishini bolaning ongida uyg'otadi. Masalan, avval plastilindan shariklar yasaladi, keyin esa applikatsiya ko'rinishida, undan keyin rangli qalamlarda rasm chiziladi. Bu davrda rang predmet assotsiatsiyani chaqirish mumkin. Masalan, bolalar sariq rangni idrok qilganlarida "Quyosh", "jo'ja" deb gapiradilar. Bunday assotsiatsiyalar oligofrenlarda qat'iy emas, shuning uchun ularni sistematik mustahkamlash kerak.

Tarbiyachi bolalarda mustaqilligini rivojlantirishga harakat qiladi. Boshlanishida u ularda tasvirlangan predmetga e'tiborni qaratishga harakat qiladi. Keyin bolalarga murakkab bo'lмаган "shunday ko'rsatchi" yoki "shundayini olib kelchi" ko'rinishida vazifalar beriladi. Masalan, tarbiyachi qandaydir predmetning rasmini chizib (koptok, qayiq, shar) bir nechta o'yinchoqlar orasidan rasmida tasvirlangan buyumni topishni iltimos qiladi, so'raydi.

Bolalarning idrokida "ularning ko'z o'ngida" yaratilgan rasmga, tarbiyachi foydalangan vositalar uning xususiy xis-tuyg'usi katta ta'sir ko'rsatadi. Agar tarbiyachi tetik, hayotga zavq beruvchi tonda so'zlasa va o'zining faoliyatini qisqacha she'rni o'qish yoki topishmoq aytish bilan boshlasa, bolalarda tasviriy faoliyatga qiziqish ortadi.

O'yinlarni drammatizatsiyalash yaxshi natija beradi. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan pedagogik vositalar ma'lum darajada bolalarning estetik idroklarining rivojlanishida ishlataladi. Shunga ko'ra, maktabgacha tarbiya sohasidagi olim Vetlugina N.A. ta'kidlashicha, go'zallikni o'zlashtirish jarayoni bolalar tushunarli, yoqimli, faol harakatlarni bajarish sharoitlarida tezroq bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning bunday harakatlaridan ratsional foydalanish bolalar bog'chasida tasviriy faoliyat bo'yicha korreksion mashg'ulotini muvaffaqiyatli o'tkazishning muhim sharoitlaridan biri.

Ta'limumning tayyorlov davri ortidan sodda tasviriy mashqlarga o'tish kerak (rasm, lepka, applikatsiya). Bu ikkinchi davrda bolalar faoliyatining asosiy materiallari (bo'yoq, qog'oz va jihozlar: qalamlar, cho'tka) bilan tanishadilar. Bir vaqtning o'zida elementar texnik malakalarni (qalamni to'g'ri ushslash, chiziq o'tkazish) o'zlashtiradilar.

Bu vaqtida sust harakatlarda ishlatalidigan usullarga katta joy ajratiladi. Tarbiyachi bolaning o'ng qo'liga qalam tutadi (boshida qo'liga flomaster bergen yaxshiroq) va u bilan birga yo'lakcha, devor, o'tlarni, zinalarni "chizadi". Ko'rish-harakat koordinatsiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Shu maqsadda bolalarga qator murakkab bo'lмаган, ulardan ixtiyoriy harakatni talab etadigan topshiriqlar tavsiya qiladi. Masalan, tarbiyachi katta bulutni rasmini chizadi, keyin esa bolalarni yomg'ir chizishga undaydi yoki tomda quvur rasmini chizib, tutun rasmini chizishni so'raydi.

Shu tarzda boshqa mashqlar ham bajariladi ("Krandan suv oqyapti", "Tuvakdagagi gullarni sug'oramiz"). Har doim bolaning istagini rag'batlantirish kerak, shtrix chiziqlarni ko'p marotaba qaytarib, bunda bajarilgan ritmik harakatlar grafik mashqlarni bajarishga kerakli asos bo'ladi.

Sekin-asta rasm chizish texnikasida ba'zi o'zgarishlar bo'ladi. Harakatlar ishonchli, aniq, ritmik sodir bo'ladi. Bunga tasviriy faoliyatning o'zi – turli qo'l harakat talab qiluvchi hamda barmoqlar va mayda qo'l suyaklari muskullarining rivojlanishi uchun maxsus tanlangan gimnastik mashqlar yordam beradi. Bu mashqlarni har bir darsning boshlanishida qisqa vaqt davomida o'yinlar shaklida o'tkazishni tavsiya qilinadi.

Aqli zaif maktabgacha bolalarga ta'lum berishda tasvirlash usullarini ko'rsatish katta o'rinni egallaydi. Oligofren bolaning mustaqillik darajasini va faol rivojlanish yo'lida kattalar harakatiga taqlid qilish malakasini muhim davr deb baholash kerak.

Agar mashg'ulot jonli, o'rinni xarakter kasb etsa, bolalar kattalar harakatini qayta ishslashga alohida xohish sezadilar.

Ma'lumki, sog'lom rivojlangan bolalarga ta'lim berishda birgalikdagi harakat metodidan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu metod oligofren bolalar bilan korreksion-tarbiyaviy ish olib borilganda ham yanada ahamiyatli hisoblanadi. Birgalikdagi harakat metodi maktabgacha aqli zaif bolalarning tasvirlash va bilish imkoniyatlariiga maksimal javob beradi, pedagogga ko'rgazmali va o'rini shaklda u yoki bu usulni namoyish qilishga yordam beradi. Bolalning yaqin rivojlanish doirasida doylashgan harakatning bajarilishini ta'minlaydi. Bu metoddan foydalanish kichkina yutuqlarni rivojlan-tirishga, kichik rassomning faoliyatida sezilgan, shunga o'xhash vazifalarni mustaqil harakat usullari bilan o'zlashtirishga yordam beradi.

Birgalikda rasm chizish uchun topshiriqning mazmuni bolalarning shaxsiy, individual xususiyatlarini hisobga olib tanlanadi. Shunga qarab vazifani soddalashtirish va murakkablashtirish mumkin. Misol keltiramiz: Qog'oz varog'iga tarbiyachi sharlar, bayroq-chalar, gullar rasmini chizadi. Bolalar esa boshlangan tasvirni tugatishi kerak.

Bolalar bog'chalarida jamoa bo'lib rasm chizish amalda qo'llanilmoqda. Uning mazmuni quyidagicha: katta qog'oz varag'i biriktiriladi. Tarbiyachi qog'ozga olma daraxti chizadi (archa, uylar bilan ko'chalar). Keyin esa bir nechta o'quvchilardan kerakli qo'shimchalarni chizishni so'raydi (olmani chizish, archaga o'yinchoqlarni osish).

Bunday vazifalarning tushunarligi bolalarda ishonch paydo qiladi, ularda o'zları tasvir yaratishlariga xohish uyg'otadi. Sekin-asta maktabgacha yoshdagi bolalarning harakatlari ancha maqsadga yo'naltirilgan va ongli bo'la boshlaydi, u amaliyotda ba'zi tasvirlangan predmetdagi detallarning ahamiyatini tushuna boradi, ularning nomini muhrlaydi, real predmetni detal bilan solishtiradi. Shu tarzda bolalarda predmetlarni tekshirish usullarini shakllani-shiga o'tishiga sharoit yaratiladi va ta'limning metodlari asosan idrok etish jarayonining rivojlanishiga qaratiladi: shakl, rangni, kattalikni ajratish. Real predmetni va tasvirlashni solishtirishga katta e'tibor beriladi. Rasmga predmetni tanlash usuli chegaralangan predmetlar soni, bir-biridan qandaydir bitta belgisi (shakli, kattaligi yoki rangi bo'yicha) bilan farqlanadigan predmet olinadi.

Predmetlarni shakli bo'yicha ajratish ko'rish, sezish va qo'lning aylantirib chiqish harakati yordamida amalga oshiriladi. Predmetlarni ko'rib chiqishni tashkillashtirib, tarbiyachi kontur bo'yicha qo'lida yurgizib chiqadi, xuddi rasmida shaklni qayta ishlagandek, keyin esa bolalarga xuddi shuni qilishni tavsiya qiladi. Vazifa qog'oz varag'i tekisligida aylantirib chiqish harakatini o'tkazishni o'zlashtirish – asosiy vazifa hisoblanadi.

Geometrik shakl bilan predmet shaklini solishtirishni bolalar bir vaqtning o'zida o'rganadilar.

Adabiyotlar:

1. Н.А. Грицук, А.Р. Киселева" Преподавание изобразительного искусства в школе для детей с нарушениями слуха". Учебное пособие Минск-2006. 14-58стр.,64-128стр.

2. Головкина Т.Н.«Изобразительная деятельность учащихся вспомогательной школы».М.:«Педагогика», 1997 г. 69-81стр.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari

Inson va atrof muhit doimiy ravishda aloqada bo'lib, u ko'rish, eshitish, teri, ta'm, hid bilish, harakat analizatorlari orqali amalga oshiriladi. Eshitish analizatori insonning barcha a'zolari ichida eng ahamiyatlilaridan sanalib, uning asosiy vazifasi nutqni idrok qilishdan iboratdir. To'laqonli eshitish nutq shakllanishining omili sanaladi. Nutq orqali esa insonning so'z-mantiqiy tafakkuri, umumiy va ruhiy rivojlanishi sodir bo'ladi. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalar ongimizda aks etib, bular so'z shaklida ifodalananadi, til hodisalari vositasida namoyon bo'ladi. Inson o'zi ko'rgan va ta'sirlangan buyum va hodisalarni so'z yordamida nomlab, mazmuni haqidagi taassurotlarini obrazlar, fikrlar, tushunchalar, tasavvurlar ko'rinishida anglash, ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Har qanday buyum, hodisaning miyada aks etishi va ongda mustahkam o'rashib qolishida nutq yetakchi vosita hisoblanadi. Shuningdek, u tafakkur quroli, muloqot jarayonida fikrni ifodalash, biror narsani bildirish, anglatish va ta'sir ko'rsatish quroli bo'lib

ham xizmat qiladi. Fikrlash qobiliyati nutqiy rivojlanish zamirida paydo bo'lishi sababli u inson tafakkurining rivojlanish darajasini belgilab beradi.

Eshitish idrokining buzilishi oqibatida insonning nutqni egallay olmasligi, shu bois jamiyat a'zolaridan yakkalanib qolishi uning ijtimoiy hayotda o'z o'rmini topishida qator muammolarni yuzaga keltiradi. Bular o'zaro bir-biriga tobe bo'lgan turli sabablarga bog'liq bo'lib, bu xususda L.S.Vigotskiy: «Ijtimoiy tarbiya nutqning rivojlanmaganligiga, nutqning rivojlanmasligi jamoa (kollektiv)dan yakkalanib qolishga, jamoa(kollektiv)dan ajralib qolish esa, o'z navbatida, ijtimoiy tarbiya hamda nutqning rivojlanishini tormozlaydi», - deydi. Me'yorida rivojlanayotgan bolalar nutqining rivojlanishi yuzasidan psixolog olimlardan A.N.Gvozdev, D.B.Elkonin, A.N.Sokolov, L.S.Vigotskiy, E.G'oziyev samarali ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Ma'lumki, bola tug'ilgan daqiqadan e'tiboran ovoz chiqaradi. Bu ovoz qichqiriq va yig'idan iborat bo'ladi. To'g'ri, bu ovoz hali inson nutqidan uzoq, lekin ana shu qichqiriq va yig'i nutq appertaining uch bo'limi: nafas olish, ovoz hosil qilish, artikulyatsiyaning rivojlanishida katta rol o'yaydi.

Chaqaloqlarda dastlabki xissiy ko'rinishlar uch haftaligidan boshlab namoyon bo'ladigan «og'izga diqqat» va xissiy jonlanishdir.

Bola ikki, uch oylik bo'lganida odatdagи chinqirib yig'lashdan tashqari a, u, uv-uv, guv-guv, ga, aguv-guv, bu va shu kabi boshqa tovushlarni ayta boshlaydi. Bu tovushlar guvranish davrining boshlanishidir. Guvranish davri bolaning nutq apparatini rivojlantiradi va tovushni talaffuz etishga tayyorlaydi. Ana shu davrdan boshlab nutqni tushunish jarayoni rivojlna boshlaydi.

Uch oylik bolalar yorqin ko'zga tashlanuvchi ijobiy «mimikosomatik» jonlanish majmuuni ajratadilar. Bu davrda dastlabki intersensor bog'lanishlar shakllanadi. Bola besh oyligida tovushlarni farqlaydi va ularga qulq soladi. U atrofdagilarning lablaridagi artikulyatsion harakatini ko'rib, unga taqlid qilishga intiladi. Bolalarning ayrim harakatlarni ko'p marotaba takrorlashi natijasida nutq akti ko'nikmasining mustahkamlanishi yuzaga keladi.U olti oyligidan boshlab, taqlid qilish orqali «pa-pa-pa», «be-be-be», «da-

da-da», «na-na-na» kabi bo‘g‘inlarni talaffuz eta boshlaydi. Keyinchalik bola o‘zining taqlidiy harakatlari tufayli nutqning xilma-xil elementlarini asta-sekin o‘zlashtira boradi. Bunda bola nafaqat fonemalarni, balki nutqning sur’ati, ritmi, toni, musiqaviy-ligi, ifodaliligini ham o‘zlashtiradi, bola ba’zi bir tovushlar birikmasini idrok qila boshlaydi va ularni predmetlar yoki harakatlar bilan bog‘lashga (bu, ma, bey) harakat qiladi.

V.I.Beltyukov, A.D.Salaxova o‘z tadqiqotlarida Me’yorida rivojlanayotgan bolalar harakat, mimika va imo-ishorani 7-8 oylikda tushunadilar, deb yozadilar .

Bola 7-9 oyligida nutq intonatsiyasini, so‘ngra narsalarning ish-harakatlarini bildiruvchi so‘zlarni tushuna boshlaydi. Kattalar ketidan turli xil bo‘g‘inlarni ixtiyorsiz tarzda qaytarish imkoniyati vujudga keladi. 9-10 oyligida esa bir xildagi juft bo‘g‘inlardan tuzilgan so‘zlarni talaffuz eta boshlaydi.

Me’yorida rivojlanayotgan bolada 10-11 oyga borib bo‘g‘inlarni qayta-qayta takrorlashning shakllanishi yakunlanib, so‘zlarni tushunish va tiklash bosqichi boshlanadi. Bola kattalar bilan bo‘g‘inlar va g‘udurlash vositasida muloqot qilishga ko‘chadi .Bolaning g‘udurlashini E. G‘oziyev: «ixtiyorsiz nutqiy harakat reaksiysi, u bolaning nutq apparatini talaffuzga tayyorlaydi», -deb ta’riflasa, V.I.Beltyukov: «bolaning g‘udurlashi avtonom bo‘lib, o‘zining rivojlanishida asab tizimining takomillashuvini aks ettiradi», - deb aytadi .Bolaning g‘udurlashini YE.I.Ignatyev, N.S.Lukin, M.D.Gromov «kattalar tovushiga taqlid qilish», - deb ko‘rsatadilar Bola bir yoshga borganida 10-12 ta so‘zni biladi, nutqiy aloqada bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi. U nimanidir qo‘lga olishni, so‘rashni, aytishni xohlaydi va bu ehtiyoj bolaning barcha faoliyatida aks etadi, unda faol nutqning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Natijada bola bir yasharligida nutqida dastlabki so‘zlar paydo bo‘la boshlaydi. Ammo bu so‘zlar ko‘pincha faqat bolaning o‘ziga va yaqinlarigagina tushunarli bo‘ladi.

Bolada birinchi so‘zlar paydo bo‘lganidan so‘ng, tayyorlov davri yakunlanib, faol nutqni egallash davri boshlanadi. Bolaning nutqi katta kishilarning nutqiga taqlid qilish asosida rivojlanib boradi.Bu davrda bola atrofidagi odamlarning artikulyatsiyasiga e’tibor beradi. U gapirayotganlar orqasidan so‘zlarni talaffuz qiladi.

Bu jarayonda bola ba'zi tovushlarni noto'g'ri talaffuz etadi, o'mini almashtiradi yoki nutqida uni qo'llay olmaydi. Mazkur lahzalarda u bir so'z yoki tovushlar birikmasi bilan predmetni ham, iltimosni ham, his-tuyg'uni ham ifodalashi mumkin. Tadqiqotchilar bolalarda so'z boyligining o'sib borishiga doir turlicha ma'lumotlarni keltiradilar. Bolada dastlabki faol nutqning shakllanish muammosi bilan shug'ullangan F.I.Fradkina ilmiy-amaliy ahamiyatga molik ko'p ma'lumotlar to'plagan. Uning ma'lumotiga ko'ra bolaning nutq boyligi 10 oylikda 1tadan 5 tagacha, 11 oylikda 3tadan 8tagacha, 12 oylikda 7tadan 16 tagacha, ya'ni juda cheklangan bo'ladi. Bundan tashqari, olima harakat jarayonida so'zlarni talaffuz qilish imkoniyati kengligini ham bayon qilgan. Surdopedagogika tarixiga nazar tashlasak, turli davrlarda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tadqiqot obyekti sifatida o'rgangan pedagog va olimlardan J.Zaif, V.I.Fleri, J.Itar, Y.T.Speshevlar ular orasida u yoki bu holda murojaat etilgan nutqni tushuna oladigan, qisman lug'at boyligiga ega bo'lgan, ba'zan, hatto, sodda jumlalar tuza oladigan bolalar borligini, agar nutq ularga qarata balandlatilgan holda aytilsa, bunday bolalar ta'lim-tarbiyasining barcha muammolari hal etilishi mumkinligini ta'kidlab, eshitishi qisman buzilgan bolalarga, ular nutqining o'ziga xos rivojlanishiga alohida e'tibor qaratganliklariga guvoh bo'lamiz. V.I.Fleri bola shaxsining shakllanishi uchun atrofidagi yaqinlari va, ayniqsa, onasi alohida g'amxo'rlik, e'tibor ko'rsatishlari zarurligi hamda zaif eshituvchi bola nutqining rivojlanishi uchun ilk yosh davri alohida o'rinnutishini ta'kidlagan holda: «Zaif eshituvchi-soqov bola qancha kichik bo'lsa, uning o'zlashtirish layoqati shuncha yuqori bo'ladi», - deb yozadi Olim, shuningdek, dastlabki so'zlarni bola ko'rish asosida taqlidan o'zlashtirishi lozimligini alohida qayd etadi.

Ma'lumki, nutq-odamlarning til vositasi bilan aloqa bog'lashlidir. Odam nutq orqali munosabatga kirishib, o'zining bilimlarini faqat yakka tajriba hisobiga emas, balki juda ko'p avlod-ajdodlar tomonidan to'plangan ijtimoiy tarixiy tajriba hisobidan ham boyitadi. Nutq barcha aks ettirish jarayonlari kabi har bir odamning yakka hayoti davomida o'zlashtiriladi. Bola dastlabki nutqni egallayotgan davrda uning nutqi tovushlarga bo'lgan reaksiyasi juda

umumlashgan xarakterga ega bo‘ladi. Bolani nutqi rivojlanayotganda, u atrofdagi odamlar muloqoti ta’siri ostida rivojlanib boradi.

Kichik maktab yoshidagi aqli zaif bolalar nutqining o‘ziga xos xususiyatlari

Umumiy psixologiyada nutq tafakkur quroli va muloqot vositasi sifatida o‘rganiladi. Ontogenez va filogenezda nutq dastlab muloqot vositasi sifatida namoyon bo‘lsa, keyinchalik qurol xususiyatlarini egallab, shu orqali inson o‘yaydi va o‘z fikrlarini ifoda etadi.

Tafakkur, til va nutqning aloqadorligi haqida L.S.Vigotskiy, A.G.Spirkinlarning juda qiziqarli ishlari bor. Bolalar nutqining rivojiga atalgan umumiy tarzdagi qiziqarli ma’lumotlar S.L.Rubinshteyn va D.V.Elkonin ishlarida keltiriladi. Yuqoridagi barcha ishlarda asosiy e’tibor nutqning mazmun tomoniga, bolalar aqliy ishlaridagi va xulqidagi roliga qaratilgan. Normal 3-4 yoshli bola yetarli lug‘at boyligiga ega bo‘lib, uning faol nutqi deyarli to‘g‘ri grammatik shaklni tashkil etadi. Fonetik xatoliklar u darajada ko‘p bo‘lmaydi. Oligofren bolada esa, so‘zlarni talaffuz qilish birmuncha kechikadi. Ular nutqi kambag‘al va noto‘g‘ridir. L.V.Zankov va M.S.Pevznerning ta’kidlashlaricha, aqli zaif bolalar nutqi 1-1,5 yoshda emas, balki 3 yoshlardagina riqojlana boshlaydi. Chet el olimlaridan Shols-Erzam, Kassel, Shlezinger, Zeyemanlarning tagkidlashlaricha, 40 % dan ortiq aqli zaif bolalarda nutq; kechikib shakllanar ekan. G.A.Kashening ko‘rsatishicha, 1 sinf yordamchi maktab o‘quvchilarining 65%, 2 sinf o‘quvchilarining 60% da u yoki bu nutq kamchiliklari bo‘lar ekan. Chuqur aqli zaiflarda esa, bu ko‘rsatkich 80% gacha yetar ekan. Bunday nuqson chuqur aqli zaiflikka olib keladigan Daun kasalida 95% gacha yetar ekan. Aqli zaif bolalarda nutqning ifodaliligi bilan birga, uning tezligi ham buzilar ekan. 5 sinf aqli zaif bolalarning o‘qish tezligi o‘zlarining normal tengdoshlaridan 2 marta past ekan. Bunday nuqsonlarning asosiy sababi, bosh miya po‘sloqlaridagi asab ta’sirlanishlarining zaifligidir. Yangi differensiatsiyalashgan bog‘lanishlarning sekin yuzaga kelishidir. Yuqoridagi nuqsonlarda aqli zaif bola asab jarayonlarining umumiy dinamikasining buzilishlari ham ma’lum rol o‘ynaydi.

Aqli zaif bolalardagi nutqning yaxshi rivojlanmasligi asosida eshitish a'zolarida ham ayrim kamchiliklari yuz berishi mumkin. Nuqson oqibatida bola uzoq muddat atrofdagilar nutqini yaxshi eshitmasligi natijasida, bir-birlaridan ajrata olmaydi. Umuman bola kar emas, ammo unga nisbatan aytilgan gaplarni noaniq idrok etadi. Bu bolalar juda kam so'zlarnigina bir-birlaridan ajrata oladilar. Aqli zaif bolalarning nutqni idrok etishlari birmuncha sekin amalga oshadi. Aqli zaif bolalarning nutqidagi barcha kamchiliklarning asosiy sababi mana shudir. Aqli zaif bolalar nutqining to'la bo'lmasdan, kechikib rivojlanishi noto'g'ri idrok qilish asorati ekan. Aqli zaif bolalar tanish tovushlarni yomon farqlaydilar, ayniqsa, undosh tovushlarni bir-birlaridan qiyin farqlaydilar. Fonematik eshitishning yomon rivojlanganligi oqibatida qator tovushlar almashtirilib eshitiladi va shu asosda almashtirilib yoziladi. Hatto bolaga tovushlar tartibi ham noaniq tuyuladi. Talaffuz qilinayotgan so'zlar oxirlari yaxshi tahlil qilinmasligi asosida ham, grammatik xatoliklar kelib chiqar ekan. Aqli zaif bola fonematik eshitishidagi kamchiliklar, nutq a'zolaridagi, artikulyatsiyadagi kamchiliklar asosida yanada og'irlashadi. Analizatorlarning to'la, mukammal rivojlanmasligi asosida nutqning qator kamchiliklari yuzaga keladi. Tafakkur quroli bo'lgan nutqning o'zi yaxshi rivojlanmagan bo'lsa, tasavvur qiling tafakkur qay holatda bo'ladi. Aqli zaif bolalarda birinchi, alohida so'zleri 2-3 yoshlarda, qisqa kambag'al grammatik gaplari 5-6 yoshlarda yuzaga kelar ekan. Oligofrenopedagogikadan ma'lumki, aqli zaif bolalar yordamchi maktablarga nutq jihatdan juda yomon tayyorgarlik bilan keladilar. Aqli zaif bolalar nutqi turli yo'nalishlarda, turli yoshdagи bolalarda, turli mutaxassislar tomonidan, turli darajada o'rganilgan. Nutq, nuqsonlarining aqli zaif bola umumiyluhiy taraqqiyotiga salbiy ta'siri Shif J.I. qo'llanmasida atroficha, chuqur tahlil qilib berilgan. Mualliflarning e'tirof etishlaricha aqli zaif bola bilan normal bolalar orasidagi farq ularning faol nutqlarida ko'zga tashlanar ekan. Aqli zaif bolalar o'z nutqlarida sifat, fe'l, bog'lovchilardan juda kam foydalanan ekanlar. I.M.Sechenovning ta'biricha, so'z bola uchun ma'lum vaqtgacha narsalarning "taxallus" sifatida tushunilib kelinadi. Bolalar ulg'aygan sari narsa nomlarining ahamiyati ham o'sib aniqlanib boradi. Aqli zaif bolalarda "taxallus"lardan tushunchalarga o'tish jarayoni

juda uzoq, va qiyin shakllanadi. Yordamchi maktab I sinf o'quvchilarining nutqidagi grammatik tuzilishlar takomillashmagan bo'ladi. Ularning jumlalari bir so'zdan, sodda so'zlardan iborat bo'ladi. O'z fikrlarini bayon qilishda juda qiynaladilar. Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar nutqi normal 3-4 yoshli bolalar nutqini eslatadi. Bu bolalar o'z fikrlarini o'ylab tugatmasdan, yoza boshlaydilar. Shuning natijasida, gapning boshlanishi bilan tugashi orasida bog'liqlik bo'lmaydi. Yordamchi maktab o'qituvchilari aqli zaif bolalarga yozish, o'qish malakalarini o'rgatishda ko'p qiyinchiliklarga duch keladilar. Aqli zaif bolalardagi fonematik eshitishning yomonligi, turli talaffuz kamchiliklari bolalarning yozish va o'qish faoliyatlariga ta'sir qilmay qolmaydi. Aqli zaif bolalarda ko'rish a'zolari nuqsonlari ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Aqli zaif bolalar shaklan o'xshash harflarni bir-birlari bilan almashdirib yozadilar. Aqli zaif bolalar orasida ma'lum analizatorlari ko'proq buzilgan bolalar ham uchrab turadi. Bunday mazmundagi kamchiliklarni individual-korreksion ishlar bilan bartaraf etib boriladi. Aqli zaif bolalar nutqidagi qator kamchiliklar o'z navbatida qator ruhiy jarayonlarga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi. Bunday salbiy ta'sir birinchi navbatda tafakkur jarayonlariga tegishlidir. Umuman nutqning yaxshi rivojlanmaganligi o'z navbatida tafakkurning rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Bu jarayon aksincha ham bo'lishi mumkin. Tafakkurning umumlashtirish jarayonlarining yomonligi, chegaralanganligi nutqning yaxshi shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Bu kamchiliklar bir-birlarini to'ldiradilar. Aqli zaiflikni keltirib chiqargan gidrotsefaliyada ba'zan nutq yaxshi rivojlangandek tuyulsada, aslida unday emas. Bunday bolalar nutqida juda murakkab jumlalar, so'zlar, bo'ladi. Ular nutqining grammatik tuzilishi ham juda mukammalligi bilan ajralib turadi. Bu bolalarning fikr yuritishlari nasihatgo'ydek bo'lib tuyuladi. Nutqlarining mohiyatiga o'zları yaxshi tushunib yetmaydilar. Bu bolalar nutqi yaxshi rivojlangan bo'lsa ham, aqli zaif bolalarning fikr yuritish quroli bo'la olmaydi. Aqli zaiflikdagi bunday o'ziga xos nutq juda kam uchraydi. Shizofreniya kasaliga uchragan aqli zaif bolalarning nutqi ham yuqorida holatga o'xshab ketadi. Bu bolalarda nutq malakalalari, tushunish holatlari normal bolalardan ham tez shakllanishi mungkin. Ularning so'z boyliklari normal

bolalarnikidan kam farq qiladi. Ammo, ular nutqida buzilgan so‘zlar uchrashi mumkin. Bosh miya jarohatlarida, revmatizmida aqli zaif bolalarning og‘zaki nutqlarida sezilarli, muhim o‘zgarishlar bo‘lmaydi. Shu bilan birga, ularning yozma nutqlarida yetarli kamchiliklar uchraydi. Bunday bolalarning yozish malakalari juda sekin shakllanadi. Tutqanoq kasaliga mubtalo bo‘lgan aqli zaif bolalarning nutqi dastlabki ko‘rinishda oligofrenlar nutqiga o‘xshaydi. Bu bolalar bir xil jumla, so‘zlarni qaytarishga moyil bo‘ladilar. Ular nutqida ortiqcha tushuntirishlar mavjud. Yordamchi maktabning maxsus ta’limi ta’sirida barcha aqli zaif bolalar nutqi ijobjiy tomonlarga o‘zgara boshlaydi. Ularning lug‘at boyligi o‘sadi. Grammatik tuzilishi yaxshilanadi. Aqli zaif bolalar o‘qituvchining nutqini eshitish, uni tushunishga harakat qiladilar. Ammo, normal bolalardek aqli zaif bolalarda nutq tafakkur quroli sifatida bir-muncha kech yuzaga keladi. Normal bolalarda bunday holat maktab yoshida yuzaga keladi. Hozirgi zamon oligofrenopsixologiyasida aqli zaif bolalar nutqi, alohida faoliyat va bilish jarayoni sifatida qaraladi. O‘yin, o‘qish, mehnat bilan birga nutq aloqasi alohida, muhim faoliyat turi sifatida o‘rganiladi. O‘zaro aloqa jarayonida fikrlar almashuvi xislarni ifoda etish, kattalar va bolalar xulqiga ta’sir etish yuz beradi. Mamlakatimiz va chet el mutaxassislarining ilmiy izlanishlari aqli zaif bolalar nutqining fonetik, leksik, grammatik tomonlarining rivojlanish dinamikasini ochib berishga katta yordam berdi. Aqli zaif bolalardagi turli nutq kamchiliklari ularning atrofdagilar bilan muomalasini qiyinlashtirib, o‘zlarida qayg‘urish holatlarining yuzaga kelishiga salbiy sabab bo‘lar ekan. Buning oqibatida aqli zaif bolalar kamgap bo‘lib qoladilar. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, yordamchi maktab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 40-60 % da turli nutq kamchiliklari uchraydi. Bu nuqsonlar orasida asosiy o‘rinni tili chuchuklik, manqalik, duduqlanish tashkil etar ekan. Bu nuqsonlar nutqning aloqa funksiyasining yaxshi shakllanmasligiga olib keladi, hamda bolalar orasida muloqot qilishga intilmaslikka olib kelar ekan. Aqli zaif bolalar nutqining aloqa vositasi sifatidagi roli barcha tomonlardan zararlangan bo‘ladi. Bunda nutqning axborot, xissiy-ifoda, boshqa-ruvchilik vazifalari buzilgan bo‘ladi. Aqli zaif bolalar bilish faoliyatlarining buzilganligi va o‘ziga xosligi, ular shaxsiy sifatlarining

normal bolalardan farq qilishi ham, ular nutqining umumlash-tiruvchi, nazorat qiluvchi funksiyalarining ham buzilishiga olib kelar ekan. Yordamchi maktab o'quvchilarini ko'rgan narsalarning muhim belgilarini ajratishda qiynaladilar. Bu kamchilik esa, o'z navbatida ularda umumlashtirish jarayonlarining to'ri shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Aqli zaif bolalarda nutq bilan faoliyat orasida muvofiqlik ko'zga tashlanmaydi. Bu nomuvofiqlik zaif bola nutqi bilan uning xulqi orasida ham ko'zga tashlanadi. Aqli zaif bolalar o'zlarini nazorat qilish uchun ham o'z nutqlaridan foydalana olmaydilar. A.R.Luriyaning ta'kidlashicha, normal bolalar bog'cha yoshidayoq nutqdan nazorat quroli sifatida foydalana olar ekanlar.

Ma'lumki nutq-fikrlarni ifodalash shakli va uning mavjudlik vositasidir. Tafakkur nutqqa nisbatan mohiyatni tashkil qiladi. Ifoda qilinayotgan so'zning qimmati, fikrlarni aniq ifodalashdir. So'zmazmun va shaklning birligidir. Aqli zaif bolalarda mazmun ham, shakl ham buzilgan. Ikkinci signal tizimining qo'zg'atuvchisi bo'lgan so'z eshitiladi, ko'rildi va talaffuz etiladi. Inson aytilgan so'z ma'nosiga javob beradi. Inson gapirgan vaqtida ovoz paychalaridan bosh miyadagi nutq markazlariga signallar yetib boradi. Uning yordamida talaffuz etilayotgan nutq nazorat qilib boriladi. Normal rivojlanayotgan bolada nutqning shakllanishi bir necha bosqichda amalga oshadi. Bir yoshdan o'smirlik davrigacha fonematik eshitish rivojlanib, ona tili fonemalarini talaffuz etish malakalari shakllanadi. Ikkinci bosqichda bolaning lug'at boyligi oshib, sintaksis qoidalarini egallaydi. Aqlan nuqsonli bolalarda bu bosqichlar birmuncha orqaga surilgan bo'ladi. Aqli zaif bolalarning dastlabki so'zları 3-5 yoshlarda paydo bo'lishi, ayrim jumlalarning yanada kechroq paydo bo'lishi ma'lum. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, 40% aqli zaif bolalar uch yoshdan keyin so'zlashni boshlar ekanlar. So'zlar ma'nosini o'zlashtirishning buzilganligi natijasida, aqli zaif bolalarda fonematik eshitish va nutqning shakllanishini kechiktiradi. Aqli zaif bolalardagi umumiylar harakat tizimining buzilganligi ham o'z navbatida nutqning rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Aqli zaif bolalar nutqining fonetik kamchiliklari ular savodxonligini qiyinlashtiradi, ularning intellektual va xissiy rivojlanishni orqaga suradi. Bularning barchasi aqli zaif bola shaxsiga salbiy

ta'sir etib, ularning biror narsani hal qila olmasliklariga, o'z kuchlariga ishonmasliklariga olib keladi.

Aqli zaif bolalar uchun ko'proq dialogik shakldagi nutq tushunarli hisoblanadi. Aqli zaif bolalarning dialogik nutqdan monologik nutqqa o'tishlari qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Yordamchi maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma ishlari kambag'alligi, ifodasizligi bilan ajralib turadi. Yordamchi maktab o'quvchilarining yozma ishlari birmuncha shakllangan bo'ladi. Aqli zaif bolalarning yozma nutqni egallash jarayonlari juda og'ir kechadi. Aqli zaif bolalarning biror so'zni yozishlaridan ko'ra uni o'qishlari ancha oson kechadi. Aqli zaif bolalarning tovushlarni harf, bilan, tovushning grafik shakli bilan almashtirishni to'g'ri tushunib yetmaydilar. Aqli zaif bolalar uzoq muddat harf bilan so'zning munosabatini tushunib yetmaydilar. Aqli zaif bolalar uchun qoida bo'yicha yozish juda og'ir kechadi. Ayniqsa, bayon, insho, ish qog'ozlarini yozish va to'ldirish qator qiyinchiliklar bilan kechadi. Aqli zaif bolalar uchun eng oson kechadigani bu ko'chirib yozishdir. Qator aqli zaif bolalarda yozma nutqning buzilishlari uchraydi. Disgrafiya bunga misol bo'la oladi. Bu nuqson aqli zaif bolalardagi fonematik eshitishning buzilishi, fazoviy tasavvurlarning cheklanganligi, harakat tizimlarining nuqsonli bo'lishidir. Aqli zaif bolalarning og'zaki va yozma nutqlarni muvaffaqiyatli egalashlari uchun quyidagi qator psixologik sharoitlardan kelib chiqadi.

1. Aqli zaif bolalar o'qiyotgan va yozayotgan o'z fikrlarini to'g'ri bayon qilishlari uchun, umumiy intellektual taraqqiyotning zarur bo'lgan darajasining yetarli bo'lishi.

2. Tovush va harflarning o'zaro munosabatlarini to'g'ri tushunish uchun zarur bo'lgan fonetiko-fonematik taraqqiyotning yetarli darajada bo'lishi.

3. Ma'lum darajadagi tafakkurning rivojlangan bo'lishi.

4. Aqli zaif bolalardagi ko'rish, eshitish, harakat va fazoni idrok qilish jarayonlarining saqlangan bo'lishi.

5. Qo'l mayda muskullarining hamda nutq a'zolarining harakatchanligining yetarli darajada bo'lishi.

Aqli zaif bolalar o'qish hadisini qator qiyinchiliklar bilan egallaydilar. Ular sekin o'qiydilar, yoki bo'shashib, shoshib, urg'ularsiz, ayrim ishoralarga e'tibor bermasdan o'qiydilar. Uzoq

muddat bo‘g‘inlab o‘qishlarida kamchiliklar ko‘zga tashlanib turadi. Ba’zan birinchi bo‘g‘inlarni bir necha marta takrorlaydilar, ayrim tovushlarni tashlab yuboradilar. Ayrim hollarda esa, qator harflarning o‘rinlarini almashtirib o‘qiydilar, ba’zi tovushlarni o‘zlaricha topib o‘qiydilar. Ayniqsa, aqli zaif bolalarning urg‘uni deyarli qo‘llamasliklari uchrab turadi. Ba’zan yangi so‘zlar qo‘shib o‘qiydilar. Aqliy zaif bolalar o‘qigan matnlarning ma’nosini chuqr tushunib yetmaydilar. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim olayotgan bolalar matnni tahlil qilish, matndagi asosiy g‘oyani topishda qiynaladilar. Aqli zaif bolalarning yoshi ulg‘aygan sari bu kamchiliklar birmuncha korreksiyalanib boriladi. Aqli zaif bolalarning umumiy aqliy taraqqiyotlarida atrofdagi kishilar bilan aloqa qilishi juda katta ahamiyatga ega. Katta kishilarning rahbarligida va nazorati ostida aqli zaif bolalarda bilish faoliyatları, shaxsiy sifatlari shakllanib boradi. Buyurilgan og‘zaki topshiriqlarni bajarishlari, aqli zaif bolaning unga berilgan og‘zaki topshiriqlarni qanday tushunganliklarini ko‘rsatadi. Shaxs va faoliyat masalasi o‘ziga xos e’tiborni talab etadigan masaladir. Chunki, shaxsiy sifatlari faoliyat jarayonida shakllanib borishi ko‘p mutaxassislarining ishlarida bayon etilgan. Nutqning faoliyatga va aksincha faoliyatning nutq jarayonlarining takomillashishiga oid qator ma’lumotlar mavjud. Bu ma’lumotlar umumiy psixologiyada ham birmuncha keng oolib berilgan. Aqli zaif bolalarning faoliyatlarini tashkil qilishda, nazorat qilishda beriladigan og‘zaki ko‘rsatmalar o‘zining yaxshi samarasini bermas ekan. Qator defektolog olimlarning kuzatishlaridan ma’lum bo‘lishcha, bu bolalar o‘z faoliyatları haqida yozma hisobot tuza olmas ekanlar. Ammo, bu bolalar ulg‘aygan sari bu kamchiliklari bir kuncha kamayib borar ekan. O.Konnor ma’lumotlariga qaraganda, obyektlarni tasniflash vazifasini tajribada qatnashgan bolalarning 10% gina to‘g‘ri bajarganlar, ya’ni o‘zlarining faoliyatları natijalarini yozma bayon qilib berishda juda qiynganganlar. Aqli zaif bolalarning o‘z faoliyatları haqida gapirib berishlari, ularning aqliy taraqqiyotlarida alohida o‘rinni egallaydi. Bunday ko‘nikmalar o‘z-o‘zidan, birdaniga yuz bermaydi. Buning uchun maqsadga qaratilgan, uzoq muddatli pedagogik ishlar talab etiladi. Uning asosini amaliy va mehnat faoliyatlarining turli shakllari egallaydi. Aqli zaif bolalar bilan bajarilayotgan mashqlarda bolaning faqatgina

vazifalarni qaytarishi emas, balki ularni albatta bajarishlari zarur. Maxsus sharoitlarda tashkil etilgan aqli zaif bolalarning mehnat faoliyatlarida bolalar sezilarli muvaffaqiyatlarga erishadilar. Aqli zaif bolalarning yozma nutqlari-murakkab ruhiy faoliyatdir. Og‘zaki nutqdan yozma nutqqa o‘tish-bolalar nutqining rivojlanishida yangi davrdir. Aqli zaif bolalarning so‘zlarni tovush tomonidan tahlil qila olishlari grammatik qonun - qoidalarni muvaffaqiyatli egallashlarida asosiy narsadir. N.S.Rojdestvenskiyning ta‘kidlashicha, "So‘zdagi tovushlarni farqlamasdan, ularni ajratmasdan, bolalarni o‘qish va yozishga, keyinchalik to‘g‘ri yozishga o‘rgatish mumkin emas". Aqli zaif bolalarda o‘z kuchiga ishonch hosil qilmasdan turib, yordamchi maktablar o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erisha olmaydi. Buning uchun aqli zaif bola bilan uning kuchi yetadigan elementar ko‘nikma va malakalardan boshlash kerak. Bolalarning nutq faoliyatları ham bundan mustasno emas. Yordamchi maktab o‘quvchilarining ayrimlarida uchrab turadigan "oynali" yozuv ham qator qiyinchiliklar bilan bartaraf etiladi. Qator aqli zaif bolalar yozish hadisini to‘g‘ri egallay olmaydilar.

Ye.V.Guryanovning psixologik tekshirishlarining ko‘rsatishicha, o‘rta maktablarning o‘quvchilari ham to‘g‘ri yozish hadislarini qiyichiliklar bilan egallar ekanlar. Yordamchi maktablar tajribasidan shu narsa ma’lumki, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yozish vaqtlarida faqatgina qo‘l barmoqlari harakat qilib qolmasdan, balki ularning qo‘llari, yelkalari, boshi, hatto ko‘zları ham harakat qilar ekan. Tabiiyki, buning oqibatida aqli zaif bolalar birmuncha char-chab qoladilar. Shuning oqibatida ham qator yozuv kamchiliklari yuz beradi. Yozuvdagi xatoliklar ayniqsa, xulqi va faoliyatları buzilgan bolalarda ko‘p uchrar ekan. Bolalar uzoq muddat harflarni qaysi tomonidan boshlab yozishni, daftarning qaysi yonidan boshlashni ham uzoq vaqt tushunib yetmaydilar. Ular daftardagi chiziqlarni, harflar hajmini, mutanosibni anglay olmaydilar. R.Y.Juravlevanining ko‘rsatishicha, aqli zaif bolalar ulg‘aygan sari yozma nutqlaridagi kamchiliklar sezilarli darajada kamayib borar ekan. Ammo, kichik sinflardagi ayrim xatoliklar o‘rniga, boshqa shakldagi, mazmundagi xatoliklar yuzaga kela boshlar ekan. Kuzatishlarining ko‘rsatishicha, sinfda savodli diktant yozgan o‘quvchilarining ko‘pchiligi mustaqil ravishda yozgan xatlarida juda ko‘p va qo‘pol

xatoliklarga yo‘l qo‘yishar ekanlar. Aqli zaif bolalarda sinfda egallagan orfografik bilimlari malakalari qisqa vaqtarda eslaridan chiqib ketar ekan. Ayniqsa, yozgi ta’tildan keyingi o‘tkazilgan yozma ishlarda xatoliklar ko‘p uchrar ekan. Bunga o‘xshash ma’lumotlar Ye.N. Zavyalovaning kuzatishlarida batafsil keltirilgan.

Og‘zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilar o‘rtasidagi muon-mala vazifasini bajaradi. Ammo, yozma nutqni oddiygina og‘zaki nutq boshqa shakli deb qarash mumkin emas. Yozma nutqning asosiy xususiyatlardan biri shuki, u har doim mavhum mazmunga ega. Buning sababi shuki, yozma nutq bayon etilayotganda tegishli ikkinchi shaxs ishtirok etmaydi. Suhbatdosh bilan quvvatlanmaydigan, rag‘batirilmaydigan, boshqarilmaydigan yozma nutq og‘zaki nutqdan birmuncha murakkab va qiyindir. Yozma nutq o‘quvchidan og‘zaki nutqdan farqli ravishda, butun bayon qilmoqchi bo‘lgan fikrlarini tasavvur qila olishi kerak. Yozma nutq o‘quvchidan katta irodaviy kuchni talab qiladi. Bola og‘zaki nutqdan foydalanayotgan vaqtda, qanday gapirayotganini, o‘z gapida so‘zlarni qanday tartibda qo‘llayotganini nazorat qilib, o‘ziga hisobot berib bormaydi. Yozma nutqda esa, bayon etilayotgan har bir jumla, fikr maxsus o‘ylashni, fikr yuritishni talab qiladi. Yozma nutqda o‘quvchidan alohida diqqat talab etiladi. Yuqorida gilalar sababli yozma nutq og‘zaki nutqdan murakkabdir. Og‘zaki va yozma nutq rivojlanishining bir-biriga munosabati o‘ziga xosdir. Shu narsa diqqatga sazovorki, boshlang‘ich sinf yordamchi maktab o‘quvchilarining yozma nutqlarida qo‘shma gaplar ularning og‘zaki nutqlaridan ko‘proq uchrar ekan. Sinflar yuqorilashgan sari bu farq bir-birlariga yaqinlashib boradi. Ommaviy maktab o‘quvchilarining bu tahlildagi natijalari aqli zaif bolalarning teskarisini tashkil qiladi. Normal bolalarning og‘zaki nutqlarida qo‘shma gaplar ularning yozma nutqlaridan ko‘proq uchrar ekan. Bu farq sababi, bizningcha, maktabgacha yoshda aqli zaif bolalarning umumiyligi nutq rivojining pastligi bilan belgilanadi. Yordamchi maktablarda esa, aqli zaif bolalarni qo‘shma gaplarga o‘rgatiladi. Bu o‘rgatish birinchi navbatda ularning yozma nutqlariga ta’sir etadi. Shu narsa ham ma’lumki, aqli zaif bolalarning yozma nutqlarida og‘zaki nutqlariga nisbatan tafakkurning rivojlanish inkoniylari ko‘proq ekan. Aqli zaif bolalarning yozma hikoyalarida, og‘zaki hikoyalariga nisbatan

hayol obrazlari birmuncha boy bo‘lar ekan. Aqli zaif bolalar yozma nutqlarida o‘zicha ayrim holatlarni o‘ylab, ijod qilib boradilar. Bularning ko‘pchiligi aqli zaif bolalarning og‘zaki nutqlarida uchramaydi.

Aqli zaif bolalarda ham intellektual, ham shaxs rivojlanishining yetishmovchiliklari bilan chambarchas bog‘langan nutqning o‘ziga xos buzilishlari aksariyat hollarda ko‘p kuzatiladi. Shuning uchun mактабгача yoshdagi aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan o‘quv tarbiyaviy ish tizimida nutqiy rivojlanishdagi nuqsonlarni korreksiyalashga katta ahamiyat beriladi.

Aqli zaif bolaning nutqni egallashdagi xususiyatlarini, intellektual nuqsonli bolalar nutqining shakllanishini o‘rganish, ushbu bolalar bilan mактабгача yoshda, ya’ni nutqning eng senzitiv (jadal) rivojlanishi davrida ish olib borish mazmuni va metodlarini, yo‘nalishlarini aniqlash alohida ahamiyat va dolzarblik kasb etadi. Chunki haligacha intellekti buzilgan mактабгача yoshdagi bolalar nutqini o‘rganishga qaratilgan fundamental izlanishlar olib borilmagan. Mavjud pedagogik, maxsus psixologik va metodik adabiyotlarda ushbu toifadagi bolalar nutqi rivojlanishining boshlang‘ich bosqichlari haqida yo‘l-yo‘lakay keltirilgan ma’lumotlar niga ko‘rish mumkin.

Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqini tasviriy faoliyat jarayonida rivojlantirish

Kar va zaif eshituvchi bolalar nutqi, lug‘at boyligi oshishida va rivojlanishida bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. ENB bolalar eshitish analizatori turg‘un pasayganligi tufayli ularning nutqida ko‘pgina kamchiliklar kuzatiladi, lug‘atining kambaqal bo‘lishi, grammatik komponent rivojlanmagan, gap ichida so‘zlarni tashlab ketishi, so‘zlardagi tovushlarni tushirib talaffuz etish, so‘zlarni o‘zaro bog‘lay olmaslik, kelishik, so‘z yasovchilarni, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘s Shimchalarni ishlata olmaslik, o‘xshash jarangli va jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirish shular jumlasidandir.

ENB bolalar mактабида ta’lim tizimining bosh maqsadlaridan birini yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etган holda nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirishdir. Nutqini shakllantirish va

nutqini logik idrok eta olishni faqatgina nutq o'stirish darslarida emas, balki har bir darslarda, to'garaklarda lug'at boyligi oshirib boriladi.

Birinchi sinfda o'quvchilarga qoyiladigan talab, nutqiy materialni og'zaki daktilda talaffuz qilish orqali lug'at boyligi oshiriladi.

Muloqot malakasini hosil qilish asta-sekin nutq materialini atrofdagi odamlar bilan o'zaro bir-birlarini tushunish uchun zarur. Har bir chorak uchun mavzudan kelib chiqqan holda nutqiy material beriladi.

S.A.Zikovning ta'kidlashicha, kar bolalarni tilga o'rgatish ishining maqsadga muvofiq sistemasini kommunikativ funksiyasini amalga oshirish kerakdir. Bunda har bir yil uchun tuzilgan reja, dastur o'quvchilarning nutq egallashlari amal qilgan holda o'zlashtiriladi. Har bir so'z va so'z birikmasi o'zida kommunikativlik mas'uliyatini olgan bo'ladi.

Surdopedagog o'quv jarayoniga asosiy ta'sir etuvchi shaxsdir, u o'qitishning har bir bosqichida dastur talabiga asoslangan holda o'quv jarayonlarini tashkil etadi. Ularga rahbarlik qiladi.

Sog'lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalar nutqini egallashni, o'z atrofdagi odamlarga taqlid qilishdan boshlaydilar. Kar bolalarni taqlidi nutq organlarini harakatini ko'rish orqali egallashlariga asoslanadi. Zaif eshituvchi bolalarni nutqga o'rgatishda ularning atrofdagilardan eshitgan so'zlaridan foydalanadilar. Shuning uchun surdopedagog o'zining nutqiga talabchan bo'lishi kerak. Lekin o'quvchilarning imkoniyatiga qarab so'zlarni qisqartirish, birlashtirish mumkin emas. Bu talablar nutqiy malakani oshirishning hamma turlari uchun qo'llaniladi. Tasviriy faoliyat darslarida kar va zaif eshituvchi o'quvchilar qanday faoliyatga kirish-salar, qanday predmetni chizishlari va qaysi o'quv qurollaridan foydalanish bosqichlari albatta surdopedagog tomonidan nutqiy boshqarilib boriladi. Har qanday faoliyat ENB bolalarni nutqini aktivlashtirish, shakllantirishga, lug'atini boyitishga qaratilgan.

O'qituvchi har bir dars uchun lug'at tanlashi kerak. Lug'at tuzishdan oldin o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarni eshitish darajasini hisobga olishi kerak.

Lug'at boyligini oshirish quyidagicha amalga oshiriladi.

Nutqni rivojlantirish surdopedagog tomonidan bolalarda predmetning katta-kichikligi, shakli tushunchalari shakllanadi. Tasviriy faoliyatda esa bolalar vazifani amaliy bajarib olingen tushunchalar kengaytiriladi, aniqlashtiriladi va mustahkamlanadi.

Har qanday faoliyat bolalar nutqini aktivlashtirishga, shakllantirishga, lug‘atni boyitishga va nutqini mustahkamlashga qaratilgan. O‘qituvchi har bir dars uchun to‘g‘ri lug‘at tanlashi kerak. Lug‘atga 4 qismdan iborat so‘z va iboralarni kiritish mumkin:

1) So‘z va ibora, bajarilayotgan ish faoliyatiga bog‘liq ishlatalidigan materialning nomi (loy, qog‘oz, bo‘yoq, yelim,) bajarilayotgan faoliyat (lepka, rasm chizish, bo‘yash, yopishtirish, shtrixlash, ...) ish quollarining nomi (qalam, bo‘yoq qalam, qaychi, bolg‘a).

2) So‘z-predmetning nomi va iborasi, bolalar tasvirlayotgan predmet (shar, archa, qo‘qirchoq,)

3) So‘z va ibora, bolalarning idrok qilishlari uchun yo‘naltililgan harakat (kuzatib chiq, barmog‘ing bilan aylantirib kuzatib chiq, paypaslab ko‘rib chiq)

4) So‘z va ibora, idrok qilish orqali mustahkamlash (rangning nomi, geometrik shakli, hajmini belgilab olish).

Birinchi gruppadagi so‘zlarni tasviriy faoliyatda sekin-asta o‘zlashtirib boriladi.

Ikkinci gronna so‘z (so‘z-predmetning nomi) – tartib boyicha bolalar topish. Tasviriy san‘at faoliyatida so‘zlar predmet bilan yangicha bog‘lanishi.

Uchinchi va to‘rtinchi guruhdagi so‘zlarga alohida ahamiyat beriladi. Bolalarning diqqatini predmetga va uning xususiyatiga qaratiladi. So‘ngra esa bolalar idrok qilgan obrazi mustahkamlanadi. Masalan: Tasviriy faoliyatda olma rasmini tasavvur orqali chizish jarayonida o‘qituvchi “Olma shar shakliga o‘xshaydi. Yuqorisida chuqurchasi bor, chuqurchasida dumchasi bor”. Aytileyotgan so‘zlar (наборный полотна) qoyiladigan cho‘ntakchaga qo‘yiladi. Mashg‘ulot uchun olingen lug‘at aniq ko‘rsatilishi lozim. Tasviriy faoliyatda foydalilanayotgan nutq materialining ko‘p qismi bolalarga tanish bo‘lishi lozim. O‘qitishning 1-2 yilda tartibli har bir mashg‘ulotga ikkitadan ortiq yangi so‘z berish mumkin emas.

O'qitishning keyingi yillarda 3-4 tadan ortiq yangi so'z berish mumkin emas.

Aqli zaif bolalar tasviriy faoliyatida o'quvchilarning lug'ati ortadi, nutqi aktivlashtiriladi. Aqli zaif bolalar shaxs sifatida shakllanishlarida nutqning rivojlanish ahamiyati katta. Shunday ekan yuqorida aytib o'tganimizdek, har bir faoliyatda bolalar nutqini rivojlantiriladi. Har bir tasviriy faoliyat darsida, chizishdan oldin mavzudan kelib chiqqan holda suhbat, savol javob o'tkaziladi. O'qituvchi sinfda bolalar soni kamligi tufayli, har bitta bola bilan og'zaki muloqotga kirishish, imkoniyatiga ega. O'quvchilar rasm chizishda analiz-sintez qilishga, rasmlarni ajratishga o'rgatiladi. O'quvchilar yuqorida, pastda, oldinda, orqada, uzun qisqa kabi tushunchalarga ega bo'ladilar. Mavzudan kelib chiqqan holda har bir darsda yangi lug'at va tushunchalarga ega bo'ladilar. Chizish jarayonida ham, o'qituvchi bolalarni savolga tutadi, sen nimani rasmini chizyapsan? Rangi qanaqa? Nimaga o'xshaydi?... shu kabi savolar bilan murojaat etib, bolalarni og'zaki nutqini tekshiradi va rivojlantiradi. Ayrim aqli zaif bolalar so'zлari va gaplari bir-biriga bog'lanmagan holda, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi, kelishik qo'shimchalarini tashlab gapirishadi, shunda o'qituvchi bolalar nutqini to'g'rilib gapirishga, to'liq gapirishga o'rgatadi.

Adabiyotlar:

1. Н.А. Грицук, А.Р. Киселева" Преподавание изобразительного искусства в школе для детей с нарушениями слуха". Учебное пособие Минск-2006. 14-58стр.,64-128стр.
2. Головкина Т.Н.«Изобразительная деятельность учащихся вспомогательной школы».М.:“Педагогика”, 1997 г. 69-81 стр.

II BO'LIM. QO'I MEHNATINI O'QITISH MAXSUS METODIKASI

I BOB. MAXSUS MAKTABDA MEHNAT TA'LIMI FAN SIFATIDA

1.1. Qo'I mehnatini o'qitish maxsus metodikasi va predmetli amaliy ta'lim kursida maqsadi va vazifalari

«Art - terapiy va PAT» fani va uning vazifalari

“Art - terapiya malakali art-terapevt ishtirokida o'zligini ifodalash va aks ettirishda badiiy vositalarning qo'llanilishidir. Art-terapevtga yo'naltiriladigan mijozlar avval ushbu sohada tajriba yoki malakaga ega bo'lishlari shart emas, ya'ni art - terapevt mijozning estetik va diagnostik imidjini shakllantirishga birinchi galda e'tibor qaratmaydi. Uning amaliy faoliyati – mijozga badiiy materiallar yordamida shaxsiy o'sish va o'zgarishlarni amalgaga oshirish uchun xavfsiz va qulay muhit yaratishdan iborat”.⁶

Maktabgacha rivojlanishi ortda qolgan bolalar va ularning o'qituvchilar guruhi bilan bir necha yillar davomida ishlash, yana bir ilhomlantiruvchi tajriba bo'ldi (DVD 15.6). Kichik aqli zaif bolalar ba'diiy san'at asarlarida mustaqil bo'la boshlaganlari bizni ajablantirdi va xursand qildi, asta - sekin kattalar (15.6A) tomonidan qo'llab-quvvatlash va yordam berish kamayadi. Ba'zi noma'lum o'zlarini tartibga solish va fikrni jamlash qobiliyatları aniqlanganidan so'ng, birinchi navbatda manipulyativ bosqich bo'lsa-da, quvonch va zavq bilan qarshi olindi (15.6B).

Ta'sir qilish doirasi hatto yosh guruglarda ham teng taqsimlanganligi, ta'sirchan edi. Masalan bir rasm chizish so'ralganida, bir bola tushunarsiz aji-buji “Bola”, shu vaqtida ikkinchi bola yaxshi tuzilgan yuz “Mahluq”ni chizishdi. Ikkala bolalar 4 yoshda edilar,

⁶ (BAAT) British Association of Art Therapists (2003) Membership Directory 2003–2004, London: British Association of Art Therapists. – P- 2 (mazmun-mohiyati olindi).

ikkisi ham rivojlanishda ortda qolar edilar, shunday bo'lsa-da ular o'zlarining yosh darajasiga mos ravishda faoliyat ko'rsatar edilar, hattoki tushunarsiz aji-bujilarni chizganlar ham.

Bolalarning o'z hayoliy o'yinlarini san'at materiallari yordamida aks etishlari bizga ularning qobiliyatlarini boshqa shaklda ifoda qilishlarini ko'rishga yordam berdi. Demak, dastur tasviriy san'atga urg'u berish bilan boshlangan bo'lsa-da, keyinchalik turli ijodiy o'yinlar, qum, sim, bloklar, musiqa asboblar, qo'g'irchoqlar, sahna, va uy anjomlari bilan kengaytirildi. Bu kengaytirishlar Tabiiy rivojlanirish bo'lib, bolalarga o'z qiziqishlari va layoqatlari boshqa usullar bilan bildirish imkoniyatini berdi.

Nogironlarga sa'nat o'rgatish jarayonida mazkur muammolardan biri ularning shaxsiy ijodiy potensial va tassavurlari saqlab qolgan holda ularni odatiyga aylantirish. (cf Aach – Feldman & Kunkle - Miller, 2001; Anderson, 1992, 1994; Henley, 1992). Insonlarning ruhiy holati qanday bo'lishidan qat'i nazar ularning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish biz insonlar, o'qituvchilar va tarbiyachilar sifatida bizning muqaddas burchimiz hisoblanadi. Tabiat biz har birimizga ichki fazilatlarni ko'proq yoki kamroq darajada in'om etgan bo'lsa-da, hech kim insonlarni o'z rivojlanish jarayonida baracha mumkin bo'lgan e'tiborni jalb qilish va barcha sa'y-harakatlarimiz arzimaydigan kishilarga ajratib, demarkatsiya chiziq chizish huquqiga ega emas. O'ziga xos ichki fazilatlardan biri shunda-ki – "har bir inson ijodiy ruhga ega". (Lovenfield, 1957, p. 430).

Men iqror bo'ldimki, "Har bir inson bir ijodiy rnhga ega" dir, (DVD 15,2) chunki, men bir necha marotaba va bir qancha joylarda nogiron bolalar ijodiy faoliyatga qodir emas degan fikrlarini eshitganman. Va vaqt o'tgach, bolalar yuqorida keltirilgan fikri qarama-qarshisini tasdiqlashdi.

Bir bolaning san'ati axborot manbai sifatida juda boy bo'lsa-da, u jarayon va undagi osoyishtalik, shaklini diagnostik ko'rsatkich yo'nalihsida aks ettira olmaydi. Avvalgi tajribadan kelib chiqgan holda shuni aytish mumkin-ki, nogiron bolalarning his etish, oy'lash, rasm chizish, bo'yash qobiliyatları boshqa bolalarning qobiliyatidan keskin ravishda ajralib turadi.

Shuni unutmaslik lozimki: "Har bir inson jamiki mavjud bo'lgan mavjudotlardan farqli ravishda tug'ilgan paytidan boshlab, noyob individual boladi". (Moustakas, 1959, p. 66).⁷

Maxsus mактабнинг асосиي vazifalaridan biri - o'quvchilarning amaliy faoliyatiga, ishlab chiqarish mehnatida ishtirot etishga tayyorlashdan iborat. Ushbu vazifa maxsus mактабда o'quvchilarga kasbiy tayyorgarlik imkoniyatini yaratib beruvchi aqliy va jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlarni bartaraf etuvchi mehnat ta'limi tizimida hal qilinadi. Mehnat ta'lumi va tarbiyasi jarayonida insonning dunyo qarashi shakllanadi iroda, jamiyatçilik tuyg'usi tarbiyalanadi. Mehnat yosh avlod tarbiyasining asosiy qismini tashkil etadi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, maxsus mакtablarda doim mehnat tayyorgarligi olib borilgan. Revolyutsiyagacha bo'lgan davrda mehnat faqatgina kasbiy yo'nalishi bo'yicha olib borilgan, uning bolalar ta'lum va tarbiyasidagi ahamiyati deyarli hisobga olinmagan edi. Dastlabki maxsus mакtablarning paydo bo'lishi bilan aqli zaif, karlar, ko'zi ojizlar va boshqa nuqsonli bolalarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga va mehnat ta'lumiga katta e'tibor qaratildi. Mehnat ta'lumini boshqa umumta'lum tayyorgarligi bilan uzviy bog'lash vazifasi qo'yildi. Asosiy e'tibor nafaqat mehnatning ta'lumi va tarbiyaviy ahamiyatiga, balki uning rolini kuchaytirishga qaratiladi.

Hozirgi paytda barcha maxsus mакtablardagi mehnat ta'lumiga: qo'l mehnati, umum texnika mehnati va kasbiy texnik tayyorgarlik kiradi. Ko'rsatilgan mehnat turlarini belgilashda alohida kategoriya dagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari hisobga olinadi. Mehnat ta'luming birinchi bosqichi – qo'l mehnati: mashg'ulot paytida bolalar sodda asboblar, materiallar bilan tanishadilar, kerakli bilim va malakalarни egallaydilar. Bolalarda mehnat malakalari ishlab chiqiladi. Ular asboblardan foydalanishni o'rganadilar.

O'quvchilar shuningdek, sodda kasbiy asboblar bilan ishslash usullarini o'zlashtiradilar.

Qo'l mehnatining asosiy mazmunini materiallar bilan amaliy ishslash tashkil etadi (qum, plastilin, qog'oz va boshqalar). Material bilan ishslash jarayonida uning jismoniy xususiyatlari haqida tasavvurlar hosil bo'ladi.

⁷ J. A Rubin Bolalar art terapiyasi 2005. 263-288betlar

Mehnat ta'limining mazmuni maktabning o'quv, tarbiyaviy va korreksion vazifalari bilan aniqlanadi. Dastur o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishni ko'rib chiqadi. Qo'l mehnati mashg'u-lotlarida boshqa darslarda egallanadigan bilimlarni mustahkamlash va kengaytirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Shunday qilib, ta'limining birinchi bosqichida umum ta'limiy vazifalar hal qilinadi.

Mehnat ta'limining ikkinchi bosqichi umum texnik tayyorgarlik uning vazifasi bolalarni oddiy materialni qayta ishlashga mehnat turlari bilan tanishtirishga, qishloq xo'jaligini o'z ichiga olgan holda o'rgatishdir. Shular bilan birgalikda o'quvchilarda amaliy faoliyatida turli asboblardan foydalanish malakasi shakllanadi.

Bu ma'lum bir mehnat turiga bo'lgan qiziqishni aniqlashga va kasb tanlashga yordam beradi. Bu bosqichda o'quvchilar kasbiy ta'limga tayyorlovchi bilim ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Umum texnik mehnat darslari o'quvchilar bilish faoliyatlarining keyingi rivojlanishi uchun qo'llaniladi nutqni takomillashtirish, xotira, diqqat, tafakkur, tasavvurni rivojlantirish. Umum texnik mehnat mazmunini belgilashda umum ta'limiy vazifalar hisobga olinadi.

Uchinchi bosqich - kasbiy texnik tayyorgarlik. Uning vazifasi mutaxassisliklar bo'yicha ishchilar tayyorlashdan iborat. Bu bosqichda kasbiy va yordamchi material usullari talablarni oshirish yo'li orqali qo'l asboblari bilan ishlash malakalarini rivojlan-tiradilar. Texnologiya haqidagi savollar bilan tanishishga vaqt ko'proq ajratiladi. O'quvchilar mehnatning turli shakllari, va ishlab chiqarish bilan tanishadilar. Yordamchi muktab o'quvchilari ishlab chiqarishni tashkil etish va texnologiya haqidagi eng oddiy tushun-chalarga ega bo'ladilar.

Kasbiy-texnik tayyorgarlik dasturiga mashina boshqarish kursi ham kiradi. Yordamchi muktabda o'quvchilarga mashina boshqarish bo'yicha ba'zi bir mashg'u-lotlarnigina beradilar ko'r va zaif ko'rvuchilar, eshitishda nuqsoni bor bolalar muktablarida mashina boshqarish kursi kengroq hajmda olib boriladi. O'quvchilar ish tar-tibi bo'yicha konstruksiyalari bilan tanishadilar. Har bir o'rganila-yotgan kasb uchun stanoklar jihozi bilan tanishish ko'zdautiladi. Ish hujjatlaridan foydalanishga bo'lgan talab ortadi. Kasbiy tayyor-

garlikda o‘quvchilarning bilim va malaka doirasini kengaytiruvchi va ularni zamonaviy ishlab chiqarish amaliliyoti muhim o‘rin tutadi.

Ishlab chiqarish amaliyoti - o‘quvchilarga maktab ustaxonalidagi mashg‘ulotlarda har doim ham o‘rgana olmaydigan bilim va malakalarни egallashga yordam beradi. Ishlab chiqarishni tanlashda amaliyotni o‘tkazish uchun maxsus maktab o‘quvchilarining nuqsoni hisobga olinadi. Mehnat ta’limi barpo etishning yagona tamo-yiliga qaramay, har bir maxsus maktab uni o‘quvchilarning xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etadi. Turli toifadagi nuqsonli bolalarning psixojismoniy rivojlanish xususiyatlari, maxsus maktabdagи umum ta’limiy, kasbiy va politexnik ta’lim mazmunini belgilashda, o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, shuningdek, o‘quvchilarning mehnat tayyorgarligining darajasini ham.

Ko‘zi ojizlar maxsus maktabida tiflopedagogika amaliyotida o‘quvchilar yuqori umumta’limiy tayyorgarlik bilan birligida ishlab chiqarish klassifikatsiyasini ham yaxshi o‘zlashtirib oladilar. Ko‘zi ojizlar ba’zi murakkab bo‘limgan shtamplangan stanoklarda yaxshi ishlar edilar. Bugungi kunda umum ta’limiy va politexnik tayyorgarlik kasbiy mehnat ta’limini ko‘rish uchun asos bo‘ladi. O‘quvchilar metallni qayta ishlash turlari bilan tanishadilar, radio va elektoromontaj ishlarini o‘zlashtiradilar. Ko‘zi ojizlar eshitish analizatori mehnat jarayonida boshqaruvchi rol o‘ynaydigan mehnat turlariga muvaffaqiyat bilan o‘rganadilar. Teri, harakat analizatorlari ishtirok etuvchi mehnat turlarida ham ko‘zi ojizlarning imkoniyatlari keng ko‘rishning yo‘qligi ta’limning asosiy uslub va usullaridan foydalanishi, o‘quvchilarni turli mehnat turlariga tayyorlash uchun turli ko‘rgazmali vositalarni qo‘llashni talab qiladi.

Eshtishning yo‘qligi kasb egallahsha kar insonning imkoniyatlarini cheklovchi obyektiv sabab bo‘ladi.

Surdopedagogika karlarni mehnatga tayyorlashda kasbiy yondashuvdagi qiyinchiliklarni bartaraf eta oldi. Maxsus maktablar amaliyoti shuni isbotlab berdiki, karlar turli kasblarni egallahslari va unda samarali mehnat qila olishlari mumkin. Karlar maktablarining tarbiyalanuvchilarini metallni qayta ishlash sanoatining turli mutaxassisliklarini egallaydilar. Karlar uchun mos keluvchi mutaxassisliklar bilan yog‘ochni qayta ishlash sanoati bilan bog‘liqidir. So‘nggi yillarda kar o‘quvchilar elektr va radiomontaj, chizmachi va boshqa

mehnat turlari kabi kasblarni egallamoqdalar. Yordamchi maktabda aqliy va umumiy rivojlanishda nuqsonli bolalarni analizatorlarining periferik qismi buzilgan bolalarni ajratadilar. Shuning uchun yordamchi maktablarda mehnat ta'limining umumiy va maxsus vazifalarini hal qilishda aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalarning xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Yordamchi maktabda ta'lim oluvchilarning oliy nerv sistemasi faoliyati sohasidagi buzilishlar mehnat ta'limini qiyinlashtiradi. Bunga qaramay, boshqa maxsus maktablardagidek yordamchi maktablarda ham bolalarni mehnat ta'limiga umumiy yo'naltiriladi.

Yordamchi maktab o'z oldiga tarbiyalanuvchilarni keng mehnatkashlar jamoasiga kiritishni vazifa qilib qo'yadi. Bunday vazifa uning bitiruvchilari ishlab chiqarishda, qishloq xo'jaligida mustaqil shug'ullanishlari uchun mehnat turlarini diqqat bilan tanlab olishni talab qiladi.

Ko'p hollarda aqli zaif bolalar faqatgina elementar umumta'lim bilimlarni o'zlashtiradilar, bu esa ularning politexnik ta'lim imkoniyatlarini pasaytiradi. Shuning uchun ham maktab ta'lim oluvchilarga zamonaviy sanoat va qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish (mashina tuzilishining asoslari, elektro, agro, zootexnika) asoslarini yetkazmoqlikni o'z vazifasi qilib qo'ymaydi.

Yordamchi maktab o'z tarbiyalanuvchilarini oddiy kasblarni: chilangarlik va randachilik ishlari bo'yicha 1 razryadli daraja, kartonli muqovalash ishlari, unchalik og'ir bo'limgan qishloq ho'jalik ishlarini (sabzavot, bog'dorchilik brigadalari ishchilar, yollangan ishchilar, chorvachilik fermalaridagi ishchilar) egallashi uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantiradi.

Bolalarning psixofizik rivojlanishda qo'pol o'zgarishlar mavjud bo'lgan hollarda, maktab bu ta'lim oluvchilarni ko'p sonli bo'limgan alohida ishchi operatsiyalarni yetarlicha yaxshi va tez bajarishga o'rgatish bilan chegaralanadi.

Yordamchi maktabdagagi elementar umum ta'lim va mehnat ta'limi, shuningdek, ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlari ularni kasbni mustaqil tanlash haqidagi savolni qo'yishga yo'l qo'yaydi. Yordamchi maktab o'quvchilarining aqliy va jismoniy rivojlanishi shundayki, bu har bir o'quvchining va uning imkoniyatlariga mos kasbni tanlashni e'tibor bilan o'rganishni talab

qiladi. Aqli zaiflarning mehnat ta'limi muammosini u yoki bu ta'lim oluvchining individual imkoniyatlarining hisobisiz muvaffaqiyatli yechish mumkin emas.

Umum ijtimoiy vazifalardan tashqari, maxsus mehnat ta'limi anomal bolalar rivojlanishidagi kamchiliklarining korreksiyasi va kompensatsiyasi bilan bog'liq o'zining alohida vazifalariga ega. Bu vazifalarni yechishda pedagogik, tibbiy va texnik vositalar kompleksi ishlataladi. Bunda pedagogik vosita asosiysi hisoblanadi. O'quv predmetlari nafaqat o'rganish obyekti, balki maxsus vazifalarni yechish vositasi bo'lib qo'llaniladi. Bu rejada mehnat ta'limi anomal bolalar rivojlanishidagi kamchiliklarning korrektsiya va kompensatsiyasida yetakchi pedagogik vositalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Alohida yordamga muhtoj bolalarning asosiy guruhlariga nisbatan maxsus masalalarni yechishda mehnat ta'limining roli asosan quyidagilarga olib keladi:

Mehnat jarayonida eshitish, teri, harakat va boshqa saqlangan analizatorlarning takomillashishi markaziy (po'stloq) apparat analizatorlarining analitiko-sintetik faoliyati takomillashishi bilan ajralmagan holda bogliq. Bu esa mehnat ta'limida ko'rlearning olyi ruhiy funksiyalarining takomillashishini bildiradi.

Mashinaning qismlari bilan, mexanizm tugunlari, ularning vazifasi va harakatlanish prinsiplari bilan tanishtirish ko'zi ojizlarning konstruktiv texnik fikrashi, maxsuslashtirilgan (texnik) fazoviy mo'ljalning rivojlanishining vositalaridan biridir.

Mehnat ta'limida ko'zi ojizlarda tirishqoqlik, intiluvchanlik, diqqat, mehnat ta'limida orientatsiya uchun mavjud bo'lgan belgilarni ajrata olishni bilish kabi sifatlar tarbiyalanadi. Ko'zi ojizlarning nutqi mehnat ta'sirida aniqroq bo'la boshlaydi, mavjud narsalar va hodisalarni aniqroq tasvirlaydi va nihoyat, ko'zi ojizlarning mazmuni va uslublari bo'yicha to'g'ri tashkil qilingan. Mehnat ta'limi ularning jismoniy rivojlanishining mavjud omillaridan biri bo'lib, kuchli sog'lomlashtirish vositalaridan hisoblanadi.

Shunday qilib, mehnat ta'limi ko'zi ojiz o'quvchini nafaqat zaruriy bilimlar, amaliy malaka va ko'nikmalar bilan qurollantiradi, shu bilan birga kompensator mexanizmlarning shakllanishiga, bilish

faoliyati rivojlanishida axloqiy sifatlarni tarbiyalashdagi vosita hisoblanadi. Mehnat, va ayniqsa, jamoa ta'lifi ta'sirida o'quvchi shaxsi bir butun bo'lib rivojlanadi.

Bolalar uchun asosiy maxsus vazifa ta'lif oluvchilarning so'zli nutqini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Uning yetaricha rivojlanmanganligi karlarning barcha bilish faoliyatlariga, ularniing kasbiy mehnat tayyorgarligini oshirish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Surdopedagogikada so'zli nutqni shakllantiruvchi turli xildagi uslublar va vositalar ishlab chiqilgan. Bu ta'lif tizimida mehnat darslarini qo'llashda ma'lum o'rinni egallaydi. Mehnat ta'lifini to'g'ri tashkil qilish aniq tasavvurlarni beradi, qabul qilishni, xotirani, fikrlash va bilish faoliyatining boshqa turlarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, mehnat tayyorgarligi jarayoni lug'at boyligini kengaytirish, jamiyat talabini rivojlantirish, boyitish, ularga taalluqli mehnat bilimlarini, malaka va ko'nikmalarni berishga yo'l ochib beradi.

Karlar bilan amaliy ishlashda ma'lum qiyinchiliklar mavjudki, ta'lif oluvchilar o'qituvchidan olayotgan so'zli topshiriqni har doim ham tushunmaydilar.

So'zli topshiriqni (texnologik kartochkalarni, chizmalarni) tushunish qiyinchiligi, ayniqsa, ma'lum obyekt tayyorlashda talab qilinadigan operatsiya kompleksini mustaqil bajarish zaruriyatida bilinadi. Bu holat karlarning ishlab chiqarishda, sanoatda, qishloq xo'jaligida qatnashish imkoniyatlarini pasaytiradi.

Kar bolalarni mehnatga tayyorlash tizimiga ta'lif oluvchilarni so'zli vosita (ogzaki va yozma so'zli topshiriq turli xildagi texnologik kartochkalar, chizmalar, tushuntiruvchi tekstli rasmlar) asosida o'z ish faoliyatini tashkillashtirish kiradi. Bu bilan bogliq holda o'quvchilarda hamma vazifalarni va alohida operatsiyalarni bajarishning sifatiga to'g'ri baho berish, operatsiyalarni belgilash, rejalarни rejalshtirish, reja bo'yicha ishlay bilish qobiliyatini shakllantirish bo'yicha ishlar olib boriladi.

Mashina uskunalarini, asboblar, materiallar bilan o'quvchilarning bevosita amaliy faoliyati mehnat ta'lifiga kiritilgan real hodisalar va narsalar haqida, o'quvchilar tasavvurlarini aniqlashtirish uchun qulay sharoit yaratib beradi. Mehnat mashg'ulotlari jarayonida

so‘zli vositalarda aks etgan turli xil sabab oqibatli bog‘lanish sezish mehnat faoliyati bilan bog‘liq. Agar mehnat, mashg‘ulotlari jarayonida ularni bunga maxsus o‘rgatilmasa, karlar uchun ma’lum qiyinchilik tug‘diradi. Ko‘rsatilgan topshiriqni muvaffaqiyatli bajarish karlarni ishlab chiqarish jamiyatiga qabul qilish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Shuni ham aniqlash lozimki, eshitishning yo‘qligi ta’lim oluvchilarining harakat sohasi rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ularda tengdoshlariga qaraganda harakatlarining sustlashganligi yaqqol seziladi. Ta’lim jarayonida, karlarning harakat tezliklari oshib boradi. Biroq mehnat darslariga tegishli mashqlarni kiritish qisqa muddat ichida to‘g‘ri tezlashgan malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi, karlarning motorikasini to‘la rivojlanishiga, qulay ta’sir ko‘rsatadi.

Aqliy rivojlanish kamchiliklarini korrektsiyalash yordamchi mактабнинг maxsus vazifasıdir. Pedagogik vositalar, shuningdek, mehnat ta’limi uni yechishga, qaratiladi. Aqli zaif bolalarga mehnat faoliyatining oddiy turlari (qo‘l mehnati) tushunarliroq va mos. Bu amaliy harakatlar, oson o‘zlashtiriluvchi ko‘rgazma materiallarga asoslanadi. Qo‘l mehnati ishlarining turli tumanligi, hamma analizatorlarning har tomonlama va faol ishlashini talab qiladi. Lekin mehnat ta’limi jarayonida aqli zaif bolalarning rivojlanishi avtomatik tarzda yuz bermaydi.

Mehnatda aqliy operatsiyalarni bajarish malaka va ko‘nikmalar bolada maqsadga qaratilgan tarbiyalash ishlari o‘qituvchi tomonidan doimiy ravishda olib borilgan holdagina u ta’sirliroq bo‘ladi. Odatda, istalgan predmetni ishlab chiqarish jarayoni bir qator operatsiyalardan iborat. Ular bajarayotganlarida ketma - ketlikni qat‘iy kuzatish, bolalarda ishni rivojlantirish malakasini tarbiyalashda qulay asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ish rejasini tuzishni bilish fikrlashning aqliy rivojlanishidan dalolat beradi.

Predmetlarning analitik idrok bilan bogliq ma’lum belgilari bo‘yicha bahosini chiqarish, qilingan ishning sifatini belgilash zarurati bilan o‘quvchilar mahsulotni ishlab chiqarish ustida ishlayotganlarida duch keladilar. Bu yerda ham idrok jarayonlarining tartiblanganiga qaratilgan korreksion tarbiyaviy ish olib borilishi

kerak. Kam umumlashgan katta qism bo'lib aqli zaif bolalarning ta'limga davrida shakllangan malakalar hisoblanadi. Shuning uchun ularni o'quvchilar yangi sharoitlarga yomon moslashadilar.

Fikrlash operatsiyalari (analiz, taqqoslash, umumlashtirish) ni yuzaga keltirish qobiliyati ta'limga jarayonida shakllanganlarni maktabdan tashqari o'z amaliy faoliyatida foydalanish holatida bo'lganlarida yordamchi mакtab ta'limga oluvchilarining aqliy rivojlanishida muvaffaqiyatlari mustahkamlanadi. Shuning uchun ham ta'limga vaqtidagi yangi sharoitlarda orttirilgan malakalarni qo'llash maqsadi maxsus rejalshtirilgan va tashkillashtirilgan sinfdan tashqari va maktabdan tashqari mehnat faoliyati aqli zaif bolalar uchun katta ahamiyatga ega.

Maktabda mashg'ulotlarda bolalar o'rgangan mustahkamlashning aniq yo'llari internatda, xususiy yordamchi xo'jalikda, hamda ota-onalarga oilada yordam berish va boshqa mehnatning umumiyligi foydali turlari.

Mehnat ta'limga oluvchilarga atrofdan olam haqida aniq bo'l-magan va xato tushunchalarni, tasavvurlarni to'grilashga, aniqlashtirishga yordam beradi. Ijtimoiy ahamiyatlari ishlab chiqarish mehnatida qatnashish yordamchi mакtab ta'limga oluvchilarida zaruriy axloqiy (mehnatsevarlik, axloq - odob, jamoa ishlay bilish malakasi) sifatlarining shakllanishini asosiy shart bo'lishini ham belgilash lozim.

Nihoyat, jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni korrektsiyalashga yordamchi maktabdagagi mehnat ta'limi yordam beradi. Marказiy nerv sistemasi faoliyatining buzilishi sababli yordamchi maktabning ta'limga oluvchilarining jismoniy rivojlanishlarida, malumki, bir qancha kamchiliklarga egalar. Bu kabi barcha hollarda mehnat ta'limi mehnat terapiyasi sifatida qo'llanilishi lozim.

Bayon etilgan materialni umumlashtirib quyidagini ko'rsatish lozim. Maxsus maktabdagagi mehnat ta'limi keng doirali vazifalarning yechimini ta'minlashi kerak. Eng avvalo, o'z tarbiyalanuvchilariga keyinchalik ishlab chiqarish mehnatida ishtiroy etishga imkon beruvchi tayyorgarlikni berish kerak. Ta'limga oluvchilarining umum ta'limga ruhiy - irodaviy tarbiyalanishlarida mehnat darslari, shuningdek, muhim rolga ega. Atrofdagilar bilan maxsus mакtab o'quvchilarining muloqot sohasining chegaralanganligi uchun oxir-

gisi, ayniqsa, muhim. va nihoyat, mehnat ta'limining vazifasiga bolalarning anomal rivojlanishidan kelib chiqqan kamchiliklarini korrektsiyalash. Barcha maxsus maktablarga mehnat ta'limi vazifarining yagona shakliga qaramay, har bir turdag'i mактаб uchun uning mohiyatli maxsuslashtirilgan.

Hozirgi vaqtida anomal bolalarning har bir kategoriyasi ta'limgiga mehnat metod va vositalarini, mohiyatini astoydil ishlab chiqarish va murakkablashtirish defektologiyaning aktual muammo-laridan biri.

Savollar:

- 1.Mehnat ta'limining vazifalari haqida gapiring.
- 2.Tovush kuchaytiruvchi asboblar nima uchun ishlataladi?
- 3.Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar mehnat faoliyatida nutqini qanday rivojlantiriladi?

Adabiyotlar:

- 1.J. A Rubin. Bolalar art terapiyasi 2005.272-278betlar
- 2.Yusupova N., "Qo'l mehnatini o'qitish maxsus metodikasi va predmetli -amaliy ta'lim" T.: «Nizomiy nomidagi TDPU», 2012

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1.Aytmetova S.Sh. «Aqli zaif o'quvchilarni mehnatga tay-yorlash». T.: "O'qituvchi", 1994.

1.2. Alohida yordamga muhtoj bolalar rivojlanishida predmetli amaliy ta'limning ahamiyati

"Imkoniyati cheklangan bolalar har bir bola yosh va rivojlanish bosqichlarida namoyon etadigani kabi ehtiyojlarga ega, shu bilan birga ular alohida va ularning o'ziga xos bo'lgan ehtiyojlarga ham ega"⁸

Barcha bolalar bilan ishslash uchun haqiqiy bo'lsada, agar noto'g'ri tushunilsa unda san'atning maqsad va ahamiyati nogiron bolaga tushuntirish lozim. Bu bo'sh vaqtini shunday mashqlar bilan o'tkazishga to'g'ri kelmaydi deb bo'lmaydi, qo'l epchilligini rivojlantirish yoki ishtirokni o'rganishdan ko'ra san'at nogiron bolalar uchun ko'proq ahamiyatga ega. (DVD 15.9).

Zavq va quvонч, masalan, nogiron bolalar uchun tuyg'u – boshqaruв va motor – kinestetik zavq, bosim – bo'shashish joiz regressiyalardan biri.

Ko'zi ojiz bolalar jonsiz va g'amgin ko'rinsalarda birinchi qismda juda qabulchan va itoatkor edilar, san'atga kirib borganlari sari ular jonlanib borar edilar (DVD 3.2ga qarang). Ular kulib, jonlanib, erkin so'zlasha boshlashdi va ikkala jarayonda haqiqiy lazzat ko'rsatishdi (15.9A). Ba'zilari sevish muhtoj bo'lgandek o'ynashar edi (Curri, 1971), bu "harakatsizlikka teskari harakat" (Erikson, 1972, p. 13) va bu "o'yinقارолик hayotni ancha jonlantiradi" (Sutton-Smit, 1971, p. 21).

Toki bolalar boshqalarga bog'liq bo'lishar ekan-ki san'at bolalarga imkon qadar mustaqil ravishda faoliyat ko'rsatish imkoniyatini beradi. Mustaqil tanlash va qaror qabul qilish orqali ularga o'zlarini ramziy-samarali shartlarda aniqlash uchun yordam beradi, shaxsiy did va uslublarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'rganishning ayrim yo'llari bloklangan bo'lishi mumkin bo'lsa-da, san'at tajribalari bolalar hissiy va samarali rivojlanishning yangi yo'llarini topishga yordam berishi mumkin, masalan ko'zi ojizlar uchun paypaslash, karlar uchun ko'rish va oyog' ishlamaydiganlarga qollarning chaqqonligi bo'lganidek.

⁸ Meeting the Needs of Children with Disabilities Families and professionals facing the challenge together Edited by Helen K. Warner. Simultaneously published in the USA and Canada by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016.

Amalda nogiron bolalar jarayon, materiallar va vositalar orqali mahoratini rivojlantirishlari mumkin, ular zavq va quvondan bilan yaratish mahoratini o'rganishadi va erishilgan yutuqlari bilan faxrlanishadi (DVD 7,5 qarang). Nogiron bolalar ko'proq o'zlarini jismoniy va ruhiy erkin his qilganlari sari, ular materiallarga va xis qilishning turlariga ayniqsa muhtojlar. (ular xojayin bo'la oladigan joyda).

San'atning yana bir muhim ahamiyati ko'pincha bolalar lanj va harakatsiz bo'lganlarida materiallar bilan ishlashganda harakatchan, rivojlangan bo'lishadi. Boshqa yo'nalishda ular axborot vositalari bilan dramatik o'yin orqali san'at mahoratini oshirishga qodirlar. Sahnalashtirilgan travmatik vaziyatlarda ko'zi ojiz bolalar o'zlarini kuchliroq va boshqaruvchan bo'lib ko'rsatadilar "rol o'ynaydilar" aslida ular ko'pincha nochor bo'lsalarda.

Birinchi va, ehtimol, eng muhim shart, Lowenfeld aytganidek, "har bir insonda ijodkorlik ruhi mayjud" ligiga samimiyl ishonish (1957. 430b). Bu nimadir o'rganiladigan emas, biroq uni xis qilish mumkin va bolaga to'g'ri tushuntirilsa, ijobiy natija bo'lishi mumkin (DVD 15.9). Hamma insonlarda o'sish (yuksalish), tartib va integratsiyaga tugma Tabiiy intilish borligiga ishonish birdek muhim. Yengillashish strukturasi doirasida istalgan erkinlikka ruxsat berish uchun, bolaning qobiliyatlariga ishonish – bevosita bolaga aylanish, uning yoki o'z ishi xususida tanlov va qarorni amalga oshirish kerak.⁹

Predmetli amaliy ta'lif darsi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarida asosiy va yetakchi dars hisoblanadi.

Uning mohiyati shundan iboratki, predmet anglatgan mazmun, predmetga oid voqe-hodisalar, miqdor va sifat tushunchalari bevosita amaliy faoliyat asosida egallanib, tajribada qo'llaniladi.

Predmetlarning o'quvchilar tomonidan o'z qo'llari bilan tayyorlanishi, ularni tayyorlashda turli predmetlardan foydalanish o'quvchilarga predmet va uning xususiyatlari bilan tanishishda qulay va mos sharoitdir. Amaliy ta'lif orqali shu sharoitning yaratilishi predmetli amaliy ta'lif darsining mazmunini ochib beradi.

⁹ J. A Rubin Bolalar art terapiyasi 2005. P 263-288 (mazmun-mohiyati olindi).

Bu darsda amaliy faoliyat jarayonida nutq, nutqiy ko'nikmalar egallanadi.

Eshitmaydigan bolalar mакtablarida predmetli amaliy ta'lim darsi o'zida nutq o'stirish, daktil nutqqa o'qitish, yozuv, matematika darslari va shular zamirida tarbiyaviy yo'nalishlar bo'yicha mazmunni mujassam etadi.

Surdopedagogika tarixidan ma'lumki, tilga maxsus o'qitish amaliyotiga kommunikativ (muloqot) tamoyil kirib kelishining amaliy faoliyat bilan bog'liqligi S.A.Zokov tomonidan ishlab chiqilgan. Biroq mazkur metodika rus tilida so'zlashuvch'i kar bolalar maktablari va Rossiya davlatlari maxsus ta'lim tizimiga mos keladi. Bizning respublikamizda eshitmaydigan bolalar maktablarining ovoz kuchaytiruvchi apparatlar, sinf xonalarining maxsus jihozlar, muassasalarning defektolog-surdopedagoglar bilan kam ta'minlanganligi, o'quvchilarda so'zlashuv nutqidan (og'zaki, yozma) muloqotda foydalanish imkoniyatining past ko'rsatkichdaligi hamda o'zbek tili qonuniyatlarining rus tili qonuniyatlaridan tubdan farq qilishi S.A.Zokov va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan metodikani aynan qo'llash imkonini bermaydi.

Tilga maxsus o'qitishning faoliyat tamoyilini qo'llash predmetli amaliy ta'lim darslarida yaqqol amalga oshadi.

Bu darsda o'quvchilarning o'qituvchilar, o'rtoqlari bilan bevosita muloqoti uchun tabiiy vaziyatlar yaratiladi.

Amaliy faoliyat davomida o'qituvchilarning o'quvchilarga murojaatlari, savollari, topshiriqlari oson o'zlashtiriladi.

Eshitmaydigan bolaning maktabga (bog'chaga) kelgan dastlabki kunlardagi nutqiy rivojlanish (nutqsiz, yoki qisman-tushunarsiz 4-5 so'zli) darajasi va holatini hisobga olganda predmetli amaliy ta'lim darsi o'qituvchi uchun, bolaning o'qituvchiga yoki o'rtog'iga murojaatini tushunish imkoniyatini ham beradi. Bu holat sinf o'qituvchisi, tarbiyachisi, yakka mashg'ulot o'qituvchisi, ayrim hollarda ota-onalar o'quvchi nutqini o'zlari tushunib, boshqalar uchun shu o'quvchining nutqi tushunarsiz ekanligini ochib beradi. Predmetli amaliy ta'lim darsida yoki boshqa darslarda o'quvchining nutqini faqat sinf o'qituvchisi, tarbiyachisi, yakka mashg'ulot o'qituvchisi tushunishi uchun nutqiy sharoitlar yaratiladi. Nutqiy murojaatlar, muloqotlar shakllanib, daktil nutqqa o'qilib, tovushlarning qo'yilishini qo'llash imkonini bermaydi.

lishi amalga oshirilgandan so'ng, o'quvchi nutqining tushunarllilik darajasi oshadi va maydoni kengayadi.

Predmetli amaliy ta'lif darsi esa shu daraja va shu maydon uchun asosdir. Sinf o'qituvchisi, tarbiyachisi predmet amaliy ta'lif darsining shiori bo'lmog'i kerak. O'qituvchi, tarbiyachi predmetli amaliy faoliyat va u asosida so'zlashuv muloqotining rivojlanishini anglashi, his qila bilishi kerak.

Predmetli amaliy ta'lif darslarida dialogik nutqni rivojlantirish Tabiiy nutqiy vaziyatlarda amalga oshadi. Ya'ni:

- murojaatlar (iltimos-xohish, istak);
- buyruqlar;
- ish yuzasidan hisobot (og'zaki, daktil, yozma);
- talabnomalar (kerakli jihozlarga);
- buyruq ma'nosidagi instruksiyalarda aniq bir harakatni bajarish yoki topshiriqni bajarish amalga oshiriladi. Masalan:

Senga nima kerak? dan so'ra. Senda qalam bormi?

Sendabormi?ga ber.

Olma rasmini chiz. Olma rasmini chizdim. Bo'yadim.

To'g'ri o'tir.

Sekin ich.

Mani ol.

Senga nima kerak? Yoz.

Sen bo'ldingmi? Hisobot ber.

Sinflarda predmetli amaliy ta'lif darslari quyidagi ishlarning tashkiliy shakllari asosida olib borilishi mumkin:

- 1.Sinf bo'yicha yalpi ishlash. (jamoa, o'qituvchi bilan).
- 2.Guruhlarga bo'linib ishlash.
- 3.Yakka holda ishlash.
- 4.«Kichik o'qituvchi» bilan ishlash.
- 5.Juft holda ishlash.

O'qituvchi dars mavzusidan kelib chiqqan holda yuqoridagi shakllarning biridan foydalanadi.

Predmetli amaliy faoliyatdan foydalanish quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- 1.*Umumta'lif predmetlarini o'qitish uchun asos sifatida kundalik-maishiy tushunchalarni shakllantirish.*

O‘quvchilar har xil narsalarni yasash bilan o‘ng, chap, orqada, tepada, yonida, o‘rtada, so‘ra, ayt, ber kabi so‘zlarini hamda so‘z birikmalarini o‘rganadilar. Ular o‘rgangan va bevosita amalda qo‘llagan nutq materiallari nutq o‘stirish, «yakka mashg‘ulot» va boshqa darslarda uchraydi. Ayrim tushunchalar bevosita predmetli munosabatda o‘zlashtiriladi. Masalan: «bo‘lak», «yarim», «andoza», bolalar topshiriqni bajaradilar (andoza qirqing, qog‘ozni buklang, qirqing, bir bo‘lagini oling).

Predmet amaliy ta’lim darslarida matematik tushunchalar ham o‘zlashtirilib, ular aynan matematika darslarida mustahkamlanadi.

Ikki qismga bo‘ling. Plastilinni ikki qismga bo‘ldim.

Teng ikkiga bo‘ling. Plastilinni teng ikkiga bo‘ldim.

Uchburchakni qirqing. Uchburchakning chetini qirqdim.

Doiran bo‘yang. Doiran chizig‘igacha bo‘yadim.

2. O‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish. Predmetli amaliy ta’lim darsidagi har qanday amaliy faoliyat o‘zida tafakkur jarayonlari (analiz-sintez, umumlashtirish, taqqoslash, ajratish)ni mujassam etadi. O‘quvchi obyektni qabul qiladi, tahlil qiladi, uni qismlarga ajratadi, qismlardan asosiysi va ikkinchi darajaligini aniqlaydi, o‘zaro taqqoslaysidi. Bularidan tashqari mazkur darslarda o‘quvchi mantiqiy tafakkurining rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Bolalar o‘z predmetli amaliy faoliyatini ongli ravishda rejalashtiradilar (og‘zaki, yozma ravishda). Turli (mehnat-kasbiy) malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish:

- mehnat-harakatlar ketma-ketligini aniqlaydi;
- ish uchun kerakli uskuna va jihozlarni ajratadi;
- obyektni qismlarga bo‘ladi;
- material-buyum ishlab chiqaradi tayyorlaydi;
- qismlarni yig‘adi, sozlaydi;
- mehnatni tashkil qilish va mehnat qilish madaniyati ishlab chiqiladi.

O‘quvchilarni barkamol shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash.

3. Predmetli amaliy ta’lim darslarida kichik sinf o‘quvchilarini mehnatga psixologik, jismoniy jihatdan tayyorlanadi. Amaliy faoliyat davomida mehnatsevarlik, intizom, mas’uliyat kabi jihatlar tarbiyalanadi, o‘qituvchilar va o‘rtoqlari bilan munosabatga kirisish orqali shaxs sifatida shakllanib boradi.

Ularda axloqiy sifatlar, qoidalarga rioya qilish shakllanadi.

Har bir dars uchun dastur talablari asosida tushuncha va tasavvurlar, jumlalar belgilanadi hamda ularning egallanishi majburiydir. Har bir chorak uchun o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan malaka (nutqiy, fikr lash, mehnat, faoliyatni tashkil qilish)lar alohida ajratiladi. Dastur talablarini o'quvchilar yil davomida ketma-kech turli buyumlar yasash, ya'ni har xil faoliyat jarayonida o'zlashtiradijar.

O'qituvchi yangi mavzuni o'zlashtirish orqali shakllangan barcha ko'nikma va malakalarni predmetli-amaliy faoliyat davomida egallanishini tashkil qilishi zarur.

Predmetli amaliy ta'lif o'quv rejadagi bir qancha o'quv predmetlari-fanlar uchun tayyorgarlik bosqichini o'taydi va shu orinda unda egallangan malakalar boshqa darslarda mustahkamlanadi. Bunda o'quvchining bir darsda egallagan bilimi boshqa vaziyatda yangi sharoitda qo'llana olinishini to'g'ri tashkil qilmoq kerak. Predmetli amaliy faoliyat o'quvchilarni voqeal-hodisalarini, predmetlarning o'zaro bog'liqligini tushunishga va shu asosda ijtimoiy hayotga moslashishga o'rgatadi.

Savollar:

1. Mehnat darslarining mohiyati
2. Mehnat darslarining korreksion yo'naltirilganligi.
3. Propedevtik davr o'z ichiga nimani oladi?

Adabiyotlar:

1.J. A Rubin Bolalar art terapiyasi 2005. 263-283 betlar, 284-288 betlar.

2. Yusupova N. "Qo'l mehnatini o'qitish maxsus metodikasi va predmetli-amaliy ta'lif" T.: «Nizomiy nomidagi TDPU», 2012.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Т.С.Зыкова, М.А.Зыкова., "Методика предметно практического обучения для глухих детей" М.: 2002г.

1.3. Alovida yordamga muhtoj bolalarni mehnatga o'qitish maxsus metodikasi bo'yicha dastur talablarining tasnifi

«Imkoniyati cheklangan bolalar ma'lum ijtimoiy va ekologik muhitda jismoniy va psixik jihatdan cheklanganlikni, balki ayni shu muhitlarda xulq-atvor va ijtimoiy rollarni ham o'zida namoyon etadi. Shu boisdan, maktab bolaning hayotida yangi va o'zgaruvchi muhitni bera oladi...»¹⁰

Albatta, tadqiqot san'at dasturi bolalarning kengayib kelayotgan dunyosiga (15.7C) ko'ra oladigan kattalar ko'zlarini ochdi. Ularning o'sish va o'z ijodiy salohiyati kutilmagan darajada yuqori ekanligidan bizni xabardor qildi. Ular tartibsiz qo'rquvga konstruktiv javob berdilar. Biz bolalarni yangi materiallar bilan ilk bor tanishishlari va shu materiallardan go'zal san'at namunalarini yaratganlarini ko'rdik.

Dastlab tanlash erkinligi noqulaylik tug'dirgan bo'lsa-da, bolalar tez orada, biz ulardan o'rta, mavzuni, va ish joyi haqida o'z qarorlarini qabul qilishlarini kutayotganimizni tushunishdi. Shundan keyin, ular o'zi yaqinda orttirib olingen tanlash huquqini (yo'ki bu to'g'rimi?) bajonidil foydalana boshladilar. Nusxalash yo'ki kuzatuv kabi oddiy mashqdan kelib chiqdi-ki, yuqoridagi holatdan kelib chiqib nogiron bolalar himoya va ishonchga muhtojdirlar (Lowenfeld, 1957, p. 431). Ko'pincha, bolalar ilgari yashirin imkoniyatlardan bizning ko'zlarimizni ochdilar. Masalan, Jimmyning "Rang nima?" degan savolga mazmunli javobi, shaxsiy vizual rag'-batlantrish dasturiga olib keldi. Karlarning yog'och o'ymakorlik-dagi qiziqish va mahorati darsdan tashqari yog'ochsozlik to'garagida muvaffaqiyatlarga (rasm 15,5) olib keldi. O'quv yili davomida ularning barchasi tanlash erkinligini va mustaqil faoliyatları uchun "ochiq darslar"da yetakchi bo'lishlariga olib keldi.

San'at dasturining yana bir usuli, bizga qabul qilish va o'zlash-tirishning noyob va go'zal yo'llarini ko'rsatdi. Jamiyatimizda, "nogironlik farqli va o'zining noyob qirralari sifatida e'tirof etilmasa-da, balki kamchiliklar sifatida ko'riladi" (Moustakas, 1959,

¹⁰ The Future of Children. Children with Disabilities. VOLUME 22. NUMBER 1. SPRING 2012. P-79-96 (mazmun-mohiyati olindi).

p. 247), biz birga ishlagan bolalar, bizning nogironlarga nisbatan bo‘lgan “nogironlik- bosh kamchilik” tasavvurimizni o‘zgartirdilar. Bu ularning imkoniyati cheklanganligi, ular sabab ko‘p alamli tuyg‘ular xis qilganlarini inkor qilish mumkin emas edi. Samimiylig bilan aytish mumkin-ki, ko‘zi ojiz bolalar san’at darslaridagi kreativligi va qabulchanligini ko‘rib ular ojiz emas deysiz.

Bu san’at dasturi doirasida bolalarning ishlari sifati sezilarli darajada ko‘tarilgan edi, ular ishlash jarayonining erkinligini boshqarar edilar va o‘zlaridan mamnun edilar. Ular tobora murakkab va moslashtirilgan mahsulotlar yaratish jarayonida o‘zlarini noyob shaxs ekanliklarini kashf etdilar (va, ehtimol, amalga oshirishdi) Va, paradoksal, o‘qitish jarayonida ular ko‘ra olmasligi ularni jahlini chiqarishi bizning ko‘zimizni ochdi.

Biz “yuksalish darajasiga faqatgina tug‘ma cheklovlardan emas, balkim o‘zlarining cheklovlariga bog‘liq, lekin kattalar ham o‘z cheklovleri bolishi mumkin” deb bildik. (Weiner, 1967, p. 7). Biz “bolani davolash va uning qobiliyatini cheksizligini o‘ziga to‘liq ochib bera oladigan yo‘l faqatgina bolaning o‘rganishga bo‘lgan chanqoqligi va tayyorligi”ni ham bilib oldik. (Moustakas, 1959, pp. 217–218).¹¹

Dastur o‘quvchilarni narsa yasashdan mustaqilliklarini astasekin rivojlanishini hisobga olgan holda tuzilgan.

Masalan: agar 1 sinfda amaliy ishlar o‘qituvchi tomonidan mehnat usullarini ko‘rsatish va so‘z ko‘rsatmasi yordamida bajarilsa, 3 sinfga kelib esa o‘quvchilarni ishini mustaqil ravishda predmet texnologik xarita, texnik rasm va boshqa chamalash turlariga tayanib bajarishga o‘rgatib borish lozim.

Mavzular rejasida «Amaliy mashqlar ish usullari» maxsus bo‘limi ajratilgan bo‘lib, unda materiallar, asbob-uskunalardan samarali foydalanish uchun materiallar, ish usullarini o‘rganish.

Darsning nihoyasida bajarilgan ish baholanadi va dars yakunlanadi. Tabiiyki, bu ketma-ketlikka amal qilish o‘quv jarayonida majburiy emas. Har bir dars qismida bosqichlar almash tirilishi yoki qayta qo‘yilishi mumkin. Lekin darsning matni buzilmasdan barcha

¹¹ J. A Rubin Bolalar arx terapiyasi 2005. 263-283

bosqichlar bir-biri bilan bog'lanib, qo'yilgan maqsadga muvofiq bo'lishi lozim.

Dars rejasini tuzishda o'qituvchi har bir bosqichni e'tiborga olishi lozim: vaqt ni belgilash, savollar tuzish, kerak bo'lgan jihozlarni va materiallarni tanlash. Qog'oz va karton bilan ishlash mashg'ulotlarida tarbiyaviy vazifalar turlichadir. Birinchidan, bular mehnat ta'limining umumiy vazifalaridir. Bunga qog'oz va kartondan turli buyumlarni tayyorlash jarayonida mehnat ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda mustahkamlash, mehnat madaniyatini tarbiyalash, o'quvchilarni kasb mehnatiga tayyorlash kiradi.

Bundan tashqari, qog'oz va karton bilan ishlash rivojlantiruvchi ahamiyatga ega. Boladan qiyinchiliklarni yengib o'tishda tashabbuskorlik, qat'iylik talab qilinadi. Bola o'z oldiga aniq vazifalar qo'yadi va ularni amalga oshirishga asta-sekin harakat qiladi. Shu tarzda bola maqsadga yo'nalgan ravishda harakat qilishga o'rghanadi. Qog'oz bilan ishlashda o'zlashtirilgan usullar bolalar diqqatining patologik tarqoqligini bartaraf etishga imkon beradi. Uning turg'un bo'lishiga yordam beradi.

Qo'l mehnati dasturi ikki xil darajadagi qiyinchiliklarni e'tiborga olgan holda tuzilgan. Bu esa qog'oz va karton bilan ishlash usullarida, buyumlar tayyorlashda, materiallar, asboblar va moslamalarni qo'llanish jarayonida namoyon bo'ladi.

Keyinchalik bir turdag'i ishlarni bajargan vaqtida o'quvchilarga buyum namunasini tahlil qilish va uni tayyorlash bosqichlarini tasvirlash vazifasi topshiriladi.

O'quvchilarda ishini o'z-o'zini nazorat qilib borish malakalari, buyumni tayyorlash vaqtida jarayonlarning izchilligiga rioxva qilish malakasi, buyumlarni estetik jihatdan bezatish, mehnat madaniyatiga rioxva qilish istagi rivojlanadi. Dasturda tayyorlash uchun tavsiya etiladigan buyumlar ro'yxati berilgan. Bu ro'yxat taxminiy bo'lib, har bir o'qituvchi bir ish obyektini ikkinchi ish obyekti bilan almashtirishi mumkin.

O'qituvchi ish obyektlarini tanlaganda mehnat ta'limining asosiy vazifalariga amal qilishi lozim, ammo shu bilan bir vaqtida sinfning imkoniyatlarini va ba'zi aqli zaif bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish kerak. Bundan tashqari o'qituvchi qanday buyum tayyorlanishini, bu buyum nima uchun mo'ljallanganini,

uni tayyorlashda bolalar qanday bilim va ko'nikmalarni egallab olishlarini ma'lum qilishi lozim. Ishni bajarishda bolalar qoniqish hosil qilishlari lozim.

Qog'oz bilan ishlash bolalarning sevimli mashg'ulotlaridan biridir. Qog'ozdan ko'pincha chiroyli va foydali buyumlar (sayr vaqtida kiyish uchun shapkachalar, archa uchun o'yinchoqlar, o'quvchilarbop kiyimlarni saqlaydigan qutichalar) yasash mumkin. Qog'oz bilan ishlash alohida jismoniy kuchlarni sarflashni, murakkab asboblardan foydalanishni talab qilmaydi. Qog'ozdan tayyorlangan buyumlarning tuzilishi murakkab emas, shu boisdan bolalar ishning aniq natijalariga tezda erishadilar.

Bolalar qog'oz bilan ishlayotganda unga ishlov berishning turli usullarini o'zlashtirib oladilar, ancha murakkab tarzda bu usullar boshqa materiallarga ishlov berish uchun qo'llaniladi. Masalan: qaychi bilan gazlama kesish, andoza bo'yicha bichiq hosil qilish shunday ish usullardandir. Bir xil ish usullarini bir necha marta bajarish o'ng va chap qo'l barmoqlar harakati bilan turli ranglarni ajrata bilishni va ularni nomlashni o'rganadilar, applikatsiya ishlarini bajarish esa rang uyg'unligini sezishni qog'ozda bo'laklarni taqsimlashni shakllantiradi. Bundan tashqari, qog'oz bilan ishlash vaqtida boialar qog'ozni buklashni, kesishni o'rganadilar, geometrik shakllar bilan tanishadilar, to'g'ri va egri chiziqlar bo'yicha qaychilar bilan kesish usullarini o'zlashtirib oladilar.

1-sinfda qog'oz va karton bilan ishlash

Eng oddiy operatsiyalar - egib taxlash, buklash yo'li bilan quyidagi buyumlarni yasash: stakan, uycha, turna, cho'ntakcha, dars jadvali uchun ramkacha, qog'oz qiyqimlari uchun quticha, sayrda kiyish uchun shapkacha, hisoblash materiali uchun cho'ntak, qayiqcha, qurbaqa taklif qilinadi. O'quvchilar quyidagi ish usullarini o'rganib olishlari lozim: o'rta chiziq bo'yicha qog'ozni teng ikkiga; to'rtga buklash; burchakdan burchakka buklash; burchaklarni buklash. Bu ishlarni bajarayotib bolalar qog'oz varag'ini shakl bo'yicha ajratishga (kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak) o'rganadilar.

Maqsadga yo'naltirilgan ko'rsatma:

O'quv: bolalarni qog'oz varag'ini to'g'ri buklash, burchaklarni buklash va tekislash.

Bolalar o'qituvchi taklif qilgan savollarga javob qaytarib, 1 sinfda ish olib borgan qog'oz navlarini shu qog'ozlardan tayyorlangan buyumlarni aytib beradilar. Qog'oz navlarini takrorlash uchun har bir o'quvchi partasi ustiga qog'oz parchalari termasi solingan xatjild qo'yiladi.

O'qituvchi turli nav qog'ozlarni ko'rsata turib, o'z xatjildlaridan ana shunday nav qog'ozni topishni bolalarga taklif qiladi. Topilgan qog'oz navlari o'qituvchi aytgan tartibda taxlab qo'yiladi. Shundan keyin bolalar o'qituvchi bilan birga qog'oz navlari kolleksiyasini yelim bilan yopishtiradilar.

Andoza bo'yicha kolleksiya tuzgan vaqtida qog'oz varagi kataloglarga bo'linadi, ularning har biriga namuna yopishtiriladi.

Keyingi mashg'ulotlarda bolalar andoza bilan qog'ozni, andoza va chizgich bilan rejalash usullarini bilib oladilar.

3 sinfda qog'oz va karton bilan ishslash.

O'quvchilar 3 sinfda asosan qalin qog'oz va yupqa karton bilan ishlaydilar. Ular ilgari ayrim asboblardan foydalangan bo'lsalar, endi esa rejalash va ishlov berish asboblarining butun bir guruhlari to'g'risida umumlashtiruvchi bilim oladilar.

Ish usullari murakkablashib, ularni bajarishga qo'yiladigan talablar oshib boradi, o'quchilar endi ko'p bo'lakli buyumlarni tayyorlashga kirishadilar. Kartonajchi-muqovachi kasbi to'g'risida ma'lumotlar oladilar. Ular muqovabop materiallarning xossalari va vazifasi bilan tanishadilar, kitobning ayrim qismlarini ta'mirlash malakalarini hosil qiladilar. O'quvchilar kartonni chizg'ich va andoza bo'yicha rejalash usullarini bilib oladilar: yoymalardan hajmiy buyumlar tayyorlaydilar, kartonni bo'lish, choklar bo'yicha yopishtirish, hajmiy buyumlarga qog'oz yopishtirish usullari bilan tanishadilar.

1 chorakda «Faltsli chizg'ich bo'yicha pichoq bilan kartonni kesish va pichoq bilan kartonda o'yish» mavzusini o'zlashtirish vaqtida o'quvchilar quyidagilarni bilishlari zarur:

Kartonni qaychi bilan kesganda kesish chizig'i tekis bo'lmaydi. Bundan tashqari, kartonni qaychi bilan kesganda bolalar ko'p kuch sarflaydilar. Shu boisdan kartonni kesish uchun maxsus chizg'ichdan foydalilanadi.

Kartонни fалts chizg‘ich bilan kesish ishiga qирqishdan oldin o‘quvchilar ishlash holatini va asboblarni ushslashni puxta bilib olishlari lozim. Xavfsiz ishlash uchun pichoqni tekislagich bilan al-mashtirgani ma’qul. Bunda karton yog‘och tolasi bo‘ylab kesish chizig‘i bilan ozgina kesilgan taxta ustiga qo‘yiladi. Kartонни kesishda u qimirlamasligi va siljimasligi uchun chizg‘ich chap qo‘l bilan bosib turiladi.

Kesish chizig‘i ishlovchidan o‘ng tomonda bo‘lishi lozim. Tekislagich yozuv vaqtida ruchka qo‘lga olingandek ushланади va u sal bosib, uchi bilan chizg‘ich qirrasi bo‘ylab siljитилади. So‘ngra karton tekislagich bilan belgilangan chuqur chiziq bo‘yicha qaychi bilan kesiladi. Fалts chizg‘ich bo‘yicha kartонни kesish usuli yaxshi o‘zlashtirilganligiga o‘qituvchi ishonch hosil qilgandan keyin kartонни pichoq bilan kesishga kirishish mumkin. Pichoq bilan ishlaganda xavfsizlik texnikasi qoidalарини hamma vaqt bolalarga eslatib turish zarur.

2 chorakda bolalar bezatish ishларида kartondan foydalanish bilan tanishадilar. Bunda asosan, turli qalinlikдagi oq va rangli karton, shuningdek, karton va qog‘oz bilan birga qo‘sib boshqa materialлар qo‘llaniladi (iplar, tesma, porolon, charm bo‘lakлari, zar qog‘oz).

3 chorakda bolalarga idish tayyorlash uchun material sifatida kartонning ahamiyati va qutichalar tayyorlash usullари haqida eng oddiy tushunchalar beriladi. Quticha tayyorланадиган kartонни xossalари boshqalarga nisbatan ancha qalin va pishiq bo‘lishi lozim.

4 chorakda O‘quvchilar eng oddiy muqovalash ishlari (kitobni ta’mirlash)ni bilib olадilar.

3 sinfda o‘qituvchi ishchining mehnatiga oid qoidalарни o‘rganishda katta e’tibor beradi. Ana shu qoidalarga muvofiq o‘quvchilar o‘z ish o‘rnini, mehnat jarayonini tashkil etishni o‘rganishлари lozim.

Jamoatchilik, o‘rtoqlariga yordam berish xisларини tarbiyalash alo‘hida ahamiyатга eга. Barcha ishlар jamоat foydali xarakteriga eга bo‘lishi lozim. Shu maqsadda to‘garak tashkil etish mumkin. Ana shu to‘garak qatnashchilar o‘z otalig‘idagi sinfnинг kitoblari va kutubxo-nasinigina emas, balki mакtab kutubxonasini ham tartibga solадilar.

Qo‘l mehnati bo‘yicha darsdan tashqari mashg‘ulotlar.

Darsdan tashqari vaqtлarda mehnat bilan shug‘ullanish aqli zaif o‘quvchilar bilan olib borilадиган ishlардан biridir. Bu ishlар mehnat

ko'nikma va malakalarining yanada chuqur va puxta shakllanishiga, mehnat madaniyatining tarbiyalanishiga, o'quvchilar bo'sh vaqtining mazmunli o'tishiga yordam beradi.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun san'atning maqsadi va ahamiyatini tushuntirib berish. Hamma bolalar bilan ishslashda to'gri sanalgan, yaxshi tanish narsa san'at sifatida ko'pincha noto'gri sabablar bilan tagdim qilinadi. Bunday, qo'llar chaqqonligini rivojlantirish yoki bo'lishga o'rgatish kabi harakatlar bo'sh vaqtini tashkil qilish uchun foydasiz deyish qiyin, lekin san'atda imkoniyati cheklangan bola uchun yanada ahamiyatliroq qadriyatlar mavjud (DVD 15.9).¹²

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar mehnat darslaridagi kabi materiallar va asboblar bilan ish ko'radilar (qog'oz va karton bilan ishslash, applikatsiya, loy va plastilindan buyumlar yasash). Mashg'ulotlarning shakli qo'l mehnati darslaridan boshqacharoq bo'lishi lozim. Bu mashg'ulotlarda bolalar o'zlarini erkin xis etadilar, ijodiy ravishda bemalol ishlaydilar.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ish shakllariga ishlab chiqarish ilg'orlari, faxriylari bilan uchrashuvlar ham kiradi. Bunday uchra-shuvlar vaqtida o'quv-tarbiyaviy jarayonining bir necha vazifalari amalga oshiriladi; o'quvchilarning aniq kasblar haqidagi bilimlari kengayadi; ularda mehnat kishilariga nisbatan hurmat munosabatlari shakllantiriladi.

To'garak ishlari o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirishda, ularda tashabbuskorlikni, ijodkorlikni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etib, bolalarning dunyoqarashlarini kengaytiradi, darsdan olgan ko'nikma, malakalarni mustahkamlab, yangilarini shakllantirishga imkon yaratadi.

To'garak ishlari o'quv faoliyati bilan bevosita bog'langan, ammo to'garakda o'quv faoliyati vazifalari o'ziga xos sharoitda darsdan farqli yangi faoliyat turlarida, boshqa fan doirasida erkin ishtirok etish asosida amalga oshiriladi.

To'garak mashg'ulotlarda o'quvchilar mehnatning uch asosiy tarkibi: faoliyat maqsadi bo'lgan predmet (buyum) va barcha ishlar majmuasini ko'rishga imkon beradigan reja (chamalangan qism);

¹² ¹² J. A Rubin Bolalar arz terapiyasi 2005. 263-283

buyumni amaliy tayyorlash (bajarish qismi); ishni bajarish nazorat qilish va ishni baholashdagi jarayonida yakuniy nazorat (nazorat-baholash qismi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari) lozim.

To'garak ishlarida turli faoliyatlardan foydalaniлади. Qog'oz bilan ishslashning bir necha turlarini: modellash, applikatsiya, to'qish, gul, qushlar, hayvonlar tasvirlarini, rangli qog'ozlardan o'yinchoqlarni yasash, archa o'yinchoqlarini tayyorlashni ajratish mumkin.

Boshqa ish turlaridan foydalansa ham bo'ladi. Masalan, penoplast bilan qayiqcha, samolyot, mushukcha, qor qoplagan daraxt shoxi; tuxum po'stidan, rangli qog'oz parchalaridan mozaika; pape-mashedan archa o'yinchoqlari yasash; gugurt qutilari bilan ishslash, (mato, rangli qog'oz, tabiiy materiallar bilan ishslash va hokazolar).

Faoliyatning dastlabki turi - qog'ozdan modellash-bolalar uchun tanish bo'lib ularda bu ishga qiziqish uyg'otish uchun tayyorlangan buyumlarni namoyish qilib, ularni qayerda ishlatish mumkinligini tushuntirish zarur. Bolalarga dasturdagidan ko'ra murakkabroq bo'lgan ish variantini, masalan shablondarni mustaqil tayyorlashni taklif etish mumkin.

Bolalarda qo'lning mayda muskullarini rivojlantirishga imkon yaratadigan to'qishga qiziqish uyg'otish juda muhim. To'qish bolalarda chidamlik, boshlagan ishni nihoyasiga yetkazish ko'nikmalarini tarbiyalashga yordam beradi.

To'garak ishlarining yakunida a'zolar ishlarining namoyishini o'tkazish lozim.

Kar bolalar maktablari predmetli amaliy ta'lim darslari dasturlaring tavsiyfnomasi.

Dasturda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan predmetli amaliy ta'lim darslarida qo'llanilishi lozim bo'lgan aniq lug'at va iboralar keltiriladi. O'quvchilarning predmetli faoliyat jarayonida tanishib boradigan hayotiy tushunchalari so'zlar orqali beriladi. O'quvchilar tomonidan o'zlashtiriluvchi bunday hayotiy tushunchalar predmetli faoliyat orqali amaliy bajarilgan tahlil, sintez, umumlashtirish, taqqoslash va tasniflash funksiyalari orqali mustahkamlab boriladi. Iboralardan predmetlar bilan bog'liq bo'lgan jamoaviy amaliy faoliyat jarayonida o'quvchilarning o'qituvchi, shuningdek, bir-birlari bilan muloqotlarini rivojlantirish uchun foydalaniлади.

Bundan tashqari dasturda kar bolalar rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holdagi alohida mehnat ko'nikma va malakalarining hajmi hamda ularning ketma-ketligini o'zlashtirish tartibi aniq ko'rsatilgan. Bu ko'nikma va malakalar eng avvalo o'quvchilar shug'ullanuvchi aniq faoliyat turlari orqali aniqlanadi. Masalan, o'quvchilar yasash jarayonida ma'lum bir shakl va o'lchamdag'i plastilin yoki loyni yumshatish ko'nikmasi, qog'ozdan modellash-tirish jarayonida esa andoza bo'yicha murakkab konturni chizib chiqish, andozadan tushirib olingen figuralarni tartibili kesib olish, yopishtirish, ko'chirib olish kabi ko'nikmalar shakllantirilsa, konstruktor bilan ishlash jarayonida o'quvchilar otvyortka va gay-kali kalit bilan ishlash ko'nikmalarini, mato bilan ishlash jarayonida igna va angishvonadan foydalangan holda tikish, tugmacha va ilgaklar qardash kabi ko'nikmalarni egallasalar, o'quv-tajriba maydonida esa yer kavlash, yumshatish, ariq tortish, urug' sepish, tayyor ko'chatni o'tqazish kabi ko'nikmalarni egallab boradilar.

Dasturda, shuningdek, o'quvchilar predmetli amaliy faoliyat jarayonida egallashlari lozim bo'lgan tashkiliy ko'nikma va malakalar berilgan. Ushbu ko'nikmalar sirasida "kichik o'qituvchi" huquqi asosida sinf ishiga rahbarlik qilish, brigadada brigadir sifatida yoki juftlik bilan ishlashda do'stining ishiga rahbarlik qilish kabi ko'nikmalar asosiy hisoblanadi.

Tashkiliy ko'nikmalarning rivojlantirilishi kar bolalarning ma'lum bir shaxsiy xislatlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Faoliyat mazmunini aniqlashda predmetli amaliy ta'limning amalgaloshish imkonini bernvchi material talablari hisobga olingen. Dasturda tavsiya etiluvchi materiallar qayta ishlanishiga yetarli darajada yengil, ko'p vaqt ni talab qilmaydigan bo'lib, maktablar uchun erishimlidir. Bunday materiallar plastilin, qog'oz, karton, tekstil va tabiiy materiallar (shishka, yong'oq po'sti, daraxt ildizi), shuningdek, keng tarqalgan taxtali, plastmassali, metall va elektr konstruktorlar, bolalar qurish materiallaridan iborat. Zarur hollarda bir materiallar boshqasi bilan almashtirilishi mumkin (plastilin loy bilan, yong'oq urug' bilan va h.k). Konstruktor va qurish materiallarini ham almashtirish mumkin, ammo ishning ham hajmi, ham turi dasturda mantiqiy jihatdan o'z aksini topishi lozim.

Dasturda ko'rsatilgan faoliyat obyektlari o'quvchilar tomonidan yasalayotgan buyumlarga nisbatan qiziqish va mas'uliyatini oshirishga qaratilgan bo'lib, ularning amaliy, jamiyatga ahamiyatli ekanligini nazarda tutgan holda tanlab olingan. Ba'zi bir yasalgan buyumlar o'quv jarayonida ko'rgazmali qurol vosita ("Vodiy va tog'lar", "Daryo va undagi inshootlar", "Devoriy kalendar", "Soat millari", "Kompas va termometr modellari" va boshqalar) yoki sinfdan tashqari o'yinlar ("Qushlar va hasharotlar" lotosi va boshqalar) sifatida foydalaniladi. Boshqa turli-tuman yasash buyumlari maktabda o'tkaziluvchi bayramlar hamda sinfni bezatish maqsadida maxsus ravishda tayyorlanadi.

Dasturda ma'lum bir faoliyat turlariga har chorakda ajratiluvchi umumiyoq soatlar miqdori ko'rsatilgan. Bu holat o'quvchilarning dastlab faqat bir turdag'i faoliyat bilan, keyin esa navbatma-navbat boshqa turdag'i faoliyat bilan shug'ullanishlari lozim, degan ma'noni anglatmaydi. Faoliyatdag'i bir xillik o'quvchilarni tez toliqtirib, bir faoliyatni ikkinchisi bilan almashtirib borilishi, aksincha, ularning qiziqishlari va faoliyatlarini orttiradi. Shu bois o'qituvchi darsni shunday rejalashtirishi iozimki, bunda turli-tuman faoliyat turlari mashg'ulotda almashtirib borilishi lozimdir.

Savollar:

1. Mehnat darslari qanday tashkil etiladi va olib boriladi?
2. Qo'l mehnati bo'yicha darsdan tashqari mashg'ulotlar haqida gapirib bering.
3. Mehnat darslarining fanlararo bog'liqligi haqida gapirib bering.

Adabiyotlar:

1. J. A Rubin Bolalar art terapiyasi. 2005. 263-283.
2. Yusupova N., "Qo'l mehnatini o'qitish maxsus metodikasi va predmetli-amaliy ta'lim" T.: «Nizomiy nomidagi TDPU», 2012.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1.Aytmetova S.Sh. «Aqli zaif o'quvchilarni mehnatga tay-yorlash». T.: "O'qituvchi", 1994.

2.T.C.Зыкова, М.А.Зыкова., «Методика предметно-практического обучения» М.:2002.

1.4. Alovida yordamga muhtoj bolalar predmetli amaliy ta'limgarsasi tizimi va shakli

Bola kattalar u uchun ma'lum harakatlarni bajarish jarayonida o'rgana olmagani o'zi bajarish jarayonida o'rganishi va estetik tuyg'ularini rivojlantirishi lozim.¹³

Shunday qilib nogiron bola o'zi uchun afzalroq usulni yoki tanlash va o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Shundan keyingina bola shaxsan muvofiq biron narsa yaratish yo'lini kashf etadi. Keng tanlash imkoniyati bulardan axborot va tasvirlash vositalaridan foydalanish uchun ochiqlik nogiron bolalar va boshqa bolalar uchun muhimdir. Agar san'atning ikkita asosiy maqsadlaridan nogiron bolalarga o'z-o'zini aniqlash va mustaqil faoliyatni singdirish bo'lsa, sodir bo'lgan strukturasi muhim hisoblanadi. Strukturani osonlashtiruvchi san'at materiallarining mustahkamlik va oldindan ko'ra olish imkoniyatidir va ko'zi shu materiallarni hattoki ojiz bolalar ham maksimal darajada mustaqil ishlatalish imkoniyatini berish (15.9C). Shu materiallar oson ishlatuvchanligiga ishonch hosil qilish (15.9D).¹⁴

Predmetli amaliy ta'limgarsasi tuzilishi

Predmetli amaliy ta'limgarsasi tuzilishi buyumni tayyorlash bo'yicha ishning quyidagi bosqichlari asosida aniqlanadi:

- ishga tayyorgarlik;
- buyumni tayyorlash (ishni bajarish);

¹³ Meeting the Needs of Children with Disabilities Families and professionals facing the challenge together Edited by Helen K. Warner. Simultaneously published in the USA and Canada by Routledge 270 Madison Ave, New York. NY 10016. p-96 (mazmun-mohiyati olindi).

¹⁴ J. A Rubin Bolalar art terapiysi 2005. 272-278 betlar.

-natijalarini tahlil qilish.

Ishga tayyorgarlik o‘zida quyidagilarni mujassam etadi:

-mavzuni e’lon qilish;

-buyumni tahlil (nima, nimadan yasalgan, qismlari, rangi, hajmi) qilish;

-ish rejasini tuzish.

-ish uchun kerakli narsalarni «Talabnama» sifatida tuzish (og‘zaki, yozma);

-ish qurollarini tanlash va tarqatish.

Mavzuni e’lon qilish va buyumni tahlil qilish yuzasidan yuqorida tavsiyalar keltirildi.

Ish reja tuzish asosan 1 sinf oxirlarida amalga oshiriladi. Shuningdek, talabnama yozish ham shu davrdan boshlanadi.

O‘qituvchi ish reja tuzish va talabnama yozdirishni maqsad qilib belgilasa, unda ushbu dars asosini shu jarayonlar tashkil qiladi.

Talabnama tuzilgandan so‘ng kerakli qurollar va materiallar tarqatiladi.

Shu bosqichda o‘qituvchi muammoli vaziyatlar yaratishi lozim, ya’ni ish qurollarining kimgadir yetmasligi, kimdadir qurolning boshqachaligi kabilarni eslatish o‘quvchilarda norozilik yoki murojaat qilishga ehtiyoj tug‘diradi. Masalan:

O‘quvchi: - Opa, menda qalam yo‘q.

O‘quvchi: - Qara, kimda ortiqcha.

O‘quvchi: - Dilshodda 2 ta qalam bor.

O‘quvchi: - So‘ra.

O‘quvchi: - Ma, ol, marhamat.

O‘quvchi: - Rahmat.

Ish qurollarini tarqatish bo‘yicha quyidagi ish usullari:

1. O‘qituvchining topshirig‘iga ko‘ra materiallar tarqatish (tayyorlov sinf).

O‘qituvchi navbatchi yoki «Kichik o‘qituvchi»ga topshiriq beradi. Masalan: - Tayyorlov sinflari uchun plastilinni ol, taxtachalarni tarqat. Ahmadga plastilin ber. Likopchalarni tarqat va suv quy...

Ikkinchi sinf uchun - Samandar, 4 ta qora qalam ol - tarqat, qizil qalamni 2 ta kam ol - tarqat...

Topshiriqlar yil sayin murakkablashadi va o'zida boshqa o'quv-predmetlar mazmunini mujassam etadi.

O'quvchilarga topshiriqlar nafaqat og'zaki, balki yozma tarzda ham berilishi zarur.

2. O'quvchilar topshiriqlar o'qib, bajarganligi haqida yozma hisobot tuzishga ham o'rgatiladi. Masalan, 2-sinf uchun:

3. Men plastilinniga berdim.
4. Men qalamlarni tarqatdim.
5. Men rasm chizdim.
6. Men olma rasmini chizdim.
7. Men bo'lqidim. Olmani bo'yadim.

8. O'rtog'ining topshirig'ini bajarish. (tayyorlov,I.II.III.IV-V sinflar). Sinfda navbatchi yoki «kichik o'qituvchi» belgilanadi. Bunda o'quvchilar topshiriq tuzishga o'rgangan bo'lishi kerak. Ular mustaqil ravishda tarkibi va mazmuni har xil bo'lgan nutqiy murojaatlar tuzadilar. Ular uchun tayanch so'zlar, tugallanmagan topshiriqlar namunasi polotnoda turadi.

Bu ish quyidagicha kechadi. Guruh a'zosi boshlovchiga talab-noma aytadi yoki yozadi va ishni bajarganligi yuzasidan hisobot beradi.

3. Ish qurollari va materiallarni mustaqil tanlash (tayyorlov sinfidan boshlanadi).

O'quvchilar talabnomani tuzganlaridan so'ng o'qituvchi stoliga kelib kerakli narsalarni olishni talab qiladi. Bu jarayon qat'iy nutqiy asosda bo'ladi. Masalan:

Nodir, kel. Senga nima kerak?

Menga ..., ..., ... kerak.

Yana o'yla-chi ? Nima kerak?

Menga yana ... kerak.

Sen nima olding ?

Men ... ni oldim.

U senga nimaga kerak?

Men qalam bilan chizaman.

Mumkinmi, o'tirsam.

Bu ish o'quvchilar yozgan talabnomada asosida kechganda, ular talabnomani to'liq tuzishga harakat qiladilar. Agar bola talabnomada biron bir ish qurolini yozmagan bo'lsa, ish davomida

muammoli vaziyatga duch keladi va o‘qituvchiga yoki boshlovchiga murojaat qilishga majbur bo‘ladi. Keyingi darslarda bu xatoni qilmaslikka harakat qiladi.

Predmet amaliy ta’lim darsi buyum ustida ish bosqichlariga ega bo‘ladi. O‘quvchilar har xil buyumlarni yasash davomida atrofdagi borliq, uning ichki tuzilishi bilan tanishadilar. Bu bilan ular turli bilim, ko‘nikma, malakalarni egallaydi.

Masalan: Topshiriq. Ikkinchini qavatda 4 tadan oyna bo‘lsin. Uyning ayvoni bo‘lsin.

Bunda o‘quvchilarga quyidagi nutqiy material beriladi: devor, oyna, eshik, tom, yuqorida, pastda, orqada va boshqalar.....

Buyumni tayyorlash bosqichida qo‘l mehnati malaka va ko‘nikmalari ustida ish olib boriladi. Bunda o‘qituvchining namoyishi (tayyorlash bo‘yicha) alohida o‘ringa ega. O‘quvchilar o‘qituvchining har bir harakatini aniq ko‘rishi zarur va shu o‘rinda o‘qituvchi harakatlari qismli, aniq, tushunarli bo‘lishi shart. Ayrim hollarda namoyish takrorlashni taqozo qiladi. Ammo hech qachon o‘qituvchi o‘quvchi uchun uning o‘miga bajarmasligi kerak.

Buyum qanchalik noto‘g‘ri bajarilmasin, o‘quvchining o‘zi xatoni tuzatishi lozim.

Ish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish quyidagicha:

-yasash davomida jarayon parallel ravishda og‘zaki aytib boriladi, bunda nutqiy instruksiya harakatdan kech qolib yoki ilgarilab ketmasligi kerak.

-Har bir foydalanilayotgan qurol nomi aniq aytildi, vazifasi yetkaziladi;

-Qaychi. Qaychi bilan qirqamiz.

-Qog‘ozni qirqamiz.

-Yelim. Yopishtiramiz.

- Yelim bilan qog‘ozni yopishtiramiz.

Shu paytda o‘qituvchi alohida o‘quvchilarning ismlarini aytib (bunda shu o‘quvchiga qaramasdan harakatni davom ettiraveradi):

-Umida, men nima qildim.

-Otabek, endi nima qilaman.

-Menga endi nima kerak bo‘ladi, kabi nutqiy murojaatlar bilan instruksiyalarni bajartirishi mumkin. Bu o‘quvchilarning nutqni og‘-zaki eshitib qabul qilish, labdan o‘qish malakalarini shakllantiradi.

Predmetli amaliy ta'lif darsida o'quvchilar nafaqat axborot berishga, balki axborotni qabul qilishga ham o'rgatiladi.

O'quvchilarda qo'l mehnati malakalarini shakllantirish, o'qituvchining o'zi bu malakalarga qanchalik egaligiga bog'liq.

Darsning oxirgi bosqichi-natijalarni tahlil qilish, ish yuzasidan hisobot tuzish, bajargan faoliyat haqida axborot berish, tayyorlangan buyumni tekshirish, baholash kabilarni o'z ichiga oladi.

Ish yuzasidan hisobot talab qilish har doim ham dars bosqichiga kirmaydi. Chunki, har bir faoliyat bajarib bo'lingandan so'ng o'quvchi hisobot beradi. Umumiy hisobotga ehtiyoj sezilmaydi.

Agar bir mavzu bir nechta darsda amalga oshirilsa, o'quvchilarning hisoboti oxirgi darsda talab qilinadi. Tayyorlangan buyumni tekshirish ham oxirgi darsda amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar buyum sifatiga qarab emas, balki unga sarflangan vaqtga, ishni mustaqil bajarganligiga, o'rtog'i yoki o'qituvchi yordamida bajarganligiga qarab baholanadi.

O'quvchilarning bajargan ishlarini o'zaro baholashlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu o'quvchilarni o'z ishi yoki o'rtog'ining ishiga tanqidiy yondoshishga, kamchilikni ko'ra bilishga, xatoni tuzatish yo'llarini izlab topishga o'rgatadi.

Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun quyidagi usullar:

- o'quvchilar navbatma-navbat o'z buyumlarini namoyish qiladilar, qolgan o'quvchilar o'z fikrlarini bildiradilar (1-sinfdan boshlab);

- o'qituvchining stoliga o'quvchilarning yasagan buyumlari qo'yiladi, ichidan eng yaxshisi tanlanadi;

- o'quvchilar buyumlarni almashtirib, solishtiradilar, kamchilagini topadilar, fikr bildiradilar. (1-sinfdan boshlab);

- o'quvchilardan biri o'rtog'ining ishini baholashi mumkin;

- boshqa sinf o'quvchisi (katta sinf) yoki o'qituvchi tegishli tahlilni amalga oshirishi mumkin.

O'qituvchining baholash usullarini doim almashtirib turishi o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi. O'quv yilining boshlarida baholash «yaxshi», «yomon» tarzida bo'lishi mumkin. Keyinchalik esa predmet amaliy ta'lif darslarida tayyorlangan (rangli) shakllarni «a'lo», «yaxshi», «yomonga» ajratib baholash mumkin.

Predmetli amaliy ta’lim darslarida ishni tashkil qilish shakllari va ish turlari

Yuqorida aytib o’tganimizdek, predmetli amaliy ta’lim darslarida faoliyatni tashkil qilishning turli shakllaridan foydalilanildi:

1. O‘qituvchining sinf bilan yalpi (frontal) ishi.
2. «Kichik o‘qituvchi bilan ishlash».
3. Guruh bo‘yicha ishlash.
4. Juftlik bilan ishlash.
5. O‘quvchilarning yakka ishlashi.

Faoliyatni tashkil qilishning har bir shakli o‘z maqsad va vazifalariga ega hamda o‘qitishning aniq bir vazifasini hal qilish uchun qo’llaniladi.

Predmetli amaliy ta’lim darsi uchun tashkiliy shakllarni navbatma-navbat o‘zgartirib qo’llash samara keltiradi.

Jamoa bo‘lib, o‘qituvchi yordamida ishlanganda o‘quvchilar ko‘proq harakat bajaradilar. Shuning uchun bu usulni yangi mavzu asosida egallanishi kerak bo‘lgan ko‘nikma, malakalarga o‘rgatishda qo’llash maqsadga muvosif. O‘quvchilar egallagan ko‘nikma va malakalar yakka holda ishlashda mustahkamlanadi.

Ishning tashkiliy shakli dars maqsadi, mazmuni, egallah uchun ajratilgan nutqiy materialdan kelib chiqqan holda tanlanadi.

O‘qituvchining sinf bilan ishlashi

Faoliyatni tashkil qilishning ushbu shakli tayyorlov sinfidan boshlab qo’llaniladi. O‘qituvchi yordamida yalpi ishlanganda o‘quvchilar bir xil topshiriqlarni bir xil usulda bajaradilar.

O‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini tashkil qiladi, uning nutqi namunaviy hisoblanadi. Quyidagi ish turlarini keltiramiz:

1.Namuna bo‘yicha topshiriqni bajarish.

O‘qituvchi ish namunasini ko‘rsatadi, predmet nomini aytadi (masalan, olma) va topshiriq beradi:

Olma rasmini chizing - chizdim.

Olmani bo‘yang - bo‘yadim.

Band chizing - chizdim.

Bandni bo‘yang - bo‘yadim.

2. Namunadan farqli buyum tayyorlang.

O'qituvchi ish namunasini ko'rsatadi.

O'quvchilar predmetni muhokama qiladilar (rangi, hajmi, nima chizilganligi va hokazo).

So'ngra o'qituvchi o'quvchilarga namunadan farq qiluvchi predmet yasashni buyuradi. Masalan, namunada qizil olma rasmi chizilgan.

Topshiriq:

- Sariq olma chizing.
- Yashil olma chizing.
- Kattaroq olma chizing.

3.O'qituvchi topshirig'ini bajarish. (Tayyorlov sinfdan boshlanadi).

Topshiriqlar o'zida buyumni yasash uchun muhim bo'lgan talablar, jarayon (operatsiya)larni mujassam etadi. Ish quyidagicha kechishi mumkin.

Bunda o'qituvchi avval 1 ta topshiriq beradi, o'quvchilar uni bajaradilar yoki o'qituvchi birdaniga bir necha topshiriq berishi va o'quvchilar uni birin-ketin bajarishlari mumkin.

Topshiriqlarning nutqiy bezagi predmet amaliy ta'lif va nutq o'stirish bo'yicha dastur talablaridan kelib chiqadi.

Topshiriqlar og'zaki va yozma ravishda (doskada yoki kartochkalarda) berilishi mumkin.

Bunda o'quvchilarning topshiriqlarni to'g'ri bajarishlarini nazorat qilish zarur, chunki bajarish orqali o'quvchilarda tushunchalar shakllanadi, atrofdagilar nutqini tushunish rivojlantiriladi.

4. Rasm yoki chizma asosida topshiriq bajarish. (1-sinfdan boshlanadi).

Bu ish turi darsga o'yin vaziyatini olib kiradi. U ko'pincha mozaika va konstruktor bilan ishlashda qo'llaniladi. O'qituvchi biror predmet tasvirlangan rasm yoki naqshni ko'rsatadi va olib tashlaydi. Bolalar xotiraga tayanib ish bajaradilar! Ishni tugatgach, nima qilgani, ish uchun nimalar kerak bo'lgani haqida hisobot beradilar.

5. «Huddi shunday qil» topshirig'ini bajarish. (1-sinfdan boshlanadi).

Buyum namunasi ko'rsatilgach, uning tayyorlanishi haqida hikoya, matn o'qiladi.

Bolalar ishni matn mazmuniga ko'ra bajaradilar.

Bu ish turi «Nutq o'stirish» darsligi va ilovasidagi buyumlarni yasash uchun berilgan mavzularni amalga oshirishda qo'llaniladi.

«Kichik o'qituvchi» bilan ishlash

Jamoa bo'lib ishlashda «kichik o'qituvchi» boshchiligidagi ish bajarish o'quvchilarning aqliy, nutqiy, ruhiy rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Chunki bu faoliyatga nutqiy rivojlanishidan qat'iy nazar, hamma o'quvchi qatnashadi. Sinfda ko'proq yaxshi o'qiy-digan, nutqiy malakalarga ega bo'lgan o'quvchilar «kichik o'qituvchi» qilib tayinlanadi va faoliyatni amalga oshiradi. Aslida sinfdagi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar qancha ko'p nutqiy amaliyotga tortilsa, nutqiy rivojlanishi shunchalik ilgarilaydi.

Bunda bo'sh o'quvchiga o'z vaqtida yordam berilishi, topshiriqni avval uning o'zi tushunishi zarurdir.

Tayyorlov sinflarda kichik o'qituvchi episodik tarzda qatnashadi: material, ish qurollarini tarqatishda, alohida harakatlarni bajarishda yoki tayyor buyumlarni yig'ishda.

Keyinchalik kichik o'qituvchining harakat maydoni kengayadi. U ish rejasini tuzishi, ishning bajarilishini kuzatishi, o'rtoqlariga ish haqida hisobot berishi, ishni baholashi mumkin. Barcha jarayon nutqiy amaliyot bilan bog'liq holda kechadi.

Kichik o'qituvchi ishga kirishishdan oldin o'z vazifasini, o'qituvchi belgilagan ish hajmini yaxshi bilishi va bundan o'rtoqlarini xabardor qilishi lozim.

Bundan tashqari u o'quvchilarga nima qilishlarini, ishni qaysi reja asosida bajarishlarini yetkazadi.

Kichik o'qituvchi uchun topshiriqlar tuzish murakkabdir, chunki u nafaqat buyumni tayyorlash ketma-ketligini, balki ularni nutqiy instruksiyalarda ifodalashni ham bilishi kerak.

Kichik o'qituvchi bilan ishlashda quyidagi ish usullari:

1. Tayyor buyum namunasi va tayyor topshiriqlar (kartochkalarda)dan foydalanish (1- sinfdan boshlanadi).

O'qituvchi kichik o'qituvchiga buyum namunasi va kartochkalarda yozilgan tayyor topshiriqlarni beradi. «Kichik o'qituvchi» uni o'quvchilarga ko'rsatadi va topshiriqni o'qiydi (daktil-og'zaki, og'zaki), bajarilishini kuzatadi.

Agar nutqiy material va faoliyat o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lsa, kichik o'qituvchi topshiriqlarni mustaqil tuzadi.

2. Shirma ortiga berkitilgan tayyor buyum namunasi bo'yicha ishslash (1-sinfdan boshlanadi).

Kichik o'qituvchiga buyum namunasi beriladi. U o'quvchilarga ko'rsatilmaydi. Namunani ko'rgan kichik o'qituvchi o'quvchilarga buyumni tayyorlash yuzasidan topshiriq beradi.

Masalan: - qog'oz oling. Doira chizing.

-O'rta - qog'oz o'rtasiga.

-Qog'oz o'rtasiga doira chizing.

-Doirani qirqing.

-Band yasang.

O'quvchilar:

-Olma-mi?

-Gilosmi?

-Rangi qanaqa?

Kichik o'qituvchi:

-Doirani qizilga bo'yang.

-Bandni yashilga bo'yang.

-Dumaloqni teng ikkiga bo'ling.

-Yuqorisidan burchak qirqing.

-Ularni kartonga yopishtiring

-Nima hosil bo'ldi?

O'quvchilar: - Olma.

Kichik o'qituvchi: - Ish uchun sizga nimalar kerak bo'ldi?

O'quvchilar: - Bizga ..., ..., ..., ... kerak bo'ldi.

Ish uchun bizga ..., ..., ... kerak bo'ldi.

Kichik o'qituvchi: - Sen nima qilding?

O'quvchi: - Men chizdim, qirqdim, yelimladim, yopishtirdim, bo'yadim.

Kichik o'qituvchi «Olma» applikatsiyasining namunasini ko'rsatadi. O'quvchilar solishtiradilar. Kichik o'qituvchi ishni tahlil qiladi yoki o'rtog'iga baholashni buyuradi:

Kichik o‘qituvchi: -Bonu, qara. Kim yaxshi bajardi?

Bonu -... yaxshi bajardi.

Kichik o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi faoliyat (topshiriq va uning bajarilishi) nutqiy ifodalar bilan parallel amalga oshirilishini o‘qituvchi nazorat qilishi kerak. Masalan:

Kichik o‘qituvchi: - Doirani qirqing.

O‘quvchi: - qirqdim. Doirani qirqdim.

3.Shirma ortida o‘qituvchi bajargan har bir harakat asosida topshiriq tuzish (1 sinfdan boshlanadi).

Kichik o‘qituvchi shirma ortidan o‘qituvchining har bir harakatini kuzatadi va o‘quvchilarga topshiriq beradi. Masalan,

Kichik o‘qituvchi: - O‘qituvchi plastilinni dumalatyapti.

- Plastilinni dumalating.

O‘quvchilar: - qaysi rangli plastilinni?

Kichik o‘qituvchi: - yashil rangli plastilinni.

Faoliyat kichik o‘qituvchi yordamida tashkil qilinganda qolgan o‘quvchilar harakati sust bo‘lmaydi, aksincha, ular kichik o‘qituvchining har bir harakati, nutqiy instruksiyasi (daktillashi, og‘zaki daktillashi, og‘zaki aytishi) ni kuzatadilar, kerakli joylarda xatolarni tuzatadilar.

Guruh bo‘lib ishlash

Bu faoliyatni tashkil qilish shakli o‘quvchilarning nutqiy munosabatini faollashtiradi. Sinf 2 yoki 3 guruhga bo‘linadi. Bo‘linish o‘quvchilarning ixtiyoriga yoki o‘qituvchi ko‘rsatmasiga binoan amalga oshadi.

Guruhsiz tayyorlashi kerak bo‘lgan buyum mazmunidan kelib chiqib tuziladi. Bunda guruhsiz nutqiy rivojlanishi bir-biriga yaqin yoki turlich ra bo‘lgan bolalardan tuzilishi mumkin.

Agar guruh nutqi rivojlangan bolalardan tuzilgan bo‘lsa, bolalar topshiriqlarni o‘zlar mustaqil ravishda bajaradilar. Aksincha bo‘lsa, o‘qituvchi kerakli joyda o‘quvchilarga yordam beradi.

Guruhsiz boshlovchilar tayinlanadi. Dastlab o‘qituvchi o‘zi boshlovchi sifatida biron bir guruh (bo‘sh o‘quvchilar) da ishtirot etadi. Boshqa boshlovchilar esa o‘qituvchi harakati, nutqiga taqlid qilib, o‘z guruhsini boshqaradilar. O‘quvchilarning nutqiy

muloqotiga erishish shartdir. O'qituvchi nutqiy materialni darsgacha tayyorlab qo'yadi. Ish davomida tegishli vaziyatga nutqiy materialni olib kiradi. Ushbu nutqiy materialning qabul qilinishini yengillashtirish uchun u kartochkalarga yozib qo'yiladi, tarqatiladi. O'quvchi agar faoliyat davomida imo-ishora yoki daktıl nutqdan foydalansa, zinhor taqiqlamaslik lozim. Aksincha, ayni vaziyatda imo-ishora yoki daktillab aytilgan so'zni og'zaki ayttirish talab qilinadi. Shunda so'zning ma'nosi 3 ko'rinishdagi nutqiy vositalarda uyg'unlashadi. Shu o'rinda yana shuni ta'kidlaymizki, nutqiy rivojlanish o'quvchilarda turlichadir. Demak, bolaning nutqi qanchalik rivojlansa, tushuntirish imkoniyati shunchalik keng bo'ladi. Aksincha bo'lsa, o'rtog'iga tushuntirish imkoniyati cheklangan bo'lib, faoliyat amalga oshmay qoladi. Shu paytda o'quvchi tushuntirishning boshqa yo'llari (daktıl, imo-ishora)ga murojaat qiladi. Shu jarayonni agar taqiqlasak, unda axborotni uzatuvchi o'quvchi ham, qabul qiluvchi o'quvchi ham so'zning, harakatning ma'nosini tushunish maydonidan chetda qoladi. Bu esa nutqiy amaliyotning cheklanishidir. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi so'z harakat, imo-ishora yoki daktillab aytilganda parallel ravishda og'zaki aytishini talab qilish, nazorat qilish, zarur paytda yordam berishdir.

Ushbu faoliyatni tashkil qilish shaklida ish mazmuni kichik o'qituvchidagi kabidir. Faqat bunda faoliyatni kichik o'qituvchi emas boshlovchi boshqaradi, buning uchun quyidagi ish turlarini tavsiya qilamiz.

1. Qo'shni guruh topshirig'ini bajarish (3 sinfdan boshlanadi).

Bu ish turida bir guruh a'zolari boshqa guruh ishini tashkil qiladi.

Masalan, ikkala guruh «Maktab hovlisi» maketing eskitmisi chizadi. Biroq ular o'z eskizlari bo'yicha emas, balki boshqa guruh chizgan eskiz bo'yicha faoliyatni amalga oshiradilar. Bunda guruhlar faoliyatlarini o'zaro nazorat qiladilar. Masalan:

Guruh A- ish uchun nima kerak?

Guruh B- ish uchun ..., ..., ... kerak.

Guruh A-sizlarga ish uchun ..., ..., ... kerak bo'ldi.

Guruh B- avval daraxtlarni yasang.

Bitta 2 qavatli, bitta 1 qavatli bino yasang.

Guruh A- har bir qavatda nechta oyna bo'lsin?

Guruh V- har bir qavatda 4 tadan oyna bo'lsin.

Guruh A- daraxtlarni qaerga o'rnataylik?

Guruh V- Eskizga qarang.

Guruh a'zolarining topshirig'ini bajarish (2 sinfdan boshlanadi).

Har bir guruh o'qituvchidan topshiriqlarni oladi. Masalan, 2 qavatlari uy qurish. Topshiriqni boshlovchi bajaradi, boshqa o'quvchilar (guruh a'zolari) unga nutqiy instruksiyalar beradi.

O'qituvchi ish tugashi bilan boshlovchi ishini baholaydi.

Bu usulni yana ham murakkablashtirish mumkin. Masalan, boshlovchi harakatlarni shirma ortida bajaradi. Guruh a'zolari esa harakatlar ketma-ketligini xotirasida tiklab, instruktsiya beradi. Bu ularni izlanishga, fikrlashga undaydi.

Juftlik bilan ishlash

Faoliyatni tashkil qilishning ushbu shaklida o'quvchilar so'zlashuv nutqini rivojlantirish uchun yana ham keng imkoniyat yaratiladi. Chunki bunda har bir o'quvchi o'rtog'i bilan muloqot qilishiga to'g'ri keladi.

O'qituvchi hamma o'quvchilarni juftlikka ajratadi. O'qituvchi tomonidan yoki o'quvchi xohishiga binoan juftliklar tarkib topadi. Har bir juftlik mustaqil ishlaydi. O'qituvchi ularni nazorat qiladi, zarur hollarda yordam beradi. Quyidagi ish turlarini tavsiya etamiz:

1. Hamma juftliklar bir xil topshiriq bajaradi. Har bir juftlik o'qituvchidan topshiriqni qabul qilib oladi, bajaradi va hisobot beradi.

2. Juftlikda o'quvchilarning navbat bilan ishlashi. Juftlikdag'i o'quvchilar bir xil topshiriqni navbat bilan bajaradilar. «Avval, keyin» tushunchalari o'zlashtiriladi.

Bir o'quvchi harakatni bajarsa, ikkinchi o'quvchi nima qilganini yozib turadi. So'ngra o'rinni almashadi.

3. Juftlik boshqaruvchisi bilan ishlash.

Ikki o'quvchidan biri boshqaruvchi qilib tayinlanadi. Unga o'qituvchi buyum namunasini ko'rsatadi. Boshqaruvchi o'qituvchidan olgan topshiriqlarni o'rtog'iga beradi va uning bajarishini nazorat qiladi. O'rtog'i ishi yuzasidan boshqaruvchiga hisobot

topshiradi. Boshqaruvchi esa o'qituvchiga. Shu asnoda o'quvchilarning o'zaro nutqiy faoliyati amalga oshadi. Masalan,

O'quvchi: - Men nima qilaman?

Boshqaruvchi: - Sen uy qurasan.

O'quvchi: - qanday uy quraman?

Boshqaruvchi: - 2 qavatli.

O'quvchi: - avval nima qilay?

Boshqaruvchi: - talabnoma yoz va hokazo.

O'quvchilarining yakka ishlashi

Predmetli amaliy ta'lif darslarida o'quvchilarining yakka ishlashini ko'proq tashkil qilish kerak. Chunki bu o'quvchilarida faoliikni, mustaqillikni tarbiyalaydi. Yakka holda ishlaganda har bir o'quvchi ishni o'zi bajaradi. Topshiriqlar bir xil yoki tabaqlangan holda bo'lishi mumkin.

Agar o'quvchi faoliyat davomida xato qilsa yoki qiyalssa, o'qituvchi yordam beradi (bunda boshqa o'quvchilar diqqatini tortmagan holda).

Mustaqil ishlar orqali o'quvchilarida nutqiy malaka, ko'nikmalar ishlab chiqiladi. Ya'ni:

-ish rejasini tuzish;

-talabnoma tuzish;

-ish yuzasidan hisobot.

Ushbu tashkiliy shaklni o'quvchilar bilimini, amaliy ko'nikmalarini tekshirishda qo'llash mumkin.

Mustaqil topshiriqlar darsning har qaysi bosqichida berilishi mumkin.

O'quvchilar bilimi va imkoniyatini tekshirish uchun ularga mustaqil ishlash bo'yicha quyidagi topshiriqlar namunasini keltiramiz.

Tayyorlov va 1-sinflarda «Gul» aplikatsiyasini yasash bo'yicha topshiriqlar.

Gul andozasini qo'ying.

1. Andozaning chetini chizing.

2. Gulni qirqib oling.

3. Gulni yopishtiring.

4.Gulni bo‘yang. Band chizing.

5.Ishingizga nomingizni yozing.

Topshiriqlar polotnoda yoki doskada yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar topshiriqlarni o‘qiydi va o‘qituvchidan ish quollarini so‘raydi.

1-sinf oxirida xuddi shu «Gul» applikatsiyasini yasash topshirilsa, unda ish quyidagicha kechadi:

1.Ish reja tuzing.

2. Talabnama yozing.

3. Applikatsiyani bajaring.

4. Hisobot yozing.

O‘quvchilarning so‘zlashuv nutqini tekshirish uchun quyidagi topshiriqlarni namunasi. Tayyorlov sinf uchun:

-tur, o‘tir, ol, ber, ko‘rsat.

Bu nima?

...ni ol.

...ni ber.

...ni chaqir.

...ga qara.

...dan so‘ra.

1-2-sinflar uchun:

1. Ish rejasini tuzing. Yozing.

2. Talabnama yozing.

3. Hisobot yozing.

3, 4-sinflar uchun:

-sen nima yasamoqchisan?

-o‘rtog‘ingga ayt. Senga qog‘oz bersin.

-qara, u to‘g‘ri bajaryaptimi?

-yordam ber. Bahola.

-kecha qanday buyum yasadik?

-senga qiyin emasmi?

Natijalarни tahlil qilganda asosan, qaysi topshiriq yaxshi bajargani, o‘quvchilarning ishga munosabati (ongli bajarganligi), reja, hisobot, talabnama tuzish va yozishda qanday xatolarga yo‘l qo‘ygani nazarda tutiladi.

Savollar:

1. Predmetli amaliy ta'lif darslar tuzilish bocqichlarini gapirib bering
2. Predmetli amaliy ta'lif darslarida ish qurollarini tarqatish boyicha ish usullarini gapirib bering
3. Dars shakllarini gapirib bering

Adabiyotlar:

1. J. A Rubin. Bolalar art terapiyasi. 2012. 272-278 betlar.
2. Yusupova N. "Qo'l mehnatini o'qitish maxsus metodikasi va predmetli -amaliy ta'lif". T.: «Nizomiy nomidagi TDPU», 2012.

Qo'shimcha adabiyotlar

1.T.C.Зыкова., M.A. Зыкова M.:2002

1.5. Predmetli amaliy ta'lif darslarida kar o'quvchilarini so'zlashuv nutqini rivojlantirish

"Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarda, garcha tug'ma yoki nutq va til rivojlanishiga qadar orttirilgan bo'lsada, normal nutq rivojlanishi buziladi. Eshitishning buzilishi va nutq qobiliyati pastligi bolalarining ta'limi rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi".¹⁵

Predmetli amaliy ta'lif oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshishi dars mavzusi, maqsadi va vazifalarini to'g'ri belgilashga bog'liqdir.

Har bir dars mavzusi dastur talablariga mos kelishi shart. Talablarda buyum va uni tayyorlash bo'yicha faoliyat turlari, o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan nutqiy material (lug'at, so'z birikma, gap)lar ko'rsatiladi.

Dars mavzusini o'quvchilarga yetkazishning barcha usullarini keltiramiz. Har bir usul o'quvchilarni mustaqil fikrleshsga, o'z fikrini

¹⁵ Meeting the Needs of Children with Disabilities Families and professionals facing the challenge together Edited by Helen K. Warner. Simultaneously published in the USA and Canada by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016. p-102 (mazmun-mohiyati olindi).

nutqiy birliklarda ifodalashga undaydi. Ish usullari o'quvchilarning so'zlashuv (og'zaki, yozma) nutqini rivojlantirish maqsadida asosan muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va shu asosda buyum tayyorlashni ko'zda tutadi, ya'ni amaliy faoliyat va nutqiy muloqot uyg'un holda amalgalashadi.

1. Stolda oldindan ish uchun kerakli ashyo, asbob-anjomlar turadi. Masalan: plastilin, taxtacha va likopda suv...

O'qituvchi o'quvchilar e'tiborini tayyor buyumga qaratadi va aytadi:

Yasaymiz. (qirqamiz). Ushbu holatda o'quvchilar yangi mavzu «yasash» ekanligini anglaydi.

Bu usulni tayyorlov sinfi II choragida qo'llash mumkin.

O'qituvchi: - qani, bolalar, bugun darsda nima qilamiz?

O'quvchilar:- (dastlab og'zaki daktiil, imo-ishora orqali) Yasaymiz -deydilar.

O'qituvchi bolalar nutqini nazorat qiladi.

Partaga ish uchun kerak bo'lgan materiallar qo'yiladi. Doskaga «olma» (applikatsiya) yoziladi. Bunda rangli qog'oz, qaychi, andoza, yelim, rangli qalam, o'chirg'ich, plastilin, suv, taxtacha va boshqalar aralash qo'yiladi. (Bu tayyorlov sinfiga II yarim yillikda va 1-sinf uchun tavsiya etiladi).

O'quvchilar doskadagi mavzuni o'qiydilar va ish qurollarini solishtiradilar, umumlashtiradilar.

O'qituvchi: - Bugun darsda nima qilamiz?

O'quvchilar: - Applikatsiya bajaramiz.

O'qituvchi: - Ish uchun nimalar kerak?

O'quvchilar: - Ish uchun,, kerak.

O'qituvchi: - Nimaning applikatsiyasini yasaymiz?

O'quvchilar: - Olmaning applikatsiyasini yasaymiz.

Doskada - Polotnoga quyidagi nutqiy materiallar qo'yilib, mavzu yoziladi.

«Bodring» (chizish)

Plastilin qog'oz qalam

Taxtacha qaychi albom

Yasaymiz qirqamiz chizamiz.

O'qituvchi: - Bugun darsda nima qilamiz?

O'quvchilar: - Chizamiz. Bodring chizamiz. Bodring rasmini chizamiz.

O'qituvchi: - Ish uchun bizga nimalar kerak?

O'quvchilar - Ish uchun bizga, kerak.

4. O'qituvchi tayyor buyumni namoyish qiladi. O'quvchilar namunaga qaraydilar va u nimadan yasalganini aniqlaydilar, savollarga javob beradilar.

O'qituvchi applikatsiya namunasini ko'rsatadi va so'raydi:

Bugun darsda nima qilamiz?

O'quvchilar: - qirqamiz, yopishtiramiz.

O'qituvchi: - ish uchun nimalar kerak?

O'quvchilar: - ish uchun,, kerak.

5. O'qituvchi darsda ish uchun kerak bo'lgan ish qurollarini og'zaki sanab o'tadi. Bugun ish uchun bizga albom, qalamlar kerak bo'ladi.

O'quvchilar: - Chizamiz. Rasm chizamiz.

6. O'qituvchi doskaga mavzuni yozishdan oldin o'quvchilarga kartochkalar tarqatadi. O'quvchilar kartochkalarni o'qiydilar va nima ish qilishni aniqlaydilar. Masalan:

1-kartochka-Taxtachani ol, oldinga qo'y.

2-kartochka-Yashil rangli plastilinni ol, yumshat.

3-kartochka-Band yasa.

O'qituvchi o'quvchilardan kartochkalardagi topshiriqlarni o'qishni va o'rtoqlarini diqqat bilan tinglashni talab qiladi.

Kartochkalardagi topshiriqlar ish rejasiga asosida ketma-ket mazmunda tuzilgan bo'ladi.

Kartochkalar chalkash tarqatilgan bo'ladi. O'quvchilar uni o'qigach, qaysi topshiriq birinchi bajarilishini aniqlash orqali reja tuziladi va mavzu aniqlanib, doskaga yoziladi. «Bodring» (yasash).

7. 2-3-4-sinflarda o'qituvchi mavzuni og'zaki e'lon qiladi. Masalan: «Bog'da kuz».

O'qituvchi: - Aitingchi, nima qilsak bo'ladi?

O'quvchilar:- Maket yasaymiz.

O'qituvchi: - Ish uchun bizga nimalar kerak?

O'quvchilar:- Ish uchun bizga ... kerak.

O'qituvchi: - Kim bilan birga ishlaysan?

O'quvchi: - Iskandar bilan ishlayman.

O'qituvchi: - Bugun maktab hovlisidagi daraxtlarni kuzatamiz.

O'qituvchi: - Nimalarni ko'rdingiz?

O'quvchilar: - Barglar, shoxlar, mevalarni ko'rdik.

O'qituvchi: - Nima qilamiz?

O'quvchi: - Barglarni yig'ib, albomga yopishtiramiz.

Predmet amaliy ta'lif darslarida o'quvchilarning o'ta faolligini ta'minlash uchun ularni izlanishga, fikrlashga undamoq lozim. Masalan, o'qituvchi partaga plastilinni qo'yadi: - Nima qilamiz?

O'quvchilar: - Yasaymiz. (lekin aynan niman ni yasash kerakligi noma'lum). O'qituvchi biron bir hayvonning gavda qismi (oyoq, quloq, dum, tana) alohida chizilgan rasmni ko'rsatadi. qismlar umumlashtiriladi.

O'qituvchi: - Bu nimaning oyog'i?

O'quvchilar: - Mushukning, itning ...

O'qituvchi: - Bu nimaning dumii?

O'quvchilar: - Itning. Itning dumii.

O'qituvchi: - Nima yasaymiz?

O'quvchilar: - It yasaymiz.

O'quvchilarni fikrlashga yana quyidagicha undash mumkin, qopchada tayyorlanishi kerak bo'lgan buyum-obyekt. O'quvchilardan uni ustidan ushlab sezish talab qilinadi.

O'qituvchi: - Ushla. Bu nima?

O'quvchi: - Bu mushuk.

O'qituvchi: - Darsda nima qilamiz?

O'quvchilar: - Mushuk yasaymiz (chizamiz).

O'qituvchi dars mavzusini sharhlaydi va o'quvchilarga yetkazadi. Endi darsni amalga oshirishda ko'zlangan maqsad aniq bo'lmog'i kerakligini va bu jarayon butun bir darsning natijasini belgilashi mumkinligini ochib beramiz.

Predmetli amaliy ta'lif darslaridan ko'zlangan didaktik maqsadlar quyidagicha.

1. Rivojlantiruvchi maqsad. Kundalik maishiy tushunchalar egallanadi, umumiyl rivojlanish amalga oshiriladi, dunyoqarash kengayadi.

2. Nutqni rivojlantirish. Nutqiy muloqot ko'nikma va malakalari shakllanadi.

3. Mantiqiy tafakkur rivojlanadi. So'z - mantiq tafakkuri, sabab-oqibatli fikrlash shakllanadi.

4. Mehnat-kasbga yo'naltirish. Qo'l mehnati, u yoki bu kasbga oid qiziqishlar rivojlanadi.

5. Tarbiyaviy maqsad. O'quvchilarda shaxs sifatlari tarbiyalanadi.

Har bir dars yuqorida keltirilgan maqsadlarning ikki yoki uchtasining bajarilishini ko'zda tutadi. O'qituvchi dars nihoyasida ko'zlangan maqsadlarga erishilganlikni tekshiradi. Masalan:

Mavzu: «Bodring» (yasash).

Maqsad: a) Topshiriqlarni tushuntirish.

b) Talabnoma (og'zaki-daktil), hisobot (og'zaki-daktil) tuzishga o'rgatish.

d) yasash malakalarini ishlab chiqish.

Amaliyotda asosan yuqorida keltirilgan maqsadlar, uchta yirik ko'rinishda uyg'un holatda qo'llaniladi:

1. Ta'limiy.

2. Tarbiyaviy.

3. Korreksion.

Ta'limiy maqsad asosan o'quvchilarga yetkazilishi kerak bo'lgan tushuncha, bilim, ko'nikma va malakalarni, ya'ni ma'rifiy yo'nalishni belgilaydi.

Tarbiyaviy maqsad asosan o'quvchilarga berilayotgan bilimlar asosidagi ma'naviy yo'nalishni belgilaydi.

Korreksion maqsad esa ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsad asosida nuqsonni tuzatish. Korrektsiya bilinmaydigan holatga kelтирish, sog'lom analizatorlarga tayanib, o'mini bosish (kompen-satsiyalash)ni ko'zda tutadi.

Demak, predmetli amaliy ta'lim darsi eshitmaydigan o'quvchilarning umumiy rivojlanishi (nutqiy, aqliy, jismoniy, ruhiy)ni ta'minlovchi maqsadlarni ko'zda tutadi.

O'zbek tilini muloqot vositasi sifatida o'rgatish, bu vazifa tabiiy vaziyatlarda nutqiy sharoitning yaratilishi orqali amalgalashiriladi.

Bolalar bilan jamoa bo'lib biror predmet yasalayotganda predmetlar, harakatlarni nomlashga, o'qituvchi yoki o'rtog'iga savol, iltimos bilan murojaat qilishga, ishga munosabat bildirishga ehtiyoj tug'iladi. O'quvchilar tayyorlov sinflaridayoq so'zli muloqotga ehtiyojni anglab yetadilar. Masalan:

- So'rang, kimda ... bor?
- Menda yo'q.
- Menga ..., ..., ... bering.

Nutq ma'nosini tushunish, undan foydalanish boshqa vaziyatlarga o'tadi va boshqa darslarda ham amalga oshiriladi. Predmetli amaliy ta'lim uchun tanlangan va o'zlashtirilgan nutqiy material boshqa o'quv predmetlari mazmunini ham tashkil etadi. Bu bilan predmet amaliy ta'limning boshqa umumta'lim predmetlari orasidagi uyg'unligi belgilanadi.

O'quvchilarni predmetli amaliy faoliyatni rejalashtirishga o'qitish shu yo'nalish bo'yicha dasturning muhim bo'limi hisoblanadi. Bu jarayon o'quvchilar mantiqiy tafakkurining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Tafakkur jarayonlari (analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish)ning amalga oshishi orqali eshitmaydigan bolalar so'zlashuv nutqi rivojlanadi.

Predmetli amaliy ta'lim darsida buyumni tayyorlash bo'yicha ish rejasini tuzish 1-sinfdan boshlanadi. U bilan parallel ravishda topshiriqni tushunish, tuzish va ish yuzasidan hisobot berish rivojlantiriladi.

Masalan, har bir sinf bo'yicha predmetli amaliy faoliyatni rejalashtirish o'z yo'nalishlariga ega: topshiriqni tushunish va bajarish, buyumni tayyorlash rejasini tuzish, kerakli ish qurollari va jihozlarni aniqlash, o'rtog'iga topshiriq berish va ish yuzasidan hisobot berish kabilar amaliy faoliyatni rejalashtirishni shakllantiradi:

«Olma» (rasm).

Qalamni ol.

Olma rasmini chiz.

Band chiz.

Olmani bo'ya.

Qalamni oldim.

Olma rasmini chizdim.

Band chizzdim.

Olmani bo'yadim.

Shu kabi ishga oid topshiriqlar tuzilgandan so'ng: - Sen nima qilding? - savoli faoliyatni rejasashtirishga turtki bo'ladi.

Ushbu savol buyumni yasashdagi har bir faoliyat uchun o'z vaqtida berilishi shart. Shu jumladan, o'z vaqtida javob tariqasida aytiglan jumla hisobot uchun tayyorgarlik bo'ladi.

Bu kabi nutqiy muloqotga tortish jarayoni o'quvchi uchun o'z ish faoliyatini rejasashtirishga sharoit yaratadi. Agar o'quvchi har bir ish turi bo'yicha hisobot berishga qiyalsa: - Avval nima qilding? Keyinchi? kabi savollar bilan murojaat qilinadi. Bu murojaatlar o'quvchini o'z fikrini nutq orqali ifodalashga majbur qiladi. Bu vaziyatda o'qituvchining mahorati talab qilinadi, chunki u:

-o'quvchi ish faoliyatining har bir bosqichini kuzatishi;

-o'quvchining u yoki bu predmetga (yordamga) bo'lgan ehtiyojini muammoli vaziyat sifatida anglab, nutqiy muloqot uchun foydalanishi;

-o'quvchining har bir harakatini o'z vaqtida rag'batlantirishi lozim.

Shunday qilib, predmetli amaliy ta'lim darsida o'qituvchining o'z vazifalarini amalga oshirish yuzasidan yangi pedagogik ish usullari va turlarini keltirib o'tdik. Eng muhimimi, ushbu dars tilni muloqot vositasi va tafakkur quroli sifatida egallash uchun zamin ekanligini o'qituvchi o'zi anglamog'i va o'quvchi ongiga singdirmog'i lozim. Amaliy faoliyat natijasi buyumning qanchalik asliga yaqin tayyorlanishidan ham ko'ra, o'quvchining tayyorlash jarayonining har bir bosqichini va predmetlarni qay darajada his qilishi muhimroqdir. Bu esa predmetli amaliy ta'lim darsining mohiyatini ochib beruvchi holatdir.

Savollar:

1. Predmetli amaliy ta'lim darslarida nutqiy muloqot mohiytini ochib bering
2. Predmetli amaliy ta'lim darslarida didaktik maqsadlarini gapirib bering.

Adabiyotlar:

1. Yusupova N. "Qo'l mehnatini o'qitish maxsus metodikasi va predmetli -amaliy ta'lim". T.: «Nizomiy nomidagi TDPU», 2012.

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1.Aytmetova S.Sh. «Aqli zaifo'quvchilarni mehnatga tayyor-lash». T.: "O'qituvchi", 1994.

2.T.C.Зыкова., М.А.Зыкова Изд-во «Академия», М.:2002

II BOB. YORDAMCHI MAKTABLARDA MEHNAT TA'LIMI

2.1.Yordamchi maktablarda qo'l mehnati darslarini tashkil qilish va ularni o'tkazish metodikasi

“Maqsadga yo‘naltirilganlik: har bir bola uning ehtiyojlarining ifodalovchi o‘ziga xos ta’lim dasturiga ega bo‘lishi lozim (ITD). Bola unga mo‘ljallangan ta’lim xizmatlarini olishi lozim. Bu xizmatlar unga har oyda baholanadigan qisqa muddatli maqsadlar bilan birgalikda har semestr yakunida baholanadigan yillik maqsadlarga erishish imkonini beradi.”¹⁶

Qo'l mehnati dasturi bo‘yicha o‘quv materiallari o‘quvchilarning mustaqilliklari asta-sekin o‘sib borishini ta’minlovchi ma’lum bir tizimda tuzilgan. Darsning aniq vazifalariga bog‘liq holda o‘qituvchi yangi ma’lumotlardan xabar berishga yoki ularni takrorlashga, mashqlarga, mustaqil amaliy ishga ma’lum hajmdagi vaqtini ajratish lozim.

Ekskursiyalar. Dastur bo‘yicha tabiatga va maktab ustaxonalariga bir nechta ekskursiyalarni uyuştirish ko‘zda tutilgan. Bu ekskursiyalar, odatda, mavzuni o‘rganishning dastlabki davrida o‘tkaziladi, ekskursiyalar o‘quvchilarni yangi o‘quv materialini qabul qilishga tayyorlash uchun xizmat qiladi.

Tabiatga uyuştiriladigan ekskursiyalar o‘quvchilarning yangi o‘quv material bo‘yicha bilimlarni to‘ldirish maqsadida olib boriladi.

Tabiatga uyuştiriladigan ekskursiyalar o‘quvchilarning tabiat haqidagi bilimlarini to‘ldirish va buyumlarni yasash uchun ashyo yig‘ish maqsadida olib boriladi. Maktab ustaxonalariga tashrif buyurishdan oldin o‘qituvchiga shu maktabning yuqori sinf o‘quvchilari egallayotgan u yoki bu kasb haqida gapirib berishga

¹⁶ Meeting the Needs of Children with Disabilities Families and professionals facing the challenge together Edited by Helen K. Warner. Simultaneously published in the USA and Canada by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016. p-100(mazmun-mohiyati olindi).

yordam beradi. Ekskursiyalarni o'tkazishning samaradorligi ularni to'g'ri tashkil qilishga bog'liq bo'ladi. Birinchi navbatda o'qituvchining o'zi ekskursiya o'tkaziladigan joyni borib ko'rishi lozim. Bog'da yoki o'rmonda qanday qushlar va hasharotlarning uchrashi, qanday o'tsimon o'simliklar, daraxtlar, butalarning o'sishi, qanday mevalarni bu yerda yig'ib olish mumkinligini ham nazardan chetda qoldirmasligi kerak. Bu taxminiy tashrif o'qituvchiga ekskursiyani o'tkazish rejasini, uning yo'nalishini tuzib olishga, bolalar uchun topshiriqlarni aniqlab olishga yordam beradi.

Bolalarning ustaxonalarga borishlaridan oldin o'qituvchining o'zi u yerga borib kelishi, mehnat o'qituvchisi bilan u o'quvchilarga nimani ko'rsatmoqchi ekanligi haqida suhbatlashib oladi. Har bir ekskursiyadan avval o'quvchilar bilan uning mavzusi va maqsadi haqida suhbat o'tkaziladi.

Shunday qilib, 1 sinfda boqqa borishdan oldin o'qituvchi bolalar ni Tabiiy materialdan bo'lgan ishlanmalarning bir nechta bilan tanishtiradi, shaklning nimani tasvirlayotganini taniy olishga, materialni aniqlab olishga, bog'da nimani va nima maqsadda terish kerakligini aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari ekskursiyadan oldin tabiiy materiallarni yig'ish qoidalari to'g'risida ko'rsatmalar berilishi lozim. Bu ko'rsatmalar bir necha marta takrorlanadi, sababi 1-sinf o'quvchilari o'z xotiralarida topshiriqni saqlab qololmaydilar va ko'pincha unga mos bo'lmanan harakatni bajaradilar, shuningdek, zaruriy jihozlar (quti, gerbariy papkalar, qog'oz va h.k.) ni oldindan tayyorlab qo'yish va ekskursiyadan oldin javobgarlar o'rtasida uni taqsimlab olish o'ta muhimdir. Har bir ekskursiyani tuzilgan reja asosida aniq o'tkazish lozim, kutilayotgan narsaga ularning diqqatlarini jalb qilish lozim. Shuning uchun o'qituvchining o'zi faol bo'lmog'i, yetkaza oladigan darajada xissiy so'zlay olishi kerak.

Ekskursiyani o'tkazish joyi va vaqtiga bog'liq holda topshiriqlar hajmi, soni, ketma-ketligi turli xil bo'lishi mumkin. Birinchi sinfda hamma bolalarga bitta o'simlik va uni yig'ishga topshiriq berish, 2-3 sinflarda esa materiallar yig'ishni bolalar guruhlari o'rtasida taqsimlab berish maqsadga muvofiqdir. Atrofni o'rab turgan tabiatni kuzatish va topshiriqlarni bajarish, dam olish va o'yinlar bilan almashinib turishi kerak.

Materiallarni yig‘ish tugagandan so‘ng o‘quvchilarni u yoki bu materialning yaroqli ekanligi haqida fikrlashga jalg qilinib ularni saralash lozim. Ekskursiyadan maktabga qaytgach, jihozlar va materiallar olib qo‘yiladi, qisqagina yakunlovchi suhbatdan keyin ekskursiya tugallanadi.

Dasturda material choraklar bo‘yicha taqsimlangan, bu esa ahamiyatli darajada o‘qituvchining tematik va kundalik reja tuzishini yengillashtiradi. O‘qituvchi maktabning geografik (jug‘rofij) joylashganligi, kerakli materiallarga mos sinf o‘quvchilarining imkoniyatlarini hisobga olgan holda har bir chorakka tematik reja tuzishi lozim. Bu bilan bog‘liq holda o‘qituvchi rejasidagi mavzularning o‘tish tartibi dasturda taklif qilinayotgan tartibdan farq qilishi mumkin. Ish obyektlari, ayniqsa, Tabiiy materialdan bo‘lgan obyektlar o‘zgarishi mumkin. Biroq, mavzularni o‘zgartirishdan oldin o‘qituvchi mehnat turini va alohida obyektlarni bajarishdagi qiyinchiliklarni hisobga olishi lozim. Tematik rejada mehnat turi, ajratilgan soat miqdori, ekskursiyalar, ko‘rgazmali jihozlar ko‘rsatiladi. Shunday qilib, rejani tuzayotib o‘qituvchi butun chorakka mo‘ljallangan ishlarni aniqlab oladi, oldindan nima qilishi kerakligi (maktab ustaxonalarida ba‘zi bir materiallarga buyurtma berish, kerakli asbob va materiallarni olib qo‘yish, jihozlarni tayyorlab qo‘yish) haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. O‘qituvchida har bir dars uchun oldindan ko‘rib chiqilgan reja bo‘lishi kerak. Har bir darsning mavzusi va vazifasi dastur bo‘yicha belgilanadi. Darsning samaradorligi vazifalarni to‘g‘ri belgilay olishga bog‘liq bo‘ladi.

Har bir darsning mavzusи va maqsadi dastur asosida belgilanadi («Bilish malumotlari», «Ish usullari», «Malakalar»). Har bir darsning asosiy vazifasi aqliy harakatlarni va amaliy malakalarni shakllantirishi hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘qituvchi, har bir darsda o‘z oldiga o‘tilganlarni takrorlash yoki yangi bilim berish, ish jo‘yini tashkil etish qoidalarini mustahkamlab olishni maqsad qilib qo‘yadi.

Bu darsning bevosita vazifalari quyidagilardan iborat: o‘quvchilarda tinglash va tayyor ishni savollar bo‘yicha tahlil qilish, so‘z ko‘rsatmalar bo‘yicha mahsulotni tayyorlay olish malakasini tarkib toptirish, o‘qituvchining savollari, bo‘yicha tayyor mahsulotning sifatini aniqlay olish, qog‘oz chizig‘ida fazoviy moljal olish malakalarini tarkib toptirish, bolalarni buklangan chiziq bo‘yicha

taxlash va qirqish yo'li orqali uchburchak, to'g'ri turtburchak, kvadratni hosil qilish usullari bilan tanishtirish, kesuvchi asboblar bilan xavfsiz ish qoidalarini takrorlash.

O'qituvchi dars rejasidan foydalanish davomida asosiy va umumiy vazifalarni ajratib oladi, o'z diqqatini unga qaratadi.

O'qituvchi mehnat darslarining asosiy va umumiy jami vazifalarini batafsil yoritib berishi lozim. Keyingi rejada faqatgina asosiy vazifani belgilab olish mumkin, lekin dars jarayonida 2-darajali vazifalarni amalga oshirishni esdan chiqarmaslik kerak.

Rejada, shuningdek, bo'sh o'quvchilar bilan ishslash (savol javoblar o'tkazish, individual darslar, jihozlarni belgilash) ni ajratish olish muhim. Reja tuzayotganda tarbiyaviy vazifalarni ham nazarda tutish lozim.

Qo'l mehnati darslariga bir qator talablar qo'yilgan: Dars aniq rejalashtirilgan bo'lishi lozim, ya'ni darsga ajratilgan vaqt dan maksimal foydalanish, darsning katta qismini amaliy ishga ajratish, dars ko'rgazmali jihozlar va namunalar bilan ta'minlangan bo'lishi, asboblar ishonchli hamda materiallar sifatli bo'lishi lozim; sinfda zaruriy uskunalarni ish joyiga qo'yib chiqishda, o'qituvchi boshchiligidagi ma'lum bir materiallarni tayyorlashda ishtirok etuvchi ikkita boshliqni saylash maqsadga muvofiqdir.

Aniq bir mahsulotni tayyorlash rejalashtirilgan har bir dars ma'lum bir tuzilishga ega. Quyidagilarni mehnat darslariga qo'llash mumkin:

A.

1. Bolalar jamoasini tashkil etish.
2. Ish jo'yini tashkil etish.
3. Dars mavzusini ma'lum qilish.
4. Bilishga doir ma'lumotlarni berish.
5. Topshiriqda mo'ljal olish.
6. Ish usulini almashib turishi bilan o'qituvchi Ko'rsatmasi bo'yicha mahsulotlar tayyorlash.
7. Tayyorlangan mahsulotlarni baholash.
8. Yakunlash.

B.

1. Bolalar jamoasini tashkil etish.
2. Bilishga doir ma'lumotlarni qaytarish.

3. Dars mavzusini ma'lum qilish.
4. Ish jo'yini tashkil etish.
5. Ishning to'g'ri usullari bilan tanishtirish bo'yicha mashqlar.
6. Topshiriqda mo'ljal olish.
7. Mahsulotni tayyorlashni bosqichma bosqich rejalashtirish
8. Bajarilgan ish haqida hisobot.
9. Bajarilgan mahsulotning sifatini baholash
10. Yakunlash.

D.

1. Bolalar jamoasini tashkil etish.
2. Dars mavzusini ma'lum qilish..
3. Ish jo'yini tashkil etish.
4. Bilishga doir ma'lumotlarni ma'lum qilish. Amaliy ish.
5. Topshiriqda mo'ljal olish.
6. Mahsulotni tayyorlashni bosqichma bosqich taxminiy rejalashtirish.
7. Belgilangan reja asosida mahsulotni tayyorlash.
8. Bajarilgan ish haqida hisobot.
9. Mahsulotning sifatini baholash
10. Yakunlash.

Yuqorida ko'rsatilgan variantlar yagona imkoniyat bo'lib hisoblanmaydi. Darsning alohida bosqichlari o'zgartirilishi almash-tirilishi mumkin. Biroq, o'qituvchi ularning hammasi uзвиy bog'liqligini va vazifalarini bajarishga qaratilgan bo'lishini esda tutish lozim. Berilgan darsning vazifalariga savollar tizimini, mashqlarni, ko'rgazmali jihozlarni moslashtirish kerak.

Bolalar jamoasini tashkil etish. Aqli zaif o'quvchilarda tashkiliy malaka va ko'nikmalarни hosil qildirish darsga bo'ladigan qo'ng'iroqdan oldin boshlanadi. Har bir darsdan so'ng, tanaffus paytida o'quvchilar qo'llarini yuvishlari. Fartuk va yengcha yoki xalatni kiyishlari lozim. Qo'ng'iroq chalinishi bilan ular qo'il mehnati xonasiga kirish qismida yig'iladilar, xonaga kiradilar va sekingina o'zlarining doimiy joylarini egallaydilar. Shuningdek, bolalarda o'qituvchi ruxsatsiz ish joyida hech narsaga tegmaslik odatini tarbiyalash o'ta muhimdir.

Dars mavzusini ma'lum qilish

Bu bosqich 2-3 daqiqa egallashiga qaramay, u juda muhimdir. Quyi sinfning aqli zaif o'quvchilari bilan istalgan ishni muvafقاqiyatli o'tkazish ularni qay darajada belgilangan ish bilan qiziqtira olganligi bilan bog'liq bo'ladi. Bolalarning diqqatini ishga jalb etish, ular bajaradigan mahsulot chiroyli va foydali ekanligani ko'rsatib berish lozim. Har doim ham darsni uning mavzusini ma'lum qilishdan boshlash kerak emas. Agar, masalan, o'qituvchi kesuvchi asboblar bilan xavfsiz ishslash qoidalarini takrorlab olishni, keyin kartondan quticha yasashni rejalashtirgan bo'lsa, takrorlashdan so'ng dars mavzusini ma'lum qilish maqsadga muvofiqdir.

Ish joyini tashkil etish

Qo'l mehnati xonasida har bir o'quvchining ma'lum bir ish joyi bo'lishi kerak. Darsni boshlagach o'qituvchi uni tashkil etishni ko'rsatib tushuntirib beradi. Asboblar ung tomonda turishini, uni ish jarayonida o'ng qo'lga olish lozimligini bolalarga tushintiriladi; materiallar va jihozlar chap tomonda turishini va ularni chap qo'l bilan olish qulay ekanligi ham tushuntiriladi.

Dastlab, o'qituvchi o'quvchilarga ish jo'yini tayyorlashga yordam beradi, ularga uni tashkil etish qoidalarini eslatadi. Keyinchalik har bir darsda ish joyidagi tartibni tekshiradi, bunda brigadir ham tekshirishga jalb qilinadi. Dars davomida o'quvchilarga material va asboblarni kerakli joyga qo'yish kerakligini eslatib turish lozim.

Bilish ma'lumotlarini ma'lum qilish va takrorlash

Qo'l mehnatiga o'rgatishning 4 yillik jarayonida o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan bilishga doir materiallarning hajmi o'quv dasturida aniqlangan. Bular tabiat mahsulotlari, plastilin va loy, tekstil mahsulotlari, qog'oz va kartonning murakkab bo'lmagan tarkibi kabilarning ishlatalishidir. Bunga yana asboblar guruhlari haqida ma'lumot, ular bilan ishslashning xavfsizlik qoidalari, turli materiallar bilan ishslashda sanitarni-gigiyenaga xos talablar ham kiradi.

Bilishga doir ma'lumotlarini qisqa suhbat orqali, albatta ko'r-gazmali materiallarni namoish qilish bilan berish mumkin, bular: ip kollektsiyalar, mahsulot namunalari, gazlama kolleksiyalari, qog'oz turlari, asboblar to'plami bo'lishi mumkin. Bir qator hollarda suhbat davomida o'qituvchi o'quvchilar bilan qisqa amaliy ishlarni o'tkazishi mumkin. Masalan: murakkab bo'Imagan harakatlarni bajara turib birinchi sinf o'quvchilari qog'ozning oson yirtilishi, g'ijimlanishi, buklanishi, qirqilishi, namlikni shimb olishini bilib oladilar; 3 sinf o'quvchilari amaliy ishni bajara turib, taxtaning sinishi, egilishi, tolasi bo'yicha bo'linishini bilib oladilar.

O'quvchilar uchun qisman tanish bo'lgan ma'lumotlarni o'zin elementlaridan foydalanib, suhbat qurinishida takrorlash maqsadga muvofiq. Suhbat va hikoyalarn yorqin, tushunarli, kasbiy malumotlarga doir bo'lib, qisqa vaqtini egallashi lozim.

Topshiriqda mo'ljal olish

Qo'l mehnati darslarida o'quvchilarga namuna, tabiiy predmet, o'ynichoq, rasmga qarab mahsulotni tayyorlash taklif qilinadi. Bolalarning binoda mo'ljal ola bilishlari ko'p jihatdan ushbu obyektlarni mustaqil tayyorlashlariga yordam beradi. Yordamchi maktab o'quvchilarida bu malaka ta'lim jarayonida ma'lum bir ketma-ketlikka rioya qilishda rivojlanadi. Amaliyotning ko'rsatishicha, eng samarador yo'l quyidagicha: dastlab, o'qituvchi bergen tahlilni eshitishadi va qaytarishadi, so'ngra jamoa bilan sodda, keyin esa nisbatan murakkabroq va nihoyat, murakkab bo'Imagan mahsulotlarni mustaqil tahlil qiladilar. Tahlil qilayotganda predmetning ahamiyati, uning yirik va mayda qismlari, bu qismlarning detallari, kattaligi, shakli, rangi, detallarning ulanish joyi kabi xususiyatlarni ko'rsatish lozim.

Tabiiy materiallarni tahlil qilayotganda o'qituvchi o'z savollari bilan bolalar diqqatini uning xususiyatlariiga qaratishi lozim. Obyekt tahlili quyidagi tarzda olib boriladi: Tabiiy materiallarni tanish va nomlash bilan birga o'simlik turini ko'rsatish; tashqi tuzilishini kuzatish yasamada foydalilaniladigan belgilarni ajratib olish; materialni qo'llashni ta'minlovchi qism va uning belgilarini taqsimlash; ajratilgan belgilarni bo'yicha materialni turli Tabiiy predmet qismlari bilan o'xshashliklarini belgilash.

Mahsulot tayyorlashni rejalashtirish

O‘z ishini rejalashtira olish va reja asosida uni amalga oshirish malakasi, fikrlay olish va vazifani mustaqil bajara olishning asosiy belgilaridan biridir. Bolalarni rejalashtirishga o‘rgatish ma’lum bir izchillilikda o‘tkaziladi. Ta’limning dastlabki davrida metodik usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir, bunda o‘qituvchi har bir bosqichni bajarishni so‘z ko‘rsatmasi, usullarini ko‘rsatish bilan almashlab turib alohida tushuntiradi.

Mahsulotni tayyorlash

Darsning asosiy qismi yasamani tayyorlashga ajratiladi. Qoidaga muvofiq, o‘quvchilar bir darsda u yoki bu dasturiy mahsulotni tayyorlashga ulguradilar. To‘g‘ri tashkil qilingan dars bosqichi vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi.

1 sinfda o‘quvchilar o‘qituvchining tushuntirishi natijasida ish usullari bilan almashtirish orqali mahsulotni tayyorlaydilar. Bu bosqichda bir necha marta ko‘rsatish va bolaga individual yordam berish lozim. 2-3-4 sinflarda o‘qituvchi asta-sekin yordam berishni kamaytiradi va o‘quvchini mustaqil ishlashga yo‘naltiradi. U o‘quvchining reja asosida ishslashlari va tegishli usulni to‘g‘ri bajarayotganliklari, sanitari-gigiyenik talabga rioya qilayotganliklarini kuzatib turadi.

Qo‘l mehnati darslari uchun tayyorlanishi taklif qilinadigan predmetli xarita bu bosqichda ham juda foydalidir. Ish tartibini namoyon qiluvchi xaritaning doskada ilinib turishi o‘quvchining rejaga amal qilishiga yordam beradi.

Dasturda dastlab mahsulotni namuna bo‘yicha tayyorlash, keyin Tabiiy predmet, o‘yingoh, rasm bo‘yicha, tasavvur qilib tasvirlash nihoyat, fikrlash orqali tayyorlash ko‘rsatilgan.

O‘qituvchi namuna bo‘yicha yasama tayyorlashni rasm bo‘yicha tayyorlashga qaraganda osonligini esda tutishi lozim. Rasmga qaraganda namuna rejani tuzishda va obyektni tayyorlashda yaxshi mo‘ljal bo‘la oladi. U ma’lum bir materialdan qilingan, o‘zining shakliga, kerakli detallariga ega, unda ulanish joyi va usuli yaqqol ko‘rinib turadi. Darsning oxirgi bosqichi bu yakunlashdir.

O'qituvchi butun sinfning, yaxshi ishlagan bolalarning ishlarini belgilaydi, ish joyi va sinf tozaligiga diqqatini qaratadi, o'quvchilar bilan birgalikda ko'rgazmaga mahsulotlarni tanlaydi, keyingi darslarga topshiriqlar beradi. Navbatchilar yakunlangan va yaxshi bajarilgan ishlarni yig'ib oladilar.

Mavzuning mazmunidan uning maqsadi kelib chiqadi:

Ta'limiyl maqsad. Berilgan mavzu bo'yicha o'quvchilar egallaydigan bilim va malakalari bilan aniq belgilanadi. Yangi egallanadigan bilim va malakalarning hajmi va darajasi aniq ko'rsatilganligi sababli uni aniqlashda hech qanday qiyinchiliklar kuzatilmaydi.

Tarbiyaviy maqsad. O'qituvchi mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda, uni aniqlaydi. Har bir mavzudan tarbiyalash maqsadida foydalinish mumkin va zarurdir. Mehnat ilg'orlari bilan uchrashuv davomida uni amalga oshirish mumkin. Xalq xo'jaligi, tuman, shahar yutuqlari namoyishida vatanimiz boyliklari bilan o'quvchilar tanishadilar.

Korreksion - rivojlantiruvchi maqsad. Bu maqsad aniq belgilanadi, ya'ni mavzu mazmunidan o'quvchilarning psixologik va jismoniy rivojlanishlaridagi aniq kamchiliklarini korreksiyalash maqsadida foydalilanadi. Yordamchi maktab sharoitida ishdagi aniq va muhim maqsadni o'rnatish va uning yechimini topish o'qituvchilar uchun ma'lum bir qiyinchiliklar tug'diradi. Ba'zida o'qituvchilarning ish rejasida korreksion maqsad o'quvchilarning faqat aqliy kamchiliklarini bartaraf etishga qaratilgan bo'ladi. Bundan juda kam natijaga erishiladi. Mavzuning korreksion maqsadini aniqlab olib o'qituvchining o'zi bu ishning asosiy vositalari va yo'llarini yaxshilab tasavvur qilib olishi va butun o'quv-tarbiya ishini mana shu yo'nalishiga qaratmog'i lozim.

Kasbiy mehnat ta'limi o'qituvchilari ishining asosiy maqsadi - o'quvchilarda umumlashgan mehnat malakalarini rivojlantirish bilan birga aniq dasturiy materiallar asosida ularning aqliy rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalashdir. Shuni aniqlab olish lozimki, aniq dasturiy materialdan qanday foydalinish va u qaydarajada korreksion tarbiyaviy ish maqsadlariga muvofiqligini aniqlab olish lozim. Faqatgina mehnat usullarini ongli egallagan-dagina, o'quvchilar ish turini bajarish izchillagini, sabab natijasi

bog‘lanishlarini so‘zlay olganlaridagina faoliyat usullarini boshqa sharoitga o‘z xohishlari bilan ko‘chira olishlari mumkin.

Korreksion-ta’limiy ishning muvaffaqiyatli samarası - izchil ravishda mustaqil o‘rganishi, tajribalarini boyitish, pedagogik jamoaning yoki alohida o‘qituvchining ijodiy ishidir.

Savollar:

1. Alohida yordamga muhtoj bolalarda mehnat darslarining korreksion ahamiyti.
2. Alohida yordamga muhtoj bolalarning mehnat faoliyatlarining rivojlantirish vazifalari.
3. Maxsus mакtabda mehnat darslarining tashkil etilishi.

Adabiyotlar:

1. Yusupova N., “Qo‘l mehnatini o‘qitish maxsus metodikasi va predmetli -amaliy ta’lim”. T.: «Nizomiy nomidagi TDPU”, 2012.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Aytmetova S.Sh. «Aqli zaif o‘quvchilarni mehnatga tayyorlash». T.: “O‘qituvchi”, 1994.

2. Т.С.Зыкова, М.А.Зыкова “Методика предметно-практического обучения в школе для глухих детей” М.: 2002.

2.2. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni mehnatga o‘rgatish tamoyillari va metodlari

“Umuman olganda, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan insonlar ta’limi boshqalarga qaraganda murakkab va samarasi pastdir. Bu uning umumiy IQ darajasining pastligi bilan bog‘liq. Shuningdek, bilish jarayonidagi buzilishlar xotira, diqqat va tildagi nuqsonlar bilan bog‘liq kechadi”¹⁷

¹⁷ Meeting the Needs of Children with Disabilities Families and professionals facing the challenge together Edited by Helen K. Warner. Simultaneously published in the USA and Canada by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016. p-101(mazmun-mohiyati olindi).

Yordamchi maktabda ta'lim – tarbiyaviy va korreksion ishlar tizimi pedagogikada darsga qo'yiladigan umum-didaktik talablarga asoslanadi.

Aqli zaif bolalar bilish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari umumdidaktik tamoyillarni mexanik tarzda yordamchi maktab amaliyotiga ko'chirish imkonini bermaydi.

Ta'lim tamoyillari aqli zaif o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish qonuniyatlaridan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya vazifalariga mos ravishda amalga oshiriladi.

Aqli zaif o'quvchilarni o'qitish tamoyillarini maxsus didaktika belgilaydi. Maxsus didaktika yordamchi maktabda umumdidaktik tamoyillarni amalga oshirish xususiyatlarini asoslab berdi.

Qo'l mehnati darslari faqatgina o'quvchilarga ma'lum bir bu-yumlarni tayyorlashni o'rgatishga qaratilgan faoliyat bo'lib qolmasdan, balki o'quvchilarga qo'l mehnati bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirilishiga yo'naltirmog'i lozim. Qo'l mehnati darslari ko'rgazmali- amaliy jihatdan faoliyat bilan bog'liqligi, aqli zaif bolalarning bilish jarayonlarini korreksiyalanishi, rivojlanishi, ularda shaxs xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Nerv jarayonlari muvozanati, bilish faoliyatining buzilganligi natijasida aqli zaif bolalarning xulq-atvorida ham bir qator kamchiliklar kuzatiladi. Qo'zg'alish va tormozlanish o'rtasidagi muvozanat buzilganligi tufayli ayrim oligofren bolalar haddan tashqari jonsarak, serharakat, sho'x bo'ladilar va tormozlanish jaryoni ustun turgan bolalarda esa, aksincha, passivlik, bo'shanglik, beparvolik, hech narsaga qiziqmaslik kuzatiladi va hokazo.

Aqli zaif bolalar vaziyatni yetarli darajada anglay olmaydilar, xatti-harakatlarni vaziyatga qarab, adekvat o'zgartira olmaydilar. Ularda o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabat birmuncha sust bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan bir qator kamchiliklarga qaramay, Aqli zaif bolalar bilan to'g'ri tashkil etilgan maxsus ta'lim-tarbiya ishlari natijasida korreksion pedagoglar ularni mustaqil hayotga tayyorlash, kasb-hunarga o'rgatish borasida katta yutuqlarga erishmoqdalar. Maxsus yordamchi maktablarida ta'lim-tarbiya olib chiqqan bolalar hayotda o'z o'rnini topib, sanoat hamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning turli sohalarida, maishiy xizmat sohasida faol mehnat qilib yashamoqdalar. Tarbiyachi va

o'qituvchilarning muhim vazifasi oligofren bolalarni boshqa alohida yordamga muhtoj bolalardan ajratib, ularni iloji boricha ertaroq tegishli muassasalarda ta'lim-tarbiya olishlarini ta'minlab berishadi. O'qitishning korreksion tarbiyaviy-yo'naltirilganligi tamoyili ta'lim va tarbiya faqat o'quv materialini tanlash orqali emas, balki bola shaxsi shakllanishiga ijobjiy ta'sir etuvchi barcha maktab ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarini tizimi orqali amalga oshirilishini talab etadi.

O'qitish va tarbiyalashdagi umumiy maqsad va vazifalar bu bolalarning umumiy rivojlanishiga ko'maklashish, shaxsnинг ijobjiy tomonlarini aniqlash va salbiy tomonlarini silliqlashdan, ijtimoiy moslashuvchan bolalarni tarbiyalashdan, mehnatga layoqatli jamiyatga foyda keltiradigan shaxs tarbiyalashdan iboratdir. Rivojlanishidagi ogir buzilishlari bo'lgan bolalar uchun bu maqsadlar dolzarbdir, ammo ularni amalga oshirish jarayonida ularning imkoniyatlari o'ta pastligini inobatga olish zarur bo'lib ularni tarbiyalashda o'ziga xos metodik uslublarni qo'llash, o'z-o'ziga xizmat qilish va madaniy xulq ko'nikmalarini tarbiyalashga katta ahamiyat berilishi zarur. Ogir bolalar bilan ishlashdagi maqsad, vazifa va metodlarning spetsifikligi anomal bolalar kontingentining o'ziga xosligidan kelib chiqadi. Bunday bolalar uchun o'zidagi bilimlarni qo'llash katta qiyinchilik tugdiradi. Olgan bilim va ko'nikmalarni qo'llash, ularni biroz o'zgargan sharoitlarda ishlatish, vaziyatni mustaqil analiz qilish, sodda hayotiy masalalarda qarorga kelish ular uchun yengib bo'lmaydigan qiyinchilikdir, bu esa oxir oqibatda ularni normal rivojlanayotgan bolalardan farqlab turadi. Ba'zi elementar bilimlar berilgan, ammo kundalik hayotda ularni qo'llashga o'rgatilmagan intellektual yetishmovchiligi bo'lgan bola bu bilimlarni qo'llamaydi yoki noadekvat ravishda qo'llaydi va hech qanday bilim berilmagan ogir aqli zaif boladan farqi bo'lmaydi. Shuning uchun bolalarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish zarurdir. Hayotiy zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish maqsadi bo'lgan tarbiya jarayoni konkret vaziyatlar sharoitida olib borilishi zarur. Ko'nikmalar odatga aylangandagina o'qitish yakunlangan hisoblanadi. Aytib o'tilgandan kelib chiqib ogir orqada qolganlar bilan olib boriladigan ish ma'nosiz mashqlardan iborat deb bo'lmaydi. Maxsus ta'lim jarayonida bunday bolalarning barcha

psixik jarayonlari rivojlanadi va nuqsonlari qisman korreksiyalanadi. Ogir intellektual buzilishi bo‘lgan bolaga ta’lim berish jarayoni uning bilish faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashishi zarur. Bunday bolaning xulqi adekvatligi va hayotga moslanuvchanligi uning motorikasi, nutqi, bilim va ko‘nikmalarga egaligi bilan aniqlanadi. Shunday qilib bolani rivojlantirish jarayonlari va uni hayotiy vaziyatlarga moslashtirish mashqlari bir-biri bilan bogliqdir.

O‘qituvchi har bir darsni rejalashtirishda bolada aqliy faoliyat, ya’ni buyum namunasini tahlil qilish, ish tartibi va usullarini aniqlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, berilgan ko‘rsatmalarni tushuntirish kabilarni shakllanishiga; fikrlash jarayonlarining tahlili, taqqoslash, xulosa chiqarish, predmetlar va tevarak atrofdagi hodisalar orasidagi aloqani tushunish, nutqni rivojlantiruvchi maxsus atamalarni o‘zlashtirish, savolga to‘g‘ri va to‘liq javob berish va bajarilgan ish haqida hisobot berishni o‘rgatishga ahamiyat berish kerak.

Ta’limning korreksion-tarbiyaviy xarakterli aqli zaif bolalarda hissiy-iroda sohasini rivojlantirishni va ularni ijtimoiy hayotga moslashishi uchun zarur bo‘lgan shaxs xususiyatlarini shakllantirishni ham ko‘zda tutadi.

Darhaqiqat tadqiqotchilik badiiy dasturi ko‘radigan, qiziquvchan kattalarning ko‘zini ochdi, qachonki u bolalar olamini kengaytirdi (DVD 15.9). Bu bizga imkoniyati cheklangan bolalarning ijodiy salohiyati va kutilmaganda o‘sish (yuksalish) uchun katta imkoniyatlari haqida ko‘proq bilim berdi. Bunday tashqari, bizni qo‘rqaqlar sifatida kamsitmadi; ular asosli va konstruktiv javob berdi. Biz ayrim bolalarni ularning birinchi “qarshi” fikrida – yangi materiallar, badiiy, hatto noyob go‘zallikka ega bo‘lgan ishlari bilan ko‘rdik.¹⁸

Aqli zaif o‘quvchilar orasida ko‘pincha fikrlash jarayonlari tormozlangan (sekinlashgan) bolalar uchraydi. Ular qiyinchilik bilan ishga kirishadilar, tashabbus ko‘rsatmaydilar, topshiriqlarni sekin bajaradilar, ba’zan esa o‘quv jarayonidan butunlay chiqib ketadilar. Bunday o‘quvchilarni ushbu holatdan chiqarish, ularga tez-tez savol va topshiriqlar berib turish lozim. Ularga xom ashyo va asboblarni tarqatish, yig‘ib olish kabi topshiriqlarni berish juda katta foyda

¹⁸ J. A Rubin Bolalar art terapiyasi 2012. 272-278 betlar

beradi. Ish davomida bunday bolalarni oldiga tez-tez borish, ularning faoliyatini oshiruvchi savol va ko'rsatmalar bilan murojaat etib turish lozim.

Nerv jarayonlari muvozanati, bilish faoliyatining buzilganligi natijasida aqli zaiflikning yengil darajasidagi bolalarning xulq-atvorida ham bir qator kamchiliklar kuzatiladi. Qo'zgalish va tormozlanish o'rtasidagi muvozanat buzilganligi tufayli ayrim oligofren bolalar haddan tashqari jonsarak, serharakat, sho'x bo'ladilar va tormozlanish jarayoni ustun turgan bolalarda esa, aksincha, passivlik, bo'shanglik, beparvolik, qech narsaga qiziqmaslik kuza-tiladi va hokazo.

Aqli zaif bolalar vaziyatni yetarli darajada anglay olmaydilar, xatti-harakatlarni vaziyatga qarab, adekvat o'zgartira olmaydilar. Ularda o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabat birmuncha sust bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan bir qator kamchilik-larga qaramay, Aqli zaif bolalar bilan to'gri tashkil etilgan maxsus ta'lim-tarbiya ishlari natijasida korreksion pedagoglar ularni mustaqil hayotga tayyorlash, kasb-hunarga o'rgatish borasida katta yutuqlarga erishmogdalar. Maxsus yordamchi maktablarida ta'lim-tarbiya olib chiqqan bolalar hayotda o'z o'mini topib, sanoat hamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning turli sohalarida, maishiy xizmat sohasida faol mehnat qilib yashamoqdalar. Tarbiyachi va o'qituvchilarning muhim vazifasi oligofren bolalarni boshqa alohida yordamga muhtoj bolalardan ajratib, ularni iloji boricha ertaroq tegishli muassasalarda ta'lim-tarbiya olishlarini ta'minlab berishadi.

Yordamchi maktabda o'quvchilar orasida qarama-qarshi tipdag'i qo'zg'aluvchan: haddan tashqari qo'zg'aluvchan, impulsiv bolalar uchraydi. O'qituvchi bunday bolalarga biror vazifa bersa, ular o'ylab ham ko'rmasdan, shu zahotiyoq uni bajarishga kirishadilar. Shuning uchun ularning faoliyatları tartibsiz va maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Bunday bolalar bilan ish olib borishdagi eng asosiy vazifa – ularning shoshqaloqliklarini bartaraf etish va o'z harakatlarini oldindan o'ylab ish ko'rish malakalarini shakllantirishdir. Ushbu tipdag'i bolalar bilan individual ish olib borganda sabr va toqatli bo'lish lozim.

Pedagog bolalarning mehnat faoliyatlarini tizimi ravishda diqqat bilan kuzatib borishi, har bir bolaning kuchli va kuchsiz taraflarni aniqlab, shu asosda aniq qarorlarni qabul qilishi kerak.

Individual yondashuvning asosiy maqsadlaridan biri - har bir o'quvchini frontal mashg'ulotda uzoqroq va muvaffaqqiyatli ishtirok etishga tayyorlashdir. Busiz sinf yagona bolalar jamoasi sifatida faoliyat ko'rsata olmaydi. Ammo frontal ish, albatta, o'qituvchi mavjud imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi differensial yondashuv bilan birga olib borilishi shart.

Tushunarlik tamoyil-bu o'quv materialini faqatgina o'quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasi, tayyorgarligiga emas, balki har bir bolaning individual xususiyatlariga ham mos kelishidir. Ushbu tamoyil frontal ish ahamiyatini pasaytirmaydi, ammo o'quv jarayonida bolalarning individual xususiyatlarini qat'iy nazorat qilishni talab etadi. Buning uchun har bir o'quvchini juda yaxshi bilish lozim.

Oligofrenopedagogika aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlanishnini sekilashtiradigan formal ravishda mashq qildirishga asoslangan ta'lif tamoyillarini rad etib, ta'linda ongli o'zlashtirish tamoyiliga tayanishni talab etadi.

Oligofrenopedagogika aqli zaif o'quvchilarning formal ravishda mashq qildirish asosida o'qitish konsepsiyasini qat'yan rad etadi. Aqli zaif o'quvchilar o'z bilimlarini aniq amaliy-hayotiy holatlarda tadbiq eta olishlari lozim. O'quvchilar o'quv materialini mexanik tarzda yodlab olmasdan, ularni ongli, maqsadga muvofiq ravishda o'zlashtirib olishlari kerak. Shu orqali o'qituvchi-defektolog yordamchi muktabning asosiy vazifasi bo'lgan, ya'ni aqli zaif bolani muktabni bitirgandan so'ng ijtimoiy hayotga, mehnatga moslashish va ishlab chiqarishga tayyorlashni amalga oshiradi.

Onglilik ushbu tamoyil yordamchi muktab ta'lif-tarbiyaviy muhitining barcha taraflarini qamrab oladi va o'z ichiga quydagilarini kiritadi:

- a) aqli zaif bolaning mehnat faoliyatiga bo'lgan ongli va faol munosabati;
- b) o'rganilayotgan materialni tushunish va uni og'zaki nutqda bayon eta olish;
- d) mehnat uslublarini ongli o'zlashtirish va ularni amaliyotda qo'llay olishni o'z ichiga oladi.

Aqli zaif o'quvchilarda intilish, xohish rivojlanmagan va qat'iy bo'lmaydi. Shuning uchun bolalarga maxsus sharoitlar yaratish kerakki, ularni o'zi qiziqib, berilgan vazifalarni bajarishga intilsin. Shu maqsadda qo'l mehnati darslariga o'yin mehnatlari, turli xil musobaqalar kiritiladi. Bunga qatorlar, brigadalar orasidagi musobaqalarni kiritish mumkin. (masalan: qaysi qator yoki brigada buyumni birinchi bo'lib ozoda qilib tayyorlaydi va boshqalar).

Mehnat darslarining rivojlantiruvchi ahamiyati bolalarga o'z ish joylarini tanlash, ishni rejalashtirish uni mustaqil bajarish, kerakli xomashyo va asboblarni tanlay olishni o'rgatish orqali yanada ortadi.

Qo'l mehnati darslarida o'quvchilarda mustaqillikni shakllantiruvchi maxsus tizimni qo'llash, keyinchalik ularda mehnat ta'limgiga tayyorgarliklari darajasini yanada oshirishga yordam beradi.

Tizimlilik va ketma-ketlilik tamoyili o'quv materialini dasturda joylashtirilishi, mazmuni o'zaro bog'liqligini nazarda tutish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Shuningdek, mehnat jarayonlari mantiqidan kelib chiqqan holda o'quvchi va o'qituvchi xatti-harakatlarining ketma-ketligining to'g'rilingiga ham e'tibor berish zarur.

Aqli zaif o'quvchilar fikrlashni va amaliy operatsiyalarni faqat sodda buyumlar orqali bajara olishlari mumkin. Agarda buyumlarni tayyorlash jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo'lsa, ular bu vazifani bajara olmaydilar. Shuning uchun har bir darsda bir-ikki bosqichdan ortiqroq ish bajarilmasligi va ular qat'iy tartibda oddiydan murakkabga qarab borishi lozim.

Mustaqil o'zlashtirilgan bilimlar o'quvchilarga yordamchi maktabni tugallagandan so'ng hayotga oson moslashib ketish imkonini beradi. Bunday bolalar bilan olib boriladigan maqsadga yo'naltirishgan korreksion-tarbiyaviy ish qancha erta boshlansa, shuncha bu bolalarning umumiyligi ish qobiliyatni, jismoniy va aqliy qobiliyatlarini ortib boradi. Bilimlarni o'zlashtirish butun o'quv jarayonida mustahkamlanib borilishi lozim.

O'quv materialini yaxshiroq va mustahkamroq o'zlashtirilishi uchun yangi material turli holatlarda va turli usullarda takrorlanib, uning mazmuniga yangiliklar kiritib borilishi lozim. Yordamchi maktab o'qituvchisi bolaga butun ish jarayonini bosqichlarga, bosqichlarni alohida operatsiyalarga, operatsiyalarning o'zini ham ma'lum qismlarga bo'lib bajarishni o'rgatishi va ular orasidagi

bog'liqlikni ko'rsata olishi kerak. Aqli zaif bolalar uchun buyum-larni tayyorlashda ishning natijasini o'zini emas, balki ishni bajarish tartibini eslab qolish katta ahamiyatga egadir.

Yordamchi maktabda xuddi ommaviy maktabdag'i singari quyidagi ta'lif metodlaridan foydalilaniladi: hikoya, suhbat, ko'rgazmalilik, mustaqil kuzatishlar, mashqlar, ekskursiyalar, kitob va didaktik materiallar bilan ishslash.

Qo'l mehnati darslarida umumfoydalaniladigan metodlar uch turuhiga ajratiladi:

1-og'zaki - hikoya, ko'rsatma berish, suhbat.

2-ko'rgazmali – turli xil ko'rgazmali qurollar, mehnat usullarini namoyish etish, UTV.

3-amaliy-laborator ishlari, kuzatuvlar, mustaqil ishlari, yozma ishlari.

Faqatgina amaliy metodlarga tayanish o'quvchilarda harakatlarni ongsiz ravishda o'zlashtirishga olib keladi. Shuning uchun qo'l mehnati darslarida bilim berish vositalarini og'zaki, ko'rgazmali va amaliy usullarni birlashtirgan holda olib borish lozim.

Nazariyaning amaliyot bilan bog'likligi tamoyili. Mehnat darslarining o'ziga xususiyati – bu darslarni sof nazariy va sof amaliy darslarga bo'la olmasligimizda namoyon bo'ladi. Nazariy bilimlar o'quvchilarga ma'lum bir tartibda, har bir mavzudan so'ng uni amaliy tarzda mustahkamlagan holda berib boriladi. Xuddi shu yo'sinda, ustaxonalardagi mashg'ulotlarda va mehnat mashg'ulotlarida nazarriyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyilini amalga oshirish uchun juda yaxshi sharoitlar yaratiladi. Chunki butun nazariy material o'quvchilarga amaliy vazifalarini to'g'ri bajarishlariga yo'llanma beradi.

Boshqa tarafdan esa, o'quvchilar mehnat bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarini egallash davomida, turli matolar va xom ashyolarning xususiyatlari, tarkibi turli asboblarni tuzilishi haqidagi nazariy bilimlarini mustahkamlaydilar. Ushbu bilimlar amaliyotda qo'llanishi natijasida ular hayotiy ahamiyat kasb etib boradi.

O'qituvchi mashg'ulotini shunday tashkil etishi kerakki, unda o'quvchilar mehnat malakalarini bilimga tayanmagan holda mexanik taqlid qilish orqali o'zlashtirishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Nazariyaning amaliyot bilan bog'likligi tamoyili amalga oshirish davomida o'qituvchi o'quv materialini yaxshi o'zlashtirilishi va o'quvchilarni mehnat faoliyatiga psixologik tayyorlashga erishadi.

Savollar:

1. Aqli zaiflik deganda nimani tushunasiz
2. Mehnat ta'limining tamoyillarini gapirib berib
3. Mehnat darslarida foydalilaniladigan metodlarni gapirib bering.

Adabiyotlar:

1. J. A Rubin Bolalar art terapiyasi 2012. 272-278 betlar .
- 2.Yusupova N., "Qo'l mehnatini o'qitish maxsus metodikasi va predmetli -amaliy ta'lim". T.: «Nizomiy nomidagi TDPU», 2012.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Т.С.Зыкова, М.А.Зыкова №Методы предметно-практического обучения в школе для глухих детей" М.: 2002

2.3. Qog'oz va karton bilan ishlash metodikasi

Rossiyada berest va sham taxtachalari suyaklar o'zagi bilan yozilgan. Bularning hammasi qimmatga tushgan. Ilm-fan, madaniyat rivojlanishi yozish uchun arzon materialni talab qilgan ipak tolasini tayyorlash jarayonida birinchi bo'lib qog'ozni tayyorlash fikri paydo bo'ldi. Ammo qog'ozni ipak tolasidan tayyorlash qimmatga tushgan.

Birinchi qog'oz tegirmonlari Moskvada XVI asrning 50-60 yillarda ishga tushgan. XVII asrda Gollandiyada lattalarni suv oqimida maydalovchi mashina ixtiro qilindi, qog'oz ishlab chiqarishning keng tarqalishi XVIII asrda, Nikolay Lui Roberning qog'oz ishlab chiqaruvchi mashinasining yaratilishiga turtki bo'ldi.

XIX asrda Saksoniyalik to'quvchi Kepler Defibrer - yog'ochlarni maydalovchi mashinani ixtiro qildi. Yog'och aralashmadan tayyorlangan qog'oz uncha mustahkam emas edi, tez qorayib

ketardi, faqat 1857 yil angliyalik ximik F.X.Xauton yog‘och aralashmani kaustik soda bilan ishlab chiqishi orqali uning tolali qismi (smolada) ni ajratib chiqishga muvaffaq bo‘ldi.

Qog‘oz va karton nafaqat poligrafik sanoatda qo‘llaniladi, balki xalq xo‘jaligining turli sohalarida qo‘llaniladi. Sellyuloza qog‘oz sanoati 200 gacha turli qog‘ozlarni ishlab chiqaradi, ular maxsus xususiyatlarga ega: filtr (suvni o‘tkazadigan), chertyoj (chizma), nusxa ko‘chiradigan, yog‘ni o‘tkazmaydigan kabi.

Qog‘oz qurilishda keng qo‘llaniladi. Qog‘oz massasidan g‘isht, devor uchun plitkalar tayyorlanadi, turli xil yuklarni (sement), karton qog‘izi qadoqlash uchun mustahkam hisoblanadi, bundan tashqari gazlamadan qilingan qop o‘rnini, qog‘ozdan yasalgan qop egallagan. Sut uchun qog‘ozdan yasalgan butilka va qaymoq uchun yasalgan qog‘oz stakanlarni ham ko‘rsatish mumkin. O‘qituvchi bolalar diqqatini qog‘ozning shunday turlariga qaratishi lozimki, bu qog‘ozlar ularning kundalik hayotida ko‘p uchraydigan, qo‘l mehnati darslarida kuzatilishi lozim.

Gazeta qog‘izi nisbatan arzon va keng tarqalgan, sifatsiz, yelim va namlikni yaxshi shimb oladi.

Maktabda asosan pape - masheni tayyorlashda, uncha katta bo‘limgan tablitsalarni teskari (orqa tomonini kleylashga ishlatiladi. Muqovali rangli qog‘oz mehnat ta’limi darslarida konstruksiyalash, applikatsiyada va nashrda keng qo‘llaniladi.

Yozuv qog‘izi usti silliq tekis yelimlangan, namlikni kam shimadi. Buyumlarni konstruksiyalashda, kartonli buyumlarni yelimlashda juda qulay hisoblanadi.

Chizmachilik qog‘izi eng mustahkam va pishiq. Lattalardan tayyorlanadi. Uning oliy navlari qo‘lda qo‘yilib chiqiladi. Hajmi katta narsalarni, maketlarni, karnaval niqoblarini, lattalarni tayyorlashda ishlatiladi.

Rasm qog‘izi to‘laligicha (100%) sellyulozadan tayyorlanadi, uning oliy navi esa 25% latta qo‘shiladi. Chizmachilik qog‘izi singari u ham qo‘l mehnati darslarida ishlatiladi.

Rangli silliq yaltiroq qog‘oz - qo‘l mehnati darslarida keng qo‘llaniladi va turli xil ishlarda: applikatsiya, nashrda ishlatiladi. Turli to‘plamlarda ishlab chiqariladi.

Gumirovali qog'oz bu silliq yaltiroq qog'oz, chap tomoniga tarkibida kley bo'lgan massa surtilgan, bu qog'oz, ayniqsa qo'l mehnati darslarida quaydir.

Muqovali (rangli) qog'oz turli ranglarda bo'yalgan, qo'l mehnati darslarida keng ishlatiladi, rangli silliq qog'oz o'rnini bosadi.

Shagren qog'ovi nashr ishlarida, tayyor mahsulotlarni yelimlashda, archa o'yinchoqlarini yasashda va applikatsiyada qo'l-laniladi.

Oboy qog'ovi - tayyor oboylar turli rang, bo'yoqlarda bo'lib, bezash mahsulotlarini kleylashda ishlatiladi.

Nusxa olish qog'ovi shaffof bo'lishi uchun vosk va yog'ga shimdiriladi. Bu qog'ozda yaxshi sifatlari tush xatto uchirilgan joyda ham yeysilib surkalib ketmaydi.

U qo'l mehnati darslarida yashirin teatr tayyorlashda, archa o'yinchoqlarini yasashda, bezash ishlarida, rasmlardan nusxa olishda keng qo'llaniladi.

Millimetrik qog'ovi nashr katagiga ega bo'lib, yaxshi yelimlangan glazurlangan qog'ozdan tayyorlanadi. Tablitsalarni yelimlashda, rasmlarni mashtabini o'zgartirib, nusxa olishda ishlatiladi.

Papirus qog'ovi turli ranglarga bo'yalgan gulli qog'oz deb ataladi. Qo'l mehnati darslarida archa o'yinchoqlari va boshqa taqinchoqlar, gullar va dekorativ mahsulotlarni tayyorlashda ishlatiladi.

Gofreli qog'oz yupqa rangli qog'oz, qo'l mehnati darslarida dekorativ ishlarda qo'llaniladi.

O'ram qog'ovi - pape - mashe, nashr ishlarida qo'llaniladi.

Semiz qog'oz agar uning kvadrat metri 250 grammdan ortiq og'irlilikka ega bo'lsa, uni karton deb ataladi.

Oq karton onson kesiladi, ammo juda mustahkam emas, tez sinadi, bu karton yelimni juda ham yaxshi shimadi, uni mayda mahsulotlarni tayyorlashda qo'llash lozim.

Sariq karton oq kartondan mustahkamroq bukiluvchan, yaxshi kesiladi. Yelimlashda buzilmaydi. Turli mahsulotlarni ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Kulrang karton oq va sariq kartondan mustahkamroq, ammo uni kesish qiyin, chunki aralashmada ko'p bo'lgan zarrachalar tufayli pichoq o'tmaslashadi.

Katta hajmdagi juda mustahkam bo'lgan kartonlarni asosan, kulrang kartonlardan ishlab chiqiladi.

Rangli karton turli rangdagi yupqa, bukiluvchan sirti silliq yaltiroq bo'lgan karton. Onson ishlanadi va chiroyli ko'rinishga ega. Undan uncha katta bo'limgan mahsulotlarni, papkalarni yasash mumkin. Bunday kartonni yelimlashga hojat yo'q.

Kul rang karton mehnatga o'rgatish darslarida yuza va hajm vositalarni tayyorlashda ancha keng qo'llaniladi. Turli qog'oz turlaridan yasalgan mahsulotlarni ko'rib chiqish tarbiyalanuvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va qog'ozning inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, juda ko'p tarqalgan material degan xulosaga kelishga asos bo'ladi.

Qo'l mehnati darslariga faqat tashqi natijalarni tayyorlashga o'rgatish, belgilangan qo'l mehnati darsligi malaka va ko'nikmalarini singdirib borish, qo'lga kiritishga qaratilgan faoliyat deb qarab bo'lmaydi.

Qo'l mehnati darslarining ko'rgazmali amaliy xususiyati bolaning qilgan aqliy operatsiyalari bilan o'zaro aloqali oligofren bolaning bilish faoliyatini korrektsiya va mustahkamlashga, shaxs xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Aqli zaif bolalarning har tomonlama rivojlantirish uchun yordamchi maktab o'qituvchisi qo'l mehnati darslarining sistemasini o'ylab, ishlab chiqish kerak. Har bir darsni rejalashtirganda o'qituvchi bolalarda mahsulot namunasining tahlili, ishning ketma-ketligi va usullarini aniqlash, o'z - o'zini nazorat qilish, ko'rsatmalarni tushinishi, fikrlash operatsiyalarining rivojlanishi, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, o'zaro munosabatni predmet va atrof-muhitga bo'lgan munosabati, nutqni rivojlantirish, maxsus terminalogiyani o'zlashtirish, berilgan savolga to'liq javob berish va bajarilgan ish hisobotini berishga diqqatini qaratish lozim.

O'qitishning korreksion-tarbiyaviy xarakteri, shuningdek aqli zaif bolalarda emotsiyonal-irodaviy sferaning rivojlanishini nazarda tutadi, ijtimoiy mehnat moslashuvga kerakli bo'lgan shaxsning ijtimoiy xususiyatlarini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Bu holatda o'qituvchi metod uslublarini o'ylab topishi lozim. Yordamchi maktab tajribasida ko'rgazmali va tayyor bilimlarni berish vositasi bo'lib yo'naltiruvchi uslublar hisoblanadi. Boshlang'ich davrda bu uslublar yo'naltiruvchi, ammo keyinchalik ularning

hajmi qisqarib boradi, chunki ular aqli zaif bolalarda asosan, mexanik xotirani rivojlantiradi, ko'chirish malakasini, bilimlarini tajribada qo'llashni rivojlantiradi.

Ish obyektlarini to'g'ri tanlash, ularning estetik bezatilishi aqli zaif bolalarda mehnat madaniyatini rivojlantirishga, mehnat faoliyatini uyg'otishga, chinakam go'zallik va didsizlikni farqlashga, bezashga yordam beradi.

Har bir darsda mehnatning jamiyat uchun ahamiyatini va uning tajribiy yo'nalishini gapirish lozim. Bu yo'nalish mahsulotni tayyorlashga ma'suliyatni tarbiyalaydi.

O'qituvchi turli yordamchi materiallar chiqindilarini ishlatishni hisobga olib, mehnat mahsulotini (obyektni) o'ylab ko'rmog'i lozim. Soxta mahsulotlarni tayyorlashda ulardan foydalanish asosiy materialni tejamkorlik va o'rinali foydalanishni tarbiyalaydi.

Darhaqiqat, bu ko'zi ojiz bolalar uchun qulay muhitni izlash o'rniga biz amalda har bir narsa uning (ko'zi ojiz bolaning) uchun qulay bo'lganlari (loy, yog'och, sim, bo'yoq, bo'r, markerlar va sh.k.) orasida eng afzal materiali ekanini anglab yetdik.¹⁹

Indeed, rather than finding a bestmedium for these blind children, we discovered that almost every one selected his or her own preferred material from those available (clay, wood,wire, paint, chalk, markers, crayons, and so on).

Agar o'qituvchi aqli zaif bolalarning jismoniy kamchiligini hisobga olib, qo'l motorikasini differensial rivojlantiruvchi maxsus ish olib borsa, korreksion ishning yanada samaradorligi oshadi.

Aqli zaif bolaning psixik xususiyatini hisobga olib, ularning tez charchashini, tormozlanish chastotasini, somatik kuchsizlanishni hisobga olib, yordamchi maktab o'qituvchisi darsda bola uchun tinch tempi va ritmi odad bo'lgan ishni tashkil etmog'i, o'quv materiali hajmini to'g'ri tanlashi, hamma ish faoliyat topshiriqlarini to'g'ri tanlashi, ketma-ketlikni tashkil etish, agar u buzilsa, ishning muvozanatini to'g'ri tiklash rag'batlantiruvchi uslublarni qo'llashi lozim.

Ayniqsa, darsning birinchi bosqichiga, ya'ni tashkiliy qismga katta e'tibor berish lozim.

¹⁹ J. A Rubin Bolalar art terapiyasi 2012. P-274

Dars masalasiga aloqasi bo‘lmanan ta’sirlarni bartaraf etish, o‘quvchilarni inertligini bosib o‘tmogi lozim, chunki ular qo‘simecha qo‘zg‘aluvchanlik o‘chog‘i bo‘lib xizmat qiladi.

Darsning birinchi daqiqalaridan boshlab qabul qilinayotgan materialga nisbatan ijobjiy munosabat yaratish lozim. Ishning topishi ham juda muhim. Ishning turli tuzilishlari ishni keskin pasaytirib, xatto turib qolishlar, o‘quvchilarni dars davomida bo‘lgan diqqatiga ta’sir qilib mehnat tashkilini buzadi. Bu darsda jismoniy daqiqa o‘tkazish, mashg‘ulotlar turini o‘tkazish bilan erishiladi.

O‘quvchi uchun konkret va ancha tushunarliroq bo‘lgan qo‘l mehnatining faoliyati, ta’lim jarayoniga aqli zaif bolani kirituvchi bo‘lib xizmat qiladi.

Qo‘l mehnati darslari va umumta’lim predmetlari orasida uzviy bog‘lanish bo‘lmog‘i lozim, u yordamchi maktab o‘quvchisining shaxs bo‘lib rivojlanishiga samarali ta’sir etadi.

Qog‘oz va karton bilan ishslash yordamchi maktabda boshlang‘ich sinflardagi mehnat ta’lim-tarbiyasi dasturida ko‘rib chiqilgan.

Karton va qog‘oz bilan ishslash mashg‘ulotlaridagi o‘quv-tarbiaviy vazifalar ko‘p tomonlidir. Bu birinchidan, mehnat ta’limining umumiy vazifalari. Buning ichiga: karton va qog‘oz bilan narsalar tayyorlash jarayonidagi bilim va malakalarni rivojlantirish va mustahkamlash, o‘quvchilarni kasbiy-mehnat ta’limiga tayyorlash kiradi. Bundan tashqari, qog‘oz va karton bilan ishslash katta rivojlantiruvchi ahamiyatga ega. Boladan qiyinchiliklarni bartaraf qilishda qat‘iyatliylik, sabr-qanoat talab qilinadi. Shunday qilib, bola to‘g‘ri yo‘nalishli harakat qilishga o‘rgandi. Qog‘oz bilan ishslash jarayonida o‘zlashtirilgan usullar bolalarning diqqatini tarbiyalaydi.

Mehnat ta’limi aqli zaif bolalarda jismoniy nuqson va aqliy faoliyatlarini korreksiyalashga yo‘naltirilgan. Qo‘l mehnati darslari o‘quvchilarining imkoniyatlari asosida tashkil etiladi. Mashg‘ulotlar o‘quvchilarda bilim shakllanishiga, topshiriqni bajarish bilan bog‘-liq bo‘lgan aqliy vazifalarni mustaqil yechishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Qo‘l mehnati bo‘yicha dastur qiyinchiliklarning ikkita darajasini hisobga olgan holda yaratilgan. Bu qog‘oz va kartonni qayta ishslash usullarida, asbob va materialarni qo‘llashda ishlatiladi.

Bir turdag'i ishlarni bajarishda tayyorlanadigan narsa ta'rifi va uning tahlil namunasi o'quvchilarga topshiriladi. O'quvchilarda o'z-o'zini tekshirish masalalari narsani estetik bezash istagi, mehnat madaniyatini kuzatish salohiyati rivojlanadi.

O'qituvchi ish obyektlarini tayyorlaganda sinf imkoniyatlarini ba'zi bir bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish kerak. Bundan tashqari, o'qituvchi nima tayyorlanishini, qanday tayyorlanish kerakligini ma'lum qilishi kerak. O'quvchilar ish davomida narsani tayyorlash malakasidan xursandchilik xissini xis etishlari kerak, har bir darsda kamida 1-2 yangi usul va texnologiya ope-ratsiyalarni o'rganish nazarda tutiladi. Bu mehnatga bo'lgan qizi-qishni rivojlantiradi. Qog'oz bilan ishlash bolalarning sevimli mashg'ulotlaridan biridir.

Qog'ozdan ko'pgina chiroyli va foydali narsalarni tayyorlash mumkin, ya'ni: sayr uchun shapkalar, archa uchun o'yinchoqlar, maktab qurollarini saqlash uchun qutilar kabi qog'oz bilan ishslash murakkab asboblardan foydalanishini, jismoniy kuch ishlatishtni talab qilmaydi. Qog'ozdan tayyorlanadigan buyumlar murakkab konstruksiyalı emas, shuning uchun bolalar ishning aniq natijalariga tez erishadilar. Qog'oz bilan ish bajarish paytida bolalar boshqa materiallar bilan ham ishslashning turli usullarini o'zlashtiradilar. Masalan, qaychi bilan matoni qirqish. Ishning bunday usullarining o'rganish bolalarda o'ng va chap qo'l barmoqlarning harakatini shakllantirishni ta'minlaydi.

Rangli qog'oz bilan ishslashda bolalar ranglarni farqlashga, ularni nomlashga o'rganadilar, applikatsiya ishlarini bajarishda esa rangli garmoniya xissi, qog'ozdan detallarni joylashtirish malakasi shakllanadi. Amaliy faoliyatni erkin tanlash, bahoning yo'qligi aqli zaif bolalarni ishga jalb qiladi. Bolalar odatda hech qanday ishdan qo'rqlmaydilar. O'qituvchining mashg'ulotda o'quvchilarga yordam berish, ularga individual mashg'ulotlar taklif qilish imkoniyati mavjud, bolalar bilan yaxshi munosabatda bo'lish, sinfda ijodiy kayfiyatni yuzaga keltiradi.

Bolalarga applikatsiya uchun sujet yoki motiv tanlashida yordam berayotganda o'qituvchi topshiriqning murakkabligini, ishni bajarishda qo'yilayotgan sifatni hisobga olish kerak.

Applikatsiya – badiiy asarlar yaratishning eng sodda va oson usulidir. Applikatsiya deb, materiallarga tikish yoki yopishtirish yo‘li bilan bajariladigan ish aytildi. Applikatsiya ishida asosiy material qog‘ozdir, dazmollangan va kraxmallangan gazlama bo‘lakchalaridan ham foydalanish mumkin. Bu materiallar bilan bir qatorda somon, quritilgan o‘simliklar urug‘i-danak, barglar shu kabilardan foydalaniladilar. Eng oddiy applikatsiyalar bu geometrik shaklda qilinadigan ornament va dekorativ-naqsh applikatsiyalardir. 1-3 sinf o‘quvchilari geometrik shaklli applikatsiyalarni bajarishda quyidagi bilimlarni egallaydilar: geometrik shakllar, kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak, uchburchak, aylana qog‘oz bo‘lagidan va o‘lchov asboblari yordamida hosil bo‘lishi haqidagi mavjud bilimlarni mustahkamlaydilar. Badiiy didni o‘stirishda, rasm darslarida to‘g‘ri to‘rtburchak, doira, uchburchak, kvadratga naqshlar tuzish bo‘yicha olingan bilimlarini chuqurlashtiradilar. Ayrim predmetlarni bosqichma-bosqich tahlil qilib, geometrik shakllarni to‘g‘ri idrok etishni o‘rganadilar.

Bolalarning «ko‘p», «kam», «uzunasiga», «ikki qismga qir-qish», «teng qismlarda», «unga», «chapga», «tepaga», «pastga» kabi tushunchalari mustahkamlanadi. Ularda estetik did tarbiyalanadi. Geometrik shaklli applikatsiyalarni ham dekorativ-naqshlar, predmetli va sujetli applikatsiyalarga ajratish mumkin Predmetli applikatsiya. Bolalar predmetlarni fazoviy idrok etishi rivojlanishi kerak. Buni o‘rab turgan narsalar: uy, archa, daraxt, mashina, idish-tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin. Rangli qog‘ozdan olingan doiralar va ularning qismlari bilan applikatsiya bo‘yicha juda ko‘p geometrik ishlarni bajarish mumkin. Doiralarning har birini shunday joylashtirish kerakki, natijada talab qilinadigan kontur paydo bo‘lsin. Ishni 1 sinfdanoq qo‘ziqorin, pufak kabi oddiy shakllarni bajarishdan boshlash lozim, 2-3 sinflarda murakkabroq ishlarni bajarish mumkin. Bu ishlar o‘quvchilarda ijodiy va atroficha tasavvurni badiiy didni o‘stirishga yordam beradi. Bolalarda qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘lida qat’iyatlik, tartiblilik tarbiyalanadi, uyushqoqlik bilan ishlash ko‘rsatmalariga rioya qilish, tashabbuskorlik ko‘nikmalari shakllanadi.

Sujetli applikatsiya kompozitsiyaga ko'ra oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Murakkab sujetli applikatsiyalar – ertaklar, hikoyalilar va shu kabilarga illyustratsiya sifatida yasaladi. Agar sujet oddiy bo'lsa, tasvirlarni oldindan belgilamay qirqish mumkin. Mehnat ta'limi darslarida applikatsiya ishlarini bajarish texnikasi o'rGANILADI.

Applikatsiyaga qaratilgan asarlarning yaratilishi va elementlar miqdori qog'ozni tanlashni belgilaydi. Asarni yaratish hajmiga ko'ra eng katta element asosiy mavzu elementi bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinflardagi mehnat ta'limi dastur materiallarini tahlil qilar ekanmiz, barcha sinflardagi ish turlaridan biri «Qog'oz va karton bilan ishlash» ekanligini ko'ramiz. Ayniqsa, rangli qog'oz bilan ishlash ijodiy rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyanı boyitadi, kuzatuvchilik, diqqat va tasavvurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo'l mehnati, chamalash va rang sezishni o'stiradi.

Yordamchi mакtabda qo'l mehnati darslarida applikatsion ishlarni bajarishda rangli qog'oz material bo'lib xizmat qiladi. Bolalarga daftarlarning yorqin bo'lган muqovasidan foydalanish mumkin. Applikatsion ishlarni bajarish paytida silikatli kleydan foydalanish mumkin emas. Applikatsion ishlarni bajarishda bolalar qaychi bilan qirqishni turli usullarini o'rGANADILAR.

Applikatsiya uchun, ortib qolgan qiyqim va turli materialdan foydalanish bolalarda ehtiyyotkorlik va tejamlilikni tarbiyalaydi. Bolalardan o'z ishini rejalshtirishga, qog'ozda applikatsiya elementlarini to'g'ri taqsimlashga o'rGANADILAR. Bunday ish bolalarda badiiy didni yuzaga keltirib chiqarishda, rangning ahamiyati va shaklini tushunishda yordam beradi. «Ko'p», «kam», «teng qismlar» tushunchalari mustahkamlanadi.

Applikatsiya nafaqat buyum tayyorlash uchun balki matematika, ona-tili, nutq o'rGANISH bo'yicha turli ko'rgazmalar tayyorlashda ham foydalaniladi.

Qaychi bilan ishslashda o'quvchilarning motorikasi rivojlanadi.

Applikatsion ishlarni uchun o'qituvchi tayyorlanadigan narsaning kattalashtirilgan namunasiga ega bo'lishi shart. Bundan tashqari, o'quvchilarda bajariladigan ish uchun zarur detallar bo'lishi kerak.

Namunadagi detalning rangi o'quvchilar tayyorlayotgan buyumning rangiga mos kelishi kerak. Applikatsion ishlarni bajarish

paytida o'qituvchi o'quvchilarga ba'zi bir tayyor detallarni tarqatish imumkin. Aylana va ovallarni mustaqil qirqishga o'tishdan avval ularning shablon bo'yicha tayyorlab oladilar. Bolalarga doira aylana, tushunchalari beriladi: doirani kvadratdan, aylanani to'g'ri to'rtburchakdan hosil qilish oson, buning uchun esa burchaklarni aylantirib chiqish kerak.

Ishga kirishdan avval rasm tayyorlanadi.

Asos uchun chizmachilik, rasmchilik qog'ozni yoki karton olinadi. Rasmda ko'pincha alohida rangning foni talab qilinadi.

O'qituvchi rahbarligidagi applikatsion ishlar, bolalarda kombinator qobiliyatlarni rivojlantiradi. Dastlab bola eng sodda ornamentni bajarishga qiynaladi. Bu bola bir qancha vaqtдан so'ng birmuncha murakkab topshiriqlarni erkin bajara oladi.

O'quvchilarga applikatsiya ishlarni bajarish usullarini ko'rsatib, ularda ijodkorlikni paydo bo'lishi uchun erkinlikni ta'minlab berish kerak. Buning uchun bolalarga ranglarni mustaqil tanlash imkoniyati beriladi. Bunday ishlarni nazorat tarzida ko'rib chiqish nazarda tutiladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek "Qog'oz va karton bilan ishslash" mashg'ulotlarida o'quvchilar qog'ozni buklash yo'li bilan turli xil narsalarning shaklini yasashni ham o'rganib boradilar. Ana shunday mashg'ulotlar davomida o'qituvchi quyidagi ko'rsatmali qurollardan foydalanishi mumkin. Shu bilan birga o'quvchilar bu ko'r-gazmalarni yasalish boshqichlariga rioya qilgan holda, dars davomida yasashlari ham mumkin.

Savollar:

1. Qog'oz va karton turlari.
2. Applikatsiya turlari.
3. Applikatsiya bajarish usullarini gapirib bering.

Adabiyotlar:

1. Yusupova N. "Qo'l mehnatini o'qitish maxsus metodikasi va predmetli -amaliy ta'lim". T.: «Nizomiy nomidagi TDPU», 2012.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1.Гусакова М.А. Аппликация – М.:1977

2.4.Tabiyy materiallar, loy, plastilin va pape-mashe bilan ishslash metodikasi

Tabiiy materiallar, loy, plastilin va pape-mashe bilan ishslashning korreksion ahamiyati.

Qo'l mehnati aqli zaif o'quvchini umumiy mehnat ta'limining boshlang'ich bo'g'liqdir. Qo'l mehnati darslari boshqa predmetlar kabi yordamchi maktab oldida turgan vazifalarni hal qilishda ishtirok etadi.

Bu vazifalarni quyidagicha ifodalash mumkin:

- aqli zaif o'quvchining ruhiy-jismoniy kamchiliklarini bartaraf etib, keyingi mehnat faoliyatida kerak bo'ladigan shaxsiy-ijobiy xislatlarni tarbiyalash;

- mehnat ta'limiga kirish (dastlabki ta'lim). Qo'l mehnati hunarni o'rghanishga poydevor yaratadi. Agar o'qituvchi tomonidan ish (korreksion) to'g'ri yo'liga qo'yilsa, bu boladagi psixofizik kamchiliklar bartaraf etib boriladi. O'qituvchi bolaning bilish faoliyatini yuqori darajada faollashtirishga imkon yaratishi kerak, o'z faoliyatini nazorat qilish, fazoda moljal olish, ijodiy faoliyatning rivoji korreksion ishning negizidir.

Tabiiyki, dastlabki vaqtarda boshlang'ich sinf o'quvchilar o'qituvchi yordamiga muhtoj bo'lib, ko'p vazifalarni mustaqil bajara olmasdilar. Lekin yordam har xil bo'lishi va sekin-asta kamaytirib borilishi kerak. Shunga ko'ra, korreksion ish ham bolani mustaqillikka o'rgatish maqsadiga yo'naltiriladi. Qo'l mehnati darslarining vazifasi faqat korreksion ishlarni amalga oshirish, bola shaxsini kamolga yetkazishgina bo'lib qolmay, bu darslar bola barcha analizatorlarini (sezgi organlarini) mashq qildirishiga xizmat qiladi.

Qo'l mehnatida o'quvchining u yoki bu mavzuni egallashi, bola shu mavzuni o'rghanishga qanchalik tayyorligiga bog'liq.

Shu sababli, yordamchi mактабда har qanday mavzудан oldin tayyorgarlik bosqichidan o'tiladi. Qo'l mehnati darslarini faqat biror buyum yasashdan iborat deb bilmaslik kerak. Buyum, o'yinchoqning yasalishi bu masalaning bir mavzusi bo'lib, o'quvchiga ma'lum ko'nikma va malakalarni o'rgatish bilan birga, qo'l mehnati darslari bolani estetik tarbiyasida unda irodani, xissiyotlarni tarbiyalashda, bolani hayotga moslashtirishga ham xizmat qiladi.

Har bir darsda mehnatning ijtimoiy hayotdagi roli, qilinayotgan narsaning ahamiyati to'g'risida so'zlab berish kerak, toki bola qilayotgan ishining zarurligini anglasin, mas'uliyat xissi uyg'onsin.

Agar sinfda ayrim jismoniy kamchilikka ega bo'lgan bolalar bo'lsa, o'qituvchi ulardagi shu kamchiliklarni bartaraf etish uchun alohida harakatlar bilan ish olib borsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Aqli zaif bolaning tez gapirish, uzoq vaqt bir nuqtaga diqqatini yig'a olmasligini va hokazolarni hisobga olgan holda o'qituvchisi darsda osoyishtalikni ta'minlashi, ish usullarini to'g'ri tanlashi, oddiydan murakkabga bosqichma - bosqich o'tishi kerak. O'qituvchi bolalarni intizom bilan ishlashga, vazifani chaqqonlik bilan bajarishga o'rgatishi zarur.

Qo'l mehnatida bola konkret ishni bajaradi, uni tushunib yetishi osonroq kechadi. Shuning uchun bu jarayondan bolani mакtabning o'quv jarayoniga singib ketishida foydalanish, mehnat darslarini boshqa predmetlar bilan bog'lash kerak.

2. Tabiat - doimo insonlar uchun ijod va ilhom bag'ishlab kelgan. Odamlar qadimdan turli-tuman buyumlar, o'yinchoqlar yasab kelgan. Tabiiy materiallarni ikkita guruhlarga bo'lish mumkin: o'simliklar va minerallar.

O'simlikka: barglar, o'simlik poyasi, ildizi, shoxi, mevasi, danaklar, shishka, somon va hokazolar kiradi.

Minerallarga: qum, toshchalar, chig'anoqlar va hokazolar kiradi. O'qituvchi Tabiiy materiallardan juda katta kollektiyaga ega bo'lishi kerak.

Materiallarning hammasini alohida papka yoki qutichalarda saqlash ishni yengillashtiradi, bolalarni saranjomlikka o'rgatadi. Bolalarni atrofdagi narsalarni kuzatishga, tabiatdagi rang - baranglikni, go'zallikni xis qilishga o'rgatish kerak.

Shishka - igna bargli xvoya daraxtining mevasi bo'lib, undan turli hayvonlar, odam tanasini yasash uchun foydalanish mumkin. U yaxshi yelimlanadi, shakli ham turli ko'rinishda bo'ladi.

Yong'oq - yong'oqning hamma xillari - yer yong'oq, grek, bodom, va hokazo xillaridan foydalanish mumkin.

Kashtan - kashtan daraxtining mevasi usti silliq, yaltiroq bo'lib, oson yelimlanadi, undan sodda buyumlar yasash qulaydir.

Joludi - dub daraxtining hosili bo'lib, uni sentabr - oktabr oy-larida yig'ib olinadi. Jolud bilan birga uni ushlab turgan kosachasini ham yig'ish kerak. Joludlar turli o'yinchoqlar, figuralar yasashda juda qo'l keladi.

Loy - keng tarqalgan, hamma joyda uchraydigan, oson ishlov beriladigan xomashyo bo'lib, undan yasalgan o'yinchoq uzoq saqlanadi. Loy tuproqdan hosil qilinadi. Tuproqni qishloqda soy bo'ylaridan, jarli joydan, shaharda esa remont yoki qazilma ishlari ketayotgan joylardan olish mumkin.

Kichik yoshdagি bolalar bilan qumi kamroq tuproqdan foydalanish kerak. Buning uchun avvalo tuproq tarkibidagi qum, ohak yuviladi.

Tarkibida yog' bo'lgan tuproq ham ishlash uchun yaramaydi. Undan tayyorlangan loy tez yorilib, uvalanib ketadi. Loy uzoq saqlanishi uchun uni emal idishga solib, ustini polietilen bilan yopib qo'yish kerak.

Plastilin. Kichik yoshdagи bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan eng qulay xomashyodir. Plastilinga oldin ishlov berish shart emas, shu tufayli ko'pincha loy o'mida ham ishlatiladi. Bu noto'g'ri, chunki loy va plastilin turli xil xomashyodir.

Plastilin bilan ishlash jarayonida o'quvchilar, haykaltaroshlik, grafika kabi san'at turlari bilan tanishadilar. Lepka zamonaviy arxitekturada keng qo'llaniladi. Plastilinda ishlashdan oldin bunday (lepkal) ishlarini bolalarga ko'rsatish, ularni ishlatilish joyi to'g'-risida hikoya qilish kerak.

Plastilin yuzasida turli ornamentlar hosil qilish mumkin. Shu asosda bolalar go'zallikni ko'rish, xis qilishga o'rganadilar, ularda yangi ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi, mayda qo'l muskullari rivojlanadi.

Yasalgan buyumlar esa ko'rgazma zali, ish xonasi yoki boshqa xonalarni bezab turishi mumkin.

Shuni unutmaslik kerakki, bu ishlar oddiyidan boshlab murakkab tomonlariga rioya qilinishi shart. Chunki, agar bolaga birdan murakkab ish berilsa, u ishidan sovushi mumkin. Eng avvalo, ish obyektini tahlil qilish va lepkaning usulini to'g'ri topish.

Buyumlarning murakkabligini hisobga olgan holda, amaliy mashg'ulotlarni bajarishda usullarni to'g'ri aniqlash kerak, ya'ni kostruktiv, plastik va aralash.

Lepkaning konstruktiv usuli oson ish bo'lib, bunda bir necha qismdan (gavda, bosh, qo'l, oyoq) bir yagona narsa (hayvonlar) yasaladi.

Lepkaning eng qiyin plastik usuli bulib, bunda yaxlit bo'lakdan katta narsa yasaladi. Ish boshlashdan oldin qilinadigan ishni ko'z oldiga keltirish, uning shaklini, hajmini mo'ljallab olish kerak. Aralash usul ham, konstruktiv ham plastik usulni tashkil etadi.

Pape - mashe- qog'oz bilan ishlash usuliga kiradi. Mayda qilib kesilgan qog'oz parchalaridan turli shakldagi buyum yasaladi. Buyumning sirti yog'lanadi, keyin mayda bo'laklarga bo'lingan qog'oz parchalari namlanib buyum sirtiga yopishtiriladi. Keyin uning ustiga, parchalangan qog'ozga, kleystr surib yopishtiriladi. Kerakli qalinlikda qog'oz yopishtirilgach, buyumni quritishga qo'yishadi. Ichidagi buyum ajratib olinib, usti tekislanib, bo'yaladi, rasm chiziladi, lakanadi. Bu mashg'ulotlar mayda qo'l muskullari motorikasini yaxshilashga yordam beradi

Tabiiy material yordamida lepka va o'yinchoqlar yasashga o'rgatish. Bolalar ko'z oldida turgan narsanigina yasay oladi. Hayolda uni tasavvur qilib, keyin yasashi ancha murakkab mashg'ulotdir.

Buyum yasash jarayoni fikrlash, tafakkur, xotira, harakat kabilarni o'z ichiga oladigan murakkab jarayondir.

Biror ish bajarishdan oldin bola uzoq uz fikrini bir joyga jamlab, so'ng barmog'ini harakatga keltiradi. Buning uchun diqqatini jamlash maqsadida qulay sharoit tug'diriladi, bola asta - sekin uzoq va diqqat bilan bajariladigan vazifani bajarishga o'rgatiladi. Loydan turli shakllar tayyorlash jarayonida, bola o'z tushunchasini namoyon qila boradi.

Bu ish jarayonning dastlabki pog'onalarida yetakchi darajada malakali bo'lmaydi, ayniqsa harakati buzilgan bolalarda bu yaqqol namoyon bo'ladi. Ishning malakaliligi ish jarayonida asta - sekin o'sib borib, bolalar qo'l harakatlari ham aniqlik sari ko'tariladi. Loy va plastilin bilan ishlash - qo'l rivojlanishida muhim omildir. Ish jarayonida barmoq muskullari va barmoqlarning barchasi ishtirok etadi. Ko'z nazorati ostida o'ng va chap qo'llarning harakati bolaning rivojida muhim o'rinn tutadi. Loy va plastilin bilan ishlash uzoq vaqt davomida fikrlashga, o'ylab topishga majbur etadi. Yordamchi maktablarda plastik materiallar va loydan ishlarga katta ahamiyat beriladi. Chunki bunga yuqorida keltirilgan misollar javob bo'la oladi. Tabiiy mahsulotlar o'zining tabiiyligi, saqlanishi va yemirilishining o'ziga xosligi bilan boshqa lepka materiallaridan ajralib turadi. Ularga o'simlik, loy, qum, tosh, rakushka va boshqalar kiradi

Tabiiy mahsulotlar tekis va hajmli bo'ladi. Har bir ekzempliar boshqalaridan o'zining bir qator belgilari bilan ajralib turadi: hajmi, rangi, konturasi, tashqi ko'rinish xususiyatlari Tabiiy va stabil, ularni o'zgartirganda mahsulotlarning bu xususiyatlari buziladi va sinadi. Tabiiy mahsulotlarning tashqi tomonlarini, chidamliligi, ishlovga mos kelishini hisobga olgan holda boshqa mahsulotlar bilan qo'shiladi. Shunday tabiiy mahsulotlar borki, ularga bigiz yordamida ham teshik qilib bo'lmaydi. Detallar unga yopishtiriladi yoki 2 ga bo'lib ular orasiga yopishtiriladi.

Naturani xotirasida saqlagan holda tasavvur qilish orqali har xil lepka turlari bo'yicha ishlash usullari. Aqli zaif o'quvchilar uchun lepka ish turi ancha qiyin hisoblanadi. Qiyinchiligi shundaki, Tabiiy predmet o'z hajmi bilan katta yoki kichik bo'lishi mumkin. Bu bola bajarayotgan mahsulotga mos kelmaydi. Shu sababli lepka ishlarning dastlabki etaplarida, programmada belgilanganidek, namunaga qarab bajarish kerak.

Naturadan lepka predmetni analiz qilish qobiliyatini shakllantiradi, ish jarayoni davomida o'z faoliyatini nazoratini shu bilan birga aqliy harakatlarni shakllarnishga yo'l ochadi.

Tasavvurga qarab lepka - bolalar uchun ishning qiziqarli turlaridan biridir. Oddiy kompozitsiyalarni tasavvurda lepka qilish, maketlar tuzish bola ijodida katta yo'llar ochib beradi.

Tasavvurda lepka - eng qiziqarli ish turlariga kirib, o'quvchilarda ko'rish xotirasini rivojlanishiga yordam beradi, predmetning tashqi mohiyati fikran analiz qilinadi. Tabiiy obyekt yoki namunanani diqqat bilan kuzatishiga imkoniyat yaratadi. So'ngra uni olib qo'yiladi, bolalar esa tasavvurlaridagi xotira asosida ko'rgan predmetlarni yasashlari kerak bo'ladi.

Tabiiy mahsulotlar bilan o'tkazilgan mashg'ulotlarni nutq o'stirish, matematika, tasviriy san'at darslari bilan bog'lash mumkin. Ish jarayoni davomida masofa haqidagi tushunchalarni mustahkamlashga sharoit yaratiladi. Berilgan sonlarni ko'paytirish, kamaytirish bilimlari ham mustahkamlanadi.

Tasviriy san'at darsi bilan aloqasi shundaki, ranglarni ajrata bilish, masofa tushunchasi aniqlik kasb etadi, elementar badiiy did shakllanadi.

Lepka mashg'ulotlarning boshqa darslar bilan bog'liqligini - umumta'lim jarayonida har bir darsda yaqqol namoyon bo'lishini guvohi bo'lish mumkin.

Lepka darslarini rasm darslari bilan bog'liqligini kuzatish mumkin. Bu ko'p jihatdan dars strukturasini aniqlaydi yoki belgilab beradi. Misol uchun rasm darslaridek, bu yerda ham quyidagi ish turlarini ko'rsatish mumkin.

Savollar:

1.Qaysi loy ish uchun yaroqlidir?

2.Loy va plastilin bilan ishlash jarayoniga farklash xarakteristikasini bering.

3.Pape-mashe tayyorlashda qaysi mahsulotlardan foydalilanadi?

Adabiyotlar:

1.Aytmetova S.Sh. «Aqli zaifo'quvchilarni mehnatga tayyorlash». T.: "O'qituvchi", 1994.

2.Yusupova N. "Qo'l mehnatini o'qitish maxsus metodikasi va predmetli-amaliy ta'lim". T.: «Nizomiy nomidagi TDPU», 2012.

Qo'shimcha adabiyotlar:

I.J. A Rubin Bolalar art terapiyasi 2005. 272-278 betlar, 284-288 betlar

2.5. To'qimachilik materiallari bilan ishlash metodikasi

Tabiiy tolalar

Tekstil sanoatida asosiy xomashyo tabiiy tolalardan iborat bo'lib, u tabiatdan olinadi. Tolalarni kelib chiqishi o'simliklardan va hayvonlardan.

O'simliklardan olinadigan tabiiy tolalar:

Paxta tolasi, o'simliklardan eng ko'pi bu paxtadan tabiiy tolalardan olinadi. Paxta – asosiy tekstil sanoatida ishlataladigan tola hisoblanadi. Bu toladan qilingan matolar yaxshi bo'yaladi va turli bezaklar solish oson bo'ladi. Paxta tolalari odatda oq va kul ranglarda bo'ladi.

Tekstil sanoatida yana ba'zi bir boshqa o'simlik barglaridan tolalar ishlab chiqariladi (zig'ir, kanop, krapiva, kanatnik va boshqalar). Bulardan lubaynoy tolalar olinadi.

Zig'ir ular ichida eng ingichka, yumshoq va egiluvchan tola hisoblanadi. Bu tolalardan iplar tayyorlanib, so'ngra go'zal va chidamli matolar ishlab chiqariladi. Boshqa o'simliklardagi bo'lgan tolalar qattiq va qo'pol bo'ladi. Bu tolalardan arqon, kanat, qoplar tayyorlanadi.

Hayvonlardan olinadigan tabiiy tolalar.

Ipak tolalar tut ipak qurtidan olinadi. Bular oq, sariq, qizg'ish-sariq ranglarda bo'lishi mumkin. Tolalar maxsus ishlovdan so'ng yumshoq, yaltiroq va egiluvchan bo'ladi. Tabiiy ipak juda chidamli bo'ladi. U juda yaxshi bo'yalib, yaxshi o'raladi. Tabiiy ipakdan chidamli, chiroyli va tantanalarga mos matolar tayyorlanadi.

Jun tolalari ba'zi hayvonlardan olinadi (qo'y, tuya, echki, quyonlar).

Kimyoviy tolalar Fan va texnikaning rivojlana borishi bilan imkoniyat paydo bo'ldi va turli qulayliklarga ega bo'lgan kimyoviy tolalar olishga erishildi. Kimyoviy tolalar ikki turga bo'linadi: sun'iy va sintetik.

Sun'iy tolalar tabiatdagi polimerlardan ya'ni paxta, yog'och va boshqa sellyuloza, o'simliklardan oqsillarga turli kimyoviy birikmalar qo'shish bilan olinadi, masalan: azot, sırka, sulfat kislotalar, ammiak aralashmasi, mis oksidi va ishqorli natriy. Nitrohelok, misli ammiak va viskozalar shunday tolalar turkumiga kiradi.

Nitroshyolklar ishlab chiqarishda, asosan mato o'zagi vazifasini bajaradi. Ammiakli misdan esa hech qanday qo'shimchalarsiz tolalar olinadi.

Sintetik tolalar turli narsalarni kimyoviy ishlovdan o'tkazish natijasida olinadi: qishloq xo'jalik chiqindilari, neft, ko'mir, tabiiy gaz va boshqalardir. Bundan tashqari, qog'oz-sellyuloza sanoati chiqindilaridan ham foydalaniladi. Sintetik tolalardan bizga toshxlorvinil, neylon, kapron, lavsan nitron tanishdir.

Aralash tolalar Hozirgi paytda aralash tolalardan foydalanish boy assortimentga ega bo'lgan tolalar va matolar yaratishda imkoniyat darajasi yo'lini olib beradi. Tabiiy tolalar bilan (paxta va jun, paxta va tabiiy ipak, paxta va zig'ir) yoki tabiiy, sun'iy va sintetik qo'shilmalarida (paxta va viskoza, zig'ir va kapron, jun va neylon). Yarim jun va yarim ipak matolarni olishda, to'qish jarayoni davomida asos etib bir tola va bir ip olinadi.

To'quv sanoatlarida tolalar ishlab chiqishda turli to'qish jarayonlaridan foydalaniladi. To'qish jarayoni 4 guruhga bo'linadi.

1. Oddiy va silliq.
2. Mayda naqshli.
3. Murakkab naqshli.
4. Yirik naqshli.

Oddiy va silliq guruhga to'qishning eng keng tarqalgan to'rtta turi kiradi: atlasli, satinli, sarjali, matoli to'qish eng oddisi hisoblanadi. Bunday to'qilgan mato silliq o'ralsan bo'ladi. Matoning o'zi juda chidamli bo'ladi: chit, bo'z, batist, polotno, porusina, ba'zi jun va ipakli matolar, shtapel matolari bunga misol bo'la oladi. To'-quvning qay darajasida ekanligi, dokada ayniqsa, aniq ko'rindi.

Sarjelik matolar to'quvi boshqa matolar to'quvidan tashqi ko'rinishi bilan ajralib turadi. Ulardan chapdan o'ngga to'qilgan qiyshiq yo'llari yaqqol ko'riniib turadi. Boston diagonal, kaverkot, matolari shunday to'quvga egadir.

Satin va atlas matolari tashqi ko‘rinishi bilan oldingi ikkita matolar to‘qilishidan keskin farq qiladi, chunki ularning oldi tomoni silliq va yaltiroq tusga ega bo‘ladi. Bunday to‘quv yo‘li orqali paxtali (satin), ipakli (atlas, astarli) matolar ishlab chiqariladi.

Mayda naqshli to‘quv: Mayda to‘quvda matoning ustki qismida doimo to‘g‘ri va mayda naqshlar bir xilda takrorlanib turadi. Naqshlari aniq ajralib turmaydi. Matoda zigzag‘lar, yo‘llar va to‘lqinli chiziqlar ko‘rinib turadi.

Yirik naqshli to‘quv turli oddiy iplar to‘quvi asosida olib boriladi.

Murakkab to‘quv.

To‘quv sanoatida tukli va ko‘p qatli matolalar ishlab chiqariladi. Bularni iplarni to‘qish ancha murakkab bo‘lgan yo‘llar bilan olish mumkin. Matoni bunday yo‘l bilan to‘qish kashtachilikni eslatadi.

To‘quv stanoklarida iste’molga tayyor bo‘limgan dag‘al matolalar ishlab chiqariladi. Bu matolalar keyingi ishlovdan o‘tishlari kerak: ularni oqartirilib dazmol qiladilar, matolalar turli qayta ishlovlardan so‘ng silliq va yaltiroq holga keladi.

Turli matolarga ishlov berish ma’lum xususiyatga egadir shunday yo‘llardan biri, ishlovning bir turi hisoblangan «appretirovka»da matoga maxsus tarkibli suyuqlik yupqa qilib suriladi. Bu esa matoni yanada go‘zallashtiriladi yumshatadi yoki dag‘al lashtiradi, tarangligini va sifatini yaxshilaydi Matoga turli appretorlar bilan ishlov berish natijasida mato kam kirishuvchan va shunga o‘xhash kerakli sifatlarga ega bo‘ladi. Matolarning yanada ko‘rkamligini oshirish maqsadida «appret» ga boshqa tarkiblar qo‘shiladi.

Matolar kraxmal va dekstrin tarkiblari bilan shimdirliladi. Bu esa ularni yanada chidamli, qattiq va silliq bo‘lishini ta‘minlaydi. Suvga va olovga chidamli maxsus matolalar esa maxsus tarkibiy suyuqliklar bilan shimdirliladi. So‘ngra matolar bo‘yaladi, quritiladi, dazmol qilinadi va tortiladi. Matolarni bo‘yash va unga rasm tushirishning turli texnologiyalari mavjud.

Gazmollar o‘z tavsiyasiga binoan maishiy, maxsus va texnik turlarga bo‘linadi. Gazmollarni texnik turlarining ko‘pchiliginini maishiy matolar tashkil qiladi. Texnik va maxsus matolardan esa yordamchi yoki mustaqil gazmol sifatida foydalanish mumkin. Tex-

nik va maxsus gazmollarga quyidagilar kiradi: elektroizolyatsiyasi uchun qoplagich matolar, konveyer uchun lentalar, parashyut uchun matolar, ximiya kiyimlari, brezent, kleyonka, qoplar uchun.

O'simlik yoki hayvonlardan olinadigan tolalardan tayyorlangan matolar tashqi ko'rinishidan farqlanadi va ulardan turli Tabiiy gazmollar tayyorlanadi: paxta tolalaridan satin, bo'z, bumaziy, paxmoq, chiyduxoba, vual.

Zig'ir tolasi: safetka va sochiqlar tukli va choyshab uchun.

Jundan: boston, gabardin, drap, kashimir.

Ipakdan: krepdeshin, krep satin, atlas, duxoba.

Kimyoviy tolalardan tayyorlanadigan turli sun'iy gazmollar: shoyi, kapron, neylon.

II. Tekstil matolari ishtirokida o'tkazilib boriladigan mashg'ulotlar aqli zaif bolalarda korreksion - ongi rivojlanish faoliyatida, bichish-tikish ishlarini o'rganishda, qator bilimlarga ega bo'lishda ko'p yordam beradi. Bunday mehnat turi o'zining qator ijobiy tomonlariga ega. Darslarda o'quvchilar matolar, iplar bilan tanishadilar. Amaliy mashg'ulot davrida esa o'quvchilarda yangi bilimlar, qolaversa, matolar bilan olib boriladigan turli ishlar bilan tanishadilar. Ularning ishlov berish jarayonlari bilan ham taniшadilar.

Masalan, ba'zi jarayonlar - o'lchash, matolar bilan ishlaganda, qaychi bilan kesish, bu qog'oz bilan ishlaganda ham uchraydi. Bichish-tikish barcha tana a'zolarini faol, har taraflama ishlashga undaydi. O'quvchilarga matolar bilan ishlash jarayonini o'rgatish, o'z ishida ketma-ketlik, reja bilan ishlashga o'rgatadi. Ishlash jarayonidan oldin namunalardan, so'ngra esa matolardan foydalanimishga o'rgatib boriladi.

Bolalarga ko'p kiyimlaridan namunalar berilsa, unda iplar to'qilishi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu narsa tikish jarayonida doimiy uchraydi.

Mashg'ulotlarning dastlabki jarayonlaridan oq bolalardan mayda, diqqat talab etuvchi ishlarni so'ramaslik kerak, chunki bunday ishlar bolalarning ko'rish qobiliyatini charchashiga olib keladi. Dars jarayonining o'rtalarida ish olib borilayotgan matolar to'g'risida o'quvchilar bilan qisqa suhbatlar o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ba'zi bolalarda ignadan ipni o'tkazish, tugun

qilish jarayonlari muammoli holda kechadi. Bunday hollar ko'proq korreksion harakati yoki ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalarda uchraydi.

Boshlangich sinf o'quvchilar mehnat darslarida quyidagi gaplar bilan tanishadilar: «igna oldinga», «atrofini tikish», (qayirib)-1-sinfda; «igna orqaga», novdasimon, tamburga, ilgakli - II - sinfda; «chiziqchada», nay ostida, ilgakli - III - sinfda, mehnat darsidagi barcha ishlar yuqoridagilarga suyangan holda olib boriladi. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilar yangi gaplar bilan tanishadilar. Bu esa mehnat darsliklarida o'rgatilgan tikishlar qatorida yangilarini o'rganishga zamin tayyorlaydi. Bu esa matolar tikilgan mahsulotlarni bezatishda qo'l keladi.

Har bir tikilgan chok qo'lda tortiladi. Choklarni qo'lda tekshirish degani, bu ish faoliyati davomida matoga ignalar ip bilan kirgizib ma'lum oraliqdan so'ng undan chiqariladi. Matoda turli oraliqda bo'lgan izlar qoladi. Bunda qanday oraliqda ignalar sanchilganini ko'rish mumkin. Matoda qolgan iplar izlari «chok » deb ataladi.

Chok uzunligi 1,5 mm dan 3 sm gacha bo'lib, bir tomonga qarab yoki bir tomonga qiyshaygan holda bo'lishi mumkin. Bir-birining ketidan borib, bir xilda bo'lgan tikish chok deb ataladi. Choklar o'z vazifasiga qarab, birlashtiruvchi, mustahkamlovchi, qattiqlovchi bo'ladi.

III. Boshlang'ich sinflarda mehnat darsini o'rgatish dasturi o'qituvchi oldiga quyidagi aniq masalalarni qo'yadi:

A) Bolalar bilimini oshirishda doimiy va individual ravishda ishlab chiqarish faoliyati, texnika shu bilan birga matolar va ularga xos bo'lgan tomonlarni yanada kengroq tushuntirib borish kerak bo'ladi.

B) Matolar ishlovida, turli matolarga ishlov berishda oddiy qo'l mehnati davomida foydalaniladigan asboblardan foydalanish o'rnatiladi.

D) Umumiyl mehnat bo'limlarini shakllantirish, mehnat maddaniyati, mehnatga faol munosabatda bo'lish, mehnat jarayoni yoki davomida mustaqil bo'lish, ish jarayonida o'z mehnatini nazorat qila bilish kabi fazilatlarga o'rgatish.

E) Mehnat jarayoni davomida bolalarni har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirish: estetik, jismoniy va aqliy.

Ushbu mehnat darslarining umumiy masalalaridan kelib chiqqan holda «mato bilan ishlash» o‘z mazmuniga, o‘z maqsadiga va aniq masalalarga ega.

Amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar asboblar bilan ishlash va ularga ko‘nikmalar hosil qiladilar: qaychilar, igna, shablon, o‘lchov asboblari.

Tekstil matolarga ishlov berishdagi amaliy mashg‘ulotlar esa ko‘zda chamalashni o‘rgatadi. Bu esa umumiy mehnat faoliyatiga tayyorlashda muhim ahamiyatga egadir.

Barchaga ma’lumki, tekstil matolarga ishlov berish boshqa matolarga ko‘ra ancha murakkabdir. Mato bilan ishlab bo‘lgach, qog‘oz bilan ishlash ancha oson keladi.

Tikish, to‘qish, kashtachilik jarayonlari o‘z natijalari yaqqol ko‘zga tashlanganligi bilan bolalarni o‘ziga jalb etadi.

Ba’zi bilim va uquvlar bolalarda o‘z kiyimlariga ehtiyyotkorlik, ozodalik bilan qarashga o‘rgatadi. Gazlama bilan ishlash jarayoni bolalarda mehnat madaniyati, rejalashtirish va tashkil etish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bolalar sabr toqatli bo‘ladilar. Ular bir so‘zli, tirishqoq, boshlagan ishlarini oxiriga yetkazishga harakat qilishga o‘rganadilar.

Tikish, kashtachilik darslarida bolalarning estetik dunyoqarashi takomillashib boradi. Tikish jarayoni predmetlar o‘rtasidagi aloqa vositasi rolini bajarishda muhim o‘rin tutadi. Bolalarning so‘z boyligi oshadi. Geometrik shakllar haqidagi tushunchalari oshadi, sifati, rangini, tanlash qobiliyatları kuchayadi.

Matolar bilan ishlash darslari tikish, kashtachilik, to‘qish ishlarida oddiy texnik va ommaviy tayyorgarlik jarayonlarini o‘rgatadi. Biroq, shuni doimo nazarda tutish zarurki, bolalarni mehnatning bu turiga o‘rgatilganda darsdan tashqari amaliy mashg‘ulotlar bilan ham ko‘proq mustahkamlash kerak bo‘ladi.

Savollar:

1. Tabiiy ip turlari bo‘icha ma’lumot bering.
2. Sun’iy ip turlari bo‘icha ma’lumot bering.

3. Tabiiy mato turlari bo'yicha ma'lumot bering.
4. Sun'iy mato turlari bo'yicha ma'lumot bering.

Adabiyotlar:

1. Aytmetova S.Sh. «Aqli zaif o'quvchilarni mehnatga tay-yorlash». T.: "O'qituvchi", 1994.
2. Yusupova N., "Qo'l mehnatini o'qitish maxsus metodikasi va predmetli -amaliy ta'lim" T.: «Nizomiy nomidagi TDPU», 2012.

GLOSSARY

Akvarel	Акварель	Aquarium	Suvda oson qoriladigan badiiy bo‘yoqlar; shunday bo‘yoqlardan foydalanishga asoslangan rassomlik texnikasi; shunday bo‘yoqlar bilan solingan rasm.
Applikatsiya	Аппликация	Applacation	<p>1. Rang-barang qog‘oz yoki mato parchalarini biror narsaga yopishtirib yoki tikib naqsh, gul hosil qilish yo‘li bilan turli predmetlarni badiiy bezash uchun qo‘llanadigan amaliy san’at turlaridan biri.</p> <p>2. Shu usulda hosil qilingan naqsh, gul.</p>
Doira	Круг	Circle	Aylana chiziq bilan chegaralangan va ushbu chiziqning har bir nuqtasidan bitta masofada turgan markazga ega bo‘lgan yassi geometrik shakl. Doirada to‘g‘risidagi tasavvur bolalar sezgi –harakat va ko‘rish orqali bu shaklning nomini va o‘ziga xos xususiyatlarini bilib oladilar.
Kar bolalar	Глухие дети	Deaf children	Tug‘ma yoki ilk yosh davrida eshitish qobiliyatining chuqur va turg‘un yo‘qolishi

			oqibatida maxsus pedagog yordamisiz nutqni egallay ololmaydigan bolalar
Kompen-satsiya	Компен-сация	Compe-sation	<p>1. Biror psixik funksiya qisman yoki to‘la ishdan chiqqanda, uning vazifasini boshqa kuchli rivojlangan sof funksiyalarning bajarishi (masalan karlarda ko‘rish analizatori, ko‘rlarda eshitish va muskul harakat sezgilari yaxshi rivojlangan bo‘ladi);</p> <p>2. Ta’lim-tarbiya jaryonida sog‘lom sezgi a’zolariga tayanish yoki qisman buzilgan funksiyalarni qayta qurish orqali me’yordan chiqqan analizator o‘rnini to‘ldirish (qoplash);</p>
Konus	Конус	Conus	<p>To‘g‘ri burchakli uchburchakning o‘z katetlaridan birining atrofida aylanishidan hosil bo‘lgan geometrik jism.</p> <p>Maktabgacha ta’lim muassasasining katta guruhidan boshlab, matematik mashg‘ulotlarida faqat to‘g‘ri aylanma konus ko‘rib chiqiladi.</p> <p>Konus bilan tanishish bolalalrning geometrik shakllar to‘g‘risidagi tasavvurlarini</p>

			kengaytiradi, yassi geometrik shakllar to‘g‘risidagi bilimlarni mustahlamash va ulardan yangi vaziyatlarda foydalana olish imkonini beradi.
Korreksiya	Коррекция	Correction	Aqliy yoki jismoniy, nutqiy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalarning ruhiy yoki jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarni pedagogik usul va chora tadbirlar yordamida qisman yoki butunlay bartaraf etish. Korreksiyalashning aniq maqsadi, vazifalari va usullari bolaning individual xususiyatlari va taraqqiyotidagi kamchiliklarga qarab belgilanadi. Korreksiyalash masalalari maxsus pedagogikaning turli sohalari – surdopedagogika, tiflopedagogika, logopediyada o‘rganiladi.
Ko‘zi ojiz bolalar	Слабовидящие дети	Child with low vision	Ko‘rish qobiliyatining buzulishi yoki yo‘qolishi yuzaga kelgan bolalar. Jismoniy rivojlanishdagi ushbu muammolar tug‘ma yoki hayot davomida yuzaga kelishi mumkin.
Ko‘rgazma	Выставка	Exhibition	Moddiy va ma’naviy sohadagi faoliyat

			yutuqlarini namoyish etish vositasi.
Manzarali (dekorativ) loy ishi	Декоративное глиняное изделие	Decorative clay product	Qushlar, hayvonlar, odamlar qiyofasining xalq o‘yinchoqlari ko‘rinishida tasvirlashga qaratilgan yasash turi. Maktabgacha ta’lim muassaasasining katta guruhidha qo‘llaniladi. Asosiy vazifasi chaplash va relyefini chuqurlashtirish yo‘li bilan buyumlarga manzarali bezak berish malakalari va ko‘nikmalarini tarbiyalashdan iborat.
Metod	Метод	ethod	Yunoncha metodos –yo‘l axloq, usul degan ma’noni anglatadi.
Metodika	Методика	Methodlogy	<ol style="list-style-type: none"> Biron isjni maqsadga muvofiq olib boorish usullari , vositalari, metodlari majmui; Olamni ilmiy bilish taktikasi. <p>Pedagogikada bolaning ta’lim olishi, tarbiyasi va rivojlanishi masalalariga oid turli yondoshuvlarni ifodalaydigan soha.</p>
Mehnat faoliyati	Трудовая деятельность	Labor activity	Mehnat qurollarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan, tabiat ne’matlarini o‘z ehtiyojlarini qondirish

			uchun o'zgartirish va moslashtirishga qaratilgan insonning maqsadli faoliyati. Mehnat turlari: aqliy mehnat, jismoniy mehnat. Bolalar mehnat faoliyatini bir nechta turi mavjud: mehnat va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish; xo'jalik maishiy mehnat, qo'l mehnati, tabiat qo'ynida mehnat.
Predmetli yasash	Предметное изгото-ление	Subject to make	Bolada predmetlarga xos shakl, proporsiya va dinamikani aks ettirib loydan yasash malakasini tarbiyalashga qaratilgan yasash turi.
Predmetli faoliyat	Предметная деятель-ность	Subject activity	Ilk yoshdagи bola faoliyatining yetakchi turi, bu faoliyat jarayonida predmetlar bajargan funksiyalarni anglab yetish va ulardan shunga ko'ra foydalana olish malakali hosil bo'ladi.
Rasm texnikasi	Техника рисо-вания	Technology of the drawing	Ko'zda namoyon bo'lgan obrazning qog'oz varag'ida o'z aksini topishga yordam beradigan vostalar va usullar tizimi.
Tasavvur (hayolot)	Предс-тавление	Presentation	Hayotiy tajribadan olin-gan taassurotlar, ma'lumotlar va tasavvurlarni ongda qayta ishlash yo'li bilan yangi obrazlar yaratishdan iborat psixik

			jarayon. Tasavvur faqat insonga xos xislat. Tasavvurning ikki turi farqlanadi: Ixtiyoriy tasavvur (faol tasavvur) va beixtiyor (sust) tassavvur. Beixtiyor tasavvuring ortiq darajadagi ko‘rinishi bu tushdir. Shuningdek tiklovchi (xotiraga keltiruvchi) va ijodiy tasavvur turlari ham farqlanadi.
Tasvir	Изображение	Drawing	Biron nima yoki biron kimsani tasvirlovchi predmet, rasm; biron narsaning ko‘z oldiga keltirilgan qiyofasi.
Tasviriy faoliyat	Изобразительная деятельность	Drawing Activity	Maktabgacha umumta’lim muassasasida modellashtiruvchi xarakter kasb etgan va badiiy –obrazli timsollarda o‘z ifodasini topadigan faoliyat. Mashg‘ulotlarning asosiy vazifasi: Bolalarda tasvirga borliqning aksisifatidagi munosabatini o‘zgartirish; tasvir bilan borliq o‘rtasidagi to‘g‘ri nisbatni topa bilish malakasini rivojlantirish, ya’ni nima tasvirlangan bo‘lsa, shuni ko‘ra bilish; tasvir sharhini takomillashtirish ya’ni

			mazmunini tushunish va sharhlab berish malakasini shakllantirish.
Tahlil (Analiz)	Анализ	Analiz	<p>1. Asosiy fikrlash operatsiyalaridan biri bo'lib, uning mohiyati murakkab obyektni u tarkib topgan qismlarga ajratishdan iborat.</p> <p>2. Butunni tarkibiy qism-larga bo'lib o'rganishni ko'zda tutadigan tadqiqot metodi. Pedagogikada tahlil har bir element yoki hodisa jihatlarini butuning qismi sifatida o'rganishni, o'rganilayotgan predmet yoki hodisani tarkibiy qismlarga ajratishni va ularning alohida tomonlarini ajratib ko'rsatishni bildiradi.</p>
Uchburchak	Треугольник	Triagle	Uchta kesik chiziq bilan chegaralangan yassi geometrik shakl. Bolalar bu shaklning nomi va o'ziga xos jihatlarni uchburchak shakllarini ko'zlar bilan ko'rib, qo'llari bilan ushlab o'zlashtiradilar.
Faoliyat	Деятельность	Activity	<p>1. Inson va atrof muhit o'rtaсидаги о'заро munosabatlарининг о'з – о'зидан rivojlanадиган tizimi, insonning atrof muhitga nisbatan o'ziga</p>

			<p>xos munosabati, uning asosini insonlar manfaatlari yo'lida maqsadga o'zgartirish va yaratish tamoyillari tashkil etadi.</p> <p>2.Psixologiyaning yetakchi tushunchalaridan biri bo'lib, atrofni o'rab turgan voqelik bilan o'zaro munosabatning faolligini ta'kidlaydi. Bunday munosabat jarayonida sub'ektning psixik faoliyatida hamda ushbu faoliyat yo'naltirilgan obyektda o'zgarishlar sodir bo'ladi.</p>
--	--	--	--

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BO'LIM. TASVIRIY SAN'ATGA O'QITISH MAXSUS METODIKASI	
I BOB. TASVIRIY SAN'AT MAXSUS MUASSASALARDA FAN SIFATIDA	
1.1. Tasviriy san'atga o'qitish maxsus metodikasi fanining tarkibi va umumiy masalalari	5
1.2. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar uchun tasviriy san'atning ahamiyati.....	17
1.3. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar uchun tasviriy san'at bo'yicha dastur talablarining xarakteristikasi (tavsifi).....	29
II BOB. TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI	
2.1. Adaptatsiya san'ati mutaxassis: talabaning san'at yo'lidagi ajralmas qismi.....	46
2.2. Grafika. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar grafik faoliyatining o'ziga xosligi.....	63
2.3. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan tasviriy faoliyat jarayonida didaktik materiallardan foydalanishning o'ziga xosligi	79
2.4. Tasviriy san'at darslarining korreksion-tarbiyaviy yo'nalganligi	91
2.5. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy san'at darslarida og'zaki nutqqa o'rgatishda korreksion ish.....	105
2.6. Tasviriy san'at darslarida tematik rasm chizish metodikasi va uning xususiyatlari.....	131
II BO'LIM. QO'L MEHNATINI O'QITISH MAXSUS METODIKASI	
I BOB. MAXSUS MAKTABDA MEHNAT TA'LIMI FAN SIFATIDA	
1.1. Qo'l mehnatini o'qitish maxsus metodikasi va pred- metli amaliy ta'lim kursida maqsadi va vazifalari.....	153

1.2. Alohida yordamga muhtoj bolalar rivojlanishida predmetli amaliy ta'limning ahamiyati.....	164
1.3. Alohida yordamga muhtoj bolalarni mehnatga o'qitish maxsus metodikasi bo'yicha dastur talablarining tasnifi.....	170
1.4. Alohida yordamga muhtoj bolalar predmetli amaliy ta'lim darslar tizimi va shakli.....	180
1.5. Predmetli amaliy ta'lim darslarda kar o'quvchilarni so'zlashuv nutqini rivojlantirish.....	194
II BOB. YORDAMCHI MAKTABLARDA MEHNAT TA'LIMI	
2.1.Yordamchi maktablarda qo'l mehnati darslarini tashkil qilish va ularni o'tkazish metodikasi.....	202
2.2.Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni mehnatga o'rgatish tamoyillari va metodlari.....	211
2.3. Qog'oz va karton bilan ishslash metodikasi.....	219
2.4.Tabiyy materiallar, loy, plastilin va papye-mashe bilan ishslash metodikasi.....	229
2.5. To'qimachilik materiallari bilan ishslash metodikasi.....	235
Glossariy.....	242

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.....	4
I ЧАСТЬ. СПЕЦИАЛЬНАЯ МЕТОДИКА ОБЕЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ	
I ГЛАВА. ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО КАК ПРЕДМЕТ В СПЕЦИАЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ	
1.1. Общие задачи и структура предмета “Обучение изобразительному искусству”.....	5
1.2. Изобразительное искусство и его значение для детей с особыми нуждами.....	17
1.3. Характеристика программных требований по изобразительному искусству для детей с особыми нуждами...	29
II ГЛАВА. МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	
2.1. Организация и методика проведения урока изобразительного искусства для детей с особыми нуждами.....	46
2.2. Графика. Особенности графической деятельности у детей с особыми нуждами.....	63
2.3. Принципы и методы обучения учащихся с особыми нуждами.....	79
2.4. Коррекционно-воспитательная направленность уроков изобразительного искусства.....	91
2.5. Методика рисования с натуры, декоративное изображение и его особенности.....	105
2.6. Методика рисования тематического изображения на уроках рисования и его особенности.....	131
II ЧАСТЬ. СПЕЦИАЛЬНАЯ МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ РУЧНОМУ ТРУДУ	
I ГЛАВА. ТРУДОВОЕ ОБУЧЕНИЕ В СПЕЦИАЛЬНОЙ ШКОЛЕ КАК ПРЕДМЕТ	
1.1. Цели и задачи курса специальной методики обучения ручному труду и предметно практического обучения.....	153
1.2. Значение предметно практического обучения для развития детей с нарушениями слуха.....	164

1.3. Характеристика программных требований по ручному труду и предметно практического обучения для детей с нарушениями интеллекта и слуха.....	170
1.4. Уроки предметно практического обучения.....	180
1.5. Развитие разговорной речи глухих учащихся на уроках предметно практического обучения.....	194

II ГЛАВА. ТРУДОВОЕ ОБУЧЕНИЕ ВО ВСПОМОГАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ

2.1. Методика организации и проведения уроков ручного труда во вспомогательной школе.....	202
2.2. Принципы и методы трудового обучения учащихся с нарушением в развитии.....	211
2.3. Методика работы с бумагой и картоном.....	219
2.4. Методика работы с природным материалом, глиной, пластилином и папье-маше.....	229
2.5. Методика работы с текстильным материалом.....	235
Глоссарий.....	242

CONTENTS

INTRODUCTION	4
I PART. SPECIAL METHODS OF TEACHING ART	
I CHAPTER. THE ART AS A SUBJECT IN SPECIAL ESTABLISHMENTS	
1.1. Overall objectives and structure of the subject "teaching art"	5
1.2. Art and its value for children with special needs.....	17
1.3. Feature program requirements for fine arts for children with special needs.....	29
II CHAPTER. TECHNIQUE OF THE ORGANISATION OF GRAPHIC ACTIVITY	
2.1. The organization and methods of conducting an art lesson for children with special needs.....	46
2.2. Graphics. Features of graphic activity in children with special needs.....	63
2.3. Principles and methods of teaching students with special needs.....	79
2.4. Correctional and educational focus of the visual art lessons.....	91
2.5. The technique of drawing from life, decorative picture and features.....	105
2.6. The technique of drawing a thematic image on the painting and its features.....	131
II PART. SPECIAL METHODS TEACHING OF MANUAL WORS	
I CHAPTER. VOCATIONAL TRAINING AT A SPECIAL SCHOOL AS A SUBJECT	
1.1. The goals and objectives of the course, special teaching methods of manual labor and subject prkticheski training.....	153
1.2. The value of subject practical training for the development of children with hearing impairments.....	164
1.3. Feature program requirements for manual labor and substantive hands-on learning for children with intellectual disabilities and hearing.....	170
1.4. The lessons of the subject practical training.....	180

1.5. The development of speaking skills of deaf students on the lessons of the subject practical training.....	194
--	-----

II CHAPTER. EMPLOYMENT TRAINING IN A SPECIAL SCHOOL

2.1. Methods of organization and teaching of manual work in a special school.....	202
2.2. Principles and methods of labor training of pupils with infringement of development.....	211
2.3. The technique of working with paper and cardboard	219
2.4. The method of working with natural materials, clay, plasticine and papier – mashe.....	229
2.5. The technique of working with textile material.....	235
Glossary.....	242

Для учащихся 1-2 курсов профильного класса-2
ФИЛОСОФИЯ ПОЗНАНИЯ. А.Н.БАБАЕВА, И.И.СУСАНОВА
Для учащихся 2-3 курсов профильного класса-2
ПОЛИТИЧЕСКАЯ ФИЛОСОФИЯ. В.В.ПОДДЕРЖАНОВА
С.В.СИДОРЕНКО, А.В.СИДОРЕНКО

Для учащихся 3-4 курсов профильного класса-2
ПОЛИТИЧЕСКАЯ ФИЛОСОФИЯ. А.В.СИДОРЕНКО

TASVIRIY SAN'AT VA QO'L MEHNATIGA O'QITISH MAXSUS METODIKASI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2018

Muharrir:	F.Ismoilova
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	F.Tishabayev
Musahhih:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Raxmatullayeva

**E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lits. AL №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 14.11.2018.
Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 15,75. Nashriyot bosma tabog'i 16,0.
Tiraji 200. Buyurtma № 455.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.**

ISBN 978-9943-11-886-7



9 789943 118867

